# NOMODDIY MADANIY MEROS VA FOLKLOR IJRO SAN'ATI AN'ANALARI

O'quv qo'llanma


















ISBN 978-9943-384-52-1
9 789943 384521

-O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

B.Sayfullayev, S.Yo‘ldoshyeva,

J.Eshonqulov, A.Ashirov, O‘.Toshmatov

# NOMODDIY MADANIY MEROS VA FOLKLOR IJRO SAN’ATI AN’ANALARI

O‘quv qo‘llanma

Navro’z -2017

**UO'K:398.8(575.1)(075.8)**
**KBK: 83.10(3Uzb)**
**C42**

Xalqimizning ko'p ming yillik tarixi davomida yaratilgan folklor ijro san'atining rang-barang janrlari, urf-odat, marosim va bayramlar nomoddiy madaniy merosning noyob namunalari millatimizning ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Bugungi kunda mamlakatimizda nomoddiy madaniy meros namunalarini asrab-avvaylash, kelgusi avlodlarga yetkazish, uni ta'lim tizimiga joriy etish borasida ulkan ishlar olib borilayotir.

Ushbu o'quv qo'llanma A-1-018-raqamli «Nomoddiy madaniy meros va folklor ijorochilik san'ati» mavzuidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan bo'lib, madaniyat va san'at sohasidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, shuningdek ushbu yo'nalish mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrirlar:**

T. Mirzayev

filologiya fanlari doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi Fan arbobi

R. Qodirov

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti

**Loyiha rahbari:** professor S.Yo'ldoshyeva

**Taqrizchilar:**

filologiya fanlari doktori

Sh.Turdimov

dotsent J.Mamatqosimov

O'quv qo'llanma O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Ilmiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etildi (2016 yil "31"октябр)

ISBN 978-9943-384-52-1

© Navro'z nashriyoti

## MUNDARIJA

KIRISH....4

**I-BOB. O'ZLIKNI NAMOYON QILISHNING OG'ZAKI SHAKL VA AN'ANALARI**

ENG QADIMGI XALQ OG'ZAKI IJODI: MIF, AFSONA VA RIVOYATLAR....7
EPIK AN'ANA VA UNING O'RTA OSIYO XALQLARI MADANIYATIDA TUTGAN O'RNI....14
NOMODDIY MADANIY MEROS VA O'ZBEK XALQ DOSTONLARI....21
XALQ DOSTONLARI BADIIYATI MASALALARI....32
O'ZBEK XALQ IJRO SAN'ATINING NOMODDIY MADANIY MEROSDA TUTGAN O'RNI....44
XALQ QO'SHIQLARINING IJROCHILIK AN'ANALARI....52
O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING TURLARI VA BADIIY TALQINI....73
O'ZBEK XALQ HIKMATLI SO'ZLARI, MAQOL MATAL VA TOPISHMOQLARI....80
O'ZBEK XALQ BOLALAR FOLKLORI AN'ANALARI....84

**II-BOB. IJRO SAN'ATI**

IJRO SAN'ATINING SAHNA TALQINLARI....90
MUSIQA. KASBIY MUSIQA. MAQOMLAR....92
MUSIQIY TURKUMLAR. TANOVOR. SUVORA. LAZGI. NAQSH. MAVRIGI....98
XALQ MUSIQA FOLKLORI. YALLA. LAPAR. QARSAK. XALFACHILIK. O'LAN....103
O'ZBEK MUSIQA IJODIYOTIDA JO'RSIZ IJRO. KATTA ASHULA....109
XALQ TOMOSHA SAN'ATI....111
O'ZBEK XALQ TOMOSHA SAN'ATI AN'ANALARINING MA'NAVIY VA BADIIY-ESTETIK ASOSLARI....114
ASKIYA....117
MILLIY O'YINLAR....124
RAQS SAN'ATI. O'ZBEK RAQS MAKTABLARI....135

**III-BOB. O'ZBEK XALQINING AN'ANAVIY URF-ODAT, BAYRAM VA MAROSIMLARI**

XALQ URF-ODAT VA BAYRAMLARI TASNIFI....141
O'ZBEK XALQ AN'ANAVIY MAROSIMLARNI TARIXIY ASOSLARINI O'RGANISHDA "AVESTO"NING AHAMIYATI VA O'RNI....146

FOLKLOR ETNOGRAFIK JAMOLARINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARIDA IJRO SAN'ATINING O'RNI....153

O'ZBEK XALQI AN'ANAVIY OILAVIY MAROSIMLARI NOMODDIY MADANIYAT OBYEKTI TARZIDA....164

FOLKLOR IJRO SAN'ATIDA O'ZBEK XALQINING KIYINISH MADANIYATI BILAN BOG'LIQ UDUM VA MAROSIMLARI....171

YIL FASLLARI BILAN BOG'LIQ MAROSIMLAR....179
O'ZBEKLARNING JAMOAVIY MAROSIMLARI....188
FOLKLOR JAMOALARNINING HUDUDIY IJRO XUSUSIYATLARI....194

"MOHI SITORA" FOLKLOR – ETNOGRAFIK ANSAMBLI TARIXI VA IJROSINING AN'ANAVIYLIGI....202
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI....211

## KIRISH

Insoniyat taraqqiyotning yuqori pillapoyalaridan ilgarilab borgan sari, odob-axloq, insoniy munosabatlar va milliy madaniyat borasida ko'plab muammolarga ham duch kelmoqda. Qolaversa, global jamiyatda turli xurujlarning yer yuzidagi rang-barang etnik makon va milliy qadriyatlarga ko'rasatayotgan ta'siri tabora ortib bormoqda. Shunday bir vaziyatda har bir millatga xos ham milliy, ayni paytda ham umuminsoniy bo'lgan qadriyatlarni qaysi yo'llar bilan, qay tarziqa asrab qolmoq lozim degan savolning tug'ilishi tabiiy albatta.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning tarkibidagi fan, ta'lim va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi YUNESKO tashkiloti ana shu muammolarni qay yo'l bilan hal qilish mumkinligi ustida qator yillardan buyon bosh qotirib keladi va buning oqibatida qabul qilingan "Barqaror taraqqiyot dasturi"da muammolarni hal etishning yechimlari o'z aksini topgan. Ushbu dasturga ko'ra yer yuzida barqaror taraqqiyotni ta'minlashda ta'limning juda muhim o'rni bor. Zero, ta'lim tizimiga singdirilgan har qanday g'oya bizning kelajagimiz va bo'lajak zamon egasi bo'lmish yoshlarimizning barchasiga yetib boradi va ular ushbu g'oyani hayotga tatbiq etish imkoniyati juda keng. Ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida ta'limdan barqaror taraqqiyot yo'lida foydalanish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalarning aksariyati deyarli bir xil tizimga asoslanadi.

Ya'ni:

- ilm va fan vositasida malakali mutaxassislarni tayyorlash;
- ushbu kadrlarni boshqaruv tizimiga yo'llash va ular orqali ilmiy jihatdan asoslangan boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga erishish;
- boshqaruv qarorlari natijasida iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik, ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- oxir oqibat barqaror taraqqiyot muvozanatini yuzaga keltirish va uni saqlash.

Nomoddiy madaniy merosning barqaror taraqqiyotga ta'siri haqida so'z yuritilganda quyidagi fikrlarni bildirish mumkin.

"Nomoddiy madaniy meros" tushunchasi urf-odatlarni, o'ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko'nikmalarni, shuningdek ular bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi. Hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan yaratilib, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bu meros doimo atrof-muhitga, tabiatga va shu jamiyatning tarixiga bog'liq holda yaratiladi. Yana shuni aytib o'tish



lozimki, nomoddiy madaniy meros deganda hozirgi kunda hayotda mavjud va yashab turgan tirik meros tushuniladi. Boshqacha aytganda, muqaddam mavjud bo'lgan va hozirda amaliyotda qo'llanilmaydigan meros tushunilmaydi. Yana bir narsa muhimki, inson huquqlari sohasida amaldagi xalqaro huquqiy aktlar bilan muvofiqlashtirilgan, turli hamjamiyatlar, guruhlar va shaxslar o'rtasida o'zaro hurmatni yo'lga qo'yish talablariga mos keladigan, barqaror taraqqiyot talablariga mos tushuvchi nomoddiy madaniy merosgina tan olinadi.

2003 yilda qabul qilingan Konventsiyaga ko'ra nomoddiy madaniy meros quyidagi 5 ta sohada namoyon bo'lishi mumkin:

1. ***o'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari;***
2. ***ijrochilik san'ati;***
3. ***jamiyatning urf-odat, marosim va bayramlari;***
4. ***tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va bilim-ko'nikmalar;***
5. ***an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar.***

Yuqorida qayd etilganlardan shuni anglash mumkinki, hayotimizning asosiy qismi nomoddiy madaniy meros bilan bog'liq ekan. Ya'ni, turmush tarzimizda har qadamda nomoddiy madaniy meros bilan duch kelamiz va biz uni deyarli his etmaymiz. Lekin, har bitta narsaning qadri u yo'qotilganda chuqurroq anglanadi, deyilganidek o'z nomoddiy madaniy merosimizni yo'qotilmasdan oldin anglashimiz va uni muhofaza qilishimiz zarurligini hayot ko'rsatib turibdi. Rivojlangan davlatlarda hatto bizning tasavvurimizga sig'maydigan ayrim holatlar ularning tabbiy bir holatiga aylanib qolganligi buni isbotlaydi. Masalan, oilaning muqaddasligi masalasi ularda allaqachon unutilgan. Hozirda hatto bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnomada ota va onaning ismi-sharifini alohida ko'rsatmaslik masalasi ham muhokama etilmoqda. Buning sababi - bitta oilada ikkita erkak, yoki boshqa oilada ikkita ayol turmush qurishi mumkin va ularning qay biri ota va qay biri ona ekanligini ko'rsatish shart emas emish.

Har bitta xalqning nomoddiy madaniy merosi shu xalqning o'zligini ifodalaydi va u albatta hurmat qilinishi kerak. Nomoddiy madaniy merosning muhofaza qilinishi, saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi barqaror taraqqiyotga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki, biror xalqning nomoddiy madaniy merosida barqaror taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omil yo'q va bu meros to'laligicha barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi.

Biz yuqorida barqaror taraqqiyotga erishishda rasmiy va norasmiy ta'limning muhim o'rin tutishi va uning kuchidan samarali

foydalanishimiz zarurligi to‘g‘risida fikr yuritdik. Nomoddiy madaniy meros barqaror taraqqiyotga xizmat qilar ekan, uning ta'lim tizimiga tatbiq etish masalalari qanday, degan savol ham tug‘ilishi tabiiy. 2007 yilda Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Konventsiya ratifikatsiya qilinib, O‘zbekiston 2008 yildan uning a'zosi bo‘lgandan keyin 2010 yilda qabul qilingan “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofza qilish, saqlash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi”ning (O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2010 yil 7 oktabrdagi 222-sonli qarori bilan tasdiqlangan) 13 ta banddan iborat 3-bo‘limi to‘laligicha shu soha kadrlarini tayyorlash, ularning malakasini oshirish, nomoddiy madaniy meros bilan bog‘liq tushuncha va ko‘nikmalarni ta'lim tizimiga singdirish masalalariga bag‘ishlangan. Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining “Xalq ijodiyoti” ta'lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga “O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi” fani kiritilgan.

Oliy ta'lim tizimiga kiritilgan “O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi” fanida biz yuqorida qayd etgan holatlarning o‘rganilishi va hozirgi kunda O‘zbekistonda mavjud nomoddiy madaniy merosning tarkibi, uning saqlanish holati, muhofaza borasida mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar va kelajakda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar o‘z aksini topgan.. Shu maqsadda mazkur o‘quv qo‘llanmada Nomoddiy-madaniy meros fanining faqat ayrim sohalarini, ya'ni o‘zlikni namoyon etishning og‘zaki shakl-ana'alari, ijro san'ati va urf-odat, marosim va bayramlar bilan bog‘liq qismlari borasida so‘z yuritildi.



# I-BOB
# O‘ZLIKNI NAMOYON QILISHNING OG‘ZAKI SHAKL VA AN'ANALARI
## ENG QADIMGI XALQ OG‘ZAKI IJODI: MIF, AFSONA VA RIVOYATLAR

**Reja:**

1. ***Xalq og‘zaki ijodining qamdimgi namunalari.***
2. ***Mif, mifologiya va mifologik obrazlar.***
3. ***Afsona va unga xos bo‘lgan xususiyatlar.***
4. ***Nomodddiy madaniy meros va rivoyatlar.***

Xalq og‘azki ijodining eng qadimgi namunlari bizga mif, afsona va rivoyatlar orqali etib kelgan bo‘lib, ular xalqimizning eng qadimiy tushunchalarini o‘zida ifoda etadi.

Mif (yunoncha mithos – afsona, rivoyat, asotir) – qadimiy odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo‘lib, koinotning yaratilishi, inson, o‘simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to‘g‘risidagi e'tiqodiy qarashlarni o‘z ichiga olgan.

Bunday qarashlar mif, afsona va rivoyatlar shaklida uzoq vaqtlar kishilar o‘rtasida yashab keldi. Shuning uchun ham qadimgi inson dunyoqarashi, badiiy tafakkuri bevosita mif bilan bog‘liqdir. Shuni aytish kerakki, har qanday mif asosida ham konkret narsalar yotadi, biroq bu narsalarning bajaradigan funktsiyasi reallik kasb etmaydi. Masalan, uchar ot. Bu mifologik obrazda ikki real predmet mavjud. Bular ot va qanot. Har ikki narsa ham qadimgi inson uchun konkret narsa. Biroq bu ikki real narsaning birikib, biror funktsiya bajarishi mifni yuzaga keltiradi. Qadimgi insonning koinot, tabiat hodisalari haqidagi tushunchalari, ularning ongidagi fantaziyalar mifni tashkil etadi.

Mif qadimiy odamning voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo‘lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimiy tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasada, Mif yaratilgan va ommalashgan joyida o‘z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo‘lib o‘tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan.

Qadimiy odamning olam haqidagi tasavvurlarini o‘zida ifodalagan va avloddan-avlodga etkazishga mo‘ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo‘lib, asosan, jonli og‘zaki ijro orqali, ya'ni so‘z vositasida hikoya qilib berilgan.

Mifologik tasavvurlar tizimi ibtidoiy udum va marosimlarning mag‘zini tashkil etuvchi ramziy xatti harakatlardan iborat ritual o‘yinlar sifatida xam namoyish qilingan. Qadimiy tasavvurlar asosida yaratilgan osori-atiqalar hamda xalq hunarmandchiligi buyumlaridagi ramziy chizgilarda ham mifik syujetlar aks ettirilgan.

Miflar quyidagi turlarga bo‘linadi: 1) ibtido haqidagi Miflar (olamning yaratilishi va erda hayotning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi Miflar); 2) samoviy Miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining Miflar); 3) antropogonik Miflar (g‘ayrioddiy paydo bo‘li shi haqidagi Miflar); 3) antropogonik Miflar (g‘ayrioddiy xislatga ega bo‘lgan afsonaviy pahlavonlar, masalan, Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Hubbi va boshqalar haqidagi miflar); 4) sig‘inish miflari (muayyan e'tiqodiy ishonchlar bilan bog‘liq, masalan, xosildorlik, suv, o‘simlik, olovga sig‘inish haqidagi Miflar); 5) etnogenetik miflar (urug‘ qabilalarning kelib chiqishi bilan aloqador Miflar; masalan, 92 o‘zbek urug‘larining paydo bo‘lishi haqidagi Mif); 6) taqvim Miflar (yil, oy, kun hisobi bilan bog‘liq Miflar, masaan, ayamajuz, ahman dahman, chilla, to‘qson hisobi bilan bog‘liq Miflar); 7) esxatologik Miflar (olamning intihosi haqidagi, masalan, oxirzamon to‘g‘risidagi Mif).

Miflar o‘z taraqqiyot bosqichlarida animizm, totemizm, manizm va ibtidoiy insonlarning turli kultlar haqidagi qarashlari, tasavvurlari bilan qorishib ketgan. Shuning ulun ham miflar tabiati o‘ta murakkab, ziddiyatlarga to‘la xususiyat kasb etadi. Ezgulik kuchlarining zulmatni o‘ziga makon qilgan yovuzlikka qarshi kurashini o‘zida aks ettirgan qadimiy Miflar badiiy tafakkurning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Voqelikni estetik kategoriya sifatida idrok etish hamda badiiy so‘z vositasida talqin qilish an'anasi kelib chiqqach, qadimgi miflarning asosiy qismi so‘z san'atining turli janrlariga singib ketgan. O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotidagi ko‘plab epik syujet va an'anaviy motivlarning genetik ildizlari bevosita mifik tasavvurlar qatlamiga borib taqaladi. Miflar «Alpomish»,«Manas»,«Qoblandi Botir», «Go‘ro‘g‘li», «Dada Qo‘rqut kitobi» kabi adabiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o‘rin tutgan.



Miflogiya – muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartib ga solingan tizimi, asotirlar majmui. (Masalan, Turkiy xalqlar mifologiyasi, hind mifologiyasi). Insoniyat ma'naviy taraqqiyoti ning ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblangan. Mifologiyaning asosini qadimgi odamning koinot, tabiat, inson, samo jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo‘lishi haqidagi asotirlar tashkil etadi.

Mifologiyaning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to‘g‘risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo‘lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar, qadimiy e'tiqodiy qarashlarni o‘zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan.

Dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan hududlarda esa tabiiy iqlimiy o‘zgarishlarning ramziy metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miflar va ulib tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (Qadimiy Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O‘rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O‘zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy ishonchlardangina iborat bo‘lgan mifologiya insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o‘z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan.

Ijtimoiy ongning animizm, totemizm, fetishizm kabi qadimiy shakllari Mifologiya bilan chambarchas bog‘liq. Ibtidoiy dunyo qarash tizimi sifatida shakllangan Mifologiya qadimiy diniy e'tiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlari, olam va odam hayotiga doir eng sodda ilmiy talqinlar, voqelikni ongsiz hissiy anglash asosiga qurilgan ramziy metaforik obrazlar, shuningdek, so‘z san'ati, marosimlar tizimi va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o‘z ichiga qamrab olgan. U qadimda odamning borliq olamni idrok etishga doir tasavvur va qarashlarini o‘zida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning etakchi g‘oyasi bo‘lib xizmat qilgan. Mifologiya ibtidoiy insonning ilmiy, diniy, falsafiy va badiiy qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois Mifologiya folklor, yozma adabiyot, san'at va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishi uchun ilk zamin vazifasini o‘tagan.

Miflar majmui kishilarning, hayotning paydo bo'lishi, dunyoning yaratilishi, turli narsa, buyum va odamlarning yuzaga kelishi, diniy marosim, tabiat hodisalari haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Mifologiya yashash shakli va mazmuni jihatidan turli xalqlarda turlicha xarakter kasb etadi. Ko'pchilik xalqlarda miflar ertak janri bilan birikib ketgan bo'isa, ayrim xalqlarda sof afsona, rivoyat yoki hikoya tarzida saqlanib qolgan. Mifologiyaning ijtimoiy ong shakllari bilan bog'liq tomonlari juda ham murakkab xarakterga ega. Masalan, ba'zi tadqiqotchilar mifologiya va dinni aynan bir narsa sifatida izohlasalar, ba'zilari mifologiya o'z taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida diniy xarakter kasb etgan deb hisoblaydilar. Xullas, mifologiya va uning ibtidoiy inson hayotida o'ynagan roli, taraqqiyot bosqichlari, din va qadimgi inson falsafasi bilan bog'liq masalalar jiddiy tadqiqot talab etadi.

Dunyo xalqlarining miflar majmuini tekshiruvchi fan mifologiya deb ataladi. Mifologik tasavvurlar mohiyatini anglash va ularni ilmiy talqin qilishga bo'lgan ilk urinishlar antik davr olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, Platon asotirlarni falsafiy ramziy nuqtai nazardan talqin qilgan bo'lsa, yunon faylasufi Evgemer (miloddan avvalgi 3-asr) mifik obrazlarni o'tmishda yashab o'tgan real tarixiy shaxslarning timsoliy ifodasi deb bilgan.

Mifologik obrazlar – xalq, og'zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san'at asarlaridagi mifologik negizga ega bo'lgan asotiriy personajlar hisoblanadi. Badiiy ijod va san'atda mifologiya negizida yaratilgan obrazlar bo'lib, ular qaysidir darajada mifologik va tarixiy asoslarga ega, ya'ni voqelikning fantastik tasviri va xalq orzu-umidlarining badiiy ifodasini tashkil etadi.

Mifologik obrazlar ibtidoiy badiiy uydirma fan taziya mahsuli bo'lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli tuman hodisalar, qadimda odam tasavvurida mavjud bo'lgan g'ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan. Badiiy tafakkur shakllangach, qadimiy mifologiyannig tarkibiy qismi sanalgan mifologik obrazlar adabiyot va san'atga ko'chgan. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlari, «Alpomish», «Kuntug'mish», «Rustamxon» hamda «Go'ro'g'li» turkumiga mansub dostonlar, o'zbek xalq afsonalari va ertaklaridagi mifologik obrazlar shular jumlasidandir. Folklor va yozma adabiyotdagi Mifologik obrazlar badiiy talqinning to'laqonli chiqishi hamda poetik tafakkurning keng qamrovliligini ko'rsatish vazifasini bajaradi.



Mifologik obrazlar muayyan voqea hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo'lib, voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o'ziga ko'chiradi va uning shakliy tajassumi hisoblanadi. Xalq dostonlkaridagi dev, pari, ajdarho va hokazolar ana shunday mifologik obrazlar jumlasidandir.

Afsona – sehr –jodu, xayolotga yo'g'rilgan, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan og'zaki hikoya, NMM namunalaridan biri. Afsona o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri bo'lib, insonning dunyo va o'zini qurshab turgan voqelikni anglash, tushunishga qaratilgan tushuncha va tasavvurlari mujassamlashgan voqea va hodisalar badiiy to'qima asosida hikoya qiladi. Shuning uchun ham afsonada ijtimoiy hayot, kishilarning dunyoqarashi, urf-odatlari va tarixiy hodisalar haqida ixcham ma'lumot, axbarot beriladi.

Afsonalar haqidagi ma'lumotlar mashhur tilshunos olim Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida «sag» so'zi orqali ifodalangan bo'lib, hikoya, qissa deya ta'rif berilgan.

Afsona matnida an'anaviylik yo'q ekan, voqelar tuzilishi ham murakkab emas. Shuning uchun aytuvchining mahorati bilan bog'liq holda voqealar doimiy ravishda o'zgarib turadi. Afsona syujetlari mifologik hodisalar, geografik joylar nomi bilan bog'liq g'aroyib voqealardan tashkil topgan. Xarakterli tomoni shundaki, deyarli barcha afsonalarning syujeti bir yoki ikki epizoddan tashkil topadi. Syujet voqealari esa ko'proq tugundan boshlanadi. Bunday epik tugunlar esa tinglovchilarni kutilmaganda voqealar ichiga olib kiradi.

Afsonalarda ertaklardagiga o'xshash an'anaviy boshlama va tugallamalar uchramaydi. Bu narsa faqat afsona aytish bilan shug'ullanuvchi professional ijodkorning yo'qligi bilan izohlanadi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, afsona keng ommaviy ijro etiluvchi janr hisoblanadi — uni bilgan shaxs o'zi istagan shaklda aytaveradi.

Afsonalarning tematikasi rang-barangdir. Osmon, er, suv pirlari (muakkil)ning g'aroyib ishlari, yovuzlik yaratuvchi ruhlar bilan ezgulik yaratuvchi ruhlar o'rtasidagi doimiy to'qnashuvlar, er yuzida odamning paydo bo'lishi, narsa yoki hodisalarga taalluqli belgilarning paydo bo'lish sababli, tabu (taqiq) bilan bog'liq ajoyib va g'aroyib voqealar afsonalar tematikasini tashkil etadi.

Afsonalar voqea va hodisalarni g'ayri tabiiy tasvirlashi bilan ertaklarga o'xshab ketadi, biroq syujetning barqaror shaklga ega emasligi va qisqaligi bilan ulardan farqlanib turadi. Demak, afsonalarda

barqaror syujet va kompozitsiya yo'q. Bunday xususiyat ularning ommaviy ijro shakli hamda axborot berish vazifasini o'tashi bilan bog'liq.

Darhaqiqat, ko'pgina afsonalardagi epizodlarda otashparastlik diniga aloqador talqinlar ham uchraydi. «Qayumars», «Odami Od», «Er Xubbi», «Anbar ona», «Hazrati Xizr» kabi mifologik afsonalar ibtidoiy dunyoqarash, u yoki bu sirli ko'ringan narsani muqaddaslashtirish, unga e'tiqod qo'yish kabi diniy tasavvurlar zamirida paydo bo'lgan.

Afsonalar g'oyaviy-tematik yo'nalishlariga ko'ra, shartli ravishda sof mifologik afsonalar, tarixiy voqea va hodisalar haqida to'qilgan afsonalarga bo'linadi. O'z navbatida bu guruhdagi afsonalar ham kichik -kichik guruhlarga bo'lini mumkin. O'zbek xalq afsonalari sirasida tarixiy voqea va hodisalar haqidagi afsonalar katta o'rin egallaydi. «Devqal'a», «Shirin qiz», «Kalta minor», «Ilon buzgan» kabilar shunday afsonalardandir. Ular insoniyatning beqiyos kuchi va go'zalligini madh etadi.

«Baroqtom», «Shohsanam va G'arib», «Hazorasp», «Iskandar va Afrosiyob» kabi afsonalar esa tarixiy joy va tarixiy shaxslar nomi bilan bog'langan. Ularda voqelik fantastik yo'nalishda hikoya qilinadi. Bu xildagi afsonalar ko'proq muayyan hodi-sa, qabila yoki elat, geografik joy — qal'a, maqbara, qo'rg'on, saroy, minora, daryo, dengiz, shaharlar bilan bog'liq bo'lib, ularning yuzaga kelishi va vayron bo'lish sabablari, u yoki bu nomning paydo bo'lishi tarixidan xabar beradi. Shu jihatdan. «Hazorasp» afsonasi xarakterlidir.

O'zbek xalq afsonalaridan turli yillar davomida ko'plab namunalar yozib olingan bo'lib ular folklor arxivida saqlanadi.

Rivoyat – og'zaki tarzda aytib beriluvchi hikoya. Yuzaga kelishi va tarixiy asoslari juda qadimiy folklor, NMM namunalaridan biri. O'tmishda bo'lib o'tgan tarixiy hodisa yoki kechmish voqeani badiiy to'qima vositasida tasvirlovchi, hajman qisqa, an'anaviy shaklga ega bo'lmagan asar.

Rivoyatlar ertak yoxud doston kabi qat'iy, an'anaviy uslubiy shaklga ega bo'lmaydi. Shuning uchun rivoyatlarni maxsus ijrochi emas, istagan odam hikoya qilib berishi mumkin. Odatda, rivoyatlar oddiy bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og'izdan-og'izga o'tish jarayonida erkin tarzda talkin qilinadi va xuddi shu narsa ularning og'zaki ijodga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri, variantliligini ta'minlaydi.

Afsona va rivoyatda tarixiy voqelik fantastika libosida bo'ladi. Ular o'z shakliga ko'ra sehrli ertaklarga yaqin turadi. Rivoyat bilan



afsona o'xshash bo'lsa ham o'zaro farqlarga egadir. Rivoyatlarda afsonaga nisbatan tarixiylik ustun turadi. Aksincha, afsonalar rivoyatlarga nisbatan fantastik buyoq va diniy elementlarga boy bo'ladi. To'maris va Shiroq haqidagi rivoyat bunga misol bo'la oladi.

Rivoyatlar g'oyaviy va mavzu ko'lami jihatdan rang-barangdir. Rivoyatlar odatda ixcham syujetga ega bo'lib, ikki, uch epizoddan iborat voqelikdan tashkil topadi va qat'iy kompozitsiyaga ega emas. Shuning uchun syujet voqealari, ko'pincha, go'yo tugallanmagandek, davomi bordek seziladi va tinglovchiga katta asardan uzib olingan bir lavha singari tuyuladi.

Rivoyatlarda tarixiy voqea va shaxslar bilan bog'liq bo'lgan voqealar, kishilar hayoti, geografik makon — tog', dengiz, ko'l, sahro, shahar, qishloq, qal'a, saroy va hokazolarning paydo bo'lishi yoxud tanazulga yuz tutishi haqida hikoya qilinadi. Binobarin, rivoyatlar u yoki bu voqea haqida xabar berishi va uni tasdiqlash vazifasini o'taydi. Rivoyatlarda milliylik va umuminsoniylik ulug'ulanib, insonparvarlik, ezgulik, yaxshilik tushunchalari vahshiylik, yovuzlik va yomon illatlarga qarama-qarshi qo'yiladi.

Rivoyatlar mavzusiga ko'ra tarixiy va toponimik rivoyatga bo'linadi.

Tarixiy rivoyatlar biror shaxs faoliyati yoki xalq qahramonlari bilan bog'liq bo'lgan voqealarni aks ettirib, axloq va odobning ideal normalarini tashviq etadi. Ibn Sino, Beruniy, A.Temur, Alisher Navoiy, Ulug'bek, singari tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir.

Tarixiy rivoyatlarni u yoki bu tarixiy shaxs yoki voqealar guvohi bo'lganlarning, ko'rgan-bilganlarning esdaliklari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Bu narsa rivoyat janrining o'ziga xos xususiyatini belgilaydi. Ba'zi tarixiy rivoyatlarda esa faktik voqealardan asar ham qolmay, faqat shaxs nomigina saqlanib qolishi ham mumkin. Ba'zan esa tarixiy shaxs sayyor syujetlar qolipida hikoya qilinadi. Shunga qaramay tarixiy shaxslarning ishtirok etishi, syujetda badiiy to'qimaning mav-judligiga qarab bunday asarlarni tarixiy rivoyat deyish mumkin bo'ladi.

Toponimik rivoyatlarda shahar, qishloq, qo'rg'on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilann bog'liq voqealar hikoya qilinadi. Toponimik rivoyatlar xotimasida odatda, ushbu hikoyadan maqsad ta'kidlanadi va muayyan fakt izohlanadi (mas, «To'rabek xonim maqbarasi», «Anda jon qoldi», «Odinajonim», «Qo'ng'irot» va b.).

Rivoyatlar og'zaki ijod namunasi bo'lgani uchun bizgacha asosan og'zaki hamda qisman yozma shaklda etib kelgan. Geredotning «Tarix», Vosifiyning «Badoe' ul vaqoe'», Xondamirning «Makorim ul-axloq» va boshqa asarlarda rivoyatlarning qadimiy namunalari keltirilgan. O'zbekistonda juda ko'p rivoyatlar yozib olingan va ular xalq tarixi hamda madaniy-estetik qarashlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalq rivoyatlarining yozib olingan ko'plab namunalari bugungi kunga qadar folklor arxivida saqalandi.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1.Mif va mifologik obrazlarga tavsif bering.
2. Afsonaga xos bo'lgan xususiyatlarni ta'riflab bering.
3. Rivoyatlarning NMMda tutgan o'rnini so'zlab bering.

**Topshiriqlar:**

1. O'z hududingizda tarqalgan afsonalar haqida so'zlab bering.
2. Eshitgan rivoyatlaringizni mavzularga ajrating.
3. Mif, mifologik obraz, afsona va rivoyatlarning NMMd tutgan o'rni haqida so'zlab bering.

## EPIK AN'ANA VA UNING O'RTA OSIYo XALQLARI MADANIYATIDA TUTGAN O'RNI

**Reja**

***1.Epik an'ana va uning o'ziga xos xususiyatlari***
***2.O'rta Osiyo xalqlari og'zaki ijodida epik an'analarning tutgan o'rni***
***3.Epik an'ana va millatlararo hamdo'stlik masalalari***

Epik ijod har bir xalq tarixida, madaniy hayotida, ma'naviyatida alohida o'rin tutadi. Shunday ekan, O'rta Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlari borasida tasavvurga ega bo'lish uchun eng avvola, ushbu xalqlarning epik san'ati va an'analari haqida fikr yuritish lozim bo'ladi. Zero, epik san'at davomchilari, ya'ni uning ijrochilari bo'lmish baxshilar millat tarixi, san'ati, madaniyatini ming yillar davomida asrab-avvaylab kelayotgan, avloddan-avlodga etkazayotgan, milliy madaniyat, tarix va falsafaga o'zining benazir ulushini qo'shib kelayotgan ulkan ijodkorlardir. O'rta Osiyo xalqlarining «Alpomish», «Manas», «Go'ro'g'li», «Qoblandi botir», «Edige» kabi



ulkan badiiy obidalari ham bizga ana shunday epik ijodkorlardan meros bo'lib qolgan. Baxshi o'z epik xotirasida ana shu qadim an'analarni saqlab, uni avlodlarga etkazib kelgan va har gal ijro etilganda bu epik an'ana yanada boyib, yangilanib borgan.Ular epik bilim va epik xotiraning merosxo'rlari, asrovchilari edilar. Ajdodlardan meros qolgan bu epik xotirani ular o'z quvvai hofizasiga ko'ra ijro etganlar. Ijroni esa ular shubhasiz o'z ustozlaridan o'rganganlar, epik qoliplarga amal qilganlar, shu taxlit ular epos qonuniyatini yaratganlar.

Shuning uchun ham turkiy xalq madaniyatida xalq og'zaki namunalarini ijro etuvchi ijodkorlar – baxshilar alohida o'rin tutadi. Badiiy so'z san'atining eng yuksak ko'rinishi bo'lgan epik ijodkorlikda biz noestetik hodisalarning estetik hodisaga aylanish jarayonini kuzatamiz. Bu jarayon shubhasiz, xalqimizning qadim tarixi, mifologik tafakkuri, ko'p asrlik milliy madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda rivoj topgan.

Epik ijodkorlar deganda biz og'zaki ijod namunasini og'zaki tarzda ajdodlardan avlodlarga ustoz-shogirdchilik an'anasiga rioya etgan holda etkazib keluvchilarni tushunamiz. Bular orasida doston kuylovchi baxshi, ertakchilar alohida ajralib turadi. Bu ijodkorlarga xos bo'lgan umumiy jihat ijodkorlik bo'lsada, epik asarlarning avloddan-avlodga saqlanib qolishida, baxshilar alohida o'rin tutadi.

Ma'lumki, har qanday epik asar birinchi navbatda:

a) baxshichilik san'ati – jonli ijro jarayoni, faqatgina og'zaki ijro etilishi va shu taxlit meros qoldirilishi;

b) ko'plab versiya va variantlarga egaligi:

v) an'anaviy formulalarning yuksak namoyishi;

g) an'analarga rioya etganligi bilan ajaralib turadi.

Asilda bu mezonlar biri-ikkinichisini talab etadi, biri-ikkinichisiz sodir bo'lmaydi. Shuning uchun ham epik an'ana jarayoni ushbu xususiyatlarning barchasini yaxlitlikda olib qarash va o'rganishni talab etadi.

Insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan bo'lgan so'z sa'nati tarixi juda qadimiy bo'lib, uning ilk ildizlari yuqorida ta'kidlaganimizdek, jahon xalqlarining folklori tarixi, ya'ni so'z sa'nati tarixida noestetik hodisalarning estetik hodisalarga aylanishi masalasi bilan bog'liqdir.

So'z sa'natining ilk noetetik ildizlarini esa biz jahonning barcha xalqlari folklori tarixida ko'ramiz.Xalqning mifololik tafakkurdan poetik idrok qilishga o'tishi va uning samarasi bo'lgan bugungi ma'nodagi folklor merosi shunchalar murakkabki, uning ayrim namunalarida

hozirgacha ibtidoiy jamoa tuzumi va undan keyingi ilk madaniy bosqichlarning izlaridan to zamonaviy maishiy turmush hamda qarashlarning qayta - qayta poetik mushohada qilingan badiiy ifodalarigacha ko'rishimiz mumkin.

Og'zaki so'z sa'natida eng kichik maqol janridan, to eng yirik epik janrlarigacha mansub asarlarning tarixi, badiiyati, badiiy - estetik ahamiyati, eng avvalo, uning ijodkori xalq va uning etuk vakillari, jumladan, uning yuksak ifodasi bo'lgan professional xalq baxshilarining faoliyati bilan bog'liq.

Baxshi so'zining: terma va dostonlarni yoddan kuylovchi, avloddan-avlodga etkazuvchi san'atkor, ustod, ruhoniy, kohin, ma'rifatchi, yo'lboshchi, jarroh, kotib kabi ko'plab ma'nolari mavjud. Badiiy ijoddagi epik ijodkor obrazida esa, yuqoridagi ko'pgina xususiyatlar qorishiq holda keladi. Bu esa ushbu san'atkorlar haqidagi tasavvurlar tizimi o'zining qadim ildizlariga ega ekanidan dalolat beradi.

Boshqa turkiy xalqlarda baxshilarni janrdan kelib chiqib nomlash ham mavjud. Qozoqlarda jo`rchi (jo`rdan), olonxochi (Olonxodan), uligerchi (Uligerdan), manaschi (Manasdan). Qadimgi Gretsiyada ham Aedlar bilan Rapsadlarni ajratishgan. Aedlar shoir bo'lishgan, rapsadlar esa ijrochi. Xuddi mana shuning o'ziyoq har bir ijrochi o'zi bir olam ekanligi, o'z uslubi, o'z ohangi, o'z ta'bi, o'z mahoratiga ega ekanligini, ularga umumiy bir nuqtai nazardan baho berib bo'lmasligini, ular alohida alohida urganilshga, tadqiq etilishga muhtoj ekanligini ko'rsatadi.

Tarixiy folkloriy jarayonda epik ijodkorlarning kohin, shomon, baxshi, ijrochi tiplari mavjud bo'lib, ular haqidagi tasavvurlar xalq rivoyat va afsonalarida, dostonlar – epik matn qatida yaxshi saqlanib qolgan.

Baxshichilik san'atining yuzaga kelishi, mifologik asoslari, tarqalish geografiyasi va har bir hududning lokal xususiyatlari tadqiqi bu san'atni dunyo folkloridagi mavjud boshqa epik asarlar bilan tarixiy-qiyosiy ko'lamda o'rganishni talab etadi. Har bir davr, ma'lum janrlar qamrovida hamda yurtimizdagi mashhur epik san'atkorlar ijodi misolida ushbu mavzuni keng planda tadqiq etish O'rta Osiyo xalqlari tarixi, epik san'atining dunyo madaniyatidagi o'rni va ahamiyatini belgilab berishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, folklorning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan versiya va variantlilik og'zaki ijodkorlik hamda ijrochilik jarayonining barcha bosqichlari bilan mahkam bog'langan bo'lib, uning tabiati, og'zaki



an'analarda yashash sharoitlaridan kelib chiqqandir. Shu sababli ushbu masalaning o'rganilishi folklorshunoslikning amaliy va nazariy rivoji uchun o'ta muhimdir. O'rta Osiyo xalqlari folklorshunosligida versiya variantlilik masalasi nazariy jihatdan o'rganishda muayyan natijalarda erishilgan bo'lsa-da, bugungi kunda to'plangan tajribalar asosida mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni izchil davom ettirish zarur bo'ladi. Zero, biror-bir asarni, xususan, xalq dostonini boshqa-boshqa ijro usullariga ega dostonchilik maktablarining etuk vakillaridan yozib olingan namunalar misolida qiyosan o'rganish folklorshunoslik uchun o'ta muhim faktik materiallar beradi va zarur nazariy umumlashmalar chiqarish uchun imkon tug'diradi. Ma'lum sabablarga ko'ra, bir variant yoxud versiyada unutilgan yoki qisqacha aytilgan o'rinlarni tiklash, to'ldirish imkonini yaratadi.

Arxaik eposning eng nodir namunasi hisoblangan «Alpomish», «Manas», «Go'ro'g'li», «Qoblandi botir», «Edege» kabi epos haqida so'z ketar ekan, epik formula haqida, to'g'rirog'i, og'zaki epik ijodiyotga xos bo'lgan qonuniyatlar haqida so'z yuritish lozim bo'ladi.

Epik formula bu eposning yadrosidir. Biz epik formulaning nima ekanligini tushunmay biror bir doston mohiyatini tushunib etolmaymiz. Og'zaki ijod deganda, biz eng avvola, ana shu epik formula asos bo'lgan ijodga aytamiz. Yozma adabiyotning o'z qonuniyatlari mavjud.U ana shu qonuniyatlarga asoslanib rivoj topadi. Og'zaki ijodning esa qonunyati bitta bu epik formulaga asoslanganlik. Bu ijodning og'zakiligini, an'anaviyligini ta'minlaydi. Epik formula bu eposning qurilmasi, suyagidir.

Ijodkor, baxshi o'z «uyi»ni, ya'ni doston kuylar ekan u ana shu «suyak»ka, asosga suyanadi. Shunga asoslanib u o'z dostonini kuylaydi. Epik formula bu tayyor qolip. Baxshi o'z dostonini ana shu epik qolipga moslaydi. Biroq bu degani baxshi faqat takrorlaydi, ya'ni hech bir yangilik yaratmaydi degani emas. Baxshi har bir baxshi epik shaklga o'zicha yondoshadi, bu ijodiy yondoshish uning yaratuvchiligini, nechog'li iqtidorli ekanini namoyish etadi. Epik formulalar qonuniyatini bilmasdan turib, eposning yuzaga kelish va yashab qolishi qonuniyatni ham bilish mumkin emas.

A.Lord: «Xalq og'zaki ijodi ijro uchun yaratilmaydi, balki ijro etilayotganda yaratiladi»,- deydi. Baxshi kuylayotganda epos yana bir marta yangilanadi, yangicha mazmun, yangicha ohang,yangicha mohiyat kasb etadi. Epik formula ma'lum bir tizim, ma'lum bir qurilmaga ega. Epik shakl deganda biror bir fikrni ifodalash uchun ma'lum bir shaklda,

ya'ni sheriy shaklda takror va takror uchraydigan so'zlar tizimi, quyma satrlar nazarda tutiladi. Bu xuddi tirik organizm , ya'ni tananing suyagiga o'xshaydi. Suyak tuzulishi hammada bir xil. Biroq, eti, og'irligi, rangi va eng muhimi dunyoqarash, tushuncha va ruhiyati hammada har xil bo'ladi. Xuddi shunday epik ijodda hai ijodkor epik formuluga tayanib o'z «tana»sini yaratadi.

Og'zaki ijod, ya'ni epik an'ana – doston ijrosiga xos bo'lgan xususiyat esa mutloqa boshqa. Bu baxshining aynan ijro paytidagi holatidir. Zero og'zaki ijod mana shunday ijro payti yaraladi, yuzaga keladi. Bu og'zaki ijod qonuniyatidir.

Eposdagi mana shu epik formulalar bir-biriga tutashgandagina u ma'lum bir ko'rinish, ya'ni doston ko'rinishini oladi. Epik formula qotib qolgan, o'zgarmas tizim emas. U o'zgaruvchan, har gal yangilanib turuvchi formuladir. Baxshi o'zida an'anaviylikni va individuallikni o'zida jamlay olgan ijodkordir. Baxshi bu shunchaki ijrochi emas, u an'anaviylikka asoslanib, o'z san'atini yaratayotgan tom ma'nodagi ijodkordir. Formulalarning rang-barangligi epik mavzularning rang-barangligidan kelib chiqadi. Baxshi ijrochiga nisbatan, baxshi shoirlarning tajribalari ham katta, kuylayotgan mavzulari chegaralari ham keng, shunga yarasha epik formulalarni qo'llash salohiyati ham o'zgacha bo'ladi. Bir baxshi repurtuaridagi epik formulalar boshqa baxshilarda ham uchrasada, ijroda u aynan bir xil bo'lmaydi.

Baxshining epik an'anaga amal qilib, o'z formulasini yaratishi bu baxshining iqtidoriga va mahoratiga bog'liq. Baxshichilik san'ati ijroga, og'zakilikka asoslangan san'atdir. Har gal ijroda bu san'at yana va yana yangilanib boraveradi.

Og'zakilik deganda bu asarning, yoxud biror bir dostonning og'zaki ijro etilishi emas. Biror bir shoir yozgan dostonni ham og'zaki ijro etish mumkin. Yoxud biror bir yozma adabiyot na'munasini og'zaki ijro etsa bo'ladi. Biroq bu og'zakilik degani emas. Ya'ni A. Lord aytgandek gap faqat ijroda emas, balki eposning og'zaki ijro etilayotgan paytda yuzaga kelishidadir.

Baxshi shu paytgacha ko'p bor takrorlanganidek «savodsiz» kishi emas. Aksincha, tilning go'zal tovlanishlarni nozik ilg'ay olgan, epik bilim va epik tafakkur salohiyatiga ega iqtidorli san'atkordir.

Epik formulalarning yuzaga kelish jarayoni bevosita til qonuniyati bilan bog'liq. Shundan kelib chiqib epik formulalarni uch guruhga: 1.Malum bir xalq baxshilariga xos bo'lgan epik shakl. 2.Biror bir maktab yoxud uning bir necha vakillarga xos bo'lgan epik formula.



3.Individual epik formulalarga ajratish mumkin. Bu epik shakllarda asosan: qahramonning ta'rifi; biror bir harakat yoki holat; biror bir makon yoxud epik vaqt bayon etilganini ko'ramiz. Xuddi mana shunday shakllar tizimi zanjir hosil qilib, she'riy satrlarni yaxlit doston holatiga olib keladi. Epik formula bu baxshi xotirasidagi qo'yma misralarning tayyor zahirasi emas, balki ana shu quyma misralarning har gal, ya'ni har galgi ijroda yangicha mazmun va ohang bilan takror va takror jaranglashidir.

Ustoz shogirdchilik an'analariga rioya etgan baxshilarning turli auditoriyalardagi ijrolari, marosim, to'ylarda yoxud boshqa davralardagi ijrolari jonli ijroni tashkil etadi.

Baxshining mahorati oshib borgani sari, uning repurtuari ham boyib, tinglovchilari ham ko'payib borgan. Baxshi bir dostonni bir necha kunlab, hatto oylab ijro etganlar.

Baxshining katta davralarga kirib kelishi bilan uning «o'rganish» jarayoni tugab qolmagan. U har gal yangi-yangi davralarda o'z mahoratini oshirib borgan. Ustozlardan, boshqa shoirlardan o'rganishni davom ettirgan. Boshqa maktab vakllarining ham repurtuarini, ijro usulini urganishga harakat qilishgan. Shu taxlit u o'z repurtuarini turli variant va versiyalar hisobiga boyitib borgan.

Epos og'izdan og'izga o'tib kelayotgan jarayon. U mana shu jarayonda yuzaga keladi. U mana shu jarayonda yaratiladi va har gal yangicha mazmun, yangicha mohiyat kasb etib, yangilanib boraveradi.

Yangi yuz yilliklar oldida eng katta muammo bu baxshichilik san'ati, ya'ni epik an'ana saqlanib qoladimi degan masaladir. Bu masalaga ham olimlar turlicha munosabat bildirishgan. Ba'zilar baxshilarni asrash kerak, ularning shogirdlarini ko'paytirish kerak deydi, ba'zilar baxshilarni endi omma qabul qilolmayotganini aytishadi. Biroq menimcha bu jarayon epik tafakkur bilan bog'liq.

Eposshunos olimlar bir muhim muaommoni o'rtaga tashlaydi. Eposning nashr etilishi jarayoni bilan uning so'nish jarayoni ham boshlanadi deydi. Endi uni ijro etuvchilar ko'payishi mumkin, biroq ular yaratuvchi bo'lolmaydilar. Eng muhimi esa og'zaki ijoddagi epik qolip, epik formulaga amal qilmaydilar. Ba'zi tadqiqotchilar ijrochilarning yozma manbalar tufayli repurtuarlari boyishiga misollar keltiradilar. Biroq bu og'zaki ijro jarayonining so'nishi demakdir.

E'tiborli joyi shundaki, O'rta Osiyo, jumladan o'zbek baxshilaridan yuzlab dostonlar yozib olingan. Yangi yuz yillik ostonasida esa ularning to'la, mukammal nashrlari yuzaga kelayapti. Bu nashrlar va ular ustida

olib boriladigan tadqiqotlar ertangi kun o'z samarasini berishi shubhasizdir. Bu qadim san'at adabiyotimizning, san'atimizning, ma'naviyatimizning beshigi, tafakkurimizdagi uyg'unlikning ostonasidir. Ehtimol, kelgusi yuz yillikda baxshichilik san'ati saqlanib qolmas. Biroq xalq og'zaki ijodiga, shu paytga qadar yaratilgan uning nodir na'munlariga bo'lgan e'tibor hech qachon kamaymaydi. Bu san'at yaratgan ramzlar, poetik obrazlar endi yozma adababiyotga, yozuvchilarimizning nasriga, shoirlarimizning she'rlariga, rassomlarimizning suratlariga, tarixchilarimizning tarixiy asralariga faylasuflarimizning falsafiy traktitlariga, adabiyotshunoslarimizning adabiy qarashlariga ko'chib o'tadi. Shu taxlit u o'zining ikkinchi umrini yashaydi va qayta yangilanish jarayonini davom ettiradi.

Shuni mamnuniyat bilan aytish kerakki, bugungi globallashgan bir jamiyatda, dunyoning ko'pgina xalqlarida epik an'ana tamoman so'nib bo'lgan va yoxud so'nib borayotgan bir holatda, Sharq xalqlari, jumladan O'rta Osiyo hududlarida haligacha baxshi, jirov, oqin, xalfachilik san'a'tining saqlanib qolayotganligi muhim ahamiyatga molik hodisadir.

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyo xalqlarining epik an'anlari tadqiqi mazkur san'atning bugunga qadar yashab kelishi omillari, har bir epik maktabining o'ziga xos ijro yo'li, usuli, ular tomonidan yaratilgan asarlarning mifologik qatlami va badiiyati haqida to'laqonli tasavvur beradi. Baxshilar kuylagan doston namunalarini o'tgan asrlarda ijro etilgan doston namunalari hamda dunyo xalqlarining eng sara epik ijodi bilan o'zaro qiyoslansa xalq ijodi janrlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda badiiy so'z san'atining yuzaga kelishi va taraqqiyot tamoyillarini ham belgilab beradi. Bugungi kunda dunyo folklorshunosligida dolzarb hisoblangan ilmiy-nazariy masalalarning yechimiga ham oydinlik kiritadi hamda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Rustamxon» kabi dostonlar dunyo adabiyotida yaratilgan so'z san'atining eng noyob hodisasi deb hisoblanayotgan «Gilgamish», «Odessiya», «Maxobxorat» kabi durdona asarlar bilan bir qatorda turadigan epik ijod namunasi sifatida dunyo madaniyatida o'z o'rni va ahamiyatiga ega ekanligini alohida ta'kidlash mumkin.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Folklorga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni sanab bering.
2. Epik an'ananing baxshilar ijodidagi o'rni deganda nimani tushunasiz?



**Topshiriqlar:**

1. Folklorda milliy va umuminsoniy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek folklorining dunyo madaniyatida tutgan o'rniga misollar keltiring.

## NOMODDIY MADANIY MEROS VA O'ZBEK XALQ DOSTONLARI

**Reja:**

1. ***Nomoddiy madaniy meros va o'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari.***
2. ***Nomoddiy madaniy meros tizimida dostonlarning tutgan o'rni.***
3. ***Doston janri va uning o'ziga xos xususiyatlari.***
4. ***Doston ijrochisi –epik ijodkor borasidagi tushunchalar.***

Nomoddiy madaniy meros namunalari orasida o'zbek xalq dostonlari alohida ajralib turadi. Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog'liqdir. Asriy kurashlar va ideallar uning mavzusi, g'oyaviy mazmuni, timsollfr shakli, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi.

«Doston» so'zi "qissa", "hikoya", "sarguzasht", "ta'rif" va "maqtov" ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu atama xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotidagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Biroq yozma va og'zaki adabiyotdagi dostonlar hayotni tasvirlash vositalari va usullari jihatidan bir-birlaridan jiddiy farq qiladi. Xalq og'zaki ijodida doston o'tmish zamonlar to'g'risida qahramonlik g'oyasi ko'lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir. Boshqacha aytganda, dostonlar haqiqiy tarix birlashib, chatishib ketgan olamshumul voqealarni tasvirlagan, xalqimizning axloqiy, falsafiy, diniy qarashlarini, hayoti, urf-odatlari va maishatini qomusiy bir tarzda ifodalagan o'tmish yodnomalaridir.

Dostonlarda tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan obrazlarda o'z ifodasini topadi. Binobarin, ularda epik umumlashtirish

hukmronlik qiladi. Bunday umumlashtirish xalqning ijtimoiy adolat haqidagi ideallari va orzu-umidlari bilan yo'g'rilgan. Demak, dostonga epikliklik xos bo'lib, kompozitsion va syujet qurilishi jihatidan murakkab voqea-hodisalarni qamrab oladi. Bunday voqea va hodisalar mazmunan qahramonlik xarakteriga ega bo'lib, ular xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Favqulodda kuch-qudratga ega bo'lgan bunday yakka shaxslarda butun bir xalqning orzu-umidlari, imkoniyat va intilishlari mujassamlashgan. Xalq dostonlarining tematik hamda janr xususiyatlari uning o'ziga xos uslubi va shaklini belgilaydi, ya'ni kuy va ijro bilan mahkam bog'liq bo'lgan yirik hajmli va keng ko'lamli dostonlarning poetik bayoniga ko'tarinkilik, tantanavorlik, an'anaviylik, she'riy va prozaik qismlarning davomiy almashinib kelishi xosdir.

**Baxshilar**. Xalq og'zaki ijodining yuksak professional san'at turi — doston va dostonchilikning paydo bo'lishi, taraqqiyoti baxshilar nomi bilan bog'liqdir. Xalq ommasi madaniy-siyosiy hayotida ulkan o'rin tutgan baxshilar mehnatkash xalq o'rtasida juda katta hurmat va e'tiborga sazovor bo'lganlar.

H. T. Zarifovning yozishicha, baxshi mo'g'ulcha va buryatcha "baxsha", "bag'sha" so'zlaridan olingan bo'lib, "ustod", "ma'rifatchi" degan ma'nolarni beradi. O'zbeklarda baxshi — keng ma'noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan naslga o'tkazuvchi san'atkor. Xalq orasida baxshi so'zi turli xarakterdagi ikki vazifani bajaruvchi shaxsga nisbatan qo'llangan.

Xalq dostonchilarini O'zbekistonning ayrim erlarida baxshi so'zidan boshqa nomlar bilan ham yuritiladi. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim joylarida yuzboshi, Janubiy Tojikiston o'zbeklari orasida soqi, Surxondaryo va Janubiy Tojikistonning ayrim joylarida sozanda, Farg'ona vodiysida sanovchi, ayrim tumanlarda jirov, jirchi, oqin, oxun va hokazo.

O'zbeklarda xalq dostonini shoir deb atash ham keng tarqalgan. Xalq ijodida badihago'y ijodkorlar, epik an'ana doirasida o'zlarining yangi-yangi variantlarini, hatto yangi dostonlarni ham yarata oladigan baxshilar shoir deb ataladi. Masalan, Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoir, Po'lkan shoir va boshqalar.

Baxshilar xalq dostonlarini biror sozda, ko'p yerlarda do'mbira, ayrim joylarda qo'biz yoki dutorda kuylaydilar. Xorazm baxshilari esa dostonlarni, asosan, dutorda ijro etadilar, ularga doira va bo'lomonda sozandalar jo'r bo'ladi. 30-yillarda Xorazm baxshilari dostonlarni tor va rubobda kuylay boshladilar. Shu munosabat bilan ayrim baxshilar



ansamblida g'ijjak o'rniga skripkadan foydalanish, ansamblga doirachi, hatto o'yinchi olib kirish hollari bo'ldi. Bola baxshi va uning ansambli bunga misol bo'ladi. Xorazmda ba'zan epik asarlar yoki ularning parchalarini garmonda ijro etish hollari ham mavjud. Bunday hollarda ularni baxshi emas, balki sozchi deb yuritilgan. Masalan, Qurbon sozchi, Qodir sozchi va boshqalar. Sozchilar epik asarlarni to'la ijro etishdan ko'ra, undan parchalar, termalar va o'zlari yaratgan asarlarni kuylashga alohida e'tibor berganlar.

Demak, epik asarlarni elga yetkazishda O'zbekistonning deyarli barcha yerlarida yakka ijrochilik hukmron bo'lsa, Xorazmda, asosan, jamoaviy ijrochilik etakchilik qiladi. Ijro davomida dostonlarning she'riy qismlari kuylansa, prozaik o'rinlari baxshilarning o'zlariga xos ifodali tilda bayon etiladi.

Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlarning yana bir turi xalfalar, deb yuritiladi. Xalfachilik, asosan, ayollar orasida keng tarqalgan.

Xalfachilik san'ati ikki xil:

a) ansamblli xalfalar;

b) yakka xalfalar.

Ansamblli xalfalar uch kishidan iborat. Ya'ni ustoz xalfa (ayni vaqtda garmon chaladi va ashula aytadi), doirachi (ashulaga jo'r bo'ladi, ba'zan raqsga tushadi) va o'yinchilar (raqsga tushadi, qayroq bilan o'ynaydi, yalla va lapar aytadi, ba'zan doira chaladi) birlashib, ansamblni tashkil etadilar. Bu xalfalar xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalarni, to'y qo'shiqlarini, lapar va yallalarni, o'zlari yaratgan yoki boshqa ijodkorlar asarlarini garmon va doira jo'rligida kuylaydilar. Bibi shoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova kabilar shunday xalfalardandir.

Yakka xalfalar doston va qo'shiqlarni sozsiz ijro etadilar. Ular dostonlarni yoddan yoki qo'lyozma va kitobdan yoqimli ohangda o'qish, «Yor-yor», «Kelin salom», «Muborak» kabi to'y qo'shiqlarini ijro etish bilan shuhrat qozonganlar. Roziya Matniyozov qizi, Saodat Xudoyberganova, Poshsho Saidmamat qizi, Ambarjon Ro'zimetova, Anorjon Razzoqova kabilar yak-ka holda xalfachilik qilganlar.

Xalfalar ko'proq «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Oshiq Oydin», «Asilxon», «Hurliqo va Hamro», «Qumri», «Qissai Zebo», «Tulumbiy», «Zavriyo», «Durapsho», «Bozirgon», «Xirmon dali» kabi dostonlarni, Maxtumquli she'rlarini, turli marosim qo'shiqlarini va o'zlari yaratgan asarlarni ijro etadilar. Ular mahalliy xalqning barcha to'y-hashamlarida,

turli marosimlarda, ayollar yig'inlari va bayramlarda qatnashadilar, to'y va marosimlarni boshqaradilar. Xalfachilik ayollar san'ati sifatida Xorazm vohasida shu kunlarda ham keng davom etmoqda.

O'tmishda epik asarlarni xalqqa etkazuvchilar qatorida qissaxonlar ham bo'lgan. Qissaxonlar xalq dostonlarining qayta ishlangan nusxalarini, qiziqarli tarjima hikoyalarni, mumtoz adabiyot namunalaridan «folklorlashtirilgan» variantlarni, turli xil jangnomalarni choyxonalarda, turli yig'inlarda, xalq to'plangan joylarda yodaki aytganlar yoki qo'lyozma va bosma matn asosida o'zlariga xos ohangda o'qiganlar.

Qissaxonlar «Rustami Doston», «Tohir va Zuhra», «Hikoyati Go'ro'g'li sulton», «Bahrom va Gulandom» kabi dunyoviy qissalarni ijro etish bilan birga, ko'proq diniy mazmundagi asarlarni ham o'qib yurganlar. Ayrim hollarda eng qobiliyatli qissaxonlarning o'zlari qissa tuzishgacha, ba'zan yangi asarlar yaratishgacha ko'tarilganlar, aytayotgan asarlariga ijodiy yon-dashganlar.

O'tmishda qissaxonlik shahar joylarda keng rivojlangan bo'lib, keyingi vaqtlarda bu hollar umuman, uchramaydi. Bu narsa ko'plab kitob bosib chiqarilishi, jumladan, ilgari aytilib yurilgan qissalarning ham nashr etilishi, xalqimizning yoppasiga savodxon bo'lishi bilan bog'liqdir.

Epik asarlarni keng mehnatkashlar ommasi orasida kuylashda, ularni avloddan-avlodga etkazishda har doim baxshilar etakchilik qilganlar. Hodi Zarif, Buyuk Karimov, Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviya, Jumaniyoz Qobulniyozov, Muhammadnodir Saidov singari olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, XIX asr va XX asr boshlarida o'zbek baxshilari repertuarida yuz ellikka yaqin doston bo'lgan. Folklorshunoslarimiz ulardan yuzga yaqinini (variantlari bilan to'rt yuzdan ortiq) yozib oldilar.

O'tgan asrda ikki yuzdan ortiqroq dostonchi aniqlandi va ro'yxatga olindi. Ulardan Jumanbulbul, Jossoq, Bo'ron shoir, Jolmon baxshi, Sulton kampir, Tilla kampir, Honimjon xalfa, Bibi shoira, Suyar baxshi, Amin baxshi, Yo'ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoir, Io'ldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi, Haybat soqilar xalq orasida shuhrat qozongan. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan shoir, Islom Nazar o'g'li, Umir shoir, Abdulla shoir, Xolyor Abdukarim o'g'li kabi etuk shoirlar baxshichilikdagi juda boy an'analar asosida o'z davrining muhim voqealarini tasvirlovchi yigirmadan ortiq yangi dostonlar yaratdilar.



Baxshi o'zlashtirgan va ijodiy tarzda kuylab kelgan barcha asarlar uning repertuarini tashkil etadi. O'zbek xalq baxshilari repertuari janr e'tibori bilan nihoyatda cheklangan. Ular folklorning faqat ikki janridagi asarlarni, ya'ni termalar va dostonlarni kuylab kelganlar. Baxshilar terma va dostondan boshqa asarlar (ertak, qo'shiq, latifa va shu kabilar) ni bilsalar ham, ularni aytmaganlar. Mabodo biror dostonning mazmunini hikoya qilib bersalar, uni «ertak qilib aytish» deb hisoblaganlar. Biroq bunday aytish professional dostonchi uchun odatdagi hol emas. Shuni aytish kerakki, ayrim dostonlar bizgacha faqat, mazmunlari orqaligina yetib kelgan. Masalan, «Oysuluv» dostoni shunday asarlardandir.

Baxshilar repertuarining hajmi ham bir xil emas. Odatda, oddiy baxshilar besh-o'nta doston bilganlar. Shunda ham bir-ikki dostonni yaxshi kuylaganlar. Eng qobiliyatli, talantli, yuksak hofiza quvvatiga ega bo'lgan ijodkorlar repertuarida o'ttiz-qirq va hatto undan ortiq doston bo'lgan. Ergash shoir, Fozil shoir, Po'lkan shoir, Islom shoirlar shunday dostonchilardan edi. Ular qator epik asarlarni mahorat bilan kuylaganligi uchun bunday dostonlarning ko'pchiligi ularning nomi bilan abadiy bog'lanib qoldi. Masalan «Alpomish» deganda, beixtiyor ko'z o'ngimizda Fozil Yo'ldosh o'g'li; «Ravshan» deganda, Ergash Jumanbulbul o'g'li; «Orzigul» deganda, Islom shoir namoyon bo'ladi. Favqulodda xotira qudratiga ega bo'lgan Po'lkan shoir etmishdan ortiq dostonni yod bilgan. Har bir doston ikki-uch ming satrdan tortib, o'n-o'n besh, hatto yigirma ming misragacha she'rni, qariyb shuncha prozaik qismni ham o'z ichiga olishini hisobga olinsa, xalq baxshilarining salohiyati, hayratomuz yodlash va esda saqlash qobiliyati, ijod qilish qudrati o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Talantli baxshilar epik repertuarning boyib borishi uchun doimo kurash olib borganlar. Shuning uchun ham bir-biridan go'zal dostonlar o'zining butun salobati va malohati bilan bizgacha etib kelgan.

O'zbek dostonchiligida an'anaviy doston kuylash tartibi bor. Odatda, dostonchilik kech kuzdan erta bahorgacha kechqurunlari uyushtirilgan. Baxshi taklif qilingan mehmonxonaga barcha eshituvchilar uning devorlari bo'ylab qator qo'r tashlab o'tirishgan. Baxshini eng to'rda o'tqizganlar. Doston kuylash kichik bir ziyofatdan keyin boshlangan. Baxshi dastlab bir yoki bir necha terma kuylagan. Xorazm baxshilari esa, terma sifatida dostonlardan bo'laklar, Maxtumquli she'rlaridan, pand-nasihatlar bilan bog'liq turli parchalarni ijro qilganlar.

Baxshi tayyorlash o'zining qat'iy an'anaviy tartiblariga ega bo'lgan. Baxshilar qishloqma-qishloq dostonchilik qilib yurgan paytlarida mehnatkashlar orasidagi talantli, qobiliyatli, she'riyatga qiziquvchi yoshlarni tanlaganlar, safar davomida ularni sinab borganlar, istiqboli borlarini o'z yonlariga tortganlar.

Shogird tayyorlashda barcha o'qitish, o'rgatish ishlari, do'mbira mashqi ham og'zaki ravishda amalga oshirilgan. Negaki, xalq dostonlarini eshitish va kuylash orqali og'zaki o'rganish professional ta'limning eng birinchi va asosiy sharti bo'lgan. Dastlab dostonlardagi an'anaviy misralar («Xazon urmay bog'da gullar so'ldimi, So'lgan gulga bulbul kelib qo'ndimi» kabi), umumiy o'rinlar, ya'ni ba'zi bir juz'iy o'zgarishlar bilan ko'pchilik dostonlarda takrorlanadigan parchalar (qahramonga nasihat, uni kuzatuv, otni egarlash va ot ta'rifi, otda safar va jang tasviri kabilar) yodlatilgan. So'ng ayrim olingan bir doston, keyinroq esa, ustoz repertuaridagi asarlar o'rgatilgan. Ustoz shogirdning improvizatsiya qobiliyatini, ya'ni o'rganilgan an'anaviy misralar, parchalar asosida yangilarini do'mbira bilan tezda to'qiy olish qudratini o'stirishga alohida e'tibor bergan.

O'rgatishning keyingi yillarida ustoz shogirdni o'zi bilan birga dostonchilik yig'inlariga, to'y-hashamlarga olib yuradi. Bunday paytlarda shogird ko'pchilik oldida termalar, dostonlardan parchalar kuylaydi. Shogird ancha pishib qolgach, ustoz auditoriyaning ruxsati bilan o'zi kuylayotgan dostonning davomini unga ayttiradi.

Demak, bir mahallar shogird bo'lib, ustoz baxshilardan bir necha yillar davomida ta'lim olgan, o'rgangan dostonlarni badiiy silliqlab, yuksaklikka ko'tara olgan dostonchilar o'z navbatida yana shogirdlar etishtiradi. Shu tariqa xalq badiiy ijodida davomiylik yuzaga kelgan bo'lib, qachonlardir yaratilgan epik asarlar ustozdan shogirdga, otadan o'g'ilga, avloddan avlodga o'tib, og'zaki ravishda bizgacha etib kelgan.

Muayyan doston varianti jamoaviy va yakka ijod birligi jarayonida yuzaga kelgan mahsul ekan, unda kuylovchining ijrochilik va ijodkorlik faoliyati asrlar davomida shakllangan og'zaki epik an'analar doirasida namoyon bo'ladi. Bu hol barcha baxshilar uchun umumiy tomonlarni, muayyan dostonchilik qoliplarini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, har bir dostonchi yoki dostonchilar guruhi o'ziga xos poetik yo'li, uslubi bilan bir-birlaridan farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, umumlashgan puxta epik an'ana doirasida ma'lum baxshi yoki baxshilar guruhiga xos alohida ijodiy xususiyatlar, yo'llar, uslublar o'zgachaligi mavjud. Folklorshunoslikda buni shartli ravishda dostonchilik (baxshilik)



maktablari deb yuritiladi. Bugungi kunga qadar o'zbek folklorshunosligida Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, Xorazm kabi poetik dostonchilik maktablari — baxshilik san'atining ajoyib markazlari aniqlangan.

Bulung'ur dostonchilik maktabi vakillari qahramonlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur bo'lganlar. Sodda, yuksak, o'ta an'anaviy, nisbatan arxaik bo'lgan qahramonlik eposi uslubi bu dostonchilarning poetik yo'li hisoblangan. Bulung'ur dostonchilik maktabining talantli vakili Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872—1955) hisoblanadi, undan «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Malikai ayyor», «Mashriqo», «Zulfizar», «Balogardon», «Intizor», «Nurali», «Jahongir», «Murodxon», «Rustam», «Shirin bilan Shakar», «Ra'no bilan Suxangul», «Zevarxon» kabi ajoyib dostonlar yozib olingan.

Epik san'atning ikkinchi bir muhim markazi Qo'rg'on dostonchilik maktabi bo'lib, uning eng so'nggi talantli vakillari Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868—1937) va Po'lkan shoirlar (1874—1941) hisoblanadi. Bu talantli san'atkorlardan «Alpomish», «Yakka Ahmad», «Oysuluv», «Kuntug'mish», «Qironxon», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Yunus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari», «Xushkeldi», «Hasanxon», «Chambil qamali», «Dalli», «Ravshan», «Avazxon», «Qunduz bilan Yulduz», «Xoldorxon», «Elomon», «Berdiyor otaliq», «Zamonbek», «Xidirali elbegi» kabi dostonlar yozib olingan.

XIX asrda mavjud bo'lgan yana bir epik markaz Shahrisabz dostonchilik maktabidir. Bu maktabning so'nggi namoyandasi Abdulla Nurali o'g'li (1874—1957) XIX asrning yirik dostonchisi Rajab shoirning shogirdidir. Bu baxshilar dostonlarni sho'x, quvnoq, ko'tarinki ruhda aytishlari, kuylarining yoqimliligi bilan ajralib turadilar.

Atoqli xalq shoiri Islom Nazar o'g'li (1874—1953) Narpay dostonchilik maktabining vakilidir. U XIX asrning ulkan dostonchisi Rajab shoirning shogirdi bo'lgan. Talantli xalq shoiri Nurmon Abduvoy o'g'li ham (1862—1940) shu maktabga mansubdir. Ulardan yozib olingan «Orzigul», «Sohibqiron», «Erali va Sherali», «Zulfizar bilan Avazxon», «Gulixiromon», «Kuntug'mish» kabi dostonlarga nazar tashlar ekanmiz, bu mak-tab vakillari xalq dostonlarining demokratik asoslarini yanada kengaytirganliklarining guvohi bo'lamiz.

O'zbekistonning janubida yashovchi ko'pgina baxshilar Sherobod dostonchilik maktabi bilan bog'liqdir. XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida yashagan bu maktabning mashhur vakili Shernazar Beknazar

o'g'li bir qancha shogirdlar etishtirgan. Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Umir Safar o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Mamadrayim baxshi, Bo'riboy Ahmad o'g'li, Yusuf O'tagan o'g'li kabi o'nlab dostonchilar shu maktabga birlashadi va ulardan bir qancha dostonlar yozib olingan. Bu maktab vakillari repertuaridagi ayrim dostonlar (masalan, «Oltin qovoq», «Malla savdogar», «Ollonazar Olchinbek» kabilar) boshqa joylardagi baxshilar repertuarida uchramaydi.

Xorazmdagi o'zbek dostonchilik san'ati boshqa maktablarga mansub baxshilar uslubidan tamoman farq qiladi. Bu yerda so'z improvizatsiyasi asosiy rol o'ynamaydi, matn tom ma'noda variant bermaydi, balki muzika yetakchilik qiladi. Ko'pchilik hollarda yozma manbaga ega bo'lgan Xorazm dostonlarining ba'zan aytuvchi qo'lida qo'l yozma matni ham bo'ladi. Xorazmda epik asarni baxshining bir o'zi individual ijro etish bilan birga, jamoa ijrochiligi ham keng tarqalgan. Bunda uch-besh kishidan iborat ustoz baxshi rahbarligida ijrochilar jamoasi tuziladi. Dostonni ustoz dutorda boshlaydi, qolganlari unga g'ijjak va bo'lomon bilan jo'r bo'ladilar. Naqarotni esa hammasi birgalikda ijro etadi.

Xorazm baxshilarining kuylari ko'p va xilma-xildir. Dostonning har bir qo'shig'i muayyan kuyda ijro etiladi. Dostonchilar bularni baxshi yo'llari yoki baxshi na'malari deb yuritadilar.

Xorazm dostonchiligi repertuari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, bu erda qahramonlik dostoni «Alpomish» uchramaydi, aksincha, Xorazm baxshilari repertuaridagi ishqiy-romanik dostonlarning aksariyati respublikamizning boshqa yerlarida mavjud emas.

Yuqorida ayrim xususiyatlari ko'rib o'tilgan baxshilik mak-tablari qanchalik o'ziga xoslik kasb etmasin, ularda umumdos-tonchilik an'analari yetakchilik qiladi.

O'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari haqida so'z borar ekan, xalq dostonlari tasnifi masalasiga alohida to'xtalib o'tish zarur bo'ladi. O'zbek xalq dostonlari nihoyatda ko'p tarmoqli bo'lib, uzoq asrlar davomida yaratildi va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib kelindi. Bu hol ularni muayyan turlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi. Dostonlar dastlab V. M. Jirmunskiy va H. T. Zarifov, keyinroq M. S. Saidov, B. I. Sarimsoqovlar tomonidan tasnif qilindi. Jumladan, V. M. Jirmunskiy va H. T. Zarifovlar o'zbek xalq dostonlarini qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romantik hamda kitobiy



kabi turlarga ajratadilar. M.S. Saidov esa o'zbek og'zaki an'anaviy dostonlarini qahramonlik, sof muhabbatni kuylovchi, romantik, jangnoma va tarixiy kabi turlarga ajratadi. B. I. Sarimsoqov esa xalq dostonlarining tarixiylik jihatlariga asoslanib, ularni qahramonlik, romanik va tarixiy kabi uch turga bo'ladi. Uning tasnifiga ko'ra, jangnoma va kitobiy dostonlar romanik dostonlarning bir ko'rinishidan iborat. Biroq, eposning tarixiylik jihatlari, voqelikni aks ettirish tarzi xalq dostonlarini qahramonlik, romanik, kitobiy va tarixiy dostonlar kabi to'rt yirik turga bo'lib o'rganish zarurligini taqozo etadi.

Qahramonlik dostonlari. O'zbek xalq dostonchiligi taraqqiyotida ko'pgina qatlamlar bo'lsada, ayniqsa, ikki qatlam, davomiy ikki bosqich — qahramonlik va romantik dostonlar bosqichi alohida ajralib turadi. O'zlarining yaratilish davri, mavzusi, g'oyaviy mazmuni, ijtimoiy voqelikni tasvirlash jihatlari bilan ham bu dostonlar bir-birlaridan jiddiy farq qiladi. Biroq ular bir necha asrlar davomida baxshilar tomonidan barqaror kuylab kelingan, shuning uchun ham bu xil dostonlar orasida muayyan yaqinliklar mavjud. Demak, biriga xos xususiyatning ikkinchisida zohir bo'lishi, sof qahramonlik dostonlariga xos belgilarning keyingi planga surila borishi, qahramonlik dostonlaridan romanik motivlar va epizodlarning o'rin olishi tabiiy edi.

«Qahramonlik» termini o'zbek folklorshunosligida ikki ma'noda — keng ma'noda, umuman o'zbek eposiga nisbatan, tor ma'noda, uning bir turiga nisbatan ishlatiladi.

Qahramonlik dostonlari bizgacha sof holida «Alpomish» misolida yetib kelgan.

Nomoddiy madaniy meros namunasi bo'lgan romanik dostonlar ham o'ziga xoslikka ega. Zero, o'zbek xalq baxshilari repertuaridagi dostonlarning eng katta qismi romanik dostonlardir. «Xalq romani», «romanik» atamalari turkologiyada shartli ravishda qabul qilingan bo'lib, V. M. Jirmunskiy va H. T. Zarifovlar bu terminlarni muayyan dostonlar turiga nisbatan qo'llaganlarida, atamaning shartli ekanligini va ularni Evropadagi «xalq kitoblari» bilan aralashtirmaslik kerakligini ta'kidlagan edilar. Chunki bu xil dostonlarda ko'tarinki, romantik sevgi motivlari doston qahramonlarining fantastik, g'ayri tabiiy sarguzashtlari girdobida tasvirlanadi.

Romanik dostonlarning tarkibi nihoyatda murakkab. Qahramonlik dostonlarida romanik elementlar bo'lganidek, romanik dostonlardan qahramonlik elementlari, jangnomalarga xos xususiyatlar ham mustahkam o'rin olgan.

Xalq dostonlarining yana bir guruhini kitobiy dostonlar tashkil etadi. Bu o'rinda «kitobiy» atamasi nihoyatda shartli bo'lib, ular ham aslida og'zaki kuylangan va bizgacha og'zaki ravishda etib kelgan dostonlardir. Asoslarigina yozma adabiy manbaga borib taqaladigan bunday dostonlarni xalq baxshilari shundayligicha olmay, balki ularni Jonli og'zaki epik an'analarga to'la bo'ysundirdilar. Boshqacha aytganda, kitobiylik, asosan, bunday dostonlarning manbaidadir, ijro va poetika elementlarini esa, epik ijodiyotning og'zaki an'analarisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Mumtoz poeziya namunalarining baxshilar tomonidan folklorga xos ravishda qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan yoki yaratilishi jihatidan yozma adabiy manbaga ega bo'lgan, shuningdek, bevosita yozma adabiyot ta'sirida yaratilgan asarlar kitobiy dostonlar deb yuritiladi. Kitobiy dostonlar unga asos bo'lgan manbaning xarakteriga qarab, romanik yoki qahramonlik dostonlari xususiyatlarini o'zida muayyan darajada saqlagan bo'lishi mumkin. Ularda sof folklor dostonlari uchun xarakterli bo'lgan qahramonona jasorat, [illegible] jadallardagi jangovarlik nihoyatda sust berilgan, asosiy o'rinni ijtimoiy va oilaviy hayotning shart-sharoitlari bilangina kelisha olmagan zavqli, ko'tarinki muhabbat mavzusining tasviri egallaydi.

Kitobiy dostonlarning bir guruhi mumtoz adabiyot namunalarining baxshilar tomonidan qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan. Masalan, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom» Alisher Navoiy dostonlari asosida yaratilgan. Kitobiy dostonlar orasida yana shunday namunalar borki, ularning yaratilishida asos bo'lgan manbani topish qiyin. Ammo asarning mavzusi, uslubi, tasvir mohiyati kitobiy manbaga asoslanganligi va yozma adabiyotga yaqin turganligini aniq ko'rsatadi. «Sanobar», «Zevarxon» kabi dostonlar shunday asarlardan hisoblanadi.

Xorazm dostonchiligida, shuningdek, «Malikai Dilorom», «Tohir va Zuhra» kabi bir qancha dostonlarda og'zaki va yozma adabiyotning juda murakkab formalariga, turli-tuman adabiy an'analarning o'ziga xos ravishda chatishib ketganligiga duch kelamiz.

Kitobiy dostonlarda qahramonlarning sevgi kechinmalariga alohida e'tibor beriladi. Qahramon yor uchun [illegible] sarguzashtlarni boshidan kechiradi, o'z ahvolidan fig'on chekadi, [illegible] monologlarda hijron azobidan zorlanadi, g'ayri tabiiy [illegible] yolvoradi, ya'ni qahramon kechinmalari ba'zan diniy, [illegible] sentimental mohiyat kasb etadi.



Tarixiy dostonlar. Tarixda bo'lib o'tgan voqea va hodisalar, ayrim shaxslar faoliyati asosida yaratilgan tarixiy dostonlar baxshilar [illegible] boshqa dostonlarga nisbatan juda kam o'rin egallaydi, [illegible] doiralari ham nihoyatda chegaralangan. Ularda tarixiy haqiqat [illegible] afsona, fakt bilan badiiy to'qima chatishib ketgan, ya'ni bunday [illegible] aniq tarixiy voqelikka folklorga xos ravishda yangi ma'no [illegible] va baholanadi. Shu bilan birga, ularning temasi, obrazlari, [illegible] g'oyalari aniq tarixiy sharoitdagi kurashlar bilan bog'liqdir.

Tarixiy dostonlarga «Tulumbiy», «Shayboniyxon» kabilarni [illegible] mumkin. «Shayboniyxon» dostonida epik voqelik yarim tarixiy, [illegible] afsonaviy xarakterga ega bo'lsa, «Tulumbiy»da ayrim tarixiy [illegible] nomidan bo'lak hech narsa qolmagan, ya'ni unda syujet tarixiy [illegible] asosida emas, balki ishqiy-sarguzasht planda rivojlanadi. [illegible] dostonlarda qachonlardir bo'lib o'tgan tarixiy voqealar va [illegible] shaxslar epik bayon uchun umumiy fon vazifasini o'taydi, xolos. [illegible] orasida ertak va afsonalar holida juda keng garqalgan «Xurshidoy» [illegible] ikkinchi qism sifatida «Shayboniyxon» dostoniga kiritilishi [illegible] Shayboniyxonning hukmdorlik davri bilan bog'lanishi ham shu bilan [illegible] izohlanadi.

Yetakchi baxshilar repertuarida avtobiografik asarlar ham muhim [illegible] tutadi. Bunday dostonlar liro-epik xarakterga ega bo'lib, ularda [illegible] o'zlarining hayot va ijod yo'li asosida davrning muhim [illegible] hodisalarini tasvirlaydilar. Ergash Jumanbulbul o'g'lining [illegible] hol», Fozil Yo'ldosh o'g'lining «Kunlarim», Abdulla Nurali [illegible] «Kunlarim» kabi dostonlari buning yorqin namunalaridir.

[illegible] dostonlari, uning janr xususiyatlari va turlari haqidagi bu umumiy [illegible] o'zbek eposi juda ham boy va rang-barang ekanligini ko'rsatib [illegible]

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Folklor va nomoddiy madaniy meros deganda nimani tushunasiz?
2. O'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl an'analarini tushuntirib bering.
3. Nomoddiy madaniy merosda epik ijodkorning o'rnini izohlab bering.
4. Epik ijodkorga xos xususiyatlar deganda nimani tushunasiz?
5. O'zbek xalq dostonlarini tasnif qilib bering.

**Topshiriqlar:**

1. O‘z hududingizga xos dostonchilik maktablari borasida ma'lumot to‘plang.
2. O‘zingiz tinglagan baxshining dostoni haqida fikrlaringizni qayd qiling.

## XALQ DOSTONLARI BADIIYATI MASALALARI

**Reja:**

*1. Nomoddiy madaniy meros, folklor va etnografiya.*
*3. O‘zbek xalq dostonari va urf-odat va marosimlar.*
*4. Xalq dostonlarida marosimlarning badiiy talqini.*

Epos va marosim haqida so‘z ketganda, mutaxassislar ularni bir-biriga bog‘lab turuvchi eng muhim jihatni eposning xalq ijodining spetsifik namunasi sifatida marosim va marosim fol'klori bilan bevosita aloqadorligida ko‘rishadi.[1]

Shuni aytib o‘tish kerakki, eposning, ayniqsa qahramonlik dostonlarining bevosita marosim bog‘liq jihatlari hali etarli darajada o‘rganilgan emas. Arxaik eposda, jumladan, mazkur maqolamizning tahlil ob'ekti bo‘lgan “Alpomish” dostonida ham marosimlarning muhim o‘rin tutishi va ustivor qonuniyat kashf etishi kuzatiladi. Biroq, qahramonlik eposi birgina marosimlardan kelib chiqadi yoki tug‘iladi deb xulosalash masalani o‘ta jo‘n hal etish bo‘ladi. Marosim epik formalarning trantsformatsiyasi orqali yuzaga chiqadi. Ushbu arxaik epik formaning bevosita marosim bilan aloqadorlik tomonlarini tadqiq etish eposning tub asoslarini yoritishda o‘ta muhimdir. Bu o‘rinda ikki jihatga alohida to‘xtalib o‘tish zarur:

Birinchidan , eposning marosimlardagi o‘rni va funktsiyasi. Bugungi kunda O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida davom etayotgan qadimiy an'ana - to‘yu tomosho va boshqa marosimlarning baxshilar ishtirokida o‘tkazilishi.

Ikkinchidan, marosimlarning eposda aks etishi, ya'ni marosimlarning epos syujetida tutgan o‘rni. “Alpomish” dostonini ta'bir joiz bo‘lsa, xalqimizning ko‘hna marosimlar, urf odatlar, irim-sirim, tabularning qomusi” deb atash mumkin. Chunki, hech bir eposda xalqimizning maishiy hayoti bunchalik keng ko‘lamda o‘zining badiiy

[1] Путилов Б. Эпос и обряд // Фольклор и этнография.-Л.:Наука.1974. –С.76.



ifodasini topmagan. Farzandning tug‘ulishidan oldin ovga chiqmoq, suyunchi olmoq, farzandning tug‘uishi, farzandga ism qo‘ymoq, etagiga solmoq, beshik to‘y, to‘y masalahati, jarchi qo‘ymoq, chufurron to‘y, to‘yona bermoq, atashtirib beshikkerti qilmoq, ikkinchi ism qo‘ymoq, atashtirib rumol o‘ramoq, qalliqqa bormoq, sovchi quymoq, shartlashish (kurash , ko‘pkari, poyga) kuyov navkar, to‘qqiz tovoq, kuyov tovoq, o‘tni aylanmoq, qiz yashirdi, vakil ota, vakilini bermoq, chimildiq tutmoq, it irillar, oyna ko‘rsatar, soch siypatar, qo‘l ushlatar, kuyov oldi, yuz ochdi, baqan tashlamoq, solim bermoq, ulan aytmoq kabi turli xil odat va marosimlarning “Alpomish” eposidan joy olishi muhim ahamiyatga ega va u maxsus tadqiqotni talab etadi.

Epos va marosimni o‘rganishda birinchi navbatda qiyosiy tipologik metodning ustivorligini inkor etmagan holda, struktural, lingvo - poetik va ruhiy tahlil kabi ko‘plab myetodlarga ham suyanish lozim bo‘ladi. Qiyosiy tipologik tahlilda birinchidan, marosimlarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan uni epos va eposdagi motivlar bilan muqoyasalash imkoniyati tug‘uladi. Lingvo - poetik va ruhiy tahlil metodlari epos va marosim semantikasini chuquriroq yoritib berishda asosiy omil bo‘ladi. Struktaral metod esa epos va marosim tizimini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki arxaik epos bilan marosim strukturasi o‘zaro uyg‘un kelishini ko‘ramiz.

Shomonning shajarasi, uning tanlanishi, homiy ruhlar ko‘magida bo‘lishi, o‘zga dunyoga safar, yovuz ruhlar bilan jangi, o‘zga qiyofaga ega bo‘lishi bu shomonlik marosimiga xos xususiyatdir. Arxaik, jumladan, „Alpomish” eposida ham shajaraga alohida urg‘u berilishi, Hakimbekning tug‘ilishi va doimo pirlar ko‘magida bo‘lishi, qahramonliklar namoyish etishi, safarga otlanishi, yovuzlikka ( yovuz ruhlarga) qarshi kurashi, etti yillik zindon, ya'ni ramziy o‘liklik holatidan so‘ng, qayta tirilib chiqib, Qo‘ltoy qiyofasiga kirishi struktural jihatdan shomonlik marosimi bilan aynan bir xil ekanligini ko‘ramiz. qolaversa, eposning genitik xususiyati uning janr strukturasi o‘rganish orqali ochiladi.

Marosimning eposda aks etishi haqida so‘z ketar ekan, uning asosan ikki: a) maishiy turmushda o‘z ijro o‘rniga ega bo‘lib, eposda ham badiiy aks etgan (farzandning tug‘ulishi, ism qo‘yish, beshikkerti qilmoq, atashtirib ro‘mol o‘ramoq, sovchi qo‘ymoq, qalliq o‘ynamoq va hakoza; b) maishiy turmushda ijro o‘rni unutilib, badiiy holatga ko‘chgan ( farzand tug‘ilishidan oldin ovga chiqish, kuyovga kelin

tomonidan shartlar qo'yilishi va h. ) jihatlarini tadqiq etish lozim bo'ladi.

„Alpomish" dostonida farzandning tug'ilishi ilohiy xususiyat kashf etadi. Ilohiy tug'ilish esa folklorda etakchi motivlardan biri bo'lib, u bir necha bosqichlardan iborat. Birinchisi, ota-onaning farzandsizlik holati. Bu bir tomondan ona urug'chilik bilan bog'liq tasavvurlarning marosim va dostonlarimiz qatlamida saqlanib qolganligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan dostonda ramziy ma'no kashf etib, parokanda elni birlashtiradigan, hokimiyatni mustahkamlaydigan yangi avlod, yangi alpning tug'ilishini anglatadi.

Qahramonga ism berilishi bilan bog'liq o'rinlar qisqa satrlarda aytilib ketgan bo'lsada, u doston syujetida muhim ahamiyatga ega. Doston qahramoni Hakimbek etti yoshga to'lganda Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon parli yoyni otgani uchun „Alpomish" deb ataladi: „Shunda barcha xaloyiqlar yig'ilib kelib aytdi: ...bu Alpomish alp bo'lsin. To'qson alpning biri bo'lib sanaga o'tdi".[2]

Qadim marosimlarda, xususan, shomonlikda marosimdan so'ng qahramonga ikkinchi ism berilgan. Bu birinchidan shomonning eranlar tomonidan tanlanganligini va ruhiy kamolatga yetganligini bildirsa, ikkinchi tomondan uning boshqa qiyofaga kirganligini, magik qudratga ega bo'lganligini ham ko'rsatgan. Bugungi kunda ham respublikamizning janubiy viloyatlarida ba'zan oilada o'g'il farzand tug'ilsa uni „orqalik" ekan deb, hamda insu-jins, har xil yomon ruhlardan asrash maqsadida bolaga dastlab yolg'on ism beriladi. Agar shunday qilinmasa u xastalikka chalinishi mumkin degan qarash mavjud. Ma'lum bir muddatdan so'ng kichik bir marosim o'tkazilib, bolaga haqiqiy ism qo'yilgan.

Eposda marosim hech qachon batafsil tasvirlanmaydi, balki, uning muhim nuqtalari o'z aksini topgan bo'ladi. Eng e'tiborli jihati, marosim epos tizimida syujetni yuzaga keltirib, epik xarakter kasb etadi. „Alpomish" dostonidagi Hakimbekka ikkinchi ism berilishi bilan bog'liq xalqa olib tashlansa, doston mazmuniga jiddiy putur etadi. Demak, marosim ma'lum ma'noda epos syujet xalqasining yuzaga kelishiga zamin bo'lishi bilan birga bevoista estetik funktsiya bajaradi.

Dostonda Surxayl kampir Barchinning onasiga qarata shunday deydi:

---

[2] Алпомиш. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчи Ҳоди Зарифов ва Тўра Мирзаев.- Тошкент.: Шарқ, 1998.-Б.18.



Qozonda qaynagan shirboz go'shtmidi,
Shul qizingning agar boshi bo'shmidi.
Boshi bo'shmi deyin, sendan so'rayman,
Kelin qilib biror ro'mol o'rayin.[3]

Boshning bo'shligi" hali qizning birovga atalmaganligi, hech kim bilan ahdu paymon qilmaganligi va ota – onasining rozi-rizoligi olinmaganligini anglatadi. Barchin esa tug'ilgandayoq "beshekkerti" qilingan edi. Ana shunda Shohimardon piri Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshikkerti qilib: Bu ikkovi er-xotin bo'lsin, Hakimbek bilan hech kim barobar bo'lmasin, omin ollohu akbar", - deb fotihani betiga tortdi."[4] Beshikkerti qilish odati va u bilan bog'liq marosimlar bugungi kungacha ham xalqimiz hayotida saqalanib qolgan. Beshikkertida albatta, bulg'usi kelinning boshiga ro'mol o'ralib, biror bir tilla taqinchoq taqilgan.

Bosh kiyim esa hamisha muqaddas sanalgan. O. Suxaryeva O'rta Osiyo xalqlari bosh kiyimga alohida e'tibor berishlarini, yoshiga qarab bosh kiyimlari ham o'zgarib borganligi va har bir marosimda bosh kiyim muhim ahamiyat kasb etganligini ta'kidlaydi.

Qadimda esa bosh va bosh kiyim ko'k bilan bog'langan. Shuning uchun boybichaning Surxayl kampirga bergan keskin javobida ham bir tomondan qizining yoshligida Hakimbek bilan beshikkerti qilinganligi ta'kidlanayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ular ikki dunyo, ikki olam vakili ekanligiga ham ishoradir.

Barchinning eldan ajratilib, baland bir tepalikka o'tov tikishi dostonda shunday tasvirlanadi: "O'n ming uyli qo'ng'irotdan chiqarib, Barchinning o'tovini ko'tarib, hu, anaday ovloq tepaning boshiga tikib qo'ydi. Bul o'tovda qirqin kanizlari bilan Barchin o'tirdi."[5] Bu erda diqqatimizni tortadigan ikki jihatga to'xtalib o'tish zarur. Birinchisi, Barchin o'tovining tepalikka tikilishi. Tepalik, tog' bu qadimda marosimlar o'tkaziladigan muqaddas joy hisoblangan. Ikkinchisi, o'tovning oq va baxmal ekanligi. Oq va qizil (baxmal) rang birinchi navbatda ikki olam ( erkak va ayol birligining makoni ) haqidagi qadim tushunchalarni o'zida ifoda etgan. Shuning uchun ham bu ikki rang eposda ham, marosimlarda ham aniq ramziy ma'noga ega.

---

[3] Alpomish. –B.45.
[4] Alpomish. –B.17.
[5] Alpomish. –B.65.

O'zbekistonning janubiy viloyatlarida uzatilayotgan qiz to'y kuni biror bir qarindoshi yoxud qo'shnilaridan birinikida, ya'ni o'z uyidan uzoqroqda bo'ladi. qizning dugonalari uzatilayotgan qizni yashirishib „qiz yashirdi" marosimini o'tkazadi. Kuyov tomondan tanlangan vakil bo'lg'isi kelinni topib olishi kerak. Ana shu "qiz yashirdi" marosimidan so'nggina, bo'lg'usi kelindan vakillar rozi - rizolik olishadi. Dostonda ham ayni marosim o'z aksini topgan: qadimgi rasimi shunday bo'ladi. Barchinoyni qiz opqochdi qiladi. "Bir erda bularni topib oladi".[6] Ana shu kabi marosimlardan yaxshi xabardor bo'lmasak, Barchinning o'tov tikib, o'z elidan ajralib chiqishini juda jo'n talqini qilishimiz tabiiy albatta. Aslida esa, "Alpomish" kabi mumtoz eposda, biror bir detal noo'rin kelmaydi va ularning har biri o'zining chuqur ma'nosiga ega.

Barchinning alohida o'tov tikib, o'z elidan ajralib chiqishi, bu bir tomondan qizning balog'atga etganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan uning ihota qilinishini anglatadi.

"Qiz yashirish", ya'ni turmushga chiqayotgan qizning jamoadan ajratilishi, uning ihota qilinishi, ya'ni har xil noxushliklardan, yomon ko'zlardan saqlash uchun qilingan amaliy harakat bo'lib, Barchinning tepalikka, o'tov tikishi esa ana shu qadim marosimning dostondagi badiiy ifodasidir.

Sochning marosim va folklordagi o'rni, funktsiyasi va poetik ko'lami shu darajada ulkanki, buni birgina maqola yoki tadqiqot doirasida hal etish anchayin mushkul masala.

Marosimda magik harakatlar ritual ahamiyat kasb etsa, eposda u badiiy ko'rinishga ega. Buni "Alpomish" dostonidagi "soch siypatar" va shunga kabi marosimlarda ko'rishimiz mumkin.

Soch, yol bu ruhga tegishli, birovning sochi yoxud yoliga egalik qilish, uning ruhga egalik qilish, uni o'ziga tobe etish bilan barobar hisoblangan. Frezer soch qadim marosimlarda eng yuksak mavqeda bo'lganligini, ibtidoiy inson sochni tarash, oldirish, kuydirish orqali tabiatga va ruhga ta'sir qilish mumkin deb hisoblaganligini ta'kidlaydi.[7]

Folkloshunos olim Asqar Musaqulov jahondagi ko'pgina xalqlarning tug'ilish, nikoh, o'lim marosimlari bilan bir qatorda soch olinishi ham inson hayotidagi eng muhim bo'lib, u osmon g'oyasi bilan bog'liq bo'lganligini yozadi.[8]

[6] Alpomish. –B.166.
[7] Frezer Dj. Folklor v Vetxom zavete.-M.: 1989.-S. 263-265.
[8] Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi.-T.: Fan, 1995.-B. 97.



Soch siypatar, umuman sochning o'rilishi bu qiz bolaning balog'atga etganligi anglatuvchi unsurlardan biri bulib, u qadimiy soch magiyasi bilan bog'liq marosimning transformatsiyaga uchragan bir ko'rinishidir. Soch magiyasi birinchi navbatta hosildorlik kultiga bo'lgan e'tiqoddan kelib chiqqan. "Alpomish" dostonidagi «soch siypatar» marosimida ham ana shunday qadim tasavvurlar o'z ifodasini topgan.

Arqon, tayoq, oyna marosimlarda eng ko'p ishlatiladigan predmetlardir. Ularni birlashtirib turuvchi jihat esa, bu uchala jism qadim tasavvurlarga ko'ra ikki dunyo o'rtasidagi chegara, belgini ifodalashidir. Shuning uchun kuyov-kelin yo'liga tashlanadigan arqon, tayoq ( baqan) bu ularni bir dunyodan ikkinchi bir dunyoga qadam qo'yganligini anglatgan. Shuning uchun ham homilador ayol tayoq yoki arqondan hatlamaydi, oqar suvda cho'milmaydi, tunda ko'zguga qaramaydi, sochini kesmaydi degan odatlar bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Oyna aslida suvning atributi hisoblanadi, suv tabiiy xususiyati bilan kuzguga tenglashtirilgan. Suv esa ikki dunyo o'rtasidagi chegara. Shuning uchun ham suvning barcha din va turli xil marosimlardagi o'rni juda baland.

"Kampir o'ldi" marosimi nikoh to'yining bir qismi hisoblanadi. Bu marosim ba'zi joylarda kelining uyida, ayrim hududlarda kelin kuyovnikiga olib kelingandan keyin amalga oshirilgan.

"Alpomish" dostonida u kelin, ya'ni Barchinning uyida amalga oshiriladi: Baxmal o'tovda chimildiq tutib, ko'yov no'karlari bilan bilan kuyovni kirgizmoqchi bo'lib, bir necha xotinlar "kampir o'ldi" bo'lib, o'lganiga bir nima olib, "it irillar" degan rasmini qilib,bunga ham bir narsa berib, har zamon salom solib,uydan ichkari kirib, chimildiqqa o'tirib, oldiga dasturxon solib, qo'ylarning to'shini pishirib olib kelib, bularning oldiga qo'yib, xo'p eb to'yib, ko'yov no'karlarga to'ppi, ro'mol, sarmoy berib, hammasi o'z rasmi-qa'dasini qilib, ko'yov navkarlar chiqib ketdi, bular ham mazgiligi-joy-joyiga qarab ketdi."

N.P. Lobacheva bu marosim o'tgan asrning o'rtalarida O'rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlarning barchasida uchrashini ta'kidlaydi. Bu marosim bugungi kunda saqlanib qolgan. Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida xuddi dostonda aynan keltirilgani kabi kelin tomonda amalga oshiriladi. Chimildiq tutilgan uyga kirmoqchi bo'layotgan kuyov navkarlarining yo'li to'silib, ostonada turgan bir kampir it bo'lib "irillaydi". Odatda it bo'lib irillaydigan kampir

kayvoni, uvali juvali va obro' - e'tiborli, eng muhimi kelin tomonning eng yaqinlaridan biri bo'lishi kerak.

Kampirning "ulushi" berilgach, kuyov ichkariga kiritiladi. Shundan so'ng "kampir o'ldi" marosimi boshlanadi. Unda yana uvali juvali bir kampir kelin-kuyovga solingan o'ringa yosh bolani quchoqlab yotib oladi. Atrofda turganlar "kampir o'lib qoldi", "kampir o'lib qoldi" deyishadi. So'ng kampir tush ko'rganini aytadi:

Tush ko'ribman,
ikki yoshni xush ko'ribman,
Oltin beshik bu yonda
Oltin beshik u yonda.
toq, emas, juft ko'ribman.
qo'chqorday ul bir jonda,
Basolqi qiz bir jonda,
Ko'rkam savlatli,
Molu – davlatli,
Farzandli, nevarali, chevarali ko'ribman.

Ba'zi o'rinlarda "o'lgan" kampirning tushini ikkinchi bir kampir ta'biri qilib, tushdagi ramzlarning nima ma'no ifodalashini aytib turadi.

Bu o'rinda eng avola, tushga to'xtalib o'tish zarur bo'ladi. Chunki tush ko'pchilik marosimlarda, umuman inson hayotining barcha nuqtalarida alohida ahamiyat kasb etgan. Ibtidoiy inson o'zining o'tmishi, buguni va kelajagini ham tushsiz tasavvur eta olmagan. Biror bir insonning dunyoga kelishi, kamol topishi, baxtli bo'lishi yoki falokatlarga yo'liqishi tushlarda ayon bo'lgan.

Nikoh esa hamma vaqt o'lim va tug'ilish orasidagi muhim bir vosita, hayot – o'lim - hayot davomiylik siklining boshlanishi hisoblangan.

O'lib tiriluvchi ma'budlar haqidagi qadim tasavvurlarga ko'ra, keksa qish ier yuzini tark etgandan so'ng, u yangi – bahor qiyofasida dunyoga keladi. O'lim yo'q ekan, tug'ulish ham bo'lmaydi; qish o'lmasa, bahor tug'ilmaydi. Aslida o'lim va tug'ilish bir holatning ikki ko'rinishi xalos.

Dostondagi "kampir o'ldi" marosimida ham xuddi ana shu narsa, ya'ni bir fasl(tsikl) o'rnini, ikkinchi bir fasl olganligi, "kampir" o'lib, yangi oila dunyoga kelayotganligi, mangu davomiylik siklining ramziy ifodasidir.



Tabiat faslini keksa kampir qiyofasida tasavvur qilish "Choy momo", "So'st xotin" marosimlarida o'zining yanada yorqinroq ifodasini topgan.

Ma'lumki, o'liib tiriluvchi ma'budlar haqidagi ko'plab miflar mavjud. Bunday miflarga xos bo'lgan eng muhim xususiyat ularning tabiat va hosildorlik kultini o'zida mujassam etgani va ularning ko'pchiligi albatta, ayol qiyofasida bo'lganidir. Har fasl almashganda esa ularga qurbonliklar qilinib, maxsus marosimlar o'tkazilgan. qadim Misrda Osirisning o'lib-tirilishi bahor marosimlarida tomosha qilib ko'rsatilgan.

Germaniyada yangi nikoh qurgan kelinchaklarga o'limni ifodalovchi somondan qilingan qo'g'irchoq ko'rsatilgan. qari kampir ko'rinishidagi "O'lim" kelinchakning ko'p farzandli bo'lishiga yordam beradi degan tasavvur bo'lgan.

Ko'pgina tadqiqotchilar O'limning hosildorlik va serfarzandlik bo'lishida ko'rsatadigan ta'siri haqida tasavvurlar nikoh marosmlarida juda barqaror ekanligini ta'kidlashadi.

Shuning uchun ham oila va mavsum marosimlarini bir-biri bilan o'zviy bog'liq ravishda o'rganilishi zarur. Zero, oila marosimlarining barcha qirralari mavsumiy marosimlarini o'rganish orqali ochiladi.

Epos va marosim bir-biri bilan chambarchas bog'liq jarayon. Marosimlarning tarixiy ildizlarini yoritishda eposga murojaat etish tabiiy. Eposdagi motivlarni esa marosimlar bilan qiyosiy o'rganganimizdagina ularning mazmun mohiyati yanada to'laroq ochilishi mumkin.

Dostonlar badiiyatini undagi bir motiv talqinida ham ko'rishimiz mumkin. Dostonlarimizdagi har bir so'z, har bir misra, har bir obraz va motivlar chuqur tahlil qilingan va qiyosiy o'rganilandagina uning yuksak badiiyat namunasi ekaniga amin bo'lamiz. Qahramonlik dostonlarimizda ana shu tur eposining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi ko'plab motivlar mavjud. Shulardan biri tug'ilish motividir.

«Alpomish» dostonida qahramon – alpning tug'ilishi ilohiy xususiyat kasb etadi. Ilohiy tug'ilish folklordagi etakchi motivlardan biri bo'lib, bir necha bosqichlardan iborat. Birinchisi: Alp- qahramon tug'ilishidan oldin uning ota-onasining farzandsizligi holati. Bu holat eng avvalo ramziy ma'noga ega. Bu bir tomondan ona urug'chiligi bilan bog'liq tasavvurlarning doston qatlamida saqlanib qolganligidan dalolat bersa, ikkinchi jihatdan, hokimiyatni mustahkamlaydigan, parokanda

elni yana qayta birlashtiradigan yangi avlod – yangi qahramonning tug'ilishini anglatadi. Ikkinchisi: qahramon tug'ilishi ilohiy karomat qilinishi. Uchinchisi: qahramon tug'ilgandayoq uning zimmasiga yuklatilgan vazifa, ya'ni o'tashi shart bo'lgan sinovlarning oldindan belgilab qo'yilishi.

Atoqli olim V.Jirmunskiy ilohiy tug'ilish motivini partogenezis ayollarning sirli, ilohiy homilador bo'lishi, ya'ni qadim tasavvurlar bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.┐

Eposda qahramonning biror bir meva yoxud totem hayvon sababli yoki homiy ruh tufayli dunyoga kelishi va ularning tug'ilayotgan paytida otalarning uyda bo'lmasligi olimning yuqoridagi fikri asosli ekanini ko'rsatadi.

V. Propp ham ilohiy tug'ilish motivini materiarxat davri bilan bog'lab , uning bir necha turlarini sanab o'tadi. Bular: 1) Mevadan tug'ilish; 2) so'z – duodan tug'ilish; 3) ruhdan tug'ilish; 4) pechkadan tug'ilish; 5) yaratilish (yog'ochdan yoxud boshqa biror bir narsadan yasash).┐

V.Proppning bu tasnifi ancha bahsli. Zero, bu yerdagi mevadan tug'ilish bilan yog'och yoxud biror bir daraxt novdasidan yaratilish aynan bir narsa. Shuningdek, so'z –duodan to'g'ilish va ruhdan yaratilishni ham ayro – ayro holda emas, balki bir holatning turli matnlardagi turlicha ko'rinishi deb qarash lozim bo'ladi.

O'zbek dostonlaridagi tug'ilish motivi esa asosan:

- totemistik tasavvurlar ;
- ajdodlar kulti bilan bog'liq tasavvurlar mahsuli ekanini ko'rishimiz mumkin.

«Alpomish» dostonining Po'lkan shoir va Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li variantlarida Boybo'riga farzand ato etilishi tushida ayon bo'ladi.

Alpomishning boshqa variantlaridagi tug'ilish motivini ham chuquriroq tahlil qilsak, u bevosita tush bilan bog'likligini ko'ramiz. Fozil shoir variantida «Alpomish»ning tug'ilishi Shohimardon pirning ravzasida tunab qolish bilan bog'lanadi, ya'ni qahramonning tug'ilishi ularning tushida ilohiy karomat qilinadi.┐ Umuman tush va tug'ilish motivi dostonlarimizda ko'pincha yonma-yon keladi.

«Manas» dostonida ham Manasning tug'ilishi tushda ayon bo'ladi. Manasning otasi Jaqipning tushini Boyjigitdan boshqa hech kim ta'birlab berolmaydi. Jaqipning tushidagi burgut va yo'lbars tug'ilajak farzand nishonasi sifatida ta'riflanadi.



Boybo'rining farzandsizlik holati dostonda ramziy bir ma'noga ega bo'lib, gap yangi avlod – madaniy qahramonning tug'ilishi haqidadir. Qahramonning tug'ilishidan oldin uning yurtida xaosning - parokandalikning hukm surishi bu barcha arxaik eposga xos xususiyatdir.

Alpomishning dostonda bobosi Alpinbiydan qolgan, ko'lda zang bosib yotgan kamonga egalik qilishi va alp atanishi bizga ana shu ramziylik kalitini topib beradi. Kamon eposda eng avvalo kosmosning, saltanatning timsoli bo'lib keladi.

Alpomishning tug'ilishi xaosning kosmosga aylanishi, tartibsizliklarga tartib berilishi, parokandalikning birlashishi, quvvatning jam bo'lishi, ezgu adolatning tantana qilishidir.

Shohimardon pir bilan bog'liq o'rinlarni islomdan keyingi tasavvurlar mahsuli. Zero, dostonning asosiy syujet tizimi, undagi mazmun va mohiyat islomiyatdan ancha oldingi, qadimiy tasavvurlar bilan bog'lanadi. Bizningcha, Shohimardon pir bilan bog'liq o'rinlar, aslida, o'zida ajdodlar kultini tamsil etgan Qultoy obraziga tegishli deb qarash kerak. Qultoy dostonda oddiy bir cho'pon emas, Alpomishga hamisha ko'mak beruvchi homiy ruhdir. Dostonda Alpomishning Qultoyga tutungan o'g'il ekanligi aytiladi. «Bilmaganlar Alpomishni Qultoyning uli der edi.» Alpomishning yelkasidagi besh panja izining izi Qultoyga tegishli ekanligi ham, zindondan qaytgan, ya'ni qayta tirilgan Alpomishning Qultoy qiyofasiga kirishi ham bejiz emas.

Alp - qahramonning tug'ilishi va uning shajarasining ilohlar bilan bog'lanishi jahon epik ijodiyotida ko'plab uchraydi.

«Gilgamish» dostonida Gilgamish va Enkidu ham yarim odam – yarim iloh: «Sen bir xilqat Enkidu, misoli tangri kabi».

«Maxobxorat» dostonida ham pandavilar Pand shohining o'g'lilari. Biroq, shoh Pand tavqi lan'atga uchragan, xotinlari tangri inoyati bilan farzand ko'radi.┐

«Odisseya» dostonida ham Odissey Laertning o'g'li. Shuning bilan bir qatorda u Zevsning o'g'li ham. «Zevs ato etgan Laertning o'g'li».

Qahramon – alpning ilohiy tug'ilishi motivida bir tomondan, uning ilohlar bilan bog'liqligi e'tirof etilsa, ikkinchi tomondan u o'z shajarasining davomchisidir. Shunga ko'ra Alpomish Boybo'rining bolasi, Dobonbiy va Alpinbiylarning avlodi. Ikkinchi tomondan u farzandsizligi tufayli Boybo'riga Shohimardon pir, ya'ni Qultoy tomonidan ato etilgan ilohiy farzand. Shuning uchun ham u Qultoyga

o'g'il hisoblanadi. Shuning uchun ham etti yillik zindondan so'ng aynan Qultoy qiyofasiga kiradi. «Dada Qo'rqut kitobi»da bu holat ochiqroq bayon qilingan, ya'ni Bomsi Bayrak, o'ziga ism bergan, o'ziga homiylik qilgan o'zon - Qo'rqut ota qiyofasiga kiradi. «Alpomish» dostonidagi Qultoy ham, «Dada Qo'rqut kitobi»dagi Qo'rqut ota ham ajdodlar kultini o'zida tamsil etgan badiiy obrazlardir.

Ko'pchilik olimlar ilohiy tug'ilish motiviga epik qahramonning xislatlarini bo'rtirib ko'rsatuvchi vosita sifatida qarashadi. Biroq bu qahramonning eposdagi funktsiyasiga kiradi. Motivning mifologik asoslarini bu hol izohlay olmaydi. Chunki, eposda funktsiya va genezis boshqa-boshqa masala. Ilohiy tug'ilish motivi arxaik eposga xos bo'lib, u epos qonuniyatlarini, uning struktural tuzilishi, epos va mif munosabatini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. To'g'ri, birgina motiv bilan epos va mif munosabatini yoritib berish mushkul. Shuning uchun eposdagi boshqa yetakchi motivlarni ham o'zaro qiyoslashni talab etadi. Shundagina biz epos va mif munosabatidagi o'zaro bog'liqlikni, eposda ham mifda ham bitta tizimga rioya etilganini ko'ramiz. Farzandsizlik - ilohiy tug'ilish - ulg'ayish, - safar-sinov - qaytish. Shuning uchun ilohiy tug'ilish motivi dostondagi boshqa etakchi motivlar bilan qiyosiy o'rganilgandagina, eposning mifologik asoslari va badiiyati yanada chuqiriroq ochiladi. Xuddi mif yoxud ertakdagi kabi eposdagi qahramon tez va g'ayritabiiy ulg'ayadi, yoshligidayoq o'z qahramonliklarini namoyish etadi. Alpomish etti yoshida Alpinbiy bobosidan qolgan «o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyini otib alp ataladi: «Oxiri Alpomishbek Alp bo'lib, to'qson alpning biri bo'lib, sanaga o'tib, alplik otini ko'tarib, etti yoshida Alpomish oti qo'yildi».

Alpomishning barcha variant va versiyalarida ham ana shu holat takrorlanadi. «Dada Qo'rqut kitobi»da Bomsi Bayrak karvonga hujum qilgan yog'iylarni yengib jasorat ko'rsatadi. Manas ham yetti yoshida o'z jasoratini namoyish etadi.

Qahramonning jasorat ko'rsatgandan so'ng unga haqiqiy ism berilishi qadimgi bitik, ya'ni Kultegin yodnomasida ham uchraydi. «Otam Haqon o'lganda inim Kultegin etti yoshda qoldi. O'n yoshda Umayday onam baxtiga inim Kultegin Er degan nom oldi».

Ko'pgina arxaik eposda qahramon yovuzlik timsoli bo'lgan ajdarho – dev va shunga o'xshash biror bir mahluqqa qarshi kurashadi. Sigurdning («Yedda»da) ajdarhoni o'ldirishi, Ramning rakshaslarni, Gilgamish va Enkiduning esa Xumbabuni o'ldirishi, Alpomishning



Surxayl maston va uning o'g'illari bilan kurashi xuddi ana shuning timsolidir.

Eposda garchi yovuz kuch juda ko'p evrilishlarga uchragan, qahramon endi ma'lum bir dushman kuchlariga qarshi kurashsada aslida, bu yovuzlik ibtidosi er osti dunyosining yovuz kuchlariga qarshi kurashini anglatadi.

Shuning uchun «Alpomish» dostonida Alpomishning raqibi Toychixon emas, Surxayl maston va uning o'g'illaridir. To'qson qalmoq [illegible] g'orda yashashi ham, tashqi tasviri ham bizga er osti yovuz kuchlarini eslatadi.

«Alpomish» dostonining boshqa variantlarida «Toychixonning 90 ta dev askari, Maston kampirning 5 ta dev o'g'li bor edi»,- deyiladi va Alpomish 90 gazli devlarga qarshi kurashadi.

P.A.Grintser yovuzlik timsoli mifologik mahluqlarga qarshi kurash qahramonning jasoratini namoyish etuvchi bir sifat bo'lib, bu jahon eposidagi asosiy motivlardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Yarim odam - yarim iloh bunday qahramonlarning hali yoshlik chog'idanoq jasorat ko'rsatishi qahramonlik eposiga xos bir xususiyat bo'lib, bu jasoratlar qahramon tug'ilishi karomat qilinganda uning taqdiriga bitilgan, zimmasiga yuklatilgan vazifalardir. «Gilgamish» dostonida Gilgamish, «Odisseya» dostonida Odissey, «Dada Qo'rqut kitobi»da Bomsi Bayrak xuddi ana shunday xislatlari bilan ajralib turadi.

«Alpomish» dostoniga ham xos bo'lgan bunday jihatlar esa uni jahon eposining durdonalari bilan qiyosiy o'rganish imkoniyatini beradi.

Alp - qahramonning ham ilohlarga xos bo'lgan xususiyati ularning tashqi badiiy tasvirlarida ham yaqqol ko'rinadi. Alpomish, Go'ro'g'li va boshqa qahramonlarning tashqi ko'rinishi tasvirlari ham bizga dev yoki ajdarho kelbatini eslatadi. Alplarning ulkanligi, g'ayri-tabiiy kuch-qudratga egaligi, tashqi badiiy tasvirlari bilan dev va ajdarho kabi mifologik mavjudotlarga qiyoslanadi.

«...Qaddi qomati Hazrati Aliga o'xshar, simbati Yusuf payg'ambarga o'xshar, kelbati o'ttiz ikki gaz,...bahodirlikda bekamu – kust» Alpomishning olti botmon oltin soqqani o'ynab yurishi, tovushiga o'n bir tog' tebranishi, har nonushtaga to'qsontadan jonivorlarni yeyishi nafaqat badiiy mubolag'a, balki ma'bud, ilohlar haqidagi qadim tasavvurlarning badiiy ifodasi hamdir. Eposda qahramonning ilohiy kuch qudratga ega bo'lishi, ularning badiiy tasviridagi bunday mubolag'ali jihatlarda birinchidan alplar ilohiylashtirilsa, ikkinchidan

xalqning asta sekin ilohiy kuchlar haqidagi tasavvurlardan hayotiy kuchlarga, alplarga o‘ta boshlaganini ko‘rsatadi.

Dostonlarimizdagi tug‘ilish motivining qiyosiy tahlili dostonlarimizdagi boshqa etakchi motivlarni tadqiq etishda uning poetik xususiyatlarini, mifologik qatlamining tarixiy ildizlarini, ulardagi asl ma’no va mohiyatni yanada chuqurroq o‘rganishda yaqindan yordam beradi.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1.O‘zbek xalq dostonlarida marosimlarning badiiy aks etishini tushuntirib bering.
2.Epos va marosim deganda nimani tushunasiz.
3.O‘z hududingizga xos bo‘lgan marosimlar haqida so‘zlab bering.
4.O‘zingiz guvoh bo‘lgan marosimlarni o‘zbek dostonlaridagi marosimlar bilan qiyoslang.
4.Bugungi kunimizad unut bo‘lgan marosimlar haqida so‘zlab bering.
5.Urf-odat va marosimlarimizdagi milliylik va umuminsoniylik deganda nimani tushunasiz?

**Topshiriqlar:**

1. «Alpomish» dostonini o‘qib, o‘z taassurotlaringizni so‘zlab bering.
2. O‘z hududingizga xos doston va marosimlar haqida tushuncha bering.

## O‘ZBEK XALQ IJRO SAN'ATINING NOMODDIY MADANIY MEROSDA TUTGAN O‘RNI

**Reja:**

1. ***Qo‘shiq janriningsh o‘ziga xos xususiyatlari.***
2. ***Qo‘shiq janri va uning tasnifi i.***
3. ***Qo‘shiqning nomoddiy madaniy merosda tutgan o‘rni.***

Garchand nomoddiy-madaniy meros atamasi keyingi yillarda paydo bo‘lgan bo‘lsada, biroq uning mohiyatida, tub ildizlarida xalqimizning og‘zaki ijod namunasi sifatida qaralib kelinayotgan qadimiy folklor namunalari turadi. Ma'lumki, nomoddiy-madaniy meros shartli ravishda katta beshta guruhga bo‘linadi, bular:
- o‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki shakl va an'analari;



- ijro san'ati;
- marosi, udum va bayramlar;
- tabiat va koinot bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar;
- hunarmandchilik san'ati.

Nommoddiy-madaniy merosning barcha qatlamlarida xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Faqat nomoddiy madaniy meros fanining mohiyatini anglatishda folklor namunalarining janr xususiyatlari, mifologik va tarixiy asoslari, til xususiyati va badiiyati bilan birgalikda tadqiq etilishi lozimligini unutmaslik lozim.

Nomoddiy-madaniy merosning eng qadimiy, boy va rang-barang namunalaridan biri, shubhasiz, xalq qo‘shiqlari hisoblanadi. Maqol, matal, topishmoq bilan bir qatorda xalq qo‘shiqlarining Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni lug‘otit turk» kitobidan joy olishi ham bejizga emas. Bu, bir tomondan, xalq qo‘shiqlarining o‘sha olis davrlarda ham rang-barang bo‘lganligini, tarixiy ildizlari juda qadimiy ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, ularni tasniflashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq qo‘shiqlarining tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uzoq tarixiy taraqqiyot davomida qo‘shiqlar mifologik tafakkurdan badiiy tafakkurga aylanib borganligining guvohi bo‘lamiz. Shuning uchun qo‘shiqlarda qadimiy tasavvur izlari bilan bir qatorda, o‘rta asrlarda hamda kuni kechmish yoxud bugun yuz berayotgan voqealar, kechinmalar o‘z ifodasini topadi.

Turkiy xalqlarda «qo‘sh» so‘zi uch ma'noda: «kuylamoq», «qo‘sh qo‘shmoq» – er, haydab, ekin ekmoq va juft ma'nolarini bildiradi. Har uch ma'no ham bir-birini inkor etmaydi.

«Qo‘sh» mavsum, ya'ni bahor marosimida ilohlarni ulug‘lab aytilgan qutlov, alqovdir (Saxa turklarida shomonlik qo‘shig‘i – kuturuu – so‘zi kut – ruh, uruu – ulug‘lamoq, qutlamoq ma'nolarini anglatadi). Shuning uchun «kuylamoq»ning bevosita hosildorlik kulti bilan aloqdorligi, ekin-tikin payti bu qo‘shiqning kuylanishi albatta shart bo‘lgan.

Ma'lumki, qo‘shiqlar asosan to‘rtliklardan tashkil topgan. Ikki misraning birikib, juftlik, ya'ni «qo‘shiq» hosil qilishi shunchaki tasodif emas.

Qo‘shiq so‘zi «Devonu lug‘otit turk»da «qoshug‘», Yusuf Xos Hojibda «qoshuq», Haydar Xorazmiyda «qo‘sh», Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat-ul-adab» asarida «qo‘shiq», Alisher Navoiy asarlarida «qo‘shiq», «surud», «ayolg‘u», «lahn», «turku»,

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»sida «qo'shi[illegible] shaklida kelganini ko'ramiz. Alisher Navoiy ham, Bobur ham x[illegible] qo'shiqlarini nazarda tutganda «qo'shiq» kalimasini ishlatadi. Qolg[illegible] paytlarda «surud» yoxud boshqa bir atamani keltiradi.

O'zbek xalq qo'shiqlari bugungi kunga qadar ko'p maroto[illegible] o'rganilganligiga qaramay, afsuski, yetarli darajada tasnif etilgan emas[illegible]

Qo'shiqlarning tasnifi masalasida xorijlik olimlarning ham fi[illegible] turlicha. Ayrimlari qo'shiqlarning ijro etilishi holati va musiqiyligi[illegible] qarab tasnif etilish kerak desa, ayrimlari ijro o'rniga qarab tasnifla[illegible] lozim deyishadi. Ayrim olimlar qo'shiqning ma'lum bir turi yuzasid[illegible] fikr bildirsa, boshqasi boshqa bir tur xususiyatidan kelib chiqib fi[illegible] yuritadilar.

Shu o'rinda qo'shiqlarni qaysi mezonlar asosida tasnif etish lozi[illegible] degan savolning qo'yilishi tabiiy, albatta.

Bizning nazarimizda, qo'shiqlarning tasnifida eng avvalo bi[illegible] mezonga amal qilish lozim. To'g'ri, qo'shiq janrining ichdagi tur v[illegible] uzvlarning har biri o'z spetsifik xususiyatlariga ega ekanligi tabiiy[illegible] Biroq, bu xususiyatlar ularning tasnif etilishida yaxlit bir mezond[illegible] kelib yondashishga monelik qila olmaydi. Shunday ekan, qo'shiqlar ij[illegible] o'rni, holati, musiqaga munosabati va badiiyatidan kelib chiqib: 1) ij[illegible] o'rni; 2) poetik strukturasi, 3) musiqiyligi va raqsga munosabatiga qara[illegible] tasnif etilishi lozim.

Ijro o'rniga qarab tasnif etilganda qo'shiqlar: marosim v[illegible] nomarosim qo'shiqlariga ajraladi. O'z navbatida, marosim qo'shiqla[illegible] ham ikki: mavsum-marosim va oilaviy-maishiy marosim qo'shiqlari[illegible] bo'linadi. Mavsumiy marosim qo'shiqlari tematik va funksion[illegible] xususiyatlariga ko'ra, yilning to'rt mavsumi bilan bog'liq (Navro'z[illegible] Sust xotin, Choy momo, Obla baraka, Yas-yusun) bilan bog'li[illegible] qo'shiqlarni kiritish mumkin.

Marosim qo'shiqlari inson hayotining eng muhim davrlari, burilis[illegible] nuqtalari (tug'ilish, balog'at, uylanish, o'lim) va ularning tabiatg[illegible] munosabati o'z aksini topgan bo'lib, maishiy, psixologik hamda estetik[illegible] funksiya ham bajarib keladi.

Ayrim mavsumiy marosim qo'shiqlari davrlar o'tishi bilan liri[illegible] qo'shiqlarga aylangan holatlar mavjud. «Qoshingni qor[illegible] deydilar»,«Kichkinajon – kichkina», bolalarning «Boychechak»[illegible] «Chuchvara qaynaydi», «Oftob chiqdi olamga» qo'shiqlari ana shular[illegible] jumlasidandir. Bu qo'shiqlar dastlab faqat mavsum marosimida ijr[illegible]



[illegible]ilgan. «Qoshingni qora deydilar», «Kichkinajon-kichkina», [illegible]Boychechak» bevosita Navro'z, ya'ni bahorgi marosim bilan bog'liq.

Oilaviy-maishiy marosim qo'shiqlari safiga farzandning tug'ilishi, [illegible] va nikoh to'yi, motam-marosimi bilan bog'liq yig'i-yo'qlov, [illegible] yor-yorlari va shomon aytimlari bilan bog'liq kinna, badikni [illegible] mumkin.

Oilaviy-maishiy deyilishga sabab faqat to'y yoxud aza emas, balki [illegible] bir oilada hayotida duch kelinadigan marosimlar ham nazarda [illegible]. Masalan, kinna, badik, olqishlar maxsus tashkil etilgan [illegible]marosimlardagina ijro etilgan. Biroq davrlar o'tishi bilan ko'proq [illegible]maishiylik kasb eta borgan va uni istagan paytda qushnoch, folbin yoki [illegible] ijro etish mumkin. Shuning uchun so'zning magik qudratiga [illegible]gan matnlarni biz aytimlar deb tahlil etish tarafdorimiz.

Nomarosim qo'shiqlari esa asosan lirik qo'shiqlardan tashkil [illegible] bo'lib, marosim qo'shiqlaridan farqlanib turadigan jihati ularning [illegible] marosim bilan maxsus bog'lanmaganligi, istalgan paytda, [illegible] joyda aytilishidir. Bu yo'nalishdagi qo'shiqlar: 1. Mehnat qo'shiqlari. 2. Tarixiy qo'shiqlar. 3. Termalar. 4. Bolalar qo'shiqlari: [illegible], huyalar, bolalarning o'zi tomonidan kuylanadigan qo'shiqlar. 5. Lirik qo'shiqlarga bo'linadi.

Mutaxasislar mehnat qo'shiqlarini xalq lirikasining eng qadimiy [illegible]dan biri sifatida bilishadi. Mehnat qo'shiqlari ham qachonlardan [illegible] marosimlar tarkibida ijro etilgan. Keyinchalik davrlar o'tishi bilan marosim unutilib, faqat qo'shiq matni qolgan. Misol uchun qo'sh, [illegible], oblo baraka, ho'p mayda, yorg'ichoq qo'shiqlarini olaylik. [illegible] qo'sh haydash ham, o'rim ham, oblo baraka ham maxsus marosim [illegible]nalgan.

Mehnat qo'shiqlarining o'zi ko'plab

a) dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar (qo'sh, oblo baraka, yorg'ichoq qo'shiqlari),

b) chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar (sog'im qo'shiqlari: [illegible] hushey, turey-turey, churey-churey),

v) kasb hunar (charx, bo'zchi, gilam to'quvchilar va hokoza) qo'shiqlaridan tashkil topgani holda, tarixiy qo'shiqlar tarixda bo'lib o'tgan biror bir voqea yoxud shaxs haqida to'qilgan satrlardir. Tarixiy qo'shiqlarning eng go'zal namunasi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk kitobi»da keltirilgan. Bu kitobdagi to'rtta marsiyani yig'i-yo'qlov namunasi emas, tarixiy-qahramonlik qo'shig'i namunasi sifatida o'rganmoq lozim.

Termani mutaxassislar ham lirik, ham epik turga kiritishad To'g'ri termaning profesonal ijodkor– baxshi tomonidan ijro etilish doston kuylash an'anasi bilan chambarchas bog'liqligi uni epik tur dey tadqiq etish imkonini beradi. Biroq unda epik voqelik emas, ijodkorni ma'lum bir holatdagi kechinmalari o'z ifodasini topadi. Ya'ni baxsh terma kuylash orqali o'zini doston aytishga, tinglovchini esa dosto tinglashga tayyorlagan. «Kunlarim», «Do'mbiram», «Nima aytay» an shunday termalar sirasiga kiradi. «Oq olma qizil olma» to'plamid noma'lum shoirdan yozib olingan «Bibi shaylanayotir» termasi sh paytgacha yozib olingan termalarning eng go'zal namunasidir.

Bolalar qo'shiqlari atamasini ham keng ma'noda tushunmoq kerak Birinchi o'rinda kattalar tomonidan bolalarga atab aytiladigan qo'shiqlar: Alla va huyalar. Alla hamma uchun tushunarli. «Huya» bu O'zbekistonning janubiy viloyatlarida otalarning bolalarni erkalatish uchun aytgan qo'shiqlaridir. Alladan farqli tomoni uni faqat erkaklar ijro etadi. Huya aytish an'anasi bugungi kungacha yaxshi saqlanib kelinayapti. Ikkinchisi esa bolalarning o'zi tomonidan kuylanalidigan qo'shiqlar. «Boychechak», «Chittigul», «Oq terakmi ko'k terak», chorlamalar shular jumlasidandir.

O'zbek xalq qo'shiqlarining asosiy qismini lirik qo'shiqlar tashkil etadi. Bu o'rinda lirik deganda biz sevgi muhabbat haqidagi ishqiy-maishiy qo'shiqlarni nazarda tutamiz. Lirik qo'shiqlar ham 1) Aytishuv yo'nalishidagi (O'lan va lapar) aytishuv yo'nalishida bo'lmagan, turli mavzudagi qo'shiqlarga ajratib tasniflash mumkin.

Poetik strukturasiga ko'ra tasnifda qo'shiqlar ohangini, ya'ni yo'lini naqoratlar va takrorlar belgilab beradi. Qo'shiqlar ohang yo'liga qarab farqlanganda ikki holatni kuzatamiz. Birinchi holat to'rtliklar erkin holda birikib, har bir to'rtlik individual bir kechinmani aks ettiradi va o'ziga xos kompozitsion qurilmaga ega bo'ladi. Ikkinchisi qo'shiq matnidagi to'rtliklar o'zaro birlashib, ma'lum bir voqeani yoxud kechinmani ifodalab keladi. Qo'shiqlar ohang yo'liga ko'rab farqlanganda ular asosan ikkita katta guruhga ajraladi: : a) Voeqeaband –to'rtlik qo'shiqlar; b) Voqeaband bo'lmagan – to'rtlik qo'shiqlar

Voqeaband qo'shiqlarda yuqorida ta'kidgalanimizdek har bir to'rtliklar ma'lum bir voqea bilan o'zaro birikib keladi. Bu erda to'rtliklarning ketma-ketligi turg'un holatga kelib, voqeabandlik hosil bo'ladi.

Voqeabandlik masalasiga olimlarning qarashlari turlicha. Ayrim olimlar voqebandlik (syujet) barcha qo'shiqlarga xos desa, boshqa



olimlar butunlay teskarisini, ya'ni syujetlilik qo'shiqlarga xos emasligini uqtiradi. Har ikki qarashga ham qo'shilib bo'lmaydi. Birinchidan syujet hamma qo'shiqlarda ham uchrayvermaydi. Biz tahlilga tortgan qo'shiqlarning asosiy qismi voqeaband emas, ya'ni syujetga ega bo'lmagan qo'shiqlardir. Bundan syujet qo'shiqlarga xos emas degan fikr kelib chiqmaydi. Shunday qo'shiq namunalari borki, ularda voqeabandlik ustunlik qiladi. Bunday qo'shiqlar ma'lum bir syujet asosiga quriladi va matndagi satrlar ushbu voqeani ifodalab keladi. Misol uchun «Oqti, oqti, Aminaxon oqti…», deb boshlanuvchi qo'shiqni olib qaraylik.

Bu qo'shiqda Aminaxon ismli qiz balog'at yoshiga etib, bir yigitning yolg'on va'dasiga ishonib, homilador bo'lib qolgani, onasi bilib qolgach, qiz nomusiga chiday olmasdan o'z joniga qasd qilgani, undan keyin uning jasadini ko'prik tagidan topib olingani hikoya qilinadi.

«Savrixonning ro'moli» qo'shig'ida ham aynan shunday voqeabandlikni ko'ramiz. Bunday voqeabandlik kelin salom, yor-yorlarda va ayrim mehnat qo'shiqlarida ham uchraydi.

Voqeaband bo'lmagan qo'shiqlarda har bitta to'rtlik mustaqil holda bir kechinmani ifodalab keladi. Ularni faqat ohang va naqoratlar bog'lab turadi.

Devor ustiga devor,
Devona bo'lsin akang.
Boshida shoyi ro'mol,
Parvona bo'lsin akang.
Yaqu-yaqu yaquyaq. Yaqu-yaqu yaquyaq.

O'lanlarda ham voqeabandlik kuzatilmaydi.

Voqeband bo'lmagan qo'shiqlarning o'zi kompozitsion jihatdan yana 3 ga bo'linadi.

**Holat qo'shiqlar**. Hamma qo'shiqlarda kechinma, holat aks etsada holat qo'shiqlarida qahramon hech kimga murojaat qilmaydi, balki o'z holatini anglatishga harakat qiladi.

Yor yurgan ko'chalarni,
Supuray sochim bilan.
Chang chiqsa suv sepay,
Ko'zdagi yoshim bilan.

**Murojaat qo'shiqlar.** Bunday qo'shiqlarda qahramonning so'zl... kimgadir – sevgilisi, yaqinlari yoki boshqa bir kimsaga murojaat tarz... bo'ladi.

Otma meni toshlar bilan,
Uchib ketay qushlar bilan.
Qushlar qaytsa, men qaytmasam,
Ko'zing to'lsin yoshlar bilan.

**Aytishuv qo'shiqlari.** Aytishuv qo'shiqlarining eng go'z... namunasi O'lan va laparlardir. Ularda qiz va yigit juft bo'lib yox... tarafma-taraf bo'lib, aytushuvda o'zaro musoboqalashadilar.

Yigit:
Kakang keldi deganda, kakang keldi, yor-yor.
Xo'rozlarning ichida, dakang keldi, yor-yor.
Qiziq-qiziq o'landan ayt oxun qiz, yor-yor,
Tarap bo'lib aytmoqqa akang keldi, yor-yor.

Qiz:
Bulbullarning qo'ngani gul bo'ladi, yor-yor,
Olamdagi bor so'zni, til biladi, yor-yor.
Tarap bo'lib aytmoqqa kepsiz, aka, yor-yor,
Oxunliging bu erda kim biladi, yor-yor

Qo'shiqlarning asosiy qismi barmoq vaznidagi to'rtliklardan iborat bo'lib aruz vaznidagi namunalar ham uchraydi. To'rtliklar qo'shiqning eng qadimiy namunasi ekanligini mutaxassislar e'tirof etishadi. Qo'shiqlarda bir xil turoqlarga amal qilinishi qo'shiqning ohangdorligini ta'minlab, uning poetik xususiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Takrorlar xalq qo'shiqlari badiiyati tizimidagi muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Satr boshida, o'rtasida yoki oxirida kelishadan qat'iy nazar takrorlar qo'shiqdagi ilgari surilgan mazmunni ochib berishga xizmat qilish barobarida ohang va kuyning yaxlitligini ta'minlab beradi.

Qo'shiqlardagi naqoratlar esa an'anaviy naqoratlar va noan'anaviy noqoratlarga bo'linadi. An'anaviy naqoratlarda: So'z; misra; to'rtlik takrorlanib keladi. Bular an'anaviy naqoratlar. Bu naqoratlar turli xil qo'shiqlarda uchrashi mumkin. To'g'rirog'i bu erda ohangni ushlab turuvchi naqoratlar qoladi, faqat matn o'zgaraveradi. Har qanday matn



...naqorat ohangiga moslashadi. Takrorlarda matn bilan ...ohan bog'liqlik ko'zga tashlansa, naqoratda mazmun bilan ...k sezilmaydi. Bu o'rinda ohang muhim ahamiyat kasb etadi.

Bulardan tashqari faqat ayrim qo'shiqlarning o'zigagina xos ...gan ma'lum tovush (Ha, hu) va misra takrorlanib kelish holatlari ..., ularni noan'anaviy naqarotlar sifatida baholash mumkin.

Qo'shiqning kuyga munosabatiga kelsak, hamma, hatto motam qo'shiqlarida ham musiqiy ohang mavjud, biroq motam marosim ...shiqlari biror bir musiqiy asbob jo'rligida kuylanmaydi. Motam ...l va ayrim mavsum marosim qo'shiqlarini inobatga olmaganda ... holatlarda qo'shiqlarga biror musiqa asbobida kuy chalinishi .... Shunga ko'ra qo'shiqlarni: 1. Soz bilan ijro etiladigan ...lar; 2. Hech qanday sozsiz ijro etiladigan qo'shiqlarga bo'lish ....

...rgi jonli jarayonda o'zbek qo'shiqlari doira, do'mbira, dutor, ...n, tor va hakoza musiqa asboblari jo'rligida ijro etiladi. Qanday ... asbobi tanlanishi qo'shiq mazmuni va ijro etilayotgan vaziyatdan ... chiqiladi.

Qo'shiq va raqs haqida so'z ketar ekan, ularning hamma davrlarda ... bilan birgalikda uyg'unlikda qaralganligining guvohi bo'lamiz. ... qo'shiq yo'qki, unda harakat bo'lmasin. Yig'i-yo'qlov, motam qo'shiqlarida ham garchand harakatlar raqs deb atalmasada, raqs ...ni o'zida to'la saqlab qolgan. Birgina misol, motam ...da azador o'zining yuzlarini timdalab, sadr tushishi bu motam ...dagi raqsning eng qadimiy ko'rinishlaridan biridir.

Qo'shiq va raqsning eng mukammal uyg'unligini biz ...»lar qo'shiqlari va o'yinida ko'rishimiz mumkin.

... o'yin sifatida san'atshunoslar tomonidan o'rganilgan ..., bu o'yinning verbal qismi, ya'ni so'z komponenti olimlar ...n chetda qolib kelmoqda. Bu raqsda kuylanib kelinayotgan ...», «Gulbog'», «Dig'ajon», «Hoy bola-bola, yor-yor»lar xalq ...larining eng yorqin namunalaridir. Tasnifni yana davom ettirish .... Misol uchun erkak va ayol qo'shiqlari, har bir hududning ...ligidan kelib chiqib, Surxondaryo, Qashqadaryo; Jizzax, ...nd, Buxoro; Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona hamda ... qo'shiqlari deyish ham mumkin. Biroq bunday tasniflar ...i tasnifga kiradi. Eng muhimi esa qaysi turkum qo'shiqlari ..., marosim qo'shiqlarimi yoxud nomarosim qo'shiqlari

yuqorida biz tilgan barcha turkumlik uchun birdek bo‘lgan umum[illegible] mezonlardan kelib chiqqan holda tasnif etilmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda, xalq qo‘shiqlaridagi maishiy yo‘nalgan[illegible] va ijro o‘rni masalalari uning o‘ziga xosligini ko‘rsatib turuv[illegible] omillardan hisoblanib, ularning tasnifida eng avvola har bir janrni[illegible] yuzaga kelishi, taraqqiy etishi va bugungi jonli og‘zaki ijro jarayonida[illegible] holati, poetik xususiyatlari, badiiy tasviriy vositalari, mifologik tafakk[illegible] tabitati, obrazlar tizimi yaxlitlikda olib qaralishi zarur bo‘ladi.

**Nazorat va muhokam uchun savollar:**

1. O‘zbek xalq qo‘shiqlariga ta'rif bering.
2. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining tasnifini so‘zlab bering.
3. O‘zbek xalq qo‘shiqlari qaysi xususiyatlarga ko‘ra tasni[illegible] etiladi?
4. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining marosim va nomarosim[illegible] qo‘shiqlari deb ajratilishi sabablarini tushuntiring.

**Topshiriqlar:**

1. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining nomoddiy madaniy merosda[illegible] tutgan o‘rnini ko‘rsatib bering.
2. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining o‘rganilishi borasidagi[illegible] fikrlarini aytib bering.

## XALQ QO‘SHIQLARINING IJROCHILIK AN'ANALARI

**Reja:**

1. ***O‘zbek xalq qo‘shiqlariga xos bo‘lgan xusisiyatlar.***
2. ***O‘zbek xalq qo‘shiqlarining yozma adabiyot namunasi bo‘lgan qo‘shiqlardan farqi.***
3. ***O‘zbek xalq qo‘shiqlari turlari.***
4. ***Yor-yor va kelin salom, o‘lan janrining o‘ziga xos xususiyati.***

Inson hayotining o‘ta muhim bosqichlaridan bo‘lmish nikoh dunyoning barcha xalqlarida alohida marosim sifatida nishonalanadi. Har qanday hodisaning marosim shakliga kirishi, an'analashuvi esa uning ko‘hna tarixiy ildizlarga egaligidan dalolat beradi.

Nikoh o‘zbek to‘y marosimi tizimida o‘ziga xos, betakror, go‘zal ko‘rinishlarga ega va bu hodisa har jihatdan o‘rganilishga, tadqiq va



[illegible] etilishga loyiq. Biz ushbu o‘rinda nikoh to‘yidagi bir qirra yor-[illegible] haqidagi o‘z qarashlarimizni bayon etamiz.

Ma'lumki, nikoh to‘yini yor-yorlarsiz tasavvur qilib [illegible]maydi. Shu sababli ham bu paytgacha e'lon qilingan qo‘shiq [illegible]larining barchasida («Gulyor», «Oq olma qizil olma», «Kelinoy [illegible]shiqlari va hakoza) yor-yor namunalari keltirilgan. Turli davrlarda [illegible]larni xalq orasida to‘plab, nashr etgan va ma'lum miqdorda [illegible] qilgan folklorshunos olimlar M.Alaviya, J.Qobulniyozov, O. [illegible], B. Sarimsaqovlar ham «yor-yor»larni to‘y marosim qo‘shiqlari, [illegible] nikoh to‘yi folklori namunasi sifatida baholashgan. Jumladan [illegible]shunos olim B.Sarimsaqov shunday yozadi: «Nikoh to‘yining [illegible] bosqichi qiz uzatish kechasida aytiladign qo‘shiqlardan biri yor-[illegible] bo‘lib, bu janr nafaqat o‘zbeklarda, balki qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq [illegible] xalqlarda ham keng tarqalgan.

[illegible]-yor ayrim joylarda kelinni olib borayotgan ayollar tomonidan [illegible]ning hovlisidan chiqqandan boshlab to kuyovning uyiga [illegible] qadar aytilsa, ayrim joylarda yor-yorga kuyov tomon ham [illegible] tarafma-taraf bo‘lib aytadilar».

[illegible]hbu o‘rinda yor-yor ijrosining o‘rni masalasida bir aniqlikni [illegible] o‘tish lozim. Bir qator viloyatlarda, jumladan vohaning ba'zi [illegible]larida «yor-yor» qiz uyida uning sochini mayda taroq bilan tarab, [illegible] payt aytilgan. Aynan qiz sochini o‘ruvchi ayol yor-yorni bilishi [illegible] kuylashi shart bo‘lgan.

Sumbul kabi zulflari
To‘lg‘onadi, yor-yor,
Tog‘da bitgan loladek,
Hid beradi, yor-yor.

Deb kuylanganidek, odatda kelin sochi muattar hid beruvchi gul yog‘i (atr) bilan yog‘lanib o‘rilgan.

Qizni ota uyidan kuyov yurtiga olib borish davomida esa yor-yor [illegible], kelinning dugonalari va yangalari tomonidan ijro etilgan.

O‘zbek folklorshunosligi yor-yorning o‘ndan ortiq yo‘lda [illegible]nishini qayd etgan. Ularning bir qanchasi sho‘x o‘ynoqi ohangda [illegible], ba'zilari bosiq, mungli tarzda ijro etilgan.

E'tiborli jihati shundaki, aynan bir she'riy matnning o‘zi bir [illegible] yo‘llarda kuylanishini ham kuzatish mumkin.

Yor-yor janrining nikoh to'yi marosimi bilan bog'liq qadim tarix egaligi e'tirof qilinsada, uning bevosita qaysi davrlarda shakllanganli haqida aniq bir to'xtamga kelingan emas. Lekin bir narsa aniq qaysidir davrlarda yor-yor va o'lanlar yagona bir manbaga e bo'lishgan. Fikrimizcha, bugungi yor-yorlardagi an'anaviy «hay-ha o'lan, jon o'lan, o'lan ko'pdir, yor-yor» boshlama hamda yor-yor v o'lanlar asosini tashkil etuvchi she'rning o'n bir bo'g'indan iboratli ham isbot etadi. Yana bir fakt yor-yorlarning xuddi o'lanlardek aytishu shaklining ham mavjud ekanligidir. Bu haqda folklorshuno B.Sarimsaqov ham yozgan.

Keltirilgan faktlarni qo'llovchi yana bir dalil o'lanlarning bir nech ko'rinishlarida she'riy misra so'ngida xuddi «yor-yor» janridagide «yor-yor» takrorinig qo'shilib kelishi holatining mavjudligidir. Sh o'rinda misol tariqasida «Alpomish» dostonidagi «Qultoy»(Asli Alpomishning o'zi) bilan Bodom bekach hamda «Qultoy» bilan Barchi aytgan o'lanni keltirish mumkin.

Barchin: O'lan aytib, bandi bo'g'inim bo'shatma-chi, yor-yor,
Sog' suyagim joy-joyidan shovshatma-chi, yor-yor.

«Qultoy»: Ayol degan bunday axmoq bo'lamikan, yor-yor,
O'lgan odam tirilib kelamikan, yor-yor.

«O'lan»ning qadimiy qahramonlik dostoni tarkibidan o'ri olishining o'zi ham bu janrning ko'hna tarixga egaligini ko'rsatadi.

Ushbu o'rinda ozarbayjon folklorshunosi M.Seyidovning o'la atamasi va o'lan janri haqidagi fikri ham qimmatli. Olim «o'lan» so'zin qadimiy ko'klam mabudi o'lan( o't-o'lan ma'nosi bugungi kunda ha tilimizda mavjud) bilan bog'liq, o'lan qo'shig'i esa ana shu ma'bud sha'niga aytilgan olqov sifatida paydo bo'lgan deb izohlaydi.

Qish faslidan keyin tabiatdagi jonlanish, ya'ni ko'klam bilan bog'liq alqov qo'shiqning nikoh marosimi tarkibiga ko'chishi ham mantiqiy izoh topadi. Chunki ikki yoshning oila qurishi ularning hayot yo'lidagi ko'klamning boshlanishi sifatida qaralgan bo'lishi tabiiydir. Ushbu asosdan kelib chiqib, o'lan va yor-yor janri ikki yoshning oila qurishini alqash asosida kelib chiqqan, deb xulosa chiqarishimizga asos beradi.



«Yor-yor»lar asosan ikkinchi shaxs tilidan kuylanadi va ...ining obektga munosabati aks etadi. Odatda yor-yorlar an'anaviy ...shlama bilan boshlanadi.

Masalan: Yor-yor aytsak, jamoat,
Xush dengizlar, yor-yor,
Xush bormikan deganda,
Do'st dengizlar, yor-yor.

Yoki Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Shul kesganim, yor-yor,
Bir hovlida o'ynashib,
Teng o'sganim, yor-yor.

Ikkinchi bir varianti:
Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Jon g'animat yor-yor, jon g'animat.
Jon g'animat bilmagan,
Hayvon sifat, yor-yor, hayvon sifat.

Yoki boshqa bir qisqa ko'rinishdagi:
Boshla-boshla deganda,
Boshliq singlim yor-yor.
Qaldirg'och qanotidek,
Qoshlik singlim.

Ushbu tartibdagi an'anaviy boshlamalardan keyin yor-yorning ...kin to'rtliklari vaziyatga qarab botartib aytiladi.

Bugungi kungacha yozib olingan yor-yorlarni mavzu va mazmun ...dan tahlil etsak ularda kelin va kuyov, ota-ona, qarindosh urug', ...iyat bilan bog'liq keng qamrovli hayot aks etganligini ko'ramiz. Kelinning holati, ichki kechinmalari, uning yangi sharoitga ...ishi va kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisalar yor-...larda go'zal shaklda ifodalanadi. Ushbu mazmundagi yor-yorlar kelin ...'layotgan qiz va boshqalarni ham befarq qoldirmaydi. Ijrochi-yu, ...inglovchiga birdek ta'sir qilib, barchaning qalb torlarini tebratadi.

Ota-onasin uyin,
Suv oldirib, yor-yor.
Oblo birov uyini,
Quvontirib, yor-yor.

Kadidagi qatiqni,
Kim to'kibdi, yor-yor.
Ketadigan singlimni,
Kim so'kibdi, yor-yor.

«Uyini suv oldi» degan tushuncha har bir tinglovchi ongida ushb xonadon hayotida uzatilayotgan qizning ketishi qanchalik og' ketayotganligini yorqin ifoda qiladi. Ayni paytda bu «ko'chki» ikkinc bir xonadonga quvonch olib kelmoqda. Nikoh to'yidagi ana shu qayg' va quvonch uyg'unligi keyingi to'rtlikda yanada aniq aks etgan. Odatd sut pishirib, achitqi solinib kadi (idish)da tindirilsa qatiq bo'ladi. Qati esa hozir sog'ilayotgan yoki pishirilgan sut emas, balki etilgan, kuvig solib, pishilib, sariq yog'i olinishga tayyor mahsulot. Lekin bu qati boshqa idish to'kilsa (kadidan kuviga solinsa)gina sariq yog' bo'lad Shu bilan birga bir holatdan ikkinchi holatga o'tish ham bezovtali tug'diradi.«Qatiq» kadidan kuviga o'tib, qanday vaziyatga tushishi bilmaydi. Shuningdek qiz ham ota uyidan ketib, kuyov xonadonid nimalar ro'y berishidan cho'chiydi. «Begona» hayot uni qo'rqitad ikkilantiradi. U shuning uchun ham g'amgin, xuddi birov so'kkande arazli. Keltirilgan to'rtlik zamiridagi tag ma'nolar o'ylaganingiz sayi qat-qat chiqaveradi. Xalq poeziyasi va umuman qo'shiqlarga xo bo'lgan bunday xususiyat sodda ko'rinishdagi yor-yorlarga ham xosdir.

Chimildiqning bir selping,
Ko'rsin otang, yor-yor.
Savdosidan qutildim,
Desin otang yor-yor.

Farzand ota-onaning quvonchigina emas, tashvishi ham. Ota-on butun oilaning boshlig'i sifatida oilaning har bir a'zosi taqdiriga mas'u va javobgar. Otaning farzandi uchun kuyib yonishi o'zining ichida Ayniqsa, o'zbek mentaliteti uchun qiz tashvishi, ya'ni uning o'z tengi baxtini topib ketishi anchayin jiddiy tashvish sanaladi. Otaning qiz uchun kuyinishini, quvonishlarini bundan ortiq ta'riflab bo'lmaydi.

Ovdir-shovdir oqmunchoq,
Taqinarsan, yor-yor.
Bundan borib onangni,
Sog'inarsan, yor-yor.

Kelinchakning yangi xonadonga chin a'zo bo'lib, turmushning totl onalari-yu, zahmatlarini bo'yniga olishi «ovdir-shovdir oq munchoq» misolida timsollashgan.



Odamzod har narsaga ko'nikadi. Lekin birdan emas. Kelin ...dan quvonib ovunsa, g'amgin vaqti erkin o'sgan uyini sog'inadi. Bu sog'inch va ko'nikish tuyg'usi ota-onaga ham ta'luqli. Yor-yorda ana shu kechinmalar ham mohirona tasvirlab o'tiladi:

Qamchi bo'yi qor yog'sa,
Qarsoq yurtar, yor-yor.
«Oblo, bolam, qayda?»-deb,
Otang yo'rtar yor-yor.

Bir yo'rtar, ikki yo'rtar,
Tokay yo'rtar, yor-yor.
Boruvchi keluvchidan,
Salom aytar, yor-yor.

Ana shunda kelin bir haqiqatni anglaydi. Ortida qolgan ... boyligi, to'p o'ynashib katta bo'lgan do'st-u, tengquri qo'l ... orzudek o'tganligini biladi.

Ota-ona eshigi,
Ipak eshik, yor-yor.
Kirsang, chiqsang sochingni,
Silar eshik yor-yor,
Qaynonang eshigi
Jangal eshik yor-yor.
Kirsang-chiqsang sochingni,
Yular eshik yor-yor.
Dursun-dursun erlarda,
Dursun qoldi yor-yor.
Oy yorug'da o'ynagan,
Do'sting qoldi yor-yor.

Yor-yor kelinni to'ydan keyin bo'lajak barcha ruhiy ... tayyorlaydi. U jamoatning fikri-o'ylari, tajribalarini, yo'l-...ini yor-yorda tinglab «ko'kayi»ga mulk qilib oladi. Endi u ... qo'yilmaydi. Ko'pning duosini olib, yangi hayot sari otlanadi.

Olqishlangiz jamoat,
Oldi ketdi, yor-yor.
Ota-onasin yig'latib,
Singlim ketdi, yor-yor.

Aslida yor-yor aytishdan ko'zlangan oliy maqsad ham ana shu nuqtadi. Kelin –kuyovni olqishlab, ularni turmushga ruhan tayyorla... Xalqimiz ushbu tarbiyani go'zal san'at maqomida amalga oshirgan.

Kuy va shu'r bilan singgan nasihat hech qachon kishi ong... o'chmaydi. Yor-yorlar xuddi shunday poetik shakldagi o'git-saboqdir.

O'lanlar. O'zbek xalqining to'y marosimi o'zining betakror ras... rusmlari bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, nikoh marosimidagi ... bir hududga xos teatrlashtirilgan an'anaviy urf-odatlar va ularda ij... etiluvchi qo'shiq, aytim, olqishlar bu marosimni yanada go'zallashtira...

Folklorshunoslar o'zbek nikoh to'ylarini uch bosqichga bo'l... ko'rsatishgan. Bunda qiz tanlash, sovchilik, eshik ochdi va unashtiri... fotiha to'yini birinchi bosqich sifatida ajratishsa, ikkinchi bosqich... kelinni olib kelish va nikohlash bilan bog'liq tantanalarni kiritishga... Kelin olib kelingandan so'ng o'tuvchi yuz ochdi, kelin salom, charlar v... kuyov chaqirdi kabi uzvlar uchinchi bosqich tarikibida tadqiq etilga... Yaxlit holda umum o'zbek nikoh to'yi tizimini tashkil etuvc... bosqichlar uzoq davrlar davomida shakllanib, xalqning oila, turmu... bilan bog'liq dunyoqarashi, tasavvurlar olami falsafasini o'zi... mujassam etadi.Nikoh to'yi tizimining ushbu bosqichlarining har biri... ijro etiluvchi qo'shiq, aytim, olqishlarda ham ana shu dunyoqarashla... aks etadi. Nikoh to'yining birinchi va ikkinchi bosqichida barqaro... qo'llanuvchi o'lanlarda ham bu holat kuzatiladi.

O'lan janrini tadqiq etgan M.Alaviya va B.Sarimsoqovlar o'lanla... o'tmishda asosan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilik tarzda hayo... kechirgan o'zbek urug'lari o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, «qi... oqshomi», «qiz majlisi» kabi tantanlarda ko'proq ijro etilganligin... yozishgan. Ayni chog'da keyingichalik to'ydan boshqa turli sayl v... bayramlarda ham o'lanlar ko'ylanishligini M.Alaviya o'zining «O'zbe... xalq marosim qo'shiqlari» kitobida o'tgan asr boshlarida Toshken... viloyatidagi sayl-tantanalari misolida keltirib o'tgan. Demak, o'la... asosan nikoh to'yi tantanlarida ijro etiluvchi qo'shiq turi bo'lsada... keyinchalik uning ijro o'rni bir muncha kengayib, boshqa tantala... qamroviga ham kirgan.

O'lanlar boshqa qo'shiq turlaridan ikki kishi yoki ikki taraf (guruh) tomonidan bastma-bastiga savol-javob, bahslashish tarzida aytilishi bilan ham ajralib turadi. Bu o'rinda ko'pincha qiz tomon va kuyov taraf bir-biri bilan o'lan aytishgan. O'lan aytilish jarayonida o'z harfiga she'riy javob qaytara olmagan tomon yengilgan hisoblanadi. O'landa badihaga katta e'tibor qaratilgan. Lekin har qanday badiha ham o'lan...



...ohang va vazn doirasida amlga oshgan. Ya'ni o'langa xos ... o'lchami asosan o'n bir hijoli vazn bo'lib, she'riy qurilishi izchil ... bandlardan iborat. Har qanday band esa a,a, b, a tarzida ... keladi. Masalan:

Yigit:
Baland tog'lar boshida tuman tog'i,
To'y oldidan tortganim so'qim oshi,
Hadding bo'lsa, qani –kay, o'lan boshla,
Bu elatning men degan keksa-yoshi.

Qiz:
Olti qizning ichida otim Anor,
Anor suvin ichganda mehrim qonar,
Meni bilan shu kecha, aytsaz o'lan,
Ikki betiz anorday gul-gul yonar.

Havosida «o'lan« atamasining ma'nosiga to'xtalinadigan bo'linsa ... ikki fikr mavjudaligini qayd etish kerak bo'ladi.

Qozoq folklorshunosi B.Uaxatov «O'lan« qadimgi turkiy tildagi ... qo'shish» ma'nosini anglatuvchi «ula»(ulamoq) so'zidan ... deb yozadi. B.Sarimsoqov ham ushbu fikrga qo'shilgan. O'lan atamasi haqidagi ikkinchi fikr ozarbayjonlik folklorshunos ... tegishli. M.Seyidov ko'pgina turkiy til va mifologik ... o'zaro muqoyasa qilish asosida o'lan qadim turkiy ... yashillik, yoshlik, oila bilan bog'liq ilohaning nomi degan ... keladi va «o'lan» qo'shiqlari ana shu ilohni, oilani ( endi ... yosh oilani) ulug'lash, alqash asosida paydo bo'lgan, deb ...

O'lanlarning ijro etish jarayonida kuylovchilar masalasiga kelsak, ... erkagu-ayol, yoshu-keksa o'z –hohish istagi, malakasi, iqtidoriga ... kuylay olgan. El orasida o'lanni yuksak mahorat bilan kuylovchi o'lanchilar bo'lgan. Xuddi sport musoboqalarida bo'lgani kabi o'lanchilar ham o'zaro raqobatda bo'lishgan. Kimda-kim bir aytishuvda, ... yengilsa, uning o'chini boshqa vaqt olishga intilgan, shunga ... ko'rgan. O'ta yuksak mahoratga ega o'lanchilar uzoq muddat aytishib o'tirmaganlar, ular bir-ikki savol javobda masalani hal ... El orasida ana shunday bahslar haqida turli-tuman naqllar ham ... turadi.

O‘lan odatda yosh-yalanglarning bir-biriga dil izhorlari... yetkazishning o‘ziga xos yo‘li ham bo‘lgan. Umuman muhabbat mavzusi o‘lanlarning asosini tashkil etadi desak xato bo‘lmaydi.

Yigit:
Ovushingdan, ko‘zingdan ovushingdan,
Yurolmaysan hakkari kovushingdan.
Qulga taqqan qo‘ng‘iroqday shildiragan,
Akang sening aylansin dovushingdan.

Qiz:
Ovushingdan, ko‘zingdan ovushingdan,
Urushtirmay qo‘ymaydi chaqishtirgan.
Izlaganim sen eding, topib oldim,
Tabiatdan aylanay topishtirgan.

Mazmun jiahtidan o‘lanlar rang-barangdir. Inson tabiatiga, ruhiyatiga, hayotiga nimaiki xos bo‘lsa unda o‘z aksini topadi.

Qiz:
Oq olma, qizil olma pishmas ekan,
Ikki yaxshi bir yerga tushmas ekan.
Ikki yaxshi bir yerga tushganida,
Umrining o‘tganini bilmas ekan.

Yigit:
Olmali boq, qiz bola, olmali boq,
Tol chibiqday buralib olmangni qoq.
Olmangni qoq deganim, ne deganim,
Ro‘molingni ko‘tarib qoshingni qoq.

Hazil mutoiba, harfdoshini chandishlar o‘lanlarda ko‘p o‘chraydi.

Yigit:
Haydaganim besh echki chipor to‘pcha,
Qizlar xipcha ko‘rinar belin bo‘g‘sa.
Eshigining oldiga suv sepib qo‘y,
Oting toyib, yiqilsin bizni quvsa.

Qiz:
Shu otamning qo‘lida shamshiri bor,
Ul shamshirga o‘g‘rining tushari bor.
Chit ko‘ylakning ichida kirlab qoldim,
Atlas ko‘ylak ichiga yashirib ol.



Tarixan o‘lanlar «yor-yor» bilan bir umumiy asosga bog‘lanishi haqida ham ko‘pchilik folklorshunoslar fikri kesishadi. Ayniqsa «yor-yor»dagi «Hay-hay, o‘lan...» boshlamasi va bir qator o‘lanlarga «yor-yor» iskorining qo‘shib kuylanishi bu fikrning to‘g‘riligini isbot etadi.

Yigit:
Yuqoridan kelaman yolg‘iz o‘zim, yor-yor,
Qo‘limda ko‘k qarchig‘ay sariq yuzim, yor-yor.
Ulan aytib o‘tirgan bo‘tako‘zim, yor-yor,
Bari qizdan yaxshisan, yolg‘iz o‘zing, yor-yor.

Qiz:
Bog‘da ochilgan bahorda gul bo‘ladi, yor-yor,
Bul jannatda g‘ilmon bilan hur bo‘ladi, yor-yor.
Oxun qizga osilmay to‘g‘ri ayting, yor-yor,
Qiz bolaning barisi bir bo‘ladi, yor-yor.

O‘lan aytish jarayonida raqiblar bir-biridan ustun kelish uchun ba'zan past-baland gaplar qilishi mumkin. Xususan qiz va yigit o‘rtasida yigit qizga tegajoqlik qilsa, qiz uni tartibga chaqirgan:

Yigit:
O‘lan-o‘lan deganda, o‘lan ko‘pdir,
O‘lan aytgan tilingdan tengi ko‘pdir.
O‘lan aytgan tilingdan o‘ptirmasang,
Sen o‘nga-yu, men chapga yo‘llar, ko‘pdir.

Qiz:
Uyal-uyal deganda uyalsangchi,
Aytolmagan og‘zingni tiyolsangchi,
O‘lan aytgan vaqtida kim aynisa,
Yuzlariga qorakuya bo‘lsachi.

Yoki harfdosh haddidan oshsa, uni mana bu tarzda yo‘lga solishgan:

Oting o‘zsin, og‘ajonim, oting o‘zsin.
Qora qaychi tilingning uchin kessin.
Yana qaytib shundayin o‘lan aytsang,
It yaloqda osh ichib kuning o‘tsin.

O‘lanlar orasida ham g‘amgin na'munalar uchraydi. G`am bilan quvonch inson tabiati uchun egiz holat. Albatta qayg‘u, motivi ustivor to‘rtliklar kam, lekin shunday bo‘lsada ularda kuylovchining dil izhori nihoyatda tabiiy va o‘ta obrazli tarzda namoyon bo‘ladi:

Qora tog‘ning boshida ko‘ch keladi,
Qora yo‘rg‘a selkillab bo‘sh keladi.
Qarindoshdan ayrilgan yomon bo‘lar,
Qora ko‘zdan mo‘ltillab yosh keladi.

Ushbu to‘rtlikdagi «qora tog‘», «qora yo‘rg‘a», « qora ko‘z» obrazlari nafaqat ohangdoshlik kasb etmoqda balki, motam bilan bog‘liq mazmunni yanada teranroq ifodalamoqda.

Umuman olganda so‘z san'ati, qo‘shiq bilan bahs-munozaraga asoslangan o‘lan janri bizda bahs-munozora madaniyatining naqadar yuksak, oliy-maqomda bo‘lganligini ham ko‘rsatadi. Ushbu san'atni jonli, og‘zaki ijroda bugungi kungacha saqlanib kelayotganligi esa xalqimizning o‘zining ko‘hna ma'naviy ildizlaridan uzoqlashmaganligini, balki undan bahra olib yangi pog‘onalar sari yuksalayotganligidan dalolat beradi.

Kasb hunar qo‘shiqlari. San'atning mehnat qo‘shiqlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanib rivoj topgan janr va turlari dunyoning barcha xalqlari ijodida ko‘plab uchraydi. Xususan, mehnat qo‘shiqlari folklorning ana shunday qadimiy namunalaridan hisoblanadi. Tadqiqotchilar mehnat qo‘shiqlarini xalq she'riyatining eng qadimiy shakllaridan biri sifatida qarab, ularni insonning mehnat qilish jarayonida o‘ziga va turli topinchlaru, mehnat qurollariga bo‘lgan munosabati barobarida yuzaga kelganligini qayd etishgan.

Mehnat qo‘shiqlarining ohangi, vazn tuzilishlari va an'anaviy qaytariqlari ham muayyan mehnat faoliyatidagi harakat va holatlarga uyg‘un ravishda shakllangan.

Tarixan mehnat qo‘shiqlari mehnat bilan bog‘liq marosimlar tarkibida ijro etilgan. Xususan, ilk bor qo‘sh qo‘shishda, urug‘ qadash, suv tarash yoki hosilni yig‘ib olishda amalga oshirilgan marosimlarning o‘ziga xos aytim, qo‘shiqlari bo‘lgan. Bugungi kunga kelib ushbu aytim va qo‘shiqlarning aksariyat qismi unitilgan va hozirda yozib olingan mehnat qo‘shiqlarini bevosita marosimlar bilan aloqadorlik jihatlari u qadar sezilmaydi. Shu sababli ham folklorshunoslikda mehnat qo‘shiqlarini marosim folklori tarkibida o‘rganilmay, alohida tadqiq etiladi.



Mehnat qo‘shiqlarini muayyan mehnat turlariga qarab quyidagicha [illegible] etish keng qabul etilgan. Bular: 1. Dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar. 2. Chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar. 3. Hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar.

Dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlarga «qo‘sh qo‘shig‘i», « o‘rim [illegible] o‘roqchilik qo‘shiqlari», xirmon yanchish jarayonida kuylanuvchi « [illegible] mayda»lar va «yorg‘ichoq» qo‘shiqlari kiradi.

Ma'lumki, o‘zbek xalqining ajdodlari yashab kelayotgan Amu va [illegible] oralig‘ida qadim -qadimda dehqonchilik madaniyati yuksak darajada [illegible] qilib kelgan. Dehqonchilikning ikki turi mavjud bo‘lib bular; sug‘orma dehqonchilik va lalmikor dehqonchlikdir. Har ikki holatda ham erni taxlash, haydash dehqonchilikning bosh yumushi hisoblanadi. [illegible] ekiladigan katta hajmdagi maydonlarni qo‘sh orqali ishlov berib, [illegible] tayyorlash dehqonchilik madaniyati tarixida o‘ziga xos siljish, [illegible] bosqich hisoblangan. Albatta yangi erlarni ochish, tayyor maydonlarda qo‘sh (hukiz yoki ot yordamida) haydash og‘ir mehnat bo‘lib, dehqondan yuqori malaka, katta jismoniy kuch, sabr toqat talab [illegible]. Qo‘sh qo‘shiqlari ana shu og‘ir mehnatni ruhan engillatishga ham [illegible] qilgan. Bunda dehqon o‘z hayoti, o‘y-kechinmalarini kuylash barobarida, og‘ir mehnatda hamkorlik qilayotgan ho‘kiz tilidan ham turli shikoyatlarini bayon qilgan:

Shoxlarim bor gaz-gaz quloch,
Ustida o‘ynar qaldirg‘och.
Hayday desam qornim och,
Men qo‘shga qanday yarayin?!

Albatta dehqonchilik qo‘shiqlari namunalarining aksariyat qismi [illegible] 20-30 yillarigacha bo‘lgan voqelikni aks ettirgan. Omoch [illegible] asosiy kuch ho‘kiz bo‘lganligi sababli ham qo‘shiqda u bilan bog‘liq so‘z-atamalar obrazlar ko‘proq qo‘lanilgan:

Qobirg‘am bor vassiday,
Gavron yasarlar hissaday.
Har ko‘zim shokosaday,
Men qo‘shga qanday yarayin?!

Qo‘shchi bevosita o‘z kechinmalariga o‘tar ekan;

O‘roq o‘rmoq olmoq-solmoq,
Qo‘sh haydamoq bormoq-kelmoq,
Hammasidan qiyin ekan,
Ey, ho‘kizim, ro‘zg‘or qilmoq.

-deb qilinayotgan barcha harakatlar ro‘zg‘or tebratish uch[illegible] bo‘layotganligini aytib, o‘zini yupatadi. Bo‘lajak hosil cho‘g‘ini ol[illegible] orzular olamiga o‘tadi. «Xo‘p mayda» qo‘shiqlari bug‘doy o‘rimi tuga[illegible] samondan donni ajratish jarayonida, o‘rilgan bug‘doyni yanchish[illegible] kuylangan. Bu erda ham asos e'tibor dehqonning hamkori bo‘lmi[illegible] hayvonga qaratilgan:

Qora-qora qulog‘ing, mayda-yo, mayda,
Qalqon bo‘lsin jonivor, mayda-yo, mayda.
Sening bosgan izlaring, mayda-yo, mayda,
Talqon bo‘lsin jonivor, mayda-yo, mayda.

Qo‘sh qo‘shiqlaridan farqli ravishda «mayda»da dehqon o‘[illegible] ho‘kizini alqaydi, uni ta'rif, tavsif etadi:

Osmonda bor ola qush, mayda-yo, mayda,
To‘rt oyog‘ing temir tish, mayda-yo, mayda.
Elib –yo‘rtib aylangin, mayda-yo-mayda,
Kelayotir uch oy qish, mayda-yo, mayda.

Dehqon o‘zining dilidagi barcha niyatlarini to‘kib soladi, hosilnin[illegible] mo‘l chiqishini tilab, dehqonchlik piri-Bobodehqonning tong sah[illegible] kelib, baraka ortishini yaratgandan so‘raydi.

Mayda- mayda morisin, mayda-yo, mayda,
Don somondan arisin, mayda-yo, mayda.
Tong shamoli esganda, mayda-yo, mayda,
Bobodehqon dorisin, mayda-yo, mayda.

«Xo‘p mayda» qo‘shiqlarining ko‘pchilik qismida asos[illegible] to‘rtliklarning har misrasi davomiga «mayda-yo, mayda» so‘zla[illegible] qo‘shib aytiladi. Ushbu qaytariq qo‘shilmagan namunalar esa nisbata[illegible] kamchilikni tashkil etadi.

Xo‘p hayda-yo, xo‘p hayda,
Qalqon qo‘log‘im, hayda.
Temir tuyog‘im, hayda,
Ostingda bosgan doning,
Oyog‘ing qilsin mayda.

Sen po‘stidan judo qil,



Somoni senga foyda,
Chu, he jonivorim, hayda,
Xirmonni qilgin mayda...

«Mayda» qo‘shiqlarida xirmonda qaysi hayvon ishlayotganiga [illegible] qo‘shiq mazmuni yangilanadi. Ushbu namunada xo‘p-da ot [illegible] ishlayotganligi sababli, lirik qahramon o‘z otini maqtab, uni ishga [illegible]moqda:

Yo‘rtib yurgin, nari bor,
Jiyron otim jonivor.
Doni menga bo‘lsa ham,
Senga samon, chori bor.

Tuyoqlaring temirdek,
Boshoqni eb semirding,
Tog‘-tog‘ bug‘doy samonni,
Bir peshinda emirding.

Tog‘ning boshi qiyadir,
Sening enang biyadir.
Xizmating evaziga,
Elim nondan to‘yadir.

«Ot yigitning qanoti», «Ot –murod» deydilar. Qadim-qadimdan ot O‘rta Osiyo xalqlari hayotida, xo‘jaligida muhim rol o‘ynab kelgan. Yuqorida keltirilgan maqollar ham buni isbot etadi. Ot transport vositasi, [illegible] tashuvchi va ayni paytda dehqonchilik ishlarida ham ko‘lamli [illegible]ilgan. Shu sababli ham «xo‘p mayda» aytayotgan dehqon o‘z otini [illegible] uning unimini ko‘zlab kuylamoqda. Bir turkum « xo‘p mayda» qo‘shiqlarda bevosita lirik qahramonning hayoti, ichki [illegible]malari aks etadi.

Past-paskina tepaning, mayda-yo, mayda,
Tevaragi xas ekan, mayda-yo, mayda.
Sovchi qo‘ydim bermadi, mayda-yo, mayda,
Otang qurg‘ur pas ekan, mayda-yo, mayda.

Sevilmagan maydagul, mayda-yo, mayda,
Sevganiga yo‘liqar, mayda-yo, mayda.
Otilmagan oq ayiq, mayda-yo, mayda,
Merganiga yo‘liqar, mayda-yo, mayda.

Mehnat qo'shiqlarining yana bir turkumini tashkil etuvchi chorvachilik bilan bog'liq namunalarida chorvadorlar hayoti, ularning asosiy yumushlari va chorvo turlaridan bo'lmish ot, tuya, qo'y, echkilar haqida kuylanadi. Bu xil qo'shiqlarda yumor va satira kuchliroq namoyon bo'ladi.

Tuya cho'kdi joy oldi,
Oyog'iga loy oldi.
Turgin tuyam, qor yog'di,
Nobud qilding bor-yo'g'di.

Yoki boshqa bir namunada yobi ot shunday tasviralangan:

Qatra loydan o'tolmay,
Balchiqqa botgan otim.
Olti botmon arpa eb,
Tirrayib qotgan otim.

Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar mavzusi mehnat turlariga ko'ra farqlanadi. Unda har bir kasb –hunarga xos xususiyatlar, uning mashaqqati va rohati, mehnat qilayotgan kishining kechinmalari, orzu istaklari ham bayon qilinadi.

Urchuq qo'shiqlari:
Eshik oldi qumaloq,
Mening ipim yumaloq.
Elak ichida kepak,
Mening ipginam ipak.
Mening ipimday qilib,
Esholmayda o'rgimchak.

Barcha mehnat qo'shiqlariga xos holat kasb hunar qo'shiqlarida ham namoyon bo'ladi. Ya'ni, mehnat qurolini, vositasini jonlantirib, suhbatdosh, hamkor sifatida qarab unga murojaat qilish va bundan o'zi dalda olib, ruhlanishdan iborat:

Uyning oldida olma,
Ertagacha to'l qolma,
Aylantirayin seni,
Urchuqqinam sen tolma.
So'ylana-so'ylan, urchug'um,
Suqsurday bo'ylan, urchug'um.



Charx qo'shiqlarida ham ana shu holatlarga uyg'un tasvir va lirik kechinmalarni kuzatammiz:

Charxim g'um-g'um etadi,
Dukkinam to'lmasmikan?
Oyi, yilda bir bozor,
Nimcha ip chiqmasmikan?

Bozor ro'zg'or tashvishlari bevosita lirik qahramon taqdiriga bog'ladi:

Charxim tanob tashlaydi,
Bir baloni boshlaydi.
Kundoshlari qurisin,
Kunda urush boshlaydi.

Oq paxta, malla paxta yigiriaylik,
Katta tutning ostiga yuguraylik.
Katta tut kattaman deb sinmaydimi,
Qarindoshga qiz bergan tinmaydimi?

Kasb-hunar qo'shiqlarining bir qator namunalari mohiyatan lirik qahramon hayotini aks ettirishiga ko'ra lirik turdagi qo'shiqlarga uyg'un holati va bu yerdagi tasvir vositalari, simvol va metafarolar ham lirik qo'shiqlardagidek namoyon bo'ladi. Yuqorida keltirilgan namuna bu holatning yaqqol misolidir. O'rmak to'qish, kashta tikish va boshqa turdagi mehnat jarayoni bilan bog'liq qo'shiqlarda ham kasb-hunar bilan bog'liq qo'shiqlarga xos umumiylik saqlangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insonning mehnat jarayonida kuylashi tabiiy bir hol bo'lib, u ruhiy jihatdan mehnat qilayotgan kishiga dalda-ko'mak beradi, mehnatning yengil ko'chishiga xizmat qiladi.

**Ramazon qo'shiqlari**. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari sinchiklab qarab chiqilsa ularning nihoyatda rang-barang ekanligini ko'ramiz. Ushbu qo'shiqlarni janr nuqtai nazaridan saralab, ularning har birining tabiati, kelib chiqish ildizlari, ijro o'rni, hayotiy-maishiy asoslari, poetik qimmatini yoritish folklorshunosligimizning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Har yili muborak ramazon oyida ijro qiluvchi «ramazon» qo'shiqlari ana shunday nodir namunalar sirasiga kiradi. Ramazon qo'shiqlari haqidagi ilk qayd etgan olimlardan biri

Mis qozondi osingiz.
Jamoani ko‘rsangiz
Ja'mi qozon osingiz.
Sizga yomon sog‘inganning
Cheruv borib oti o‘lsin.
Qora boshi tosh bo‘lsin,
Qovundayin losh bo‘lsin...

Bir qator viloyatlarda ramazon qo‘shiqlarining fotihasi an'anaviy bo‘rchin (buchil) so‘zi bilan boshlanadi.

Bo‘rchin, bo‘rchin bo‘chinboy
Bo‘danaday cho‘rchinboy.
Haydaganingiz qo‘y bo‘lsin,
Kuraganingiz qiy bo‘lsin.
Uyingizning yoni soy bo‘lsin,
Chaynaganingiz moy bo‘lsin,
Tovda qo‘yingiz jaymasin,
Kunda moyingiz qaynasin
O‘choq to‘la kul bo‘lsin
To‘garagi ul bo‘lsin.
Ichgani qatiq bo‘lsin
Nasibasi ortiq bo‘lsin.
Yegani uzum bo‘lsin
Umri uzun bo‘lsin.

Agarda uy egalari uxlab qolgan bo‘lsa yoki biror sabab bilan ramazonchilarga biror xayr-ehson chiqarishmasa, bolalar:

Ariqdagi bo‘rimidi, tulkimidi,
Ikki tanga otangning mulkimidi?!

deb aytishgan. Ba'zan esa xonadon sohiblarining xasisligidan jahli chiqqan ramazonchilar:

O‘qim, o‘qim,
Qozoningga . . . im!

deb, boshqa uy tomon o‘tib ketishgan.

Ramazonlarning asosiy matn qismi tahlil etiladigan bo‘lsa ularda yetakchi o‘ringa chiquvchi bir necha motivlarni ko‘ramiz. Bular asosan ro‘za tutishning savob-gunohi, payg‘ambarlar hayoti bilan bog‘liq voqealar bayoni, turli axloqiy pand-nasihatlar, xonadon sohiblarining



[illegible] va bevosita xonadon a'zolarining hatti-harakatlari yengil [illegible] o‘rinlar. Masalan:

Yo payg‘ambar deganda, yo payg‘ambar,
Ota bilan onaga kim to‘ygan bor,
Ota bilan onani aziz tuting,
Bosgan izi to‘tiyo, ko‘zga iling.

Payg‘ambarning o‘n bir o‘g‘li bor edi,
Eng kichigi shoh Yusuf gulzor edi,
Bobolar aytib o‘tgan, yo ramazon,
Bu so‘zga savob deydi quloq solgan.

Ro‘zani tutmaganni kayladilar,
Tomisni tor joyiga boyladilar.
Ulla-bulla deganiga qo‘ymadilar,
Qil jilovni soldilar, qiynadilar...

Bevosita vaziyat bilan bog‘liq holatlar aks etgan baytlar:

Bu uydan ovozi mish-mish keladi,
Qarab tur tovoqda kishmish keladi,
Bu uydan ovozi mulla keladi,
Hademay tovoqda tillo keladi...

Xonadon ahli ruhiyatiga ta'sir etuvchi ushbu motivli qo‘shiqlar [illegible] ancha ko‘proq uchraydi:

Shu uyning engaragi engashadi,
Boy bilan boyvuchchasi kengashadi.
Boy qo‘tondan qo‘y beraman deydi,
Boyvuchcha bo‘g‘chadan to‘n beraman deydi.

Boyvuchchasi bergan to‘nning bog‘i yo‘q
Boybuva bergan qo‘yning qulog‘i yo‘q.
Ro‘zani tutmaganning imoni yo‘q
Ramazon aytganlarning armoni yo‘q.

Ramazon qo‘shiqlarida har bir joyga xos shart sharoit, umumiy [illegible] va tabiat aniq aks etadi.

Shu uyning tevaragi toyning izi
Kerilib kashta tikar boyning qizi

Kerilib tikkan kashta belimizga
Alqab-alqab ketaylik elimizga

Uy atrofida ilg'angan joy izi va kerilib kashta tikayotgan boy qiz Ushbu xonadonda yaxshi kuyov yigitni orzulayotgan bo'y qiz borligiga ishora qilib, uning orzulari amalga oshsin, biz shu tilaklar tilakdoshmiz deyilmoqda.

Ramazon qo'shiqlaridagi har bir to'rtlik mustaqil ravishda tugal bir mavzu-motivni ifoda etadi. Ko'pchilik holatlarda ular mazmunan bir-biri bilan bog'liq bo'lmaydi. Faqatgina bu to'rtliklarning ramazon tematikasiga tegishlik ekanligi va umumiy ohang bir-biriga ulaydi. Xususan yuqorida keltirilgan to'rtlikdan keyin shunday kuylangan:

Makkada bir yog'och ko'rdim munnoqqina,
Shu akam qo'y bermadi shunnoqqina
Ro'zaga so'ygan qo'yning go'shti qani,
Go'shtini egan bo'lsangiz, to'shi qani?

Bugungi sharoitda ramazon qo'shiqlari va undagi ohang islom aqidalari va ramazon oyi va unda tutiluvchi ro'za bilan bog'liq bo'lsada ushbu folklor janrining paydo bo'lishiga asos islom dini bizning o'lkalarga kirib kelishdan avvalroq an'analashganligini folklorshunos Sh.Turdimov «Boychechak marosimi» deb nomlangan maqolasida asosli ravishda keltirib o'tgan. Chindan ham ko'klam kelishi qishning chekinishi bilan o'tkaziluvchi boychechak marosimining o'tish tartibi, unda aytiluvchi boychechak qo'shig'i ramazon qo'shiqlariga ohang va shakl jihatidan uyg'un ekanligini muallif to'g'ri ko'rsatgan. Ayniqsa bugungi kunda ham kuylanuvchi ramazon qo'shiqlari orasida boychechak marosimi izlari saqlanib qolganligi bu fikrni yanada isbot etishi ushbu farazni tasdiq etadi.

Masalan:

Yo rayban, yo rayban, yo ramazon,
Sadaqa deb yuridik kechdan azon.
Qashshoq bo'b qaqshaganlar donga to'ling,
Boychechakday ochilib gulli bo'ling.
Kelasi oyu yillar biz kelganga,
Qo'sh kokili qo'shilgan ulli bo'ling!

Ushbu fotihadagi «Boychechakday ochilib gulli bo'ling» tilagi yuqoridagi fikrni isbotidir. Odatda ro'za oyi har yili o'n kunda surilib turli davrlarda aylanib o'tadi. Boychechak esa faqat erta ko'klam gullaydi.



Davrlar o'tishi bilan Boychechak marosimi tartibi va qo'shiqlari ramazon qo'shiqlariga evrildi. Nisbatan olganda Boychechak marosimi tanish darajasiga keldi. Shunday bo'lishiga qaramay har ikki marosim bir qator joylarda yonma-yon yashab kelmoqda.

Yuqorida aytilgan fikr va mulohazalarga muxtasar xulosa qilib aytish mumkinki, Ramazon qo'shiqlari o'zbek marosim qo'shiqlarining [illegible] nodir namunasi sifatida o'rganilishga va keng tashviq etishga kerak.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. O'zbek xalq qo'shiqlari badiiyati deganda nimani tushunasi?
2. Xalq qo'shiqlarining janriy o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Yor-yor janriga xos bo'lgan belgilarni tushuntirib bering.
4. Ramazon qo'shiqlariga xos belgilarni sanab bering.

**Topshiriqlar:**

1. Kasb-hunar qo'shiqlarini ta'riflab bering.
2. Xalq qo'shiqlarining nomoddiy merosdagi o'rnini tushuntirib bering.

## XALQ ERTAKLARINING TURLARI VA BADIIY TALQINI

**Reja:**

1. *O'zbek ertaklari va ularga xos bo'lgan xususiyatlar.*
2. *O'zbek ertaklari tasnifi masalasi.*
3. *O'zbek ertaklarida badiiy talqin.*

Ertak – o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va eng ommaviy janrlaridan biri. Fantastik xayolot hamda badiiy to'qimalar asosiga qurilib, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deb ataladi. NMM namunasi bo'lgan ertaklarda xalqning dunyoqarashi, milliy xarakteri, turmush tarzi, tafakkur olami ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Ertaklarning paydo bo'lishida qadimiy miflar, urf-odat va marosimlar muhum o'rin tutadi. Folklorshunoslikda ertak atamasi qabul qilingan bo'lsa-da, O'zbekistonning turli hududlarda matal, ushuk, [illegible], cho'pchak nomlari ham uchraydi.

Ertaklarda biror bir voqea mukammal hikoya tarzida bayon qilinadi, voqelik xayoliy va badiiy to'qimalar vositasida, kishilarda badiiy zavq uyg'otadi. Ertaklar tarixiy taraqqiyot jarayonida turlicha

o'zgarishlarga uchrab bizga qadar etib kelgan. Shu sababdan ko'pgina ertaklarning g'oyaviy yo'nalishi, kompozitsiyasi, qahramonlarning vazifalari o'zgarib, yangi-yangi variant va versiyalari yuzaga kelgan. Ertaklardagi variantlarning vujudga kelishi ertak aytilganda ijrochining ijodiy qobiliyati, dunyoqarashi, voqelikni aks ettira olish iqtidori, ertakchilik an'analarini qay darajada bilishi, tajribasi, ruhiy holatlari bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Ertak asosida yotgan badiiy to'qimaning davr e'tibori bilan tashkil topgan vaqti va o'rnini, uning real haqiqatga bo'lgan munosabati va asosiy funktsiyasi, badiiy aks ettirish printsiplariga ko'ra a) hayvonlar haqidagi ertaklar («Tulki va Laylak» kabi), b) sehrli ertaklar («Kenja botir», «Muqbiltoshotar» va h.), v) maishiy («Davlatmirzo», «Ayoz» va h.) ertaklarga bo'linadi.

Ertaklar o'ziga xos kompozitsiyaga ega bo'lib, kirish qism – boshlama, voqealar rivoji, tugallanmalardan tashkil topadi.

Kirish qisim – boshlama tinglovchi diqqatini jamlab, uni ertak eshitishga hozirlaydi. Ertakning an'anaviy boshlama voqeaning qaysi vaqtda bo'lib o'tganini aniq bildirmaydi, umumiy tarzda ifodalaydi. Maishiy ertaklarda boshlama nihoyatda o'xcham va sodda. Bunda ham voqelikning bo'lib o'tgan vaqti noaniq bo'lsa ham, biroq sirlilik sezilmaydi, hayotiylik hukmron bo'ladi. Voqea bo'lib o'tgan joy va qahramon nomi aniq hamda to'liq beriladi.

Tugallanma ertakning yakuniy qismini ifodalaydi. Sehrli ertaklarda tugallanma doimo to'y-tomosha tasviri bilan yakun topadi. Maishiy ertaklarda esa u voqealar sintezidan kelib chiqqan xulosa bo'lib, sotsial ruh hamda ta'limiy mazmun anglatadi.

Ertak aytib beruvchiga ertakchi deyiladi. Har bir ertakchi aytib berayotgan ertaklarining xarakteri va hikoya qilib berish uslubiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Ayrim ertakchilar hayvonlar haqidagi, ayrimlari sehrli, ba'zilari esa maishiy mazmundagi ertaklarni aytish bo'iycha dong taratganlar.

Ertakchilar: ijodkor va ijrochi ertakchilarga bo'linadi. Ijodkor ertakchi o'zi eshitgan ertakka ijodiy yondoshadi, an'anani buzmagan holda, ertak voqeligiga yangiliklar qo'shadi, uning ta'sir kuchini oshiradi. O'z bilim darajasi va mahorati hamda tinglovchi talabidan kelib chiqib, ertak voqelariga o'zgartirishlar kiritadi. Ijrochi ertakchi o'zi qanday eshitgan bo'lsa, aynan shunday takrorlaydi, matnga ijodiy yondoshmaydi.



Ertaklarning asrlar osha yashab qolishida, ajdodlardan avlodlarga etib kelishida mahoratli, ya'ni professional ertakchilarning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o'g'li, Haydar Boycha o'g'li, Nurali Nurmat o'g'li, Husanboy Rasulov, Abdug'afur Shukurov kabi mashhur ertakchilar o'z davrida mashhur bo'lgan va ulardan ko'plab ertak namunalari yozib olingan. Bugungi kunga qadar ko'plab ertak namunalari turli nomlar ostida chop etib kelinmoqda.

Milliy va umuminsoniy g'oyalarni o'zida mujassam etgan ertaklarning ta'limiy hamda tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

O'zbek xalq ertaklarining har bir namunasida ramziylik burtib turadi. Buni biz birgina o'zbek xalq etraklarida keladigan «yo'l» ramzi misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Asotir, ertak, maqol-matal, xalq qo'shiqlari shundan darak beradiki, ibtidoiy tasavvurlar bugungi tasavvurdan farqli o'laroq dunyoni ramzlar orqali qabul qilgan, ramzlar bilan baho bergan, tabiat bilan ramzlar orqali munosabatda bo'lgan. Ibtidoiy inson tilini to'la ma'noda ramzlar tili deyish mumkin. Bu ramzlar orasida yo'l alohida ajralib turadi.

Yo'l xalq ijodida mashaqatli, sirli va shuning bilan birga turli-tuman sarguzashtlarga boy makon, holat sifatida tasvirlanadi. Nima uchun ham makon, ham holat? Buning javobini biz folklor namunalaridan topamiz.

«Yo'l azobi, go'r azobi» kabi maqollarda yo'l bilan bog'liq qiyinchiliklar tilga olinsa, «Yurgan yo'ldan topadi» kabi ...g'l, «Yo'ling oydin bo'lsin», «Yo'lingni bersin» kabi duolarda esa yo'l insonni baxt va saodatga eltuvchi maskan sifatida qaralgan. Har ikki holatda ham u yoki bu jug'rofiy maskanga bog'liq makon haqida gap ketishi bilan birga, insonning ruhiy holati, qalb kechinmasi ramziy-timsoliy tarzda bayon etilganini ko'ramiz.

«Bulbuligo'yo» ertagida: «Uch yo'l kelibdi. Biri borsa kelar, ikkinchisi borsa xatar, uchinchisi borsa kelmas ekan.Katta akasining joni ...shirin ekan. U borsa kelarga ketibdi, o'rtanchasi borsa xatarga, kichkinasi borsa kelmasga xayrlashib jo'nabdi», deyiladi.

Boshqa ertaklarda ham uch yo'l, albatta, «Borsa-kelmas» yurti bilan bog'lanadi. Shuning uchun folklordagi yo'lning mohiyatini anglash uchun, ana shu makon borasidagi tasavvurlarimizga oydinlik kiritishimiz zarur bo'ladi. Bu yurt yo'li naqadar mashaqqatli bo'lganligi uchun uni to'g'ri o'z ma'nosida ham tushunish mumkin. Ammo hech bir

detal, hech bir voqea yoki makon shunchaki tilga olinmaydi. Zotan folklordagi har bir narsa xalq tafakkurining kengliklarini poetik aks ettiradi. Xalq og'zaki ijodidagi har bir so'z, voqea, obraz, zamon va makon asosida ma'lum bir ko'chim, ramz, falsafiy fikr yotadi.

Ertak – ramzlar dunyosidir. Ramzlar ertak mohiyatini belgilovchi unsurlar bo'lib, ularni to'g'ri sharhlay olsakgina sehr-jodular, evrilishlar sababini ocha olamiz. Shunday ramzlardan biri yo'l bilan bog'liq tasavvurlarni o'zida ifoda etgan borsa kelmas yurtidir. Bu yurtning mifologik asoslari juda qadimgi davrlar bilan bog'liq. Biroq mifologik asosni topish hali ertak sirini to'la kashf etish degani emas. Zero, ertaklarda mifologik tafakkur davrlariga xos ko'pgina belgilar saqlanib qolgan bo'lsa-da, davrlar o'tishi bilan bu xususiyatlar falsafiy-psixologik ramzlarga aylana borgan. Ertakda hatto ranglargacha ramziy ma'nolarga ega.

Borsa kelmas yurtiga borish uchun yo'lga otlangan, umid va orzu timsoli bo'lgan Kenja botir zimmasiga oltin qush, oltin baliq, oltin meva va hokazolarni olib kelish mas'uliyati yuklandi. Bu yurt garchi yovuzlik, musibat bilan qurshalgan bo'lsa-da, qiyinchiliklar so'ngida botirni oltin rangli nimadir yoki shu sifatli kimdir kutib oladi.

Xalq ertaklarida Kenja botirning og'ir sinovlarga yo'liqishi va baxtu sharafga muyassar bo'lishi ham o'z tarixiy asoslariga ega.

Jahon folklorshunosligida Kenja botir obrazi juda ko'p ishlangan obrazlardan biridir. Olimlar uning ertakdagi roliga turlicha baho berishadi va turlicha sharhlashadi.

Kenja botir atributlarini tekshirgan barcha tadqiqotchilar deyarli bir xulosaga kelishadi: Kenja botir xonadon an'analarini davom ettirishi, ota-onaning orzularini ro'yobga chiqarishi zarur.

Qadim tasavvurlar qahramon va ertak oldiga qo'yilgan g'oya hamda maqsadni amalga oshirishda vosita bo'lib xizmat qiladi, hamda ertakni ilk tafakkur bosqichi bilan bog'lab turadi.

„Borsa kelmas yurti" ga safarga otlangan Kenja botir haqidagi ertaklarda ham ana shunday tafakkur ifodalari saqlanib qolgan.

Borsa kelmas – marhumlar, yovuz ruhlar yurtidagi Kenja botir haqidagi ertaklarning asosiy syujeti tarixiy asosiga ko'ra shomonlarning ruhlar dunyosiga safari ta'sirida shakllangan. Biroq vaqt o'tgan sayin borsa kelmas yurti qadimiy belgilarini saqlagan holda davr g'oyalarini o'ziga singdirib, qahramon bajarishi kerak bo'lgan qiyinchiliklarning timsoliga aylanadi. Endi borsa kelmas yurti ham uncha vahimali emas, chunki u ertak to'qilgan paytdagi salbiy voqealarning timsoli bo'lib



[illegible] Borsa kelmas yovuz ruhlar yurti ekanligi ertak g'oyasini [illegible] yordam beradi: Kenja botirga qarshi kurashadigan [illegible] makoni bo'lib keladi.

[illegible] xalqning nafaqat tafakkur tarixi, balki hayotiy tajribalari [illegible] ifodasini topgan. Katta aka obrazi ertaklarda ko'pincha mavjud [illegible] timsolida keladi. Shu sababli u odatda sinalgan yo'llarni – borsa [illegible] tanlaydi. Tajriba bir tomondan odamni muvaffaqiyatga olib [illegible] ikkinchi tomondan inson faoliyatini ma'lum bir qolipga solib [illegible] Bir qolipdagi faoliyat harakat, isyon, hayajon, [illegible]llikdan xoli bo'ladi. Bunday faoliyat odamni qo'rqoq yoki [illegible] qilib qo'yishi mumkin.

Hayotiy tajribasida jabr-sitam, mashaqqatlar ko'rgan, qaysi yo'lni [illegible], xavf-xatardan uzoq bo'lishini bilgan odam tajribalidir va u odatda [illegible] tayanib ish tutadi. U tanlagan yo'l qolipga o'xshaydi. Shu [illegible] katta aka bexavotir yo'lga ketsa yoki xudbinlik va xoinlik qilsa [illegible]maymiz, chunki u hayotiy tajribalarga tayangan. Tajriba hamisha [illegible] yo'l bo'lavermaydi.

Ertaklardagi o'rtancha aka mavjud imkoniyat timsolidir. Imkoniyat [illegible] tajriba asosida kelib chiqadi. Shu sababli o'rtanchi aka katta akaga [illegible] yo'lni tanlagani ham tabiiy holdir. Imkoniyat ham tajriba kabi [illegible] to'g'ri bo'lavermaydi. Odam odatda o'z tajribasi va [illegible]yatidan kelib chiqib yashaydi. Agar ertak faqat tajriba va [illegible]yatning badiiy ifodasi bo'lganda, oddiy realistik hikoyalardan [illegible] qilmas edi. Orzu-istak esa har qanday tajribadan ham, imkoniyatdan [illegible] yuqoridir. U insonda mangulik tuyg'usini uyg'otadi.

Mangulik har qanday sanatning yuragidir. Shu sababli xalq o'z [illegible] va imkoniyatlaridan tashqari hamisha umid-orzu qiladi. Tajriba [illegible]yat tugagan yoki insonga zavq bermay qo'ygan joydan orzu-umid [illegible]nadi. Ertaklar orzu-umidlarning eng go'zal ifodasidir.

Xalq o'zi engib o'tolmagan mashaqqatlarni, etolmagan baxt-[illegible]ini orzu zimmasiga yuklaydi.

O'zbek xalq ijodidagi kenja botir ma'lum ma'noda orzu-umid [illegible]lidir. U har qanday mashaqqatni, yovuzliklarni, xavf-xatarni – [illegible] - kelmas yurtidagi barcha qarshiliklarni engib murod-maqsadiga [illegible]di. Agar u faqat orzu-umidni timsollashtirganda ertak ancha [illegible]gan bo'lardi.

Xalq ijodida kenja botir ikkilanmasdan borsa kelmas yo'lni tanlar [illegible], tavakkalga suyanadi. Bu sinalmagan, tajribada ko'rilmagan xavf-[illegible] to'la yo'ldir. U shu paytgacha ota-bobolari tanlab kelgan yo'ldan

borishni istamay, yangi yo'ldan ketar ekan, o'zining isyonkorlik timsoli ekanini ham namoyish qiladi. Shuning uchun u obrazli tarzida mavjud tuzum, ahloq normalari, tartib, qarashlar, munosabatlarni inkor qiladi. Ertakda uning isyoni borsa - kelmas yurtiga borish chegaralansa-da, bu sarguzasht zamirida chuqur falsafiy ma'no yotadi.

U o'z aql-idroki, mehnatsevarligi va tadbirkorligiga ishonadi. U asosiy kuch aql bilan ish yuritishda deb biladi. Kenjaning aql kuchiga ishonishi insoniyat ongidagi buyuk yuksalishlardan birining folklordagi ifodasidir.

Jism, tana kishanband qilinishi mumkin, ammo tafakkurni zanjirband qilish qiyin. Tafakkur erkinlik istaydi va doimo unga intiladi. Kenja botirning borsa kelmas yo'lidagi sarguzashtlarini inson tafakkurining sarguzashtlari deb atash mumkin. Uch yo'l uch aka-uka taqdiri bilan bog'liq kelsada, xalq ertaklaridagi uch yo'lni asli bir odamning uch yo'li, maqomat bosqichlari deb tushunmoq darkor.

Qadimgi hind afsonalaridan birida aytilishicha, oliy tangri Tvashtarning xotini uch boshli bola tug'adi. Vishaparupu nomli bu g'alati jonzotning bir qiyofasi quyoshga, ikkinchisi oyga, uchinchisi esa olovga o'xshar ekan. Uning bir boshi qo'shiq aytib tursa, ikkinchisi sharob ichar, uchinchisi tevarak-atrofni domiga tortishga shay bulib turarkan.

Hind mifologiyasidagi bu uch bosh bitta tanaga taalluqli bo'lib, inson ruhiy dunyosining xilma-xil ko'rinishlaridir: Ruhiyat bitta, biroq undagi istak-xohish, orzu-umid turlicha. Inson ruhi goh shodlik, goh sharob, goh yaxshilik, goh yomonlikni qumsab turadi.

Bu misol bizga miflarda har xil obrazlar bo'lib keluvchi personajlar, obrazlar, timsollar, xuddi uch yo'l kabi asli inson ruhiy dunyosining turli ko'rinishlaridir degan xulosani beradi. Chunki inson tanasining imkoniyati etmagan ishni tafakkuri bilan amalga oshirish mumkin.

Qullik iskanjasidagi tana odatda katta va o'rtanchi akalar kabi o'zi o'rgangan yo'llardan ketadi, biroq tafakkur vujudning tashvishlariga bo'ysunmaydi, ayni shu qullikni inkor etish uchun borsa kelmas – tana sinab ko'rmagan yo'llarni tanlaydi. Ajdarho, dev va hokazo qiyofadagi to'siqlar shu yo'ldagi bir jiddiy sinov bo'lgani uchun ham, xalq ijodida ramziy-falsafiy mazmun kasb etadi.

Borsa kelmas yo'lidagi mashaqqatlar ruhni – inson orzu-umidlarini cho'chitmaydi, aksincha qiziqtiradi. Kenja borsa kelmas yurtiga safari bilan hayotni yangilash istaklarini ramziylashtiradi.



Kenja botir ertaklarda qahramonlik ko'rsatish uchungina borsa kelmas yo'lni tanlamaydi. Uni bu yurtga borishga xalq tafakkuridagi o'zgarishlar undaydi. Ammo bu o'zgarishlar oddiy o'quvchi yoki tinglovchiga sir bo'lib qolaveradi. Zotan, xalq ertaklarini ilmiy o'rganishning maqsadi va ahamiyati ana shu sirlarni ochib berishdadir.

Ta'bir joiz bo'lsa, Kenja botirni sharq tafakkurining islomgacha bo'lgan orifi, mumtoz adabiyotdagi oriflarning ajdodi deyish mumkin. Chunki Kenja botir butun faoliyati bilan ilohiyotchidir.

Kenja botir tasavvufning tavakkalchilik tariqatini tutganlar kabi yo'l tutadi, ya'ni borsa kelmasni tanlab tavakkal qiladi. Uning borsa kelmas yurtga yuz tutishi, sarguzashtlari, mashaqqatlari va murod-maqsadiga erishuvi tasavvufning kamolot bosqichlariga o'xshaydi: a) Kenja botir borsa kelmas yurtga yo'l oladi. Tasavvufda bu shariat, ma'rifat, tariqat bosqichlari tarzida ifodalanadi; b) Kenja botir borsa kelmasdagi mashaqqatlarni engish orqali tanasidagi qullik, nafs, manmanlikni (ya'ni ajdarho, devni) engadi, tanasini poklab, o'zligini topadi. Tasavvufda yuqoridagi uch bosqich orqali inson o'zlikdan voz kechib, yangi, pok o'zlikni topadi. Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostonidagi Sa'dning Qatron devni engishini eslaylik; v) Kenja botir borsa kelmas yurtdagi oltin qush (oltin olma,oltin baliq va h.z.)ni qo'lga kiritadi. Orif kamolot bosqichida olloh ishqiga sazovor bo'ladi; g) Kenja botir oltin qushni olib kelgandan so'ng murod-maqsadga erishadi. So'fiy iloh ishqiga erishgandan so'ng murodi hosil bo'ladi.

Bizningcha, bu qator o'xshashliklar tasodifiy emas. Yozma adabiyotdagi falsafiy qarashlar asosi avvalo xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan. Bu qiyosimizdan shunday xulosa chiqadiki, tasavvuf bizning mumtoz adabiyotda to'satdan paydo bo'lib qolmagan, aksincha, u xalq tafakkurida xalq og'zaki ijodi orqali shakllangan va ma'lum falsafiy tus olgan. Xalqqa tasavvuf degan atama nomu'lum bo'lsa-da, o'z mohiyati bilan unga yaqinlashib qolgan qarashlar turkiy afsonalarda ko'p uchraydi.

Agar xalq ongida biror-bir zamin bo'lmasa, chetdan kelgan falsafa hech qachon uning dunyoqarashiga singmaydi. Ertaklarimizdagi uch yo'l bilan bog'liq borsa kelmas yurt timsoliy-falsafiy ma'noga ega bo'lgani uchun ham tasavvuf falsafasining xalqimiz, uning ilg'or farzandlari dunyoqarashida rivoji tez kechdi.

Xalq ertaklaridagi uch yo'l bilan bog'liq tasavvurlar insonning hayot yo'li, murod va maqsadga etishtiruvchi maqomat darajasi, ruhiy kamolotini ramziy ifodalab keladi.

Yo‘l bilan bog‘liq xalq qo‘shiqlaridagi qarashlar ertak va dostonlarda kelgan tasavvurlarni yanada to‘ldiradi.

Qadim tasavvurga ko‘ra, yo‘lchiga yo‘ldosh bo‘lish, unga hamrohlik qilish, uning ko‘ngliga yo‘l topish, taqdiriga sherik bo‘lish ma'nolarini bildiradi. O‘zbek xalq lirik qo‘shiqlarda kelgan yo‘l obrazi ramziy ma'nolarining tub asoslari ham ushbu kuhna dunyoqarash va tasavvurlarga bog‘lanadi.

Yor bilan boraymi men,
Yo‘lida qolaymi men?!
Ko‘ngil bermagan yorning,
Ko‘nglini olaymi men?

Faqat bu o‘rinda yo‘lni xalq qo‘shiqlarida kelgan iz bilan bog‘liq tasavvurlar bilan chalkashtirmaslik kerak. Xalq qo‘shiqlarida kelgan «Qadamingda gullar ochilsin» kabi misralarda xalqimizning yo‘ldan farqli, iz magiyasi bilan bog‘liq qadim tasavvurlari o‘z ifodasini topgan.

Timsolsiz san'at, adabiyot, umuman ijod bo‘lgan emas. Xalq og‘zaki ijodi bugun faqat mifologik yoki tarixiy asos sifatida o‘rganiladigan ijod emas, balki u timsollar san'ati sifatida o‘rganiladigan, tahlil etilishi lozim bo‘lgan sanatdir. Ertak, maqol va xalq qo‘shiqlarda timsoliy tarzda kelgan Yo‘l bilan bog‘liq ko‘hna tasavvurlar bizga ana shunday talqin qilish imkoniyatini beradi.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1.Ertak janriga ta'rif bering.
2. Sehrli ertaklarga xos xususiyatlarni sanab bering.
3. Hayvonlar haqidagi ertaklarga misollar keltiring.
4. Ertak badiiyatiga misollar keltiring.

**Topshiriqlar:**

1. Ertaklarning hududiy o‘ziga xosligiga misollar keltring.
2. Ertakchi bilan doston ijrochisi baxshining o‘xshash va farqli jihatlarini tushuntirib bering.

## O‘ZBEK XALQ HIKMATLI SO‘ZLARI, MAQOL MATAL VA TOPISHMOQLARI

**Reja:**

***1. O‘zbek xalq ijodining kichik janrlari.***
***2. O‘zbek xalq topishmoqlarining o‘ziga xos xususiyatlari.***
***3. Maqol va matallar xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida.***



Topishmoq – jahondagi barcha xalqlarnipg og‘zaki ijodida uchraydigan janrlardan biri. Topishmoq xalq og‘zaki ijodining qadimiy va ommaviy janri bo‘lib, unda insonni qurshab olgan tabiat, borliqdagi narsalar va hodisalar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi kishilar tafakkuri darajasida tushunilgan va shu.janrning o‘ziga xos badiiy shaklida aks ettirilgan. Topishmoq o‘zining mazmuni, kompozitsion qurilishi; tuzilish e'tibori bilan xilma-xildir. Topishmoqda biror bir narsa – hayvon, qush, o‘simlik, ish quroli yoki tabiat va tabiat hodisasi haqida so‘z boradi! Unda o‘ylab topilishi lozim bo‘lgan narsa yoki hodisa boshqa bir narsaga turli tomondan taqqoslanadi. Shu xilda bir predmetga xos biror belgining badiiy obrazlarda ifodalanishi topishmoqdagi narsaning yashirinish zamini bo‘ladi. Masalan:

Chopsa, chopilmas,
Bo‘lsa, bo‘linmas,
Kessa, kesilmas,
Ko‘msa, ko‘milmas.

Bu topishmoq asosida yashiringan narsa soya bo‘lib, soyaning ko‘pgina xususiyatlari unda aks ettirilgandir. Topishmoq kishilarning tafakkur qobiliyatini o‘stiradi, ularni hozirjavoblikka o‘rgatadi. Turli xalqlarda topishmoq aytishning ma'lum belgilangan vaqtlari bo‘lgan. Masalan, qadimda rus xalqi orasida topishmoq ko‘proq yilning burilish davrida 25 dekabrdan 5–6 yanvargacha aytilgan. Udmurtlarda asosan qishda, turkmanlarda esa navro‘z kechalarida aytilgan. Biroq keyinchalik topishmoqning ma'lum bir paytda aytilish odati yo‘qolib ketgan.

Topishmoq aytish va uni echishning o‘znga xos qonun-qoidalari bo‘lgan. Masalan, topishmoq aytuvchi topishmoqning javobini topolmagan shaxslardan «shahar» talab etadi. Bu o‘rinda «shahar» so‘zi dakki berish, uyaltirish huquqi ma'nosida ishlatiladi. «Shahar» berilgach, topishmoq aytuvchi topolmaganga dakki berib, uyaltirib, so‘ng o‘zi javobini aytgan.

Topishmoqlar o‘z tuzilishlariga ko‘ra, bir predmetli va bir iecha predmetli bo‘lishi mumkin. Masalan, «Er tagida oltin qoziq». Bu topishmoqda bir predmet – sabzi o‘zining rangi jihatdan oltinga, shakli jihatdan qoziqqa o‘xshatilishi orqali yashiringan. Ko‘p predmetli topishmoqlarda bir topishmoq ichida bir necha predmet yashiringan bo‘ladi. Bunday topishmoq nisbatan keyin yuzaga kslgan. Masalan:

Bir daraxtda o‘n ikki shox,
Har bir shoxda o‘ttiz yaproq –

Bir yoni qora, bir yoni oq.

Buning javobi yil, o'n ikki oy, o'ttiz kecha va kunduzdan iboratdir.

Kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida yangi-yangi topishmoqlar ijod etilgan. Topishmoq janri hozir ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U asosan bolalar o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, bolalarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga, ularni ziyrak, topag'on bo'lishga o'rgatadi.

Topishmoqdagi o'ziga xos ritm, qofiya, o'xshatish, metafora, metonimiya, jonlantirish, kichraytirish, mubolag'a kabi badiiy vosita va usullar kishilar poetik tafakkurini rivojlantiradi va topishmoqning badiiy janr ekanligidan dalolat beradi.

Maqol – xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Nutqda keng qo'llanuvchi muayyan, barqaror ritmik shaklga ega bo'lib, ular xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgai. Maqollarda avlod ajdodlarimizning hayotiy kuzatishlari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqol o'z tabiatiga ko'ra, og'zaki yoki yozma nutqda ko'chma yoki o'z ma'nosida qo'llanilishimi mumkin. Ayrim maqollar esa faqat ko'chma ma'noda («Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi», «Quruq qoshiq og'iz yirtar»), ba'zan o'z ma'nosida («Ona yurting omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas») ishlatiladi.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida rang barang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p ma'nolilik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar harakterli. Maqolda antiteza hodisasi ko'p uchraydi (masalan, «Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l» va boshqalar). Maqollar nasriy va she'riy shaklda bo'ladi. «Mehnat, mehnatning tagi rohat» kabi maqollar nasrda bo'lsada ularda ham poetik ohang sezilib turadi: «Elga bersang oshingni, Erlar silar boshingni. Itga bersang oshingni, Itlar g'ajir boshingni», kabi she'riy maqollarda esa xuddi she'rdagi kabi ichki ohang, qofiyaga ega bo'ladi.

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida keltirilgan. Bu



maqollarning bir qanchasi hozir xam o'zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Masalan, Mahmud Koshg'ariy asarida kelgan «Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin» maqoli bugungi kunda «Odam olasi ichida, mol olasi tashida» shaklida qo'llaniladi.Maqol ba'zan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, hikmatli maqol, donishmandlar so'zi, otalar so'zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g'oyat katta.

Matal. U yoki bu hayotiy voqelikka emotsional-ekspressiv tus beruvchi, xalq orasida tarqalgan ifodalar, xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri. Matalda narsa tasviri, uning harakteristikasi beriladi, Maqolda esa so'zla tugallangan fikr xulosa ifodalanadi. Maqollar nutqimizni bezovchi, obrazli fikrlashning go'zal namunasi hisoblanadi. Maqollar nisbatan keyin paydo bo'lib, lekin ko'p davrlar iste'molda saqlanib qoladi. Matal xalq maqoli bilan ba'zi o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, lekin o'ziga xos jihatlari bilan undan farqlanib turadi. Bu tafovutlar quyidagilardir. Maqollar nutqda yaxlit hukm sifatida qo'llanilsa, matallar hukmning qismi funktsiyasini bajaradi; maqollarning tematik doirasi keng bo'lsa, matallar konkret temaga va qat'iy funktsional qo'llanilishga ega; maqollar konkret shakliy tuzilishga ega bo'lsa, matallarda shakliy qat'iylik mavjud emas; maqollar ba'zan ko'chma, ba'zan o'z ma'nosida qo'llansa, matallar hamma vaqt ko'chma ma'no tashiydi.

Xalq og'zaki ijodida matallarning paydo bo'lishi nutqda turg'un obrazli iboralarning yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Matallar so'zning ko'p ma'noliligiga tayanganligi uchun nutqiy frazeologik iboralarga qarama-qarshi holda ifodadagi o'xshatish va qiyoslashlarni kuchaytiradi. Shuning uchun ham ularda qiyoslanuvchi elementlarning tafovuti yaxshi saqlanadi. Matallar hamma vaqt tarkibi qanday bo'lishidan qat'i nazar, grammatik jihatdan gapning bir bo'lagi bo'lib keladi. «Qil uchida turibman», «Semizlikni qo'y ko'taradi», «Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'yini cho'zar», «Bekorga mushuk oftobga chiqmaydi» kabi matallar xalq orasida keng tarqalgan.

**Nazorat va muhokam uchun savollar:**

1. O'zbek xalq ijodining eng kichik janrlari haqida gapirib bering.
2. Topishmoq janriga xos bo'lgan xusuiyatlar haqida so'zlab bering.
3. Maqol va matallar nomoddiy madaniy meros namunasi ekanligini izohlang.

**Topshiriqlar:**

1. O'zingiz bilgan topishmoqlar haqida ma'lumot bering.
2. Hududingizga xos bo'lgan maqol, matllarni to'plashga harakat qiling.

## O'ZBEK XALQ BOLALAR FOLKLORI AN'ANALARI

**Reja:**

1. ***O'zbek bolalar folklorining o'ziga xos xususiyatlari.***
2. ***Bolalar o'yin folklori.***
3. ***Bolalar o'yin qo'shiqlari.***
4. ***Alla va huyyalar xalq ijodi namunasi sifatida.***

Bolalar folklori – og'zaki ijod namunalari. Odatda bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. Folklor janrining tarkibiy kismi O'zbek Bolalar folklori alla, ertak, ermaklar, tez aytish, topishmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari, erkalama, masxaralama va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o'yiniga, qo'shig'iga moslangan bo'ladi. O'zbekistonda Bolalar folklori namunalari to'plam holida 1932 yildan nashr etila boshladi. Kattalar tomonidan yaratiladigan alla, ovutmachoq va erkalamalar onalar mehr muhabbati bilan yo'g'rilgan bo'lib, ularda go'dakning istiqboliga oid orzu-umidlar, bola yashayotgan muhit o'z ifodasini topadi. Bolani belash, o'tqazish, atak-chechak yurgizish, sakratish, o'ynatish va ovutishlarda «Toy-toy», «Bordi-bordi» va boshqa ovutmachoqlar aytiladi. Bolalar qo'shiqlarining ko'plari yil fasllari bilan bog'liq. «Boychechak», «Oftob chiqdi olamga», «Chittigul», «Laylak keldi, yoz bo'ldi», «Qurbaqa», «Qaldirg'och» kabi qo'shiqlarni bolalar tong boshida, dalalarda, qishloq ko'chalarida aytishadi. Ular bahor kelishi, yomg'ir yog'ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog'liq. «Bu bog'chada olicha», «Zuv-zuv borag'on», «Chamandagul», «Oq sholi, ko'k sholi» va boshqa qo'shiklar turli davrda aytilaveradi. Ularda ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, hunar va san'at bilan bog'liq mehnat jarayonlari, kattalar hatti-harakatlariga taqlid aks etadi. O'yinlar ham, qo'shiqlar ham bolalarning akliy va jismoniy kamolatga etishiga yordam beradi, ularda zavq uyg'otadi. O'yinlar Bolalar folklorining murakkab turi bo'lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O'yinlarni kichik yoshdagi bolalar «Choriy chambar», «Hakkalakam» kabi sanama o'yinidan, katta bolalar «Qushim boshi» degan topishmoqdan boshlaydi.



Bolalar bog'chalari, maktablarda o'yinlardan keng foydalaniladi. Bolalar folklori yosh avlodni intizomli, jasur, qat'iyatli, qiyinchiliklarni yengishga, o'rtoqlariga yordam berishga tayyor bo'lish singari yaxshi fazilatlarga ega bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Uning ayrim namunalari maktab darsliklari va o'qish kitoblariga kiritilgan.

Bolalar o'yinlari bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri. Bolalar o'yinlari bolalarning har tomonlama kamol topishiga katta ta'sir qiladi. O'yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va boshqa ruhiy jarayonlar rivojlanib etadi. Bolalar o'yinlarining uch asosiy xususiyati bor. Birinchidan, bola o'yin faoliyatini erkin, o'z xohishi bilan bajaradi. Ikkinchidan, mazkur faoliyatning ijodiy va faolligidir. Uchinchidan, o'yin harakatlarining jo'shqinligi: bola o'yinga qiziqib ketadi, rivojlanadi, unda o'rtoqlik hissi kuchayadi va hokazo Bolalar o'yinlari mazmuniga qarab o'yinchoqli, voqeaband (syujetli), harakatli va didaktik o'yinlarga bo'linadi: 1) o'yinchoqli o'yinlar asosan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'yinlaridir (sodda o'yinchoqlar, masalan, shiqildoq, qum bilan o'ynash); 2) voqeaband o'yinlarda bolalar kattalar faoliyatiga taqlid qilishadi. Bu o'yinlar bolaning tashqi muhitidagi voqelikni aks ettiradi (masalan, «bola boqish», «ovqat pishirish», «bog'cha-bog'cha» o'ynash va boshqalar). Bolalar ulg'aygan sari ularning voqeaband o'yinlari ham murakkablasha boradi; 3) harakatli o'yinlarni bolalar yakka-yakka yoki birgalikda o'ynaydilar (masalan, koptok o'ynash, tez yugurish va boshqalar). Bu o'yinlar maktab yoshidagi bolalarga ayniqsa foydalidir: bolalar sog'lig'ini mustahkamlaydi, ularni irodali qilib tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarning sport o'yinlari ham harakatli o'yinlardandir; 4) didaktik o'yinlar ni tarbiyachilar o'ylab topadi. Bu o'yinlar bog'chalarning katta guruhlarida tarbiyalanadigan va boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalarga mo'ljallanadi (masalan, tabiiy-ilmiy mavzularga, chet tili so'zlarini eslab qolishga oid, loto o'ynash va boshqalar). Bu o'yinlar bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, zehn kabi xislatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolani sog'lom va baquvvat bo'lib o'sishiga imkon beradi. Bolalarning o'yin qo'shiqlari esa folklor janrlaridan bo'lib, bolalar o'yini jarayonida aytiladi. Bolalar o'yinining tarkibiy qismi bo'lib, o'yin uchun zamin, kayfiyat hozirlaydi, o'yinchilar harakatini to'ldiradi, dramatik holatni yuzaga keltiradi. O'zbek bolalarining ko'plab an'anaviy o'yini ko'shiqlari bor. Odatda, bolalar o'z o'yinlarini chek tashlash yoki sanamalar («Bir, ikki ...o'n

olti», «Choriy chambar» va boshqalar), shuningdek «O'rta qo'l topish», «Guldur gup» va boshqalar yordamida boshlaydilar. O'g'il va qiz bolalar o'rtasida «To'p», «To'p tosh», «Chittigul» kabi o'yinlar keng tarqalgan va o'ziga xos qo'shiqdari ham bor. Bolalar o'z davrasida ularni aytish orqali qo'shiqchilik mahoratini namoyish etadilar, akalari, kelinoyilari va boshqalarni tasvirlaydilar. Koptok o'yinida aytiladigan qo'shiq koptokning yer yoki devorga urilishiga hamohang bo'lib, u orqali yutuqlar soni hisoblanadi. Harakat va ovozning ritmik birligi o'ziga xos musiqiylik yaratib, bolaning o'yin holatidagi kayfiyatini ifodalaydi. Unda ma'lum tarixiy davr, bolalar o'sayotgan sharoit, oilaviy muhit va bunga ularning munosabati, shuningdek kayfiyat va kechinmalari yaqqol sezilib turadi.

Bolalar o'rtasida keng tarqalgan «Oq terakmi, ko'k terak?», «Chuchvara qaynaydi», «Tepdim, sandiq ochildi», «Dumsiz tulki», «Quyonim, quyonim, ne bo'ldi» kabi o'yin va ularning qo'shiqlari O'zbekistonning turli joylarida turlicha nomda uchrasa ham, mazmuni asosan bir xil. Bolalarning o'zaro muomala madaniyatining oshishi, kirishimlilik, dilkashlik kabi fazilatlarining shakllanishi, shuningdek xam jismoniy, ham ma'naviy o'sishida bunday qo'shiqlar muhim ahamiyatga ega.

Bolalar qo'shiqlari - atamasini ham keng ma'noda tushinmoq kerak. Birinchi o'rinda kattalar tomonidan bolalarga atab aytiladigan qo'shiqlar: Alla va huyalar. Alla onalar tomonidani bolalarni, uxlatish, erkalatish uchun aytgan qo'shiqlari (q.Alla). «Huya» bu O'zbekistonning janubiy viloyatlarida otalarning bolalarni erkalatish uchun aytgan qo'shiqlaridir. Alladan farqli tomoni uni faqat erkaklar ijro etadi. Huya aytish an'anasi bugungi kungacha yaxshi saqlanib kelinayapti (q.Huya). Ikkinchisi esa bolalarning o'zi tomonidan kuylanalidigan qo'shiqlar. «Boychechak», «Chittigul», «Oq terakmi ko'k terak», chorlamalar shular jumlasidandir (q.Bolalar folklori).

Alla o'zbek xalq og'zaki ijodidagi eng qadimiy janrlardan biri hisoblanadi. Alla qo'shig'i dunyoning barcha xalqlari, elatu millatlari ma'naviy boyligida, tarixida juda qadimdan mavjud .

Qadimiy bo'lgani uchun alla haqida afsona, rivoyatlar g'oyat ko'p. Ularning barchasini bir fazilat – allaning ona yurt, ona xalqga cheksiz, o'lmas muhabbat uyg'otishiga ishonch birlashtirib turadi. Shu bois xalqning allaning sehrli kuchiga ishonishida beqiyos qudrat bor.

Jahon tibbiyot fanining tamal toshini qo'ygan buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sino «Tib qonunlari» asarining birinchi jildidayoq shunday deb yozgan ekan: «Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va aql bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi».

«Ona allasi faqat chaqaloqning orom olishi uchungina aytilmaydi, balki uning vositasida bolaning ko'ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Ona tilidagi mehr – muhabbat, nasliy tuyg'ular va orzular go'dakning jismu jonida ildiz qoldiradi», - degan edi Yurtboshimiz.

Bu ikki fikr aytilgan vaqt orasida bir necha asrlar bor. Biroq, ular ayni haqiqat. Asrlar o'tsa ham allaning tabiati, sehri o'zgarmay qolgani ham haqiqat.

Aylansinning ayvoni bor,
Tomga chiqsa, narvoni bor.
Uyqusi kelsa, allasi bor,
Emgisi kelsa, mammasi bor,
Alla, jonim, allayo.

Bu sehrli qo'shiqning go'dakka orom berishdan boshqa fazilatlari ham ko'p. U onalarimiz, momolarimizning armon-orzulari, ko'ngil dunyosining musiqiy suvratini chizadi. Olisdagilarni, olisdan ham olisdagilarni - qaytmaslarni sog'inch, xotira uyiga qaytaradi.

Ayollar alla aytar ekan, go'dak uxlab qolgach ham xayol daryosiga cho'mib, uzoq vaqt kuylab o'tirganini ko'p ko'rganman. Sababini so'raganimda momolar:

«E, bolam, qo'shiq ob qochib ketadi-da. Urushdan qaytmagan tubingiz, o'g'lim yoki bevaqt vafot etgan onam, singlim ko'zimga ko'rinib ketibdi», - deyishgan:

Kela qolsin allasi-yo, alla,
Dadajonining bolasi-yo, alla.
Dadajoni qayga ketdi-yo, alla,
Onajonisin lolasi-yo, alla.

Alluda biz bilgan, bilmagan fazilatlar juda ko'p, biroq zarracha ta'ma yo'q. Biror ona, buvi mashhur bo'lay deb alla aytmagan, aytmaydi. Alla faqat ilhom bilan kuylanadi. Ilhomning ilohiyligiga ishonch esa butun jahonda bor.

Daryo suvga to'layotir, alla,
O'g'lim menga kulayotir, alla.
O'g'lim menga qarab kulsa, alla.,
Ko'nglim nurga to'layotir alla.

Chaqaloqni ilk bor cho'miltirishdagi idishni suvga to'layotgan daryoga qiyos qilganlar. Qadim inonchlarga ko'ra esa suvning bir tomchisi ham, daryosi ham teng fazilatga ega bo'lgan. Shu bois qo'shiqlarda ko'z yoshlari daryo bo'lib, baliqlari, ya'ni hasratlar kishini yutishi mumkin bo'lgan. Ko'ngilning nurga to'lishi ham xalqning suvni tushda ham, o'ngda ham yorug'lik, farovonlikka ta'bir qilishidandir.

Ibn Sino aytganidek, allaning asosiy vazifasi go'dak jismi va ruhini kamol toptirishdir. Ayni paytda ular asrlar bo'yi momolardan onalarga, onalardan qizlarga og'zaki tarzda meros bo'lib, badiiy jihatdan yuksak darajaga erishgan, hozirgi paytda biz doim anglab olaolmaydigan serqirra siyrat ma'nolar kasb etgan:

O'zing gavhar donaday, alla,
Turtib emgan tanaday, alla.
Qo'lda talpinib o'ynaysan,
Ko'lda suxsur, so'naday.

Daryolar tubidan olingan eng toza gavhar, turtib emayotgan tana, ona qo'lida talpinayotgan go'dak, ko'ldan uchayotgan so'na qush bularni ko'z oldingizga keltirsangiz, ruhingiz naqadar rohatlanadi.

O'rik yog'och beshiging,
O'rgulib ketsin onang, alla.
Tut yog'ochdan beshiging,
Termulib o'tsin onang, alla.

Alla va beshik egizakdir. Allani fanda beshik qo'shig'i ham deyishadi. O'zbek ustalari o'rik, tut, sada daraxtlarining chaqaloq hayotiga sehrli ta'siriga inonch tufayli beshiklarni ana shularning yog'ochidan yasaydilar. Chaqaloq ulg'aygach, xasis bo'lmasin deb, beshikni savdolashmay oladilar. Bobo, momolarimiz bunday beshiklarda ulg'aygan bolalar o'sha daraxtlar kabi shirin, serfarzand, uzoq umr ko'rishiga astoydil ishonganlar. Shuningdek, qizlar, kelinchaklar hech qachon qurib qolgan o'rik, tut, qayrag'ochlarga halginchak solib o'chmaganlar

Allalarda go'daklarning, demakki, ona xalq, ona yurtning baxtli kelajagiga umid, cheksiz ishonch, cheksiz ezgulik bor. Bu qo'shiqlarga sig'insak, avaylasak- asrasak arziydi.

Huyya - folklor janrlaridan biri. Ko'pgina turkiy xalqlar, jumladan o'zbeklarda ota tomonidan bolani erkalatish uchun aytiladigan erkalama qo'shig'i. Alladan farqli ravishda huyya faqat erkaklar tomonidan ijro etilgan.



Jonim bola mota chopsin,
Otiga baxmal yopsin.
Huyya qilsin otasi,
Uxlab qolsin bolasi.

Huyyalar vaqt tanlamaydi, bolani erakalatish uchun uni istalgan paytda, istalgan holatda ijro etish mumkin. Ko'proq ota ishdan, biror [illegible] kelgandan keyin, yosh chaqoloqlarni erkalatish, ovutish uchun huyyalar aytilgan. Huyyalar to'rtliklardan tashkil topgan bo'lib, [illegible], ijro uslubiga ko'ra allaga yaqin turadi.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Bolalar folklorini boshqa janrlardan farqli jihatlarini so'zlab bering.
2. Bolalar o'yin folklori deganda nimani tushunasiz?
3. Bolalarga kattalar tomonidan aytilgan qo'shiq namunlariga misol keltiring.

**Topshiriqlar:**

1. O'zingiz yashab turgan huddudga xos bolalar folklor namunalarini qayd eting.
2. Bolalar folklor namunalarining ijrochilari deganda kimlarni tushunasiz?

# II-BOB
# IJRO SAN'ATI
## IJRO SAN'ATINING SAHNA TALQINLARI

**Reja:**

1. ***Ijro san'atining turlari va janrlari haqida umumiy tushuncha.***
2. ***Musiqa san'ati, raqs san'ati va xalq tomosha san'ati.***
3. ***Ijro san'atining alohida holda va marosimlarda foydalanilishi.***

O'zbeklar jahondagi eng qadimiy madaniy an'analarga ega bo'lgan xalqlardan biridir. Xalqimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilib, sayqal berilgan nomoddiy madaniy merosining ildizlari juda olis zamonlarga borib taqaladi. Badiiy salohiyati g'oyat yuksakligi tufayli juda qadim zamonlardanoq badiiy ijodiyotining bebaho namunalari yaratgan xalqimiz nafaqat Markaziy Osiyo, balki Sharq xalqlari madaniyati rivojida muhim rol o'ynagan ijrochilik san'ati, uning folklor, tomosha va raqs san'atlari hamda marosimiy qadriyatlarning ham ijodkori hisoblanadi. Har bir davrda yashagan ajdodlarimiz ota-bobolari tomonidan yaratilgan bebaho milliy musiqa ijodiyoti, raqs va tomosha san'atlari akn'analarini o'z badiiy tafakkuri mahsuli bilan boyitib, yanada rivojlantirganligi uchun ham o'zbek xalqning milliy an'analari asrlar osha saqlanib, avloddan-avlodga o'tib, takomillashib kelmoqda.

Nomoddiy madaniy merosning sohalaridan biri bo'lgan ijro san'ati muqaddam xalq ijodiyotining tarkibiy qismi sifatida o'rganib kelingan. Hozirda nomoddiy madaniy meros tarkibida o'rganiladigan ijro san'ati o'z ichiga qator janr va uslublarni oladi. Shartli ravishda ijro san'ati tarkibidagi merosni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

musiqa san'ati bilan bog'liq uslub va janrlar;

raqs san'ati bilan bog'liq uslub va janrlar;

xalq tomosha san'ati bilan bog'liq uslub va janrlar.

O'z navbatida biz sanab o'tgan yo'nalishlar ham turli kichik yo'nalish va janrlarga bo'linib ketadi. Misol uchun musiqa san'ati tarkibiga cholg'u musiqasi va u bilan bog'liq uslub va janrlar, qo'shiq (keng ma'noda musiqa va so'z) ijrochiligi bilan bog'liq uslub va janrlar. Agar yanada chuqurroq kirib boriladigan bo'lsa, har bitta musiqa cholg'usida ijro etiladigan kuylar va qo'shiq musiqasi, shuningdek, mazkur cholg'uni o'zlashtirish bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar, shu bilan birga keng ma'nodagi qo'shiq ijrochiligining tabaqalanishi natijasida namoyon bo'ladigan alla, yalla, lapar, terma, mumtoz qo'shiq, xalfa qo'shiqlari, yoki hududlarga xos bo'lgan turkumlar – mavrigi, doston



qo'shiqlari, tanovarlar, suvoralar, gulyoru shahnozlar umumiy nom bilan musiqa san'ati bilan bog'liq uslub va janrlarni tashkil qilishini kuzatish mumkin.

O'zbek mumtoz ashula yo'llari o'zining an'anaviyligi, buyukligi, ta'sirchanligi, professionalligi, mukammaligi, ko'plab badiiy vositalarga boyligi bilan o'ziga xos musiqa-ijrochilik san'ati turiga aylangan. Katta badiiy-estetik imkoniyatlarga ega bo'lgan mumtoz ashula yo'llari milliy [illegible], milliy qiyofani shakllantirish, milliy qadriyatlarni saqlash, boyitish va keyingi avlodga yetkazib berishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Xalq ashula yo'llariniga qaraganda mumtoz ashula yo'llari yetuk xonandalar tomonidan cholg'u (tanbur, dutor, tor) jo'rnavozliga talqin etiladi. Mumtoz ashula yo'llari janrlar tarkibiga mumtoz ashula, mumtoz yalla, katta ashula (Farg`ona vodiysi), mumtoz va xalq ashula (Buxoro), suvora va naksh (Xorazm) va diniy marosimdagi munojot, na`t, hamd, manzuma, yakkaxonlik, xonaqoiy, qalandarlar kiradi.

Raqs san'ati tarkibidagi meros hududiy uslublar orqali o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunga kelib O'zbekiston hududida shakllangan – Qoraqalpoq, Xorazm, Buxoro, Toshkent-Farg'ona va Surxon raqs maktablarida ustozlardan shogirdlarga og'zaki shaklda va amaliy tarzda uzatiladigan bilim va tajribalar ham nomoddiy madaniy meros hisoblanadi.

Xalq tomosha san'atining hozirda amaliyotda saqlanib qolingan janrlari – dor va dor osti tomoshasi, qo'g'irchoqbozlik, kurash, uloq, masxarabozlik va boshqalar nomoddiy madaniy merosimizning namunalari sifatida yosh avlodga uzatilib kelinayotgani va ularni muhofaza qilish ishlariga davlat darajasida e'tibor qaratilayotgani ularning jamiyat rivoji va barqaror taraqqiyotdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Ijro san'atining turlari va janrlarini sanab bera olasizmi?
2. Musiqa san`atining raqs ijro san`atidan qanday farqli tomonlari bor?
3. Ijro san`atining xududiy jihatlari haqida nimalarni bilasiz?

**Topshiriqlar:**

1. Ijro san`atining janrlarini aniqlang.
2. Ijro san`atining marosimlar bilan bog`liqligini tavsiflang.

# MUSIQA. KASBIY MUSIQA. MAQOMLAR

**Reja:**

1. *Xalq musiqa san`atining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati.*
2. *Kasbiy musiqa va uning takomillashuv jarayoni.*
3. *O'zbek maqomlari va uning jahon miqyosida tan olinishi.*

Shashmaqom (forscha - olti maqom) – o'zbek va tojik xalqlari musiqa merosida markaziy o'rin tutgan maqomlar turkumi; ohang, parda, xang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o'zaro uzviy bog'langan mumtoz cholg'u kuyi va ashulalar majmui. Shashmaqom XVIII asrlarda 12 maqom tizimi (Duvozdah maqom) va buxoro musiqiy an'analari negizida Markaziy Osiyoning yirik madaniy markazi bo'lmish Buxoroda shakllangan. Shashmaqom turkumi Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan bo'lib, jami 250 dan ortiq turli shakldagi cholg'u va ashula yo'llaridan iborat. Shashmaqomni tashkil etgan maqomlarning har biri ikki - cholg'u (Mushkilot) va ashula (Nasr) yirik bo'limlaridan iborat bo'lib, cholg'u va ashula yo'llari turkumlarini tashkil etadi (ularning har biri uch ma'noda ishlatiladi - mustaqil asar, turkum qismi va usul nomi bilan). Shashmaqom yetuk sozanda va xonandalar tomonidan o'zbek va tojik tillarida ijro etilgan (ashula yo'llarida mumtoz sharq shoirlari – Rudakiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz, Amiriy, Nodira, Zebunniso, Ogahiy va boshqalarning ishqiy-lirik, falsafiy, nasihatomuz, diniy mazmundagi she'rlari, shuningdek, xalq she'riyati qo'llaniigan). Yetakchi cholg'u - tanbur bo'lib, maqomlar ushbu cholg'u orqali sozlangan. Har bir maqomning cholg'u bo'limi "Tasnif", Tarje'", "Gardun", "Muxammas" va "Saqil" qismlaridan iborat bo'lib, an'anaga ko'ra birin-ketin yaxlit tarzda yakkasoz yoki cholg'u ansambli orqali ijro etilgan. Ularning har biri o'z ohangi, xarakteri, shakli, doira usullari bilan ajralib turgan. Ashula bo'limlari ancha murakkab shakldagi ashula yo'llaridan tashkil topgan va ular ikki turkum ya'ni ikkita shu'ba guruhidan iborat: birinchisiga – "Saraxbor", "Talqin", "Nasr" va "Ufar" qismlari va ularni bog'lovchi "Taronalar" (turli shakli, kuyi va xarakteridagi ashula yo'llari) yetakchi hofiz va xonandalar ansambli tomonidan ijro etilgan. Ikkinchisiga esa "Mo'g'ulcha" va "Savt" kabi besh qismli turkumlar kirgan ("Irok" maqomidan tashqari). Asosiy cholg'u va ashula yo'llaridan tashqari bo'limlar tarkibiga qo'shimcha cholg'u (nag'ma, peshrav, samoiy, hafif) va ashula (uzzol, ushshoq,



bayot, chorgoh, nasrulloiy, oraz, xusayniy, navro'zi sabo, xoro va ajam) yo'llari kirgan. Shashmaqom, asosan, og'zaki an'anada ijod etilgan, saqlangan, sayqal topgan, avloddan-avlodga "ustoz-shogird" uslubida o'zlashtirilgan.

1920 yili Buxoroda "Sharq musiqa maktabi" va 1928 yili Samarqandda "Inmuzxoruz" instituti Shashmaqom an'analari o'zlashtirilgan. Ilk bor Shashmaqom 1923 yili rus kompozitori Viktor Uspenskiy tomonidan buxorolik maqomdon-ustozlari bo'mish Ota Jalol Nosirov, Ota Giyos Abdug'ani, Domla Halim Ibodovlardan yozib olingan va 1924 yili "Olti musiqali poema. Shashmaqom" nomi bilan nashr etilgan. Keyinchalik Shashmaqom B.Fayzullayev, F.Shaxobov va Sh.Sohibov (Shashmaqom, 5 tomlik. Moskva, 1950-1961), Yunus Rajabiy (Buxoro maqomlari, Toshkent, 1959; Shashmaqom, 6 tomlik. Toshkent, 1966-1975; O'zbek maqomlari. Shashmaqom. Toshkent: YUNESKO, 2007) yozuvlarida nashr etildi. XX asrdan boshlab Shashmaqom yozib olindi, ilmiy o'rganildi, yangi musiqa ta'limi orqali va kompozitorlik ijodida o'zlashtirilmoqda. 1959 yili Yunus Rajabiy tashabbusi bilan O'zbekiston radiosi qoshida birinchi professional maqom ansambli tashkil etilib, hozirgi kungacha faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda professional va havaskor maqom ansambllari maqomchilik san'ati targ'ibotiga katta hissa qo'shmoqda. 1983 yildan boshlab maqom ijrochilari va maqom ansambllari tanlovlari bo'lib o'tmoqda. 2003 yili "Shashmaqom musiqasi" YUNESKO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonasi" deb tan olindi va 2008 yildan boshlab YUNESKOning Reprezentativ ro'yxatiga kiritildi (O'zbekiston-Tojikiston).

Xorazm maqomlari - O'zbekistonda tarqalgan lokal maqom turkumi turi. Xorazm maqomlari turkumi XIX asr boshlarida Shashmaqom va Xorazm musiqiy an'analari negizida shakllanib, keng rivojlangan. Turkum tarkibi Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va Panjgoh maqomlaridan iborat bo'lib, har bir maqom o'z navbatida Shashmaqomga o'xshash ikki bo'limdan tashkil topgan: cholg'u bo'limi - Chertim yo'li yoki Mansur; ashula bo'limi - Aytim yo'li yoki Manzum deb ataladi. Xorazm maqomlari Shashmaqom kabi ustoz-bastakorlar mahsulidir. Xorazmlik mashhur bastakorlar Niyozjon Xo'ja, Feruz, Komil Xorazmiy, Muhammadrasul Mirzo, Matyoqub Harrat va boshqalar maqomlarga yangi cholg'u qismlar bastalab, ularni shaklan va mazmunan boyitdilar. Kuy tuzilishi, lad asoslari saqlangan holda Xorazmga xos musiqiy uslublarda ijro etilib kelingan. Xorazm

maqomlarining Chertim yo'li tarkibiga "Tanimaqom", "Tarje'", "Gardun", "Muhammas", "Saqil" qismlaridan tashqari "Peshrav" va "Ufar" qismlari kirgan. Aytim yo'li tarkibiga "Tanimaqom", "Talqin", "Nasr" va "Ufar" qismlari va faqatgina "Tanimaqomni" bog'lovchi "Taronalar" yetakchi xonanda tomonidan tanbur cholg'usi yoki cholg'u ansambli jo'rnavozligida ijro etilgan. Ularga turdosh bo'lgan Xorazmga xos "Suvora", "Naqsh", "Faryod", "Muqaddima" kabi ashula yo'llari ham aytilib kelingan (aytim yo'llarida mumtoz sharq shoirlari – Hofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Feruz, Avaz O'tar, Atoiy va boshqalarning ishqiy-lirik, falsafiy, nasihatomuz she'rlaridan foydalanilgan). Buxoro maqomlari bilan qiyoslaganda Xorazm maqomlarida ba'zan ashula yo'llarining doira usullari, kuy yo'llari ixchamlashtirilib olingan va bir oz usul sur'ati tezlashtirilgan yoki soddalashtirilgan. Xorazm maqomlaridagi kuy va ashula yo'llarida avjlar ham katta o'zgarishlarga uchragan. Ammo Xorazm maqomlari mazmunan va usluban, shaklan va ijrochilik madaniyati nisbatan mustaqil ahamiyatga moliqdir. Ushbu maqom turkumi voha ijrochilik an'analari bo'yicha yakkanavozlik tarzida erkin va badihago'ylik ravishda aytilgan. Xorazm maqomlari XIX asrning oxirgi chorag'ida Xiva xonani bo'lmish Muhammad Rahimxon Soniy tashabbusi bilan Komil Xorazmiy kashf etgan "Tanbur chizig'i"da uning o'zi va o'g'li, Muhammad Rasul Mirzaboshi tomonidan to'la (tanbur va dutor maqom turkumlari) yozib olingan va ijrochilik amaliyotida, "ustoz-shogird" maktablarida XX asrning 40-chi yillarigacha qo'llanib kelingan. Hozirgi nota yozuvida Xorazm maqomlarining Chertim yo'llari Ye.Romanovskaya tomodan (Xorazm klassik musiqasi. Toshkent, 1939), M.Yusupov tomonidan Chertim va Aytim yo'llari (Xorazm maqomlari. Toshkent, 1958: Xorazm maqomlari. Uchtomlik besh kitobdan iborat alohida to'plam. Toshkent, 1978-1991) yozib olingan.

Farg'ona-Toshkent maqomlari – O'zbekistonda maqomchilik san'atining yana bir asosiy turkumini tashkil etadi. Farg'ona vodiysida XIX-XX asrlarda keng tarqalgan turkumli (Farg'ona-Toshkent Maqomlari) va turkumsiz (Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari) ashula va cholg'u maqom yo'llari bo'lib, ular voha mumtoz musiqa merosida yetakchi o'rinlarni egallab, Shashmaqom shu'balari negizida va mahalliy ijrochilik an'analari bilan sug'orilgan. Farg'ona-Toshkent maqomlari - Toshkent va Farg'ona vodiysi (Qo'qon, Namangan, Andijon, Farg'ona, Marg'ilon, Kuva, Buvaydo va b.) musiqa madaniyatida yuzaga kelgan maqom namunalarining umumlashma



nomi. Shashmaqom va Xorazm maqomlari turkumlaridan farqli o'laroq, katta va kichik turkumga ega bo'lgan Farg'ona-Toshkent maqom ashula va cholg'u yo'llari Shashmaqom tarkibidagi bir qator sho'ba (saraxbor, savt, qashqarcha, soqiynoma, ufar)larga yaqindir (ularning ohangi, kuy harakati, shakli, usullariga o'xshash). Ular 3, 5 va 7 qismli turkumlarni tashkil etadi; har biri ma'lum shohobchalarga ega hamda sonlar vositasi bilan bir-biridan ajratiladi.

Farg'ona-Toshkent maqom cholg'u turkumlari 3 qismli «Mushkiloti Dugoh», «Xojiniyoz», «Ajam taronalari»; 5 qismli «Chorgoh», «Nasrullo», «Munojot»; 7 qismli «Miskin». Farg'ona-Toshkent maqom ashula turkumlari - 3 qismli «Nasrulloiy»; 5 qismli «Chorgoh», «Bayot», «Bayot Sheroziy», «Shahnoz-Gulyor»; 7 qismli «Dugoh-Husayniy» (ularning har bir qismi umumtartib soni raqamlari bilan belgilanadi, «Shahnoz-Gulyor» maqomidan tashqari, masalan, Chorgoh 1, Chorgoh 2, Chorgoh 3, Chorgoh 4, Chorgoh 5). Cholg'u yo'llari yakkasoz yoki cholg'u ansambli ijrosida, ashula yo'llari esa xonanda va cholg'u ansambli jo'rnavozligida talqin etiladi. Ayrim hollarda tarkibiy qismlarning maxsus nomlari ham uchraydi, jumladan, "Shahnoz-Gulyor" maqomi turkumida - 1 qism "Gulyor", 2 – «Shahnoz», 3 – «Chapandozi Gulyor», 4 – «Ushshoq», 5 - «Gulyor ufari»; «Miskin» turkumining 3 qismi «Adoiy», 4 qismi «Asiriy»; yoki «Nasrullo» turkumining 2 qismi «Chapandoz», 3 – «Qashqarcha», 4 – «Taronа», 5 – «Ufar» deb nomlanadi.

Farg'ona-Toshkent maqom turkumlaridan tashqari alohida maqom cholg'u va maqom ashula yo'llari yetuk sozanda va bastakorlar tomonidan Farg'ona vodiysiga xos ashula, katta ashula va cholg'u yo'llari asosida Shashmaqom sho'ba va shohobchalari mutanosibligida yuzaga kelgan, jumladan, "Cho'li Iroq", "Toshkent Irog'i", "Qo'qon Irog'i", "Yovvoiy Chorgoh", "Yovvoiy Ushshoq", "Yovvoiy Tanovar", "Segoh", "Samarqand yoki Hoji Abdulaziz Ushshog'i", "Toshkent yoki Mulla To'ychi Ushshog'i", "Xo'jand yoki Sodirxon hofiz Ushshog'i" va b. Bulardan tashqari Farg'ona-Toshkent maqom surnay yo'llari ham tashkil topgan, masalan, "Navo", "Surnay Dugohi", "Surnay Iroqi", "Yakkaxonlik", "Begi Sulton" va b. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari nafaqat shahar madaniyati yoki xon saroylarida, balki xalq hayoti bilan bog'liq turli vaziyat va sharoitlar (to'y marosimi va bazmi, dorbozlar o'yini, sayil va bayramlar)da ham ijro etilgan. Ushbu maqom yo'llarida Farg'ona-Toshkent musiqiy an'analari va ijro uslublariga xos mumtoz ashula, yalla, katta ashula janrlarining xususiyatlari o'z aksini topgan.

maqomlarining Chertim yo'li tarkibiga "Tanimaqom", "Tarje'", "Gardun", "Muhammas", "Saqil" qismlaridan tashqari "Peshrav" va "Ufar" qismlari kirgan. Aytim yo'li tarkibiga "Tanimaqom", "Talqin", "Nasr" va "Ufar" qismlari va faqatgina "Tanimaqomni" bog'lovchi "Taronalar" yetakchi xonanda tomonidan tanbur cholg'usi yoki cholg'u ansambli jo'rnavozligida ijro etilgan. Ularga turdosh bo'lgan Xorazmga xos "Suvora", "Naqsh", "Faryod", "Muqaddima" kabi ashula yo'llari ham aytilib kelingan (aytim yo'llarida mumtoz sharq shoirlari – Hofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Feruz, Avaz O'tar, Atoiy va boshqalarning ishqiy-lirik, falsafiy, nasihatomuz she'rlaridan foydalanilgan). Buxoro maqomlari bilan qiyoslaganda Xorazm maqomlarida ba'zan ashula yo'llarining doira usullari, kuy yo'llari ixchamlashtirilib olingan va bir oz usul sur'ati tezlashtirilgan yoki soddalashtirilgan. Xorazm maqomlaridagi kuy va ashula yo'llarida avjlar ham katta o'zgarishlarga uchragan. Ammo Xorazm maqomlari mazmunan va usluban, shaklan va ijrochilik madaniyati nisbatan mustaqil ahamiyatga moliqdir. Ushbu maqom turkumi voha ijrochilik an'analari bo'yicha yakkanavozlik tarzida erkin va badihago'ylik ravishda aytilgan. Xorazm maqomlari XIX asrning oxirgi chorag'ida Xiva xonani bo'lmish Muhammad Rahimxon Soniy tashabbusi bilan Komil Xorazmiy kashf etgan "Tanbur chizig'i"da uning o'zi va o'g'li, Muhammad Rasul Mirzaboshi tomonidan to'la (tanbur va dutor maqom turkumlari) yozib olingan va ijrochilik amaliyotida, "ustoz-shogird" maktablarida XX asrning 40-chi yillarigacha qo'llanib kelingan. Hozirgi nota yozuvida Xorazm maqomlarining Chertim yo'llari Ye.Romanovskaya tomodan (Xorazm klassik musiqasi. Toshkent, 1939), M.Yusupov tomonidan Chertim va Aytim yo'llari (Xorazm maqomlari. Toshkent, 1958: Xorazm maqomlari. Uchtomlik besh kitobdan iborat alohida to'plam. Toshkent, 1978-1991) yozib olingan.

Farg'ona-Toshkent maqomlari – O'zbekistonda maqomchilik san'atining yana bir asosiy turkumini tashkil etadi. Farg'ona vodiysida XIX-XX asrlarda keng tarqalgan turkumli (Farg'ona-Toshkent Maqomlari) va turkumsiz (Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari) ashula va cholg'u maqom yo'llari bo'lib, ular voha mumtoz musiqa merosida yetakchi o'rinlarni egallab, Shashmaqom shu'balari negizida va mahalliy ijrochilik an'analari bilan sug'orilgan. Farg'ona-Toshkent maqomlari - Toshkent va Farg'ona vodiysi (Qo'qon, Namangan, Andijon, Farg'ona, Marg'ilon, Kuva, Buvaydo va b.) musiqa madaniyatida yuzaga kelgan maqom namunalarining umumlashma



nomi. Shashmaqom va Xorazm maqomlari turkumlaridan farqli o'laroq, katta va kichik turkumga ega bo'lgan Farg'ona-Toshkent maqom ashula va cholg'u yo'llari Shashmaqom tarkibidagi bir qator sho'ba (saraxbor, savt, qashqarcha, soqiynoma, ufar)larga yaqindir (ularning ohangi, kuy harakati, shakli, usullariga o'xshash). Ular 3, 5 va 7 qismli turkumlarni tashkil etadi; har biri ma'lum shohobchalarga ega hamda sonlar vositasi bilan bir-biridan ajratiladi.

Farg'ona-Toshkent maqom cholg`u turkumlari 3 qismli «Mushkiloti Dugoh», «Xojiniyoz», «Ajam taronalari»; 5 qismli «Chorgoh», «Nasrullo», «Munojot»; 7 qismli «Miskin». Farg`ona-Toshkent maqom ashula turkumlari - 3 qismli «Nasrulloiy»; 5 qismli «Chorgoh», «Bayot», «Bayot Sheroziy», «Shahnoz-Gulyor»; 7 qismli «Dugoh-Husayniy» (ularning har bir qismi umumtartib soni raqamlari bilan belgilanadi, «Shahnoz-Gulyor» maqomidan tashqari, masalan, Chorgoh 1, Chorgoh 2, Chorgoh 3, Chorgoh 4, Chorgoh 5). Cholg`u yo'llari yakkasoz yoki cholg'u ansambli ijrosida, ashula yo'llari esa xonanda va cholg'u ansambli jo'rnavozligida talqin etiladi. Ayrim hollarda tarkibiy qismlarning maxsus nomlari ham uchraydi, jumladan, "Shahnoz-Gulyor" maqomi turkumida - 1 qism "Gulyor", 2 – «Shahnoz», 3 – «Chapandozi Gulyor», 4 – «Ushshoq», 5 - «Gulyor ufari»; «Miskin» turkumining 3 qismi «Adoiy», 4 qismi «Asiriy»; yoki «Nasrullo» turkumining 2 qismi «Chapandoz», 3 – «Qashqarcha», 4 – «Tarona», 5 – «Ufar» deb nomlanadi.

Farg`ona-Toshkent maqom turkumlaridan tashqari alohida maqom cholg'u va maqom ashula yo'llari yetuk sozanda va bastakorlar tomonidan Farg'ona vodiysiga xos ashula, katta ashula va cholg'u yo'llari asosida Shashmaqom sho'ba va shohobchalari mutanosibligida yuzaga kelgan, jumladan, "Cho'li Iroq", "Toshkent Irog'i", "Qo'qon Irog'i", "Yovvoiy Chorgoh", "Yovvoiy Ushshoq", "Yovvoiy Tanovar", "Segoh", "Samarqand yoki Hoji Abdulaziz Ushshog'i", "Toshkent yoki Mulla To'ychi Ushshog'i", "Xo'jand yoki Sodirxon hofiz Ushshog'i" va b. Bulardan tashqari Farg'ona-Toshkent maqom surnay yo'llari ham tashkil topgan, masalan, "Navo", "Surnay Dugohi", "Surnay Iroqi", "Yakkaxonlik", "Begi Sulton" va b. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari nafaqat shahar madaniyati yoki xon saroylarida, balki xalq hayoti bilan bog'liq turli vaziyat va sharoitlar (to'y marosimi va bazmi, dorbozlar o'yini, sayil va bayramlar)da ham ijro etilgan. Ushbu maqom yo'llarida Farg'ona-Toshkent musiqiy an'analari va ijro uslublariga xos mumtoz ashula, yalla, katta ashula janrlarining xususiyatlari o'z aksini topgan.

Bu holat ularning musiqiy tili xalqchilligi va nisbatan shevasi ommaviy ekanligi, xalq orasida mashhur bo'lishi sabablaridan biridir.

Farg'ona-Toshkent maqomlari Shashmaqom ashula bo'limining sho'ba, shohobcha va taronalarining ohang, usul va shakllari tarkibida shakllangan va ashula yo'lining harakati asosida rivoj topgan (she'riy matnlari sifatida mumtoz shoirlar – Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Nodira, Zebunniso, Amiriy, Muqimiy, Furqat va b.ning g'azallari qo'llangan). Bayot, Chorgoh va Dugoh-Xusayniy maqomlari Shashmaqomning shu nomlar bilan atalgan sho'balari (Navo va Dugoh maqomlari) asosida yaratilgan bo'lib, Shahnoz-Gulyor esa turli maqom sho'balari (Segox va Rost maqomlari) asosida yuzaga kelgan. Ushbu maqom o'z tuzilishi jihatidan boshqa turkumlardan tubdan farq qiladi. Uning shohobchalari mazmunan va usluban ancha murakkab, original ashula maqom yo'llari bo'lib, jozibali, yoqimli ham ta'sirchan ohanglarga boy. Chorgoh maqom turkumi besh qismli bo'lib, Shashmaqomning "Dugoh" maqomi sho'balari asosida yaratilgan. Chorgoh 1 o'zining ulug'vorligi, yoqimliligi bilan Dugoh saraxbori kuyi shakli sifatida yuzaga kelgan, lekin kuy rivoji qisqartirilgan va unga ma'lum o'zgarishlar kiritilgan. Daromaddan avjga kuy yo'nalishi (avjda Muhayyaot Chorgoh namudi saqlangan) va harakati saraxborga o'xshash (doira usuli, sur'ati, she'r vazni saqlangan). Chorgoh 2 – tarona uslubida Chorgoh savti variantidir. Chorgoh 3 – Chorgoh savti asosida aytiladi, ammo uning doira usuli va shakli soddalashtirilgan. Chorgoh 4 – Chorgoh savti qashqarchasi ko'rinishida bo'lib, kuy mavzui, shakli va doira usuli saqlangan. Chorgoh 5 - ufar usulida (Chorgoh savti ufari sho'basida) bo'lib, uning sur'ati ancha sustlashtirilgan, lekin ijro uslubi o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Chorgoh maqom turkumi Farg'ona vodiysi an'analari va ijro uslubiga moslashtirilgan holda Shashmaqom sho'balaridan qisqartirib olingan (kuy harakati va rivoji, xanglar ishlatilmasligi, avjlar qisqartilishi yoki umuman tushirib qoldirilishi, usul variantlari qo'llanishi bilan ravshan bo'ladi). XX asrda o'zbek bastakorlari tomonidan maqom yo'llarining yangi variantlari yuzaga kelgan, jumladan, Chorgoh 6 va Dugoh-Husayniy 8 Yunus Rajabiy ijodiga mansub; besh qismli Nasrulloiy (ashula va cholg'u) turkumi, Miskin cholg'u turkumi asosida yetti qismli Miskin ashula turkumi (Muqimiy g'azallari), Ushshoq asosida Ushshoq ashula turkumi – Qadimiy Ushshoq, Zikru Ushshoq, Umrzoq Polvon Ushshog'i, Fattohxon Ushshog'i kabi ashula yo'llaridan iborat taniqli xonanda va bastakor Fattohxon Mamadaliyev tomonidan ijod va talqin etilgan. Xalq



asosida Rasulqori Ushshog'i, Orifxon Ushshog'i kabi asarlar ham keng tarqalgan.

Farg'ona-Toshkent maqomlari va maqom yo'llari V.Uspenskiy, V.Belyayev, Yunus Rajabiy tomonlaridan yozib olingan va turli yillarida nashr etilgan (O'zbek xalq qo'shiqlari. 1-2 kitoblar. Toshkent, 1939; O'zbek xalq musiqasi. 1-4 jildlari. Toshkent, 1955-1958). XX asrdan boshlab Farg'ona-Toshkent maqomlari va maqom yillari V.Uspenskiy, V.Belyayev, I.Akbarov, F.Karomatli, I.Rajabov, T.G'ofurbekov, O.Matyoqubov, O.Ibrohimov, S.Begmatovlar tomonidan ilmiy o'rganilib kelinmoqda. Nafaqat an'anaviy "ustoz-shogird" maktablari, balki yangi musiqa ta'limi tizimi (musiqa va san'at kollejlari va konservatoriya) orqali o'zlashtirilmoqda. Farg'ona-Toshkent maqomlarini targ'ib etishda Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Sodirxon hofiz Boboshariffov, Yunus Rajabiy, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Rasulqori Mamadaliyev, Shojalil va Shorahim Shoumarovlar, Shoqosim, Shoolim va Shoakbar Shojalilovlar, Orifxon Hotamov, Imomjon Ikromov, Orif Alimaxsumov, Ortiqho'ja Imomxo'jayev, Xalima Nosirova, Saodat Qobulova, Tavakkal Qodirov, Kamoliddin Raximov, Ochilxon Otaxonov, Turg'un Alimatov va boshqalar maqom yo'llarini yanada boyitish, yoshlar orasida targ'ib etishda katta hissa qo'shganlar.

Xorazmda dutor maqom turkumlari XIX-XX asrlarda keng tarqalgan bo'lib, "Xorazm tanbur chizig'i"da oltita dutor maqomi – Zihiy Nazzora-Urganjiy, Miskin, Rahoviy, Iroqiy, Oxyor, Choki Giribonlar va ularning turkumiy qismlari yozib olingan. Manbalarga ko'ra (Xorazm musiqiy tarixchasi) va amaliyotda saqlangan dutor maqom turkumlarining 11tasi keltirilada, har birining tarkibida 2dan to 7tagacha qismlari mavjud – Iroq, Chapandoz, Mo'g'ilcha, Navoiy, Sadri Iroq, Roviy, Orazi bom, Tashniz, Majnun Dali, Oxyor, Miskin, Jumladan, Zihiy Nazzora-Urganjiy maqomi tarkibida – Zihiy Nazzora, Talqini Zihiy Nazzora, Tarji'bandi Zihiy Nazzora, Qaddim xamliqi, Talqini Urganjiy, Naqshi Talqini Urganjiy, Iyfori Talqini Urganjiy yoki Miskin maqom turkumi tarkibi – Miskin, Talqini Miskin, Naqshi Miskin, Iyfori Miskin (Iyfori – ufar ma'nosida). Har bir maqom turkumi o'ziga xos kuyi, shakli, usullari, kuy rivoji, she'riy matnlari va ijro uslublari bilan ajralib turadi.

Farg'ona vodiysida surnay maqom cholg'u yo'llari ommalashgan bo'lib, to'y marosimlari va xalq shodiyonalarida surnay cholg'usida

maxsus ijro etilgan. Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq, Uzzol, Dugoh Husayniy, Mustaxzod, Chorgoh, Yakkaxonlik, Begi Sulton kabi cholg'u yo'llari surnay cholg'usida talqin etilib, o'zbek xalqi orasida juda ham mashxurdir. Ularning ijodkorlari o'zbek bastakorlari va yetuk surnaychi sozandalari bo'lishgan. Surnay maqom cholg'u yo'llari alohida asar va turkum sifatida ijro qilingan – bular «Surnay Navosi», «Surnay Dugohi», «Buzruk – Buzruk savti», «Navo – Navo savti - Navo chorsi 1-2», «Dugoh – Dugoh Husayniy – Dugoh ufari», «Surnay Uzzoli – Uzzol savti – Uzzol ufari», «Iroq – Iroq ufari – Iroq duchavasi» va b. Kuy tuzilishi va rivoji, usullar, shakli Shashmaqom sho'balariga o'zshash, ammo Farg'ona vodiysiga xos musiqiy an'analarida va surnay uslublarida ijro qilinadi.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Xalq musiqasi ijtimoiy xayotda qanday o'ringa ega?
2. O'zbek maqomlari va ularning turlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Kasbiy musiqaning takomillashuv jarayonini ta'riflab bera olasizmi?

**Topshiriqlar:**

1. O'zbek maqomlarining jahon miqyosidagi o'rnini tavsiflang.
2. Kasbiy musiqaning rivojlanish jarayoni haqida ma'lumot bering.

## MUSIQIY TURKUMLAR. TANOVOR. SUVORA. LAZGI. MAVRIGI

**Reja:**

1. ***O'zbek xalq musiqa san'atida turkumlarning shakllanishi***
2. ***Turkumlarda qo'shiq, musiqa va raqs harakatlari mujassamligi masalalari***
3. ***Hududlarga xos turkumlar. Tanavor, Shahnoz, Gulyor, Lazgi,Suvoriy, Buxorcha va Mavrigi turkumlari***

O'zbek musiqasida hududlarga xos tarzda shakllangan turkumlar milliy musiqa merosimizning anchagina qismini tashkil etadi. Misol uchun Buxoro va Samarqandda shakllangan "Buxorcha" va "Mavrigi", Xorazmda shakllangan "Suvoriy" va "Lazgi", Farg'ona-Toshkent hududiga xos "Tanovar", dasht va tog'li xalqlarga xos "Qarsak"lar shular jumlasidandir.

Tanovar (forscha – jasur, qudratli, kuchli) - o'zbek ijrochilik san'atida keng tarqalgan xalq va mumtoz aytim-ashula va cholg'u



yo'llarida namoyon bo'ladi. Odatda "Tanovar" iborasi ikki so'zdan tashkil topgan: "tan" - ya'ni jismni, "ovar" – esa zavq olib kelish ma'nolarini anglatadi. Ushbu ibora amaliy san'atdan kelib chiqqan va iste'molga kirib kelgan: kosibchilik amaliyotida xom ashyo bilan ishlashning ilk jarayoni, oddiy terini moslab (oshlab) berish bilan bog'liq (masalan, mahsi tikilishidagi murakkab jarayon yoki tikilgan mahsining g'ich-g'ich tovushlarni chiqarishi «tanovar» deyilgan). Tanovarning dunyoga kelishi ham bir kosibning ijodi bilan bog'liqdir - o'z sevgilisiga atagan maktub. Umuman o'zbek musiqasi madaniyatida, ayniqsa, Farg'ona vodiysida keng tarqalgan xalq qo'shig'i, xalq she'riyati asosida yaratilgan va ommaviylashgan. Unda o'zbek qizining sevgilisi bilan uchrashish va visolga yetishi muqarrarligi aks ettirilgan.

Tanovarning xalq aytim yo'lidagi "Qora soch", "Sumbula" (xalq so'zlari), "Endi sendek" (Muqimiy she'ri) variantlari dutor jo'rnavozligida talqin etilgan bo'lib, keyinchalik uning mumtoz ashula va cholg'u yo'llari shakllangan, jumladan, "Tanovar", "Adolat tanovari", "Yovvoyi yoki Da'di tanovar", "Farg'onacha Shahnoz", "Qo'qoncha tanovar", "Marg'ilon tanovari", "Namangan tanovari", "Yangi tanovar" kabi lokal variantlari ijod etilib, xalqimiz orasida ommalashib ketgan. Tanovar yo'llariga ko'pgina o'zbek xonandalari va bastakorlari yondoshgan holda uning noyob va o'zgacha ijod va ijro talqinlarini yaratilishiga muvaffaqiyat bo'lishgan. Bu asar mazmunan, shaklan va o'zining kuychanligi, hayajonligi bilan ajralib turadi. Kuyning keng rivoji, ohanglar bezaklar bilan ko'proq boyitilishi, ohangning sadolanishi asarning ehtirosli, shirador va ta'sirchanligi qolishi tinglovchiga zavq-shavq va xuzur baxsh etadi.

Tanovarning mumtoz ashula yo'llarida o'zbek ayolining ma'naviy go'zalligi o'z aksini topgan. Tanovarning boshlang'ich ohangalri, mustasnosiz, o'rta pardalarda joylashgan bo'lib, ijro jarayonida asta-sekin rivojlanib (kuy diapazoni kengayib), avj qismida o'zining ta'sirchanlik holatiga olib keladi. Unda tinglovchini ham, ijrochini ham hayajonli bir tuyg'uni his etishiga va ikkiyoqlama jonli va dardli xususiyat kasb etadi. Umuman olganda ashulaning har bir obrazi va har bir shakl tuzilmasi tarkibida insonning ma'naviy dunyosi o'z aksini topadi. Tanovarning turli janrlar tarkibi keng tarqalgan: qo'shiq (Qora soch), ashula yo'li (Endi sendek, Adolcha), katta ashula (Yovvoyi tanovar), ashula turkumi (Tanovar I-V), ashula (bastakorlik ijodiyotida, "Ul kun jonon" – B.Mirzayev, "Yovvoiy tanovar" - Jo'raxon Sultonov, "Tanovarni tinglab" - A.Ismoilov).

Tanovarlarning cholg'u yo'li ham mavjud bo'lib, dutor, tanbur, g'ijjak, chang uchun ijod etilgan, jumladan, "Qo'qon tanovari" dutor uchun, "Turg'un tanovari" dutor, tanbur va sato uchun, "Gulbahor va Tanovar" chang uchun (Gulbahor kuyi "Dugoh-Husayniy IV" ohangi asosida ijod etilgan). Tanovar – bu musiqiy shakl va usulning nomlari hamdir.Mashhur o'zbek raqsi - Tanovar ilk bor Mukarrama Turg'uboyeva tomonidan XX asrning 40- yillarida sahnaga olib chiqilgan va o'ziga xos raqs san'ati asari sifatida ommashib ketgan. Kuy tuzilishi yuqori pardalardan boshlanib, o'zining asl yo'liga o'tadi va ushbu ohang rivoj olib raqs harakatlari bilan mutanosibligida cholg'u ansambli jo'rnavozligida talqin etiladi.

Tanovarlarni ijod qilish to'xtab qolgan emas. Bunga taniqli san'atkorlarimiz bilan bir qatorda milliy san'atimizga dadil qadamlar bilan kirib kelayotgan sozanda va xonandalarningo repertuaridan munosib o'rin olayotgan tanavorlar uslubidagi kuy va qo'shiqlar misol bo'limi mumkin.

Suvora (forscha "suvoriy" – otliq) – Xorazm hududida keng tarqalgan yirik ashula yo'li, Xorazm maqomlari tarkibidagi ashula yo'llari. Suvora o'tmishda tasavvuf oqimining musiqa san'atidagi ko'rinishidir. Suvoralar, qadimda diniy so'zlar bilan aytilib, ijrochilarni "go'yanda" (aytimchi) deganlar. Suvora so'zi "suvoriy" so'zidan chiqqanligi bejis emas, chunki ustozlarning aytishicha Suvoralarning ritm, doira usullari otning oyoq tovushi holatidan olingan deyishadi. Shuning uchun ham musiqa ijodiyotida ot bilan bog'liq asarlar juda ko'p uchraydi. Hozirgi kunda Suvora ashula yo'li, cholg'u yo'li va maqomlar tarkibidagi cholg'u va ashula yo'llari hamdir. Suvoralarning bizgacha beshta asosiy yo'li va yigirmaga yaqin Savti suvora va Ufori suvoralari yetib kelgan. Suvoraning ashula yo'li oddiy 2/4 o'lchovidagi doira usulida mumtoz shoirlarning she'rlari asosida ijro etiladi. Eng qadimiy Ona suvora (Katta suvora yoki Toj suvora ham deyiladi), Ogahiy va Mashrab so'zlari bilan aytiladi. Ijro uslubi yakkanavoz chol-u (tanbur, dutor yoki tor) jo'rnavozligida. Suvora ashula yo'llari orasida Chapandozi suvora, Yak parda suvora, Kajhang suvora, Qo'sh (Xush) parda suvora, Besh parda suvora kabi asarlar keng tarqalgan. Savti suvora 12 qismi va undan ko'p qismli bo'lishi mumkin, undan keyin Ufori savti suvora va Gul ufor savti suvoralar ham ijrochilik amaliyoti bo'lgan. Suvoralar Xorazm maqomlari turkumining mashhur bo'lgan ashula yo'llari. Maqomlarda asosiy sho'balardan keyin o'rin olgan. Usullari murakkab 13/4 o'lchovida. Shuningdek oddiyroq 6/8, 3/4, 3/8



o'lchovidagi suvora ashula yo'llari ham mavjud. Yirik Suvora ashula turkumlari tarkibida asosiy Suvoralardan tashqari ikkitadan Savt va Uforlar ijro etiladi. Cholg'u yo'liari o'ziga xos kuylari va usullari bilan ajralib turadi, jumladan, Suvora I - III. Farg'ona vodiysida Suvora surnay cholg'u yo'llari ham keng tarqalgan. Ijrochilik amaliyotida mashhur xonandalar tomonidan yaratilgan Suvoralar mavjud – Suvorai Komil (Komiljon Otaniyozov ijodi), Qorchmoniy suvora (Hojixon Boltayev), Indamas suvora (Quvondiq Iskandarov), Go'jayi suvora (Ozod Ibrohimov), Nim parda suvora (Rahmatjon Qurbonov) i b. Suvoralar ijrochilari orasida Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov, Madraim Sheroziy va b., jumladan, Hojixon Boltayev repertuarida 50 ortiq Suvora maqom ashula yo'llari, ashula turkumlari, ashula yo'llari o'rin olgan. Suvora ashula yo'llari asosida Xorazmda xonandalarning ijodiy musibaqalari "Diyralashma" o'tkaziladi (bir kuy asosida turli mavzuidagi she'rlar ijro etilishi lozim). Suvoralar asosida zamonaviy estrada qo'shiqlari ham yaratilmoqda (O'g'abek Sobirov, O'lmas Olloberganov va b.).

Xorazm vohasiga xos yana bir musiqiy va xoreografik turkum - "Lazgi" ustida alohida to'xtalib o'tish o'rinli. Bunda asosan musiqa ham raqsga monand sekin va oddiy harakatlar bilan boshlanadi – oldin barmoqlar, bilaklar, yelka va keyin butun tana jonlana boshlaydi. So'ngra birdaniga qo'l, oyoq, tana ishtirok etadigan murakkab harakatlar olinib ketadi. Kuyning bir qismi takrorlangan holda raqs harakatlari almashib boradi. Kuy xarakteri o'zgarishi va sur'at tezlashishi bilan raqs tobora qizg'inlasha borib, keskin holda tamom bo'ladi. Erkaklar (jangovar, qahramonlik ruhida) va ayollar (lirik, hazilomuz) raqslari bilan farqlanadi. Hozirgi davrda Xorazmda lazgi raqsining 9 turi mavjud: "Qayroq lazgisi", "Kimning sevar yorisan", "Loyiq", "Sani o'zing bir yona", "Gal-gal" va boshqalar. "Lazgi"ning kuy va usullaridan Sh.Ramazonovning "Xorazmcha syuita"sida, M.Yusupovning "Xorazm qo'shig'i" operasi va "Gulsanam" baletida, R.Gliyenkoning "Xorazm mavzuidagi syuita"da, S.Yudakovning "Xorazmcha bayramona yurish"ida unumli foydalanishgan.

Naqsh (ma'nosi – bezak, qo'shiq, shakl) – o'zbek an'anaviy musiqasida aytim va ashula yo'llari. Farg'ona vodiysida tarqalgan to'y marosim qo'shig'i - erkaklar tomonidan cholg'u jo'rligisiz kuyovni kelinni o'yiga kuzatish jarayonida aytilgan, yakka guruh tarzida. Xalq she'riyati qo'llangan, o'zbek va tojik tillarida ijro etilgan. Tojikistonda "Na'li" ham deyishadi. Musiqiy qonuniyatlari va ijro uslubi bo'yicha

o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. Marosim qo'shiq turkumi sifatida mavjud, uning tarkibida: Katta naqsh yoki naqshi kalon, O'rta naqsh yoki naqshi miyona, Kichik naqsh yoki naqshi xurd, Terma naqsh yoki naqshi oddiy (naqshi xalqiy). Katta naqsh yetuk xonandalar tomonidan galma-gal, erkin uslubda baland ovozda aytilgan bo'lib, katta ashula uslubiga yaqin. Qolgan naqshlar yakka guruh tarzida kuylanadi: terma naqsh guruh shaklida tezroq usulida ijro etilgan. Naqsh - o'zbek mumtoz musiqasida keng tarqalgan ashula yo'li. O'rta asr risolalarida naqsh kuy, vazn va she'r tuzilmasilaridan iborat mukammal musiqiy shakl, misol uchun Naqshi Bayot – o'ziga xos murakkab ashula yo'li, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari va Xorazm maqomlari turkumlari tarkibidagi ashula yo'li. Maqomlardagi Savt uslublariga yaqin va o'xshash; talqin yoki nasr usullariga ergashgan shakl, masalan, Segoh naqshi. Xorazm tanbur chizigidagi dutor maqomlarida ko'pgina naqshlar keltirilgan - Naqshi Miskin, Naqshi Talqini Urganjiy, Naqshi Sadri Iroq va h.

Ushshoq (arabcha – oshiqlar) O'n ikki maqom turkumida lad (tuzuk) sifatida ham ma'lum bo'lib, uning tovushqatori hozirgi miksolidiy (major ladining VII pog'onasi pasaytirilgan) ladiga mos keladi. Ushbu ladga mos keladigan cholg'u va ashula yo'llari ham Ushshoq maqomi deb ataladi; u Ushshoq maqomi va Moya ovozasi pardalari asosida yaratilgan. O'zbek va tojik xalqlari musiqa merosida Ushshoq mustaqil maqom sifatida yetib kelgan. Ammo uning cholg'u va, ayniqsa, ashula yo'llari keng tarqalgan. Ushshoqning dastlabki jonli namunalari qanday bo'lganini hozirgi kunda tasavvur etish kiyin. Lekin uning kuy tuzilishini bizgacha yetib kelgan Shashmaqomdagi Rost maqomining Ushshoq nomi bilan atalgan sho'balarining kuy va lad tuzilishi O'n ikki maqom tizimidagi Ushshoqning lad asosi aynan bir xil ekanini ko'rish mumkin. Rost maqomidagi Muhammasi Ushshoq (cholg'u yo'li), Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq va Ufari Ushshoq (1 guruh ashula yo'llari), Savti Ushshoq (2 guruh ashula turkumi) mashhur bo'lgan sho'balardir. Muhammasi Ushshoqni kuy tuzilishi, shakli, doira usuli juda murakkab bo'lsada, uning ohanglari va variantlari boshqa maqomlarning Muhammaslarida uchratish mumkin. Ushshoq ashula yo'llari ham murakkab, kuylari rivojlangan, yorqin va jozibadorli, avjlarida keng tarqalgan namudlar (Namudi Uzzol va Namudi Muhayyari Chorgoh)dan foydalanilgan, emotsional jihatdan ta'sirchanli. Buzruk va Rost maqomlari ashula yo'llari sho'balarining avjlarida Ushshoq nomi bilan atalgan namud ko'proq uchraydi (Nasri Uzzol



[illegible], Ko'cha bog'i va Qo'shchinor ashula yo'llarining avjida Namudi Ushshoqdan foydalanilgan). Xorazm maqomlari turkumida Ushshoq sho'balari va Namudi Ushshoq ham uchraydi.

Mavrigi Buxoro musiqa an'analariga xos erkaklar folklor janri. Mavrigi Buxoro amirligi davrida Mavrdan ko'chib kelgan eroniylarning musiqiy ijodi sifatida shakllanib, keyinchalik mahalliy tojik va o'zbek millati orasida ham ommaviylashib ketgan. O'ziga xos ijro an'anaviy ijro qoidalariga bo'ysunadigan guruhlangan qo'shiq va kuylardan tashkil topgan. Ohista boshlanadi, keyin tezlashadi, dastlab asosan doira jo'rligida, so'ngra esa boshqa musiqa asboblari ham qo'shiladi, raqs elementlari bo'ladi, eng xushohang kuyli sho'x maromlar bilan avjiga chiqadi. Ijroning asosiy qismlari Shahd (muqaddima), Taraqqiy (rivoj) va Pirovard (yechim) deb ataladi va ular bir-biri bilan zanjir kabi uzviy bog'langan.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Xalq musiqa san'atining qanday turkumlari va qayerlarda shakllangan?
2. Qo'shiq, musiqa va raqs san'atining qanday umumiy va qanday xususiy jihatlari mavjud?
3. Quysi xalq qo'shiqlarini bilasiz?

**Topshiriqlar:**

1. O'zbek xalq musiqa san'ati turlarini tavsiflang.
2. Hududlarga xos musiqa turlarini aniqlang.

## XALQ MUSIQA FOLKLORI. YALLA. LAPAR. QARSAK. XALFACHILIK. O'LAN

**Reja:**

1. ***Xalq musiqa folklorining shakllanishida oddiy xalq ijodining o'rni.***
2. ***Xalq musiqa folklori janrlari va ularning rivojlanish bosqichlari.***
3. ***Xalq musiqa folklorida hududiy, ijrochilar tarkibi, gender bo'yicha tafovutlar va ulardagi an'anaviylik, zamonaviylik masalalari.***

Yalla - keng tarqalgan ashula-raqssimon janr bo'lib ishqiy-lirik mazmuni bilan yakkanavoz (xonanda yoki yallachi) tomonidan cholg'u ansambli jo'rligida ijro etiladi. Mumtoz yallalar xalq yo'lidagi yallalarga nisbatan keng diapazonli rivojlangan kuyi,

jozibali va o'ynoqi xarakteri bilan farq qiladi. Xalq yallalari tor diapazonli bo'lib, uning she'riy matnidagi har bir bandi (asosan xalq she'riyati qo'llangan) va raqs harakatlari yakkaxon yallachi, naqorati esa guruh tomonidan cholg'u jo'rligi (ko'proq doira yoki dutor)da aytilib kelingan. O'ynoqi xarakteridagi kuy hammani raqsga chorlaydi (yalla xalq tilida – bu "o'ynab kuylash qo'shig'i" ma'nosini bildiradi), jumladan, "Yallama yorim", "Ho-ho yalla", "Qizgina" kabi xalq yallalari.

Mumtoz yallalar she'riyat va ijrochilik madaniyati rpivoji bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy topgan (o'zbek mumtoz va zamonaviy shoirlarning she'rlari so'z matni sifatida qo'llangan). Har bir yallada she'rlar soni kuy va hajmiga mutanosib bo'lib, asarning kuy tuzilishi, rivoji va shaklini ta'minlaydi. Kuylari jozibali xarakterida bo'lib, ularning rivojlanishi muayyan ohang, usluban ufarsifat ohanglar taqroriga asoslangan, o'ziga xos raqsbop o'lchovli ritm-usulida aytiladi.

Yallada zuhur etilgan raqsbop holati musiqiy omillar vositasida yana ham yorqin tus olgan, uning jonli va raqsbop usuli o'ziga xosligini ta'minlaydi.Yallalarning ta'sirchanligi – hamma vositalarni bir-biri bilan chambarchas holda mahorat va xushkayfiyat bilan ijro etilishidadir. Mumtoz yallalar yakkanavoz tarzida cholg'u ansambli jo'rligida aytilgan; mumtoz va bastakorlik ijodiyotida keng o'rin olgan. O'zbek ijrochilik san'atida Ma'murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov kabi xonandalar repertuarlarida yallalar salmoqli o'rin olib, keng omma orasida targ'ib etilgan, jumladan, "Qalam qoshliging" (yoki "Jonon bo'laman"), "Mustahzod" (M.Harratov ijodi), "Dog'man", "Surating", "Parvo etib ket", "Yakka bu Farg'onada", "Ko'zlaring" (M.Mirzayev ijodi) va b. Namanganda yalla turkum (Katta yalla va kichik yalla)lari mavjud bo'lib, yallachi ayollar tomonidan doira jo'rligida to'y marosimlari va bazmlarda ijro etilgan. Ijrochilik amaliyotida ashula va yalla turkumlari ham mavjud, jumladan, "Yor istab" va "Mustahzod", "Farg'ona ruboyisi" va b. Hozirgi kunda yallalar estrada yo'nalishida ham ijro etilmoqda.

Xalq ijodiyotining qadimiy janrlaridan biri bo'lgan lapar ijrochiligi san'ati o'zining boy tarixiga ega. Lapar qo'shiqlari taniqli san'atkorlar tomonidan bayramlar, xalq sayillari va nikoh to'ylarida, kechqurun qizning uyida o'tkaziladigan "Qiz oqshomi", "Qizlar bazmi", "Lapar kechasi" deb ataluvchi bazmlarda ijro etiladi. Qizlar bilan yigitlar tarafma-taraf turib, oshiqona g'azal-baytlar aytadilar, bir-birlariga muhabbat izhor etib, ahdu paymon qilishgan, sovg'alar berishgan.



Lapar xalq ijodiyotining mustaqil janrlaridan biridir. Laparlarning tarixiy ildizi ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilarda ayon bo'ladi:

1. Bevosita marosim bilan aloqadorlikda yaratilishi va ijro etilishi;
2. Ikki jinsga mansub shaxslar o'rtasida aytishuv shaklida namoyon etilishi;
3. So'z va musiqa uyg'unligi;
4. Xoreografik hamda dramatik xususiyatlarning mavjudligi.

Bu xususiyatlar, o'z navbatida, laparda folklorga xos sinkretizmning mavjudligini isbotlaydi.

Dastlabki davrlarda erkak va ayol ijrochi ishtirok etgan qadimiy laparlar o'ziga xos musobaqa jarayoni ko'rinishida bo'lgan va bunday ko'rinishdagi mustaqil janrlar hozirgacha turli xalqlarda saqlanib qolgan. Masalan, qozoqlarda "aytis" nomini olgan aytishuv asosan improvizatsiya (badiha)ga asoslanadi va hozirgacha shu millatning eng sevimli va ommabop tomoshalaridan biriga aylangan. O'zbeklarda "o'lan" nomini olgan aytishuv turi ham qadimiy laparlarga xos barcha xususiyatlarni jamlagan.

Barcha janrlarda bo'lganidek, laparlarda ham o'zgarish ro'y berib, sekin-asta undagi ikki jinsning ishtiroki yo'qoldi va faqat ayol ijrochi tomonidan raqsga tushib ijro etiladigan ko'rinishga kelib qoldi. Bundan tashqari, undagi improvizatsiya uslubi o'z o'rnini ijrochilar tomonidan oldindan tayyorlangan xalq termalariga bo'shatib bergan bo'lsa, keyinchalik laparlar maxsus bastakorlar va shoirlar tomonidan yaratiladigan musiqiy janrga aylandi. Keyinchalik qardosh xalqlar xalq qo'shiqlari asosida: tojikcha, uyg'urcha, afg'oncha, turkmancha, qozoqcha, qirg'izcha, hatto koreyscha va ruscha laparlar dunyoga keldi. Laparlarning bunday yo'nalishda shakllanishi va rivojlanishiga uning ijrochilari tarkibiga professional san'atkorlarning kirib kelishi ham sabab bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan an'anaviy lapar ijrochilarining kamayib borishi ham janrning ommaviy ijro tarziga salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbek xalq laparlarining ilk tadqiqotchilari Elbek, M.Alaviyalar tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra janrning ijro doirasidagi torayish XX asrning 30-yillari oxiridan sezila boshlagan. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi turli voqealar oqibatida bu torayish yanada chuqurlasha boradi va oxir oqibatda muqaddam sayl, bayram, to'y-tomoshalarda xalq laparlarining umuman ijro etilmay qoladi.

Keyingi taraqqiyot jarayonida yakka (ayol) ijrochi tomonidan namoyish etiladigan yangi ko'rinishdagi laparlar yirik san'atkorlar

repertuariga o‘tib, qaytadan sayqal topib, el orasida ijro etila boshladi. Bunday laparlar Tamaraxonim, Halima Nosirova, Lutfixonim Sarimsoqova, Mehri Abdullayeva, Rahima Mazohidova, Klara Jalilova, Tursunoy Mamedova, Gulshod Otaboyeva kabi ko‘plab yirik san’atkorlar reperturidan mustahkam joy oldi. Shu tariqa laparlarning ikki xil ko‘rinishi paydo bo‘ldi.

Hozirgi paytga kelib birinchi, dastlabki ko‘rinishdagi jonli lapar aytish an’anasi butunlay so‘ngan bo‘lsa, ikkinchi ko‘rinishdagi lapar ijrochilari ham yo‘qolib bormoqda. Shuni aytish joizki, xalq o‘rtasida laparlar aytish an’anasi asosan so‘ngan bo‘lsa-da, laparlarga xos badiiylik hamon barqaror saqlanib qolganligini kuzatish mumkin.

Ikkinchi ko‘rinishdagi laparlarning yo‘qolib borishiga:

birinchidan, professional lapar ijrochilari tomonidan shogirdlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yilmaganligi bo‘lsa,

ikkinchidan yangi, sahnabop laparlarning yaratilmayotganligi,

uchinchidan lapar ijrochilariga qo‘yiladigan talablarning yuqoriligini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Chunki, lapar ijrochisi chiroyli husn va qomatga ega bo‘lishi qatorida yaxshi xonanda va yaxshi raqqosa bo‘lishi talab etiladi. Bu sifatlarning bitta ijrochida jam bo‘lish holatlari mavjud bo‘lgan taqdirda ham mazkur ijrochining lapar ijrosiga ijobiy munosabati hamma narsani hal etadi. Bizning fikrimizcha, lapar janrini keng targ‘ib etish qatorida yuqoridagi sifatlarga ega bo‘lgan ijrochilarni tarbiyalashni yo‘lga qo‘yish, ularni har tomonlama rag‘batlantirish choralari orqali lapar janrini saqlab qolish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi tomonidan har ikki yilda o‘tkazib kelinayotgan Lapar va o‘lan ijrochilarining Respublika ko‘rik-tanlovlari natijalariga ko‘ra keyingi paytda lapar ijrochilarining soni keskin kamayib, ijro sifati pasayib borayotganligi, bunga aksincha, o‘lan ijrochilarining safi kengayib, sifat darajasi ortib borayotganligini kuzatish mumkin.

Qarsak – o‘zbek xalq musiqa va raqslari turkumi. “Besh qarsak” va “Mayda qarsak” bo‘limlaridan iborat. “Mayda qarsak”, o‘z navbatida, “Yakka qarsak”, “Qo‘sh qarsak” va “Tez” (yoki “Uzma”) nomli o‘yinlarni o‘z ichiga oladi. Unda qarsaklar bilan hosil qilinadigan usul, bayt, bir ovozda aytiladigan yallalar va raqs harakatlari birlashadi. Ko‘p joylarda ijrochilar yonma-yon turgan yoki o‘tirgan holda davra yoki yarim davra hosil qilib, o‘rtadagi o‘yinchiga hamohang bo‘lib, usulga mos chayqalib turadilar. “Mayda qarsak” bo‘limlari bir-biridan



ajralmasdan yaxlit ijro etiladi. Har bo‘limda o‘nlab xalq kuylari bo‘ladi, biroq bir xil qarsak usuli bilan olib boriladi. 2-bo‘limga o‘tgach, qarsak ritmi o‘zgarib, raqs harakatlarini yangilaydi. “Besh qarsak” yonma-yon turib davra hosil qilgan holda ma’lum sur’at va usulda bajariladigan besh qarsak (3-1-1) va ayrim xitoblar vositasi bilan o‘ynaladigan ommaviy raqsdir. Uning katta davralarida 20 va undan ortiq kishi ishtirok etadi. Ular bir tempda qarsak urib turish bilan birga u yon-bu yonga chayqalib, o‘tirib-turib, bukilib va ayni vaqtda yon bilan har ikki tomonga harakatlanib o‘ynaydilar. O‘yinda rechitativsimon baytlar aytilib turadi. Davradagi o‘yinchining harakatlari shiddatli va jangovar bo‘ladi. U ko‘proq qo‘l, bel, yelka, ko‘krak harakatlarini ishlatadi, yuzida son-sanoqsiz ifodalar hosil qiladi, goh bukilib, goh g‘oz turib, goh cho‘kkalab o‘ynaydi.

Ba’zan “Besh qarsak”da ichma-ich ikki xalqa-davra hosil qilingan, ikki o‘yinchi kuch sinashgan. Davradagi qarsakchilar ham, o‘yinchilar ham badihago‘y – improvizator bo‘lishgan. Qarsak o‘yinining elementlari ovchilik va zardushtiylik bilan bog‘liq xolda paydo bo‘lib, bora-bora madaniylashgan va bazmlarda ko‘rsatiladigan tomoshaga aylangan. 14-16-asrlarda u saroy bazmlarini ham bezagan. Qarsak o‘yin taxminan 18-asr oxiri–19-asr boshida 2ga bo‘linib ketgan: “Mayda qarsak” tobora kengroq hududni egallab, vodiy madaniyatining bir qismiga aylanib boradi. “Besh qarsak”, asosan, tog‘li tumanlarda saqlangan. Qarsak o‘yin Jizzax, Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida saqlanib kelmoqda. Ko‘p joylarda (mas. Urgutda) “Mayda qarsak”ning o‘yin va ashulalari badiiy havaskorlik uchun ijod va repertuar manbaidir. “Bahor” va “Shodlik” ansambllarining ba’zi raqslarida qarsak o‘yin an’analarini ko‘ramiz.

Beshqarsak, qarsak – erkaklar davra o‘yin-qo‘shig‘i. O‘zbek va tojik xalqlari orasida keng tarqalgan. Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida ayniqsa mashhur. Beshqarsakda qarsak hamda qiyqiriq ovozlar yordamida o‘yin usuli hosil qilinadi. Ba’zi taxminlarga ko‘ra, kelib chiqishi zardushtiylik marosimlariga borib taqaladi. Navbat bilan turkum tarzida ijro etiladigan o‘yin va terma (“yak qars”, “qo‘sh qars”, “besh qars” va h.k.)lardan iborat. Beshqarsak o‘yini yaqin o‘tmishda qishloq joylardagi to‘y va sayillarda 2-3 soat davom etardi. Hozir asosan folklor-etnografik va havaskor ansambllar (mas., Urgutdagi “Beshqarsak” ansambli) repertuaridan o‘rin olgan.

Xalfa – Xorazm vohasida mahalliy og‘zaki ijod namunalarini ijro etuvchi ayol. Xalfalar faoliyat ko‘rsatish sharoitiga ko‘ra ikki

yo'nalishga bo'linadi: to'y va bazmlarda qo'shiqlar ijro etuvchi "sozi xalfa" hamda "kitobiy xalfa" - ta'ziya va marosimlarda kitob o'quvchi ayol, otin (otinoyi). Ularning ikkalasi ham "ichkari"da ayollarga xizmat qilgan.

"Sozi xalfa"lar san'atida jo'rnavozlik va yakka ijrochilik mavjud. Ansambl uch kishidan tarkib topadi: xalfa (garmon chaladi va qo'shiq aytadi), doirachi (qo'shiqlarga jo'r bo'ladi, ba'zan raqs tushadi) va o'yinchi (raqs tushadi va lapar aytadi). Xalfa repertuarlaridan asosan, (To'y muborak), "Yor-yor", "Oshiq"turkumidagi ("Tohir va Zuhra", "Oshiq Alband", "Asli va Karam", "Hurliqo va Hamro") dostonlardan parchalar, Maxtumquli va boshqa shoirlarning she'rlari asosida nasihat va raqsbop qo'shiqlar o'rin olgan. Ijodkor xalfalar zamonning muhim masalalariga bag'ishlangan asarlar yaratib, ularga o'zlari kuy bastalaganlar. Masalan, Xonim Suvchi Sayidahmad qizi (1858-1926)ning "Bevafo zolim", Bibijonim Qosim Devon qizining "Ayrildim", Ojiza (Onabibi Otajonova, 1889-1961)ning 30 dan ortiq qo'shiqlari Nazira Sobirova, Roziya Matniyoz qizi, Saodat Xudoyberganova va boshqa xalfalar tomonidan kuylanmoqda.

"Kitobiy xalfa"lar esa, asosan, ta`ziya, «Ulli pir», «Mushkul kushod» kabi marosimlarda «G`avsuli A`zam», «Payg`ambar hikoyati», «Bobo Ravshan» «Bibi seshanba» va boshqa diniy mavzudagi kitoblarni yakka xolda o'qib ayollar dardini yengillatishgan.

Xalq qo'shiqlari kechinma va tuyg'ularining samimiyligi, obrazlarning tabiiyligi, jonliligi, so'z va kuy mutanosibligi, mantiqiy izchilligi, ixcham shakllari bilan kishini maftun etadi. Ana shunday xalq qo'shiqlaridan biri nikoh to'ylari, bayram kunlarida, asosan, cholg'usiz aytiladigan o'lanlardir. O'lanlarda qochiriq, sevgi harorati, yoshlik sho'xliklari g'oyat samimiy, ko'tarinki ruhda tarannum etiladi. Davralarda o'lan ayta bilish o'ziga xos salohiyat, ijrochilik mahoratini talab etadi. O'lan qo'shiqlari yoshlarni badiiy-estetik didli, kamtarin, ochiq ko'ngilli, do'stga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu janrda ijod qiluvchilar hozirda Toshkent viloyatining Ohangaron vohasi, Jizzax viloyatining Zomin va Forish tumanlari, shuningdek, Navoiy viloyatining tog'li Nurota tumanlarida ko'proq saqlangan.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Xalq musiqa folklorining shakllanish jarayoni haqida nimalarni bilasiz?



2. Xalq musiqa folklorining janrlarini sanab bering?
3. Xalq musiqa folklorining an'anaviy jihatlari haqida qanday fikrdasiz?

**Topshiriqlar:**

1. Musiqa folklori ijrochilarining xududiy o'ziga xosligini izohlang.
2. Xalq musiqa folklorining rivojlanish bosqichlarini tavsiflang.

## O'ZBEK MUSIQA IJODIYOTIDA JO'RSIZ IJRO. KATTA ASHULA

**Reja:**

***1. O'zbek musiqa ijrochiligida usul va uning milliy musiqa ijrochiligidagi ahamiyati.***

***2. Musiqa va qo'shiq ijrochiligida usulsiz ijro etiladigan bo'laklar va to'laligicha jo'rsiz ijro janri. Katta ashula.***

***3. Katta ashula va uning jahon miqyosida tan olinishi. Katta ashula ijrochilari va undan milliy san'at targ'ibotida foydalanish masalalari.***

Mumtoz ashula – lirik xarakteridagi rivojlangan kuy va shakliga ega bo'lgan yirik aytim-ashula yo'li. Ashula mumtoz musiqaning yetakchi janrlaridan bo'lib, o'zining kuy rivoji, vazmin lirik yoki og'ir xarakteri, hayajonli va dardli mazmuni, diapazon kengligi, usul-tizimining sezilarli darajada murakkabligi va ijro uslubi mukammalligi bilan ajralib turadi. Sharq mumtoz shoirlarning aruz vaznida yozilgan g'azal, ruboiy, muhammaslar ashula janrida keng qo'llanib kelingan. Falsafiy ma'noga ega bo'lgan, shuningdek, alam, ayriliq va hasratni ifodalovchi ishqiy-lirik va ayrim nasihatgo'y mazmun ko'proq ashula mavzusiga xosdir. Ashulada so'z va kuy uzviy bog'liqdir, bu holat asarning butun mazmunini, mohiyatini tashkil etadi. Chunki undagi umumiy mantiqiy bog'liqlik, vazn, qofiya, ohang, musiqiylik tinglovchiga zavq-shavq uyg'otadi, hayajonli kayfiyat paydo qiladi. Mumtoz ashulalar musiqiy matnining rivojlanishi hamda kuy tuzilmalarining nisbatan davomliroqligi va kengroq diapazonligi, baland avji mavjudligi bilan xalq ashulalaridan sezilarli darajada farqlanadi. Ularning rivojlanish jarayoni daromaddan boshlanib tobora avjlangan holda rivojlanadi. Shu tufayli ashula shaklidagi asar mumtoz va bastakorlik ijodiyotlarida keng o'rin olgan, uning lokal variantlari

mavjud, jumladan, Buxoroda xalq ashula va muhammas, Xorazmda suvora va naqsh, Farg'ona vodiysida ashula yo'llari, katta ashula, yovvoiy ashula deb yuritiladi. Bunday ashulalar shaklan va mazmunan yanada murakkabroq va mukammalroq bo'lib, mumtoz musiqamizning salmoqli qismini tashkil etadi. Bu ashulalar yakkanavoz ijrosida, cholg'u ansambli jo'rligida aytilib kelingan. "Adolat tanovari", "Munojot", "Girya", "Adashkanman", "Yolg'iz", "Qomating", "Qurd", "Ol xabar" kabi mumtoz yo'lidagi ashulalar, "Kuygay" (Y.Rajabiy), "Sensan sevarim" (O.Hotamov), "Naylayin" (J.Sultonov), "Ey, chehrasi tobonim" (F.Sodiqov), "Diyorimsan" (K.Jabborov), "Bir ishva bilan" (M.Murtazoyev), "Guluzorim" va "Kurbon o'lam" (A.Abdurasulov), "Qachon bo'lgay" (M.Mirzayev) va b. bastakorlarning ashulalari xonandalar repertuaridan mustahkam o'rin olgan. O'zbek ijrochilik amaliyotida ashula turkumlari ham mavjud, jumladan, "Tanovar I –V", "Kalandar I–V", "Eshvoy", "Kalandari-Samandari", "Dilxiroj-Sinaxiroj" va boshqalar.

Katta ashula yoki patnis ashula – Farg'ona vodiysiga xos yirik ashula yo'li va o'ziga xos ijro uslubi. Ikki yoki undan ortiq (beshtagacha) xonanda tomonidan cholg'u jo'rligisiz galma-gal aytiladi. Uning asosiy xususiyatlari badihago'ylik, hamnafaslik, yuqori pardalarda, keng nafasda ijro etilishi, erkin uslubda kuylanishi, so'z va kuy mutanosibligidir. Baland pardalarda ijro etilishi, katta avjlar mavjudligi, so'zlarning tinglovchilarga ravon yetib borishi va ta'sirchanligi katta ashulaga xos bo'lib, uning "yovvoyi maqom", "yovvoyi ashula", "yakkaxonlik" kabi janrlari mavjud. Katta ashula qadimiy marosim va mehnat qo'shiqlari, marsiya, navha, [illegible] qadimiy o'qilish qo'shiqlari hamda aruz vaznidagi g'azallarning qadimiy namunalarida uslublari zaminida vujudga kelgan. Uning o'tmishdagi namunalarida lirik va nasihatomuz g'azallar bilan bir qatorda diniy, tasavvufiy yo'nalishdagi she'rlar ham kuylanadi. A.Navoiy, Lutfiy, Mashrab, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqalarning g'azallari Katta ashula janrida alohida o'rin olgan. Katta ashula 2009 yilda "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxati"ga kiritilgan. Katta ashula ijrochiligi bo'yicha Erkaqori Karimov, Turdali Ergashyev, Mamatbuva Sattorov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Orifxon Hotamov, Boltaboy Rajabov, Orif Alimaxsumov, Fattohxon Mamadaliyev, Odiljon Yusupov bilan Saidnabi Saydaliyev Hamroqulqori To'raqulov, Halima Nosirovalar katta shuhrat qozonishgan bo'lsa, hozirgi kunda Munojot Yo'lchiyeva, Ismoil va



Isroil Vahobovlar, Mahmud Tojiboyev, Xurshid Hasanovlar mahorat bilan ijro etib kelishmoqda.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. O'zbek musiqa ijrochiligida qanday maktablar mavjud?
2. Musiqa va qo'shiq ijrochiligidagi qanday farqli va o'xshashlik tomonlari bor?
3. Katta ashulaning jahon miqiyosida tanilishi uchun nimalar qilingan?

**Topshiriqlar:**

1. O'zbek musiqa ijrochiligining tarbiyaviy ahamiyati haqida ma'lumot bering.
2. Katta ashula ijrochilarining xalq qo'shiqlaridan foydalanish masalalarini tavsiflang.

## XALQ TOMOSHA SAN'ATI

**Reja:**

***1. O'zbek xalq tomosha san'atining tarixi va rivojlanish bosqichlari.***
***2. Xalq tomosha san'atining turlari.***
***3. Xalq tomosha san'atining muhofazasida an'analarning saqlanishi va sulolaviylik.***

Dorbozlik – dor o'yin – baland dor ustida tomosha ko'rsatish san'ati, sirk san'ati janri. Dor ustida har qanday noturg'un holatda ham havoda muvozanatini saqlash mahorati namoyish etiladi. Dorbozlik taxminan 2,5 ming yil muqaddam Sharqda paydo bo'lgan, so'ng butun dunyoga tarqalgan. Dor dastlab past qurilgan, mashqlari ham sodda bo'lgan. Davr o'tishi bilan dor tobora balandroq qurilib, o'yinlari murakkablasha borgan, 18-asr oxiridan esa, sirk sahnasida namoyish etiladigan bo'ldi va sirk san'atining ajralmas qismiga aylandi, yangi taraqqiyot davri boshlandi.

O'zbekistonda dorbozlik qadim tarixga ega. Ba'zi manbalar Amir Temur saroyida ajoyib dor o'yinlari ko'rsatilganini tasdiqlaydi. Dorbozlik O'zbekistonning barcha shaharlarida, ayniqsa Quva, Asakada [illegible] olgan. O'tmishda o'zbek dorbozlari Xitoy, Hindiston, [illegible], Eronda, 18-19-asrlardan Rossiyada o'z mahoratlarini

namoyish etganlari to‘g‘risida ma’lumotlar bor. O‘zbek dorbozlari 25-30 m. balandlikdagi ustunlarga qiya qilib tortiladigan arqon ustida langar cho‘p bilan bo‘ladigan o‘yinlarni: yugurish (oldinga, orqaga), sakrash, oyoqlarga pichoq yoki patnis bog‘lab, shuningdek, ko‘zni bog‘lab, boshga xalta yoki qozon kiyib yurish, yakka va qo‘sh chig‘iriqda o‘ynash kabi turli-tuman mashqlarni bajarishgan. Dor o‘yinlari dor tagida raqqoslarning o‘yinlari, qiziqchi, askiyachilarning chiqishlari hamda an’anaviy sirk turkumlaridan simdor, yog‘ochoyoq, nayrangbozlik, besuyak, muallaqchilik, o‘rgatilgan ayiq, ilon, maymun, ot, echki o‘yinlari bilan birga olib borilgan.

XX asrda o‘zbek dorbozlik san’atini yangi mazmunda rivojlantirishda va an’analarni davom ettirishda Asaka dorbozlari sulolasining atoqli namoyandasi Toshkanboy Egamberdiyevning xizmati juda katta. 20-asrning o‘rtalaridan dorbozlar repertuariga birmuncha o‘zgartirishlar kiritildi. Muhofaza vositalaridan foydalanish natijasida dor ustida yangi murakkab o‘yinlar ijro etila boshlandi. Yakka kishi mashqlari bir qatorda ikki, uch, to‘rt kishi ijro etadigan mashqlar ko‘rsatiladigan bo‘ldi. Jumladan, ikki dorbozning bir-birini yelkasida yoki boshida turib dordan o‘tishi, obkashning ikki tomonida dorbozlarni olib o‘tish, dorda o‘tirgan dorboz ustidan sakrab o‘tish, umbaloq oshish, yelkasi bilan dorga tiralib, oyoqni tepaga cho‘zish, ikki dorboz yelkasiga o‘rnatilgan taxta ko‘prikcha ustida tik turish va boshqalar.

Dorbozlik san’atini rivojlantirish va targ‘ib qilish maqsadida muntazam ravishda dorbozlar ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng o‘zbek dorbozlari o‘z san’atlarini dunyoning turli mamlakatlarida namoyish etmoqdalar. Hozirgi kunga kelib, O‘zbekistonda 40 ta oilaviy dorbozlik guruhlari faoliyat ko‘rsatmoqda. “O‘zbekdavlatsirk” Respublika birlashmasining Olimjon, Tohir va Murod Toshkanboyevlar rahbarligidagi “O‘zbekiston dorbozlari” jamoalari qadimgi dorbozlik an’analarini zamonaviy sirkning badiiy ifoda vositalari bilan boyitib kelmoqda.

Qo‘g‘irchoq teatri qadimiy tarixga ega bo‘lib, ajdodlarimizning o‘tmishdagi urf-odatlari va marosimlari bilan chambarchas bog‘liq. Ba’zi tadqiqotchilar uning vujudga kelishi inson o‘zini tabiat hodisalari oldida ojiz sezib turli ma’budlarga sig‘inishi, totem sanalgan hayvonlar qiyofasini aks ettiruvchi niqoblarni kiyib raqsga tushishi, dunyodan o‘tgan ajdodlarni teatrlashtirilgan holda yodga olish marosimi zamirida bo‘lganini fikrini ilgari suradilar. Bunda marhumning eng yaqin kishisi niqob taqib, xuddi o‘sha marhumga o‘xshab gapirgan, harakat qilgan.



Keyinchalik, bu marosim qo‘g‘irchoqbozlar qo‘liga o‘tib, qo‘g‘irchoq teatri shakllangan. Qo‘g‘irchoq teatri barcha madaniyatlarga xos va har bir xalqning ruhini ifoda etuvchi qahramonlarga ega.

O‘zbek qo‘g‘irchoqbozligi xalqimizning qadimiy og‘zaki teatri sifatida shakllangan an’anaviy san’atdir. Surxondaryo tomonlarda marosimiy “Suvxotun”, Xorazmda “Ashshadaroz”, “Masxaraboz”, “Polvon” nomli qo‘g‘irchoq o‘yinlari namoyish etilgan bo‘lib, Buxoroda hozir ham an’anaviy qo‘g‘irchoqbozlik san’ati saqlab qolingan. Qo‘g‘irchoq qadimiy turkiy so‘z sifatida Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “Oxshanchik, oxshog‘u, kuzurchik, qoborchuq” shakllarida qo‘llangan bo‘lsa, sug‘diylarda “zocha va zochak” shaklida, A.Navoiy davri adabiyotlarida esa “lo‘bat, lo‘batak” shakllarida ifoda etilgan.

O‘tgan asr boshlarida qo‘g‘irchoq tomoshalarining turli janrlari shakllangan va ular “Chodir jamol”, “Chodir xayol”, “Fonus xayol yoki soya” kabi go‘zal nomlar bilan atalgan.

Aytish joizki, hozir ham “qo‘lqop” qo‘g‘irchoqlar, ipli qo‘g‘irchoq yoki marionetkalar, nur va soyadan foydalanish, qo‘g‘irchoqboz va qo‘g‘irchoqning birgalikdagi tomoshalarida namoyon bo‘lgan o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining an’analari davom etib kelmoqda. Bugungi kunda Respublikamizda bir nechta professional va 20 ga yaqin havaskor xalq qo‘g‘irchoq teatrlari, shuningdek “Ashshadaroz” nomli milliy qo‘g‘irchoqsozlik studiyasi va boshqa jamoalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. O‘zbek xalq tomosha san’atining qanday nazariy va amaliy jihatlarini bilasiz?
2. Xalq tomosha san’atini turlarining o‘ziga xos usullarini aytib bera olasizmi?
3. Xalq tomosha san’atida qaysi an’anaviy jihatlar ko‘zga tashlanadi?

**Topshiriqlar:**

1. O‘zbek xalq tomosha san’atining taraqqiyot bosqichlari haqida ma’lumot bering.
2. Xalq tomosha san’atining sulolaviyligini tavsiflang.

## O'ZBEK XALQ TOMOSHA SAN'ATI AN'ANALARINING MA'NAVIY VA BADIIY-ESTETIK ASOSLARI

**Reja:**

*1. O'zbek xalq tomosha san'atida an'anaviylik.*
*2. Xalq tomosha san'atining rivojlanishida ustoz-shogird an'analari.*
*3. Tomosha san'atini sahnalashtirish tajribasi, uning ma'naviy-badiiy talqini masalalari.*

O'zbek xalqining madaniy merosi tizimida ajdodlarimiz tomonidan ijod qilingan hamda katta ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan turfa xil bayramlar, ommaviy o'yinlar, tomoshalar alohida o'rin tutadi. Ular ijtimoiy va ma'naviy hayotning barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab olgan sinkretik hodisadir. Kishilik hayotining hamma qirralarini o'zida mujassamlashtirgan tomosha va bayramlar ma'naviy targ'ibotning tarixan shakllangan an'analaridan sanaladi. Ularning barqarorligi, ommaviyligi va an'anaviyligi keng rivojlantirishdagi takroriylik, davomiylik va uzluksizlikka asoslanadi. Tarix sinovidan o'tgan bayram va tomoshalar kishilarning o'zaro ijtimoiy munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarni, chinakam xalqchil va ezgu qarashlarni, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Milliy ma'naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram - sharqona yangi yil bo'lmish Navro'z ayyomi misolida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik, shodiyona bilan o'tkazadigan Navro'z bayrami biz uchun hayot abadiyliga, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz sahovatining, ko'p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo'lib kelmoqda".

Xalqimiz tomonidan yaratilgan ulkan badiiy qadriyatlar jahon miqyosida e'tirof etilayotganligi, xususan, "Boysun madaniy muhiti", "Shashmaqom", "Navro'z", "Katta ashula" va "Askiya" YUNESKOning dunyo xalqlari nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro'yxatiga kiritilganligi ham o'zbek xalqi ma'naviy merosi sharq xalqlari madaniy rivojida katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respblikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktabrdagi 222-sonli qarori bilan tasdiqlangan «2010 – [illegible] yillarda



nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi" xalq ijodiyotining turli sohalari singari, teatrlashgan tomosha tarzida o'tkaziladigan an'anaviy bayramlar, sayillar, to'y va boshqa tadbirlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini belgilash hamda keng ko'lamda muhofazani amalga oshirishga qonuniy baza bo'lib xizmat qilmoqda.

Badiiy tafakkur an'analari yuksak darajada tarakqiy etgan mamlakatimizda qadim zamonlardan buyon dehqonchilik madaniyati va bag'rikenglik g'oyasini o'zida ifoda etgan tabiat kultlari bilan qorishgan turli xil marosimlar, urf-odatlar va ommaviy xalq o'yinlari o'tkazib kelingan. Ayniqsa, O'rta asrlarda o'zbek xalqining asrlar mobaynida shakllanib va tarakqiy etib kelgan milliy xalq maydon tomoshalari va bayram-sayillari an'analari izchil davom etgan. O'zining mahorati bilan alohida ajralib turgan dostonchilik, ko'shiqchilik, masxarabozlik, qiziqchilik, qo'g'irchoqbozlik, dorbozlik, askiyachilik san'ati bilan shug'ullanuvchi kishilar katta shuhrat qozonishgan. Ommaviy xalq tomoshalari asosan bayramlarda, hayit, hosil bayramlarida bo'lib o'tgan tomoshalarda masxarabozlar, dorbozlar va ko'g'irchoqbozlar bilan birgaliqda sozandalar, mashhur hofizlar, mashshoqlar, raqqoslar, askiyabozlar, shoirlar, raqqoslar bilan bir qatorda xalq amaliy san'ati ustalari, oshpazlar, qandolatchilar ham faol qatnashganlar.

O'ziga xos tabiiy dekoratsiya, an'anaviy xalqona ssenariy va ishtirokchilar tarkibiga ega bo'lgan bunday "hayotiy sahna asarlari", shu an'anaviy tomoshalarning asosiy vazifasi xalq ommasining madaniy hordiq chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ommaviy sayillar, bayramlar yoki to'y-tomoshalarning ko'tarinki ruhda o'tishini ta'minlashdan iborat bo'lgan.

An'anaviylik va ezgu qadriyatlarning tarixiy vorisiy jihatdan uzviy bog'langanligi bu tipdagi ommaviy tomoshalar va bayramlarning asosiy xususiyatini tashkil etgan. Xalq tomoshalari avloddan-avlodga o'tib, asrlar davomida sayqallanib, boyitilib, takomillashib boravergan. Teatrlashgan tabiiy-hayotiy sahna asari sifatida ommalashgan bunday tomoshalarning o'ziga xos an'anaviy obrazlari, badiiy timsollari va qiyofalari mavjud bo'lgan. Xalq tomoshasining hayotiyligi va tabiiyligi shunda bo'lganki, bunday tomoshalar avvaldan qurilgan maxsus bino yoki sahnada emas, balki maydonlarda, sayilgohlarda, qir-adirlarda, shaharning odamlar gavjum joylarida, qishloq va mahalla guzarlarida tomoshabinlar ishtirokida o'tkazilgan.

An'anaga ko'ra, teatrlashgan tomosha tarzida o'tkazilgan bayram sayillarda xalqqa tomosha ko'rsatuvchi har bir san'at sohasining o'z mahoratli ustalari hamda bu sohaga endigina qadam qo'yib kelayotgan yosh ishtirokchilari - shogirdlari qatnashganlar. Har bir sanat turi bilan shug'ullanuvchi ijodkor va ijrochilar muayyan kasbiy-guruhlarga uyushganlar va doimiy ravishda o'z saflarini yosh ijodkorlar bilan to'ldirib turishgan. O'zlarining yillar mobaynida shakllangan boy tajribalarini va mahoratlarini yosh shogirdlariga muttasil o'rgatib borishgan. Qiziqchilarga rahbarlik qiluvchi kishilarni korfarmon deyishgan. Ularning o'z risolasi bo'lib, risolada san'at an'analari, tarixi, san'atkorning odobi, axloqiy qadriyatlari bayon etilgan. Qiziqchilarning xalq bayramlari va sayillaridagi chiqishlarini korfarmonlar nazorat qilib, ularning faoliyatiga bosh-qosh bo'lib turganlar.

An'anaviy teatrlashgan maydon tomoshalari asosan mamlakatimiz hududidagi yirik shaharlarda keng tarqalgan. Masalan, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Andijon, Buxoro, Samarqand, Karmana, G'ijduvon, Kattaqo'rg'on, Qarshi, Shahrisabz, Denov, Termiz, Xiva singari qadimiy shaharlarda xalq sayillari va bayramlar ommaviy tomosha tarzida bo'lib o'tgan. Bunday shaharlarda tomosha san'ati an'analari rivoj topganligiga sabab, ularda har bir daha, har bir mahalla va guzarning o'z san'atkorlari, o'z korformonlari bo'lib, ular xalq sayillari va bayramlarni tomoshabop qilib o'tkazishda bosh-qosh bo'lishgan. Masalan, XX asr boshida Buxoro amirligida san'at ishlari bilan Jalol mirzaboshi bilan Mirzo Abdurahim degan kishilar shug'ullanishgan.

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida o'tkazilgan an'anaviy xalq sayillari va tomoshalarda shiddatli va texnik jihatdan murakkab tana harakatlari bilan bog'liq xoreografik mashqlardan iborat raqslar keng ommalashgan. Ayniqsa, "Shashmaqom" turkumi ashulalariga o'ynaladigan qadimiy raqslar ("Bozi kalon", "Mavrigi"), xonaki o'yinlar, xilma-xil yalla, lapar va aytishuvlar asosida sahnalashtirilgan xalq raqslari mashhur o'yinchilar tomonidan maromiga yetkazib ijro etilishi teatrlashgan maydon tomoshalariga o'zgacha joziba baxsh etgan. Bu ijodkor-ijrochilar yakka holda shahar va qishloq mahallalarida bo'lishib, xalq to'planadngan gavjum joylar - bozor, guzar, mahalla va katta ochiq maydonlarda o'z san'atlarini namoyish etishgan. Muayyan guruhlarga birlashgan holda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi san'atkorlar - ashulachilar, sozandalar, qo'shiqchilar, masxarabozlar, dorbozlar, tosh ko'taruvchi polvonlar, qo'g'irchoqbozlar



va boshqa shu kabi san'at turi bilan mashg'ul bo'lgan ijrochilar esa o'z mahoratlarini asosan katta sayilgohlarda, bozor maydonlarida, chorsularda, shuningdek, teatrlashgan tomosha ko'rsatishga mo'ljallangan maxsus sahnalarda namoyish etishgan.

Xalq o'yinlari va teatrlashgan tomoshalari - tarixiy asoslariga ko'ra, qadimiydir. Ularning aksariyati g'oyatda qadimiy bo'lib, kishilarning mehnat turlari, diniy-e'tiqodiy qarashlari, marosim hamda bayramlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Xalqimizning o'yinlari va tomosha san'atida ajdodlarimizning hayotiy kechinmalari, falsafiy dunyoqarashi, ichki tuyg'ulari, elga va Vatanga bo'lgan mehru muhabbati, ulkan ma'naviy qadriyatlarni yaratgan bobolarimizning milliy badiiy tafakkuri, orzu-istaklari va turmush tarzi o'z ifodasini topgan. Shu bois, xalqimizning qadimiy an'analari asosida kelib chiqqan teatrlashgan tomosha san'ati ajdodlarimizdan bizga qolgan bebaho badiiy qadriyatlardan biri bo'lib, bugungi kunda madaniy-ma'naviy faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning dolzarb vazifalarndan biri - xalq o'yinlari va tomoshalarini yanada takomillashtirib, teatrlashgan ommaviy tomoshalarni yangicha uslub va shakllarda, ya'ni milliy ruhda rivojlantirishdan iboratdir.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. O'zbek xalq tomosha san'atining tarixiy jihatlarini aytib bera olasizmi?
2. O'zbek xalq tomosha san'atida ustoz-shogird an'analari qanday tarzda namoyon bo'ladi?
3. O'zbek xalq tomosha san'atining qanday ma'naviy-badiiy xususiyatlari mavjud?

**Topshiriqlar:**

1. O'zbek xalq tomosha san'atining taraqqiyot bosqichlari haqida ma'lumot bering.
2. Xalq tomosha san'atini sahnalashtirish masalalarini tavsiflang.

## ASKIYA

**Reja:**

***1.Askiya san'atining tarixi va uning mohiyati***
***2.Askiya payrovlari va askiyaning turlari***
***3.Askiya ustalari va askiyani nomoddiy madaniy meros sifatida muhofaza qilish choralari.***

Askiya san'ati o'zbek xalqining uzoq o'tmish tarixiga ega, asrlar osha xalq dilidan joy olgan, ustoz-shogird an'analari asosida avloddan-avlodga o'tib, sayqal topib, boyib kelgan nomoddiy madaniy meros namunalaridan biri sanaladi.

"Askiya" aslida arabcha so'z bo'lib, zakiy, zehni o'tkir, hozirjavob, aqlli odam ma'nosida keladi. Yurtimizning Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida "aksiya" deb ham atashadi.

Askiya – o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining bir turi, xalq qiziqchiligining tarkibiy qismi, keng tarqalgan tomosha san'ati hisoblanadi. O'zbek askiyasining o'ziga xosligi - uning san'at darajasiga ko'tarilganligida. Askiya ikki va undan ortiq kishilar o'rtasida taraf-taraf bo'lib, ma'lum bir payrov (askiyaning eng murakkab shakli) yoki mavzu doirasida o'tkaziladigan o'ziga xos so'zamollik bellashuvidir.

Askiyadagi ishtirokchi raqibi yoki raqib tomondagi ishtirokchining so'z hujumiga topqirlik bilan javob qaytarib, o'zi ham hujumga o'tadi. Aytilayotgan so'z birovning shaxsiyatiga tegib ketmasligi uchun har bir so'z yoki iborani ishlatishda ijrochi nihoyatda ehtiyotkor bo'lishi lozim.

Askiyachi tilning keng imkoniyatlarini puxta egallagan, so'z o'yini, qochirim, hazil-mutoyiba, kinoya, o'xshatish, kesatiq, mubolag'a, masxara, piching kabi hajv san'ati vositalaridan ustalik bilan foydalana olish bilan birga askiya tortishuvida ziyraklik, hozirjavoblik, muayyan mavzu doirasida o'z bilimlarini namoyish etishi, fikrini hajviy uslubda bayon etishi lozim. Askiyachi tomonidan aytilgan so'z ikki va undan ortiq ma'nolarni anglatib tomoshabinni ziyraklikka, gapning mag'zini chaqishga undaydi.

Askiyada har bir so'z yoki iborani ishlatishda ijrochi nihoyatda ehtiyotkor bo'lishi talab etiladi. Askiyaning ta'sirli chiqishi uchun, avvalambor, davraga tushgan askiyachilar bir-birini yaxshi tanishlari, tushunishlari lozim. Aks holda aytilayotgan askiya payrovi izdan chiqib ketadi. Askiyachilikni qiziqchilikdan farqlash lozim. Qiziqchilikda yakka ijrochi ham o'z mahoratini ko'rsatishi yoki muayyan ssenariy asosida guruh bo'lib, teatrlashtirilgan sahna ko'rinishini namoyon qiladi. Askiya esa ikki va undan ortiq kishi yoki guruhning ma'lum mavzu bo'yicha badiiy so'z tortishuvidir. Tomoshabin o'z kulgusi va ehtirosli qiyqiriqlari bilan taraflar va ularning javoblariga baho berib boradi, mazmundor, serqochirim askiyadan zavqlanadi.

Askiyaning mazmunan ma'noli va ta'sirchan chiqishi ijrochining bilimi, tafakkuri, sahna madaniyati va ijrochilik mahoratiga bog'liq. Buning uchun askiya musobaqasida qatnashadigan kishining hayot



tajribasi boy, zehni o'tkir, inson faoliyatining turli tomonlarini, tabiat va ijtimoiy hayot sirlarini, ayni paytda o'zbek tili boyligini puxta egallagan bo'lishi lozim. Askiyachining hayotni bilishi, til, nutq madaniyati, yuz, ko'z, qo'l, tana harakatlaridan ustalik bilan foydalanishi askiyaning ham mazmunli, ham kulgili chiqishida muhim ahamiyatga ega. Katta davralarda tortisha oladigan askiyachilar zamondoshlarining hayoti, ishi va kundalik turmush tarzida uchraydigan hodisalar, kamchilik va nuqsonlarni samimiy, ochiq ko'ngillik bilan, do'stona o'tkir kulgi va hajv ostiga oladilar.

Askiya o'zbeklar orasida katta tarixga ega. Uning to'y-yig'inlarda, sayillarda ikki tomonning tortishuvi sifatida shakllanganligi va san'at darajasiga ko'tarilganligi to'g'risida tarixiy ma'lumotlar mavjud. Yozma tarixiy manbalarda keltirilishicha askiya XV-XVI asrlarda shakllangan, keng tarqalgan va san'at darajasiga ko'tarilgan. XVI asrda yashab ijod etgan Zayniddin Vosifiy Hirotda askiya keng avj olganligi, Mir Sarbarahna, Mavlono Burxoni lang, Hasan voiz, Muhammad Badahshiy, Said G'iyosiddin sharfa, Mavlono Xalil Sahof singari o'nlab mohir askiyachilar borligi, shular orasida eng iste'dodlisi Mavlono Abdulvose' Munshiy bo'lganligini haqida yozadi. Shu bois ham, shahardagi har bir xalq sayli, bayramlar musiqachilar, hofizlar, askiyachi va qiziqchilar ishtirokisiz o'tmagan.

"Askiya" atamasi o'zbeklar orasida taxminan XVII asrdan boshlab iste'molga kirgan. Undan oldin "aytish" va "zarofat" iboralari qo'llanilgan. XVIII-XIX asrlarda askiya ayniqsa Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasida rivojlangan.

Hozircha askiyachilik san'atining o'ttizdan ortiq shakllari aniqlangan. Bular qatoriga payrov, qofiya, radif, baxri bayt, tutal, o'xshatdim, afsona, rabbiya, safsata, aytishuv, chiston, laqab, gulmisiz, bo'lasizmi, shirinkor va terma singari turlari kiradi. Askiya turlarining har biri umumiy talablarga bo'ysunishi bilan birga o'zining mustaqil xususiyatlariga ham ega.

*Payrov* askiyaning eng murakkab shakli hisoblanadi va u professional askiyachilar orasida qo'llaniladi. Payrov askiyada tanlangan ma'lum bir mavzudan chetga chiqmay tortishuv bo'ladi. Agar askiyachi mavzudan chiqib ketsa yoki raqibining hujumiga tezda javob bera olmasa yengilgan hisoblanadi.

*Qofiya* she'riyatdagi qofiyadan farq qiladi. Qofiyabozlik askiyachi oldiga katta talablar qo'yadi. Qofiyaboz raqibining har hamlasiga darhor

qofiyali shaklda munosib javob bera olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

*Safsata* ikki askiyachining bir-biriga pardaliroq qilib piching tarzida aytiladigan tanqididir.

*O'xshatdim* askiyasida ikki askiyachi bir-birining qiliqlari yoki nuqsonlarini biron buyum yoki jonivorga o'xshatish shaklidan foydalanishadi.

*"Bilasizmi?", "Gulmisiz?"* askiyalari ham shakl jihatidan "O'xshatdim" ga o'xshab ketadi. Ularda ham navbat bilan har bir askiyachi bir qolipli so'roqlarni qaytarib, o'zining asosiy fikrini oxirgi javobida ifodalaydi.

*Shirinkorlik* turi Samarqand, Buxoro va Surxandaryo viloyatlarida keng tarqalgan. Kishilarning yomon ko'radigan narsalari, tasodiflar va sarguzashtrlarni mavzu qilib olish shirinkorlik uchun xarakterlidir.

Askiya hamisha hayot bilan birga bo'lib, o'zgarib, turlanib, boyib, rivojlanib boradi. Hozirda an'anaviy askiyalar bilan bir qatorda yangi askiyalar ham yaratilgan. "Mashina", "Traktor", "Samolyot", "Poyezd", "Futbol" singari payrovlar bunga misol bo'la oladi.

Askiyachilik san'ati bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borgan san'atshunoslik fanlari doktori, professor Muhsin Qodirov muallifligi ostida chop etilgan adabiyotlarda keltirilishicha XIX asrning boshlarida Qo'qon shahrida mashhur so'z ustalaridan Bakir Eshon, Usmon Qiziq, Shomat Qiziq, Normat Qiziq, Boymat Qiziq, Ro'zi Gov, Mulla Hoshim kabi taqlidchilar, askiyachilar va qiziqchilar yetishib chiqib, Qo'qonda ilk bor askiyachilar va qiziqchilar maktabini yaratganlar. Tursunboy ota (Ijroqo'm buva), G'oyib ota, Komil Qori, Po'lat CHo'tir, Tesha Qiziq, Aka Buxoro, Nasriddin aka, Mamaroziq aka, Obid tog'alar ana shu maktabda tarbiya topib, xalq orasida mashhur bo'lgan. XX asrning birinchi yarmida marg'ilonlik Yusufjon Qiziq, Jalil bo'qoq, Sulaymon qori, Usmon qori, Mamajon qovoq, mulla Muhammad buva, Oxunjon qiziq, qo'qonlik Zokir gov, Mirzaraxim quloq, Niyozboqi sichqon, Zoxid burun, Matholiq askiya, Erka qori Karimov, toshkentlik Abdulla fonguz, Saidahmad, Ismat askiya singari askiyachilar mashhur bo'lgan. XX asr o'rtalari va ikkinchi yarmida esa Abdulhay Maxsum Qozoqov, Jo'raxon Sultonov, Mamajon Maxsum, Amin buva, Rasul qori Mamadaliyev, Zaynobiddin va Madaminjon Yusupovlar, Hasanboy Sultonov, G'ulomjon Ro'ziboyev, Abulqosim To'ychiyev, G'anijon Toshmatov, Muhiddin Darveshov, Yo'ldoshxon Nosirov kabi mashhur askiyachilar faoliyat ko'rsatganlar.



Hozirda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Jo'raxon Po'latov va Mamasidiq Sherayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Hotamjon Hakimjonov, Ne'matjon Toshmatov, Akromjon Anvarov, Bahodir Shokirov, Mansurjon Oxunov, Sodiqjon Hasanov, Abdulla Akbarov, Muhiddin Sultonov, Ubaydulla Abdullayev, Mamasiddiq Alixonov, Abdurahmon Qulmatov, Qahramon Abduvohidov va boshqalar hozirgi kundagi askiyachilik san'atining fidoyi davomchilaridir.

Askiyada havaskor va professional yo'nalishlar bor. Havaskorlar bir-birlari bilan choyxonada, ulfatda, to'yxonada tortishib ketaveradilar. Ularning tortishuvlarida odatda ma'lum mavzu bo'lmaydi, askiyaning barcha turlarini aralashtirib aytaveradilar. Havaskor askiyabozlar ham hozirjavob, so'zga chechan bo'ladilar, o'xshatish va mubolag'alarga, so'zni chertib gapirishga, askiyaviy kulguga usta bo'ladilar.

Askiyani professional darajada egallaganlar "askiyachi" degan nomga ega bo'ladilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, askiyani ikki turga ajratish mumkin:

*1. Maishiy askiY.* Bunday askiya Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida erkaklar yig'iladigan kichik davralar, choyxona va gashtaklardagi yig'inlarda keng tarqalgan bo'lib, o'z-o'zidan hosil bo'ladi. Ular professional askiyalarning negizi hisoblanadi. Jizzax, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida nisbatan kamroq uchraydi.

*2. Sahnaviy askiY.* Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida professional darajada askiya bilan shug'ullanadigan alohida shaxslar, guruhlar va jamoalar mavjud. Professional ijroga asoslangan askiya janrining ushbu turi avloddan-avlodga ustoz-shogird an'analari asosida asosan og'zaki ravishda o'tib kelmoqda. Uni targ'ib qilish va kelgusi avlodga yetkazishda ijodiy maktablarning o'rni katta. Bugungi kunda Farg'ona va Marg'ilon shaharlarida Mamasidiq Sherayev rahbarligida, Qo'qonda Jo'raxon Po'latov va Akromjon Anvarov boshchiligida, Andijon viloyatining Xonobod shahrida Muhiddin Sultonov, Namangan viloyatining Norin tumanida G'ofurjon Mirzayev rahbarligida askiyachilik maktablari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Farg'ona viloyatining Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon shaharlari, Qo'shtepa, Uchko'prik tumanlari, Andijon viloyatining Qorasuv, Xonobod, Asaka shaharlari va Baliqchi tumanida doimiy faoliyat ko'rsatayotgan (4-8 kishilik) askiyachilar jamoalari mavjud.

Taniqli askiyachilar G'anijon Toshmatov, Rasulqori Mamadaliyev, Abulqosim To'ychiyev, G'ulomjon Ro'ziboyev, Hasanboy Sultonov, Abdulxay mahsum Qozoqov, Jo'raxon Po'latov, Ne'matjon Toshmatov, Xotamjon Teshaboyev, Erkinjon Saidahmedov, Abdusamat Yusupov, Mansurjon Oxunov, Bahodirjon Shokirov, Olimjon Usmonov, Qahramon Abduvaliyev, Abdurahmon Qulmatov, Jumaboy Huraliyev, G'ofirjon Mirzayev, Xotamjon Hakimjonov, Mamasidiq Alixonov, Qahramon Abduvohidov, Mamasidiq Sherayev, Akromjon Anvarov, Sodiqjon Xasanov, Abdulla Akbarov va boshqalar askiya san'ati rivojiga munosib hissa qo'shganlar. Shulardan Ne'matjon Toshmatov "Shuhrat" medali, Abdulhay maxsum Qozoqov, G'ulomjon Ro'ziboyev, Xotamjon Hakimjonovlar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Hasanboy Sultonov, Rustam Hamroqulov, Jo'raxon Po'latov, Mamasidiq Sherayevlar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoni bilan taqdirlanganlar.

Ayni paytda yuqorida nomlari tilga olingan askiyachilik maktablariga yoshlar ham keng jalb etilgan. Ustoz-shogird an'analari asosida iste'dodli, taniqli askiyachilar yosh avlodga askiyachilik san'ati sirlarini o'rgatib kelmoqda. Hozirda o'tkazilayotgan respublika tadbirlarida Farg'ona viloyati Qo'qon shahar 1-son madaniyat uyida Akromjon Anvaryov rahbarligida tashkil etilgan "Askiyachilar klubi" qatnashchilari Omonulla Tolipov, Murodjon Nosirov, Ko[illegible] Yo'ldoshev, Otaxon Xalilov kabi yosh, iqtidorli askiyachilarning fa[illegible] ishtirok etishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Askiya san'atini saqlab qolish, qayta tiklash, kelajak avlod[illegible] yetkazish, targ'ib qilish va o'rganishda O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2010 [illegible] 7 oktabrda tasdiqlangan "2010 - 2020 yillarda nomoddiy madaniy me[illegible] obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ul[illegible] foydalanish Davlat dasturi" huquqiy asos bo'lib xizmat qilmo[illegible] Askiya janrini rivojlantirish bo'yicha Madaniyat va sport ishlari va[illegible] Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-me[illegible] markazi, YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi [illegible] komissiyasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbekiston [illegible] akademiyasi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus [illegible] vazirligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy no[illegible] Til va adabiyot instituti, "Fond forum" jamg'armasi, Xalqaro [illegible] meros" jamg'armasi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, [illegible]



va axborot agentligi, "Kamolot" YOIH, Respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondi va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi tomonidan 1992 yildan boshlab har ikki yilda an'anaviy ravishda askiyachi va qiziqchilarning Respublika ko'rik-tanlovi o'tkazib kelinadi. Bundan tashqari Andijon viloyatida O'zbekiston xalq artisti Soib Xo'jayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Abdulhay Maxsum Qozoqov va Hasanboy Sultonovlar, Farg'ona viloyatida O'zbekiston xalq artisti Yusufjon qiziq Shakarjonov xotirasiga bag'ishlab ko'rik-tanlovlar o'tkazib kelinadi. Bugungi kunda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida askiyachilik san'ati bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Shu kunga qadar R.Muhammadiyevning "Askiya" to'plami (1970 y.), M.Qodirovning "O'zbek xalq tomosha san'ati" (1981 y.), "Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar" (1993 y.), "O'zbek an'anaviy teatri" (2010 y.) kitoblari, "Kulgi ustalari" o'quv qo'llanmasi (2008 y.), Hasanboy Sultonovning "Askiya" (1998 y.), Said Anvarning "Abdulla qiziq nima deydi?" (2006 y.), Ubaydulla Abdulla va Iskandar Rahmonning "Kulganlar-darmonda, kulmaganlar armonda" (2007 y.) singari to'plamlari nashrdan chiqarilgan. Shuningdek, R.Muhammadiyev "Askiya" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi (1962 y.), M.Qodirovning kitoblar va to'plamlaridagi 8 ta (Kulgi-hikoya, Yusufjon qiziq ijodi, Masxaraboz va qiziqchilar san'ati, Soyib Xo'jayev, O'zbek xalq tomosha san'ati, "Askiya", Yusufjon Qiziq va Tomosha san'ati tarixidan lavhalar) maqolasi, askiya va uning ijrochilari haqidagi ensiklopediyada chop etilgan 14 ta (Aka Buxor, Kulgi-o'yin, Kulgi-... Mirob masxara, Nurali Qiziq, Oxunjon qiziq, Po'latjon qiziq, ... masxara, Xo'jayev Soyib, Yusufjon qiziq, G'afurjon qiziq, Aka ... Askiya, Berdiyor masxara), jurnallarda 10 ta (Yusufjon qiziq, ... masxara, Aka Buxor, Komil qiziq, Qiziqchining kuni tug'di, ... sardor, Kulgilar rang-barang bo'lsin, Bobur masxara va ... haqida, Qiziqchining jiddiy hayoti (Yusufjon qiziqning 130 ... Kulardi, kuldirardi) maqolalari chop etilgan. Bundan tashqari ... "Meros" kabi hujjatli film va lavhalar suratga olingan. ... askiyachilik san'ati bo'yicha ko'rik-tanlov va festivallar ommaviy ... vositalari orqali keng yoritiladi. Televideniye va radio orqali ... va qiziqchilikka bag'ishlangan turkum ko'rsatuvlar va

eshittirishlar yo'lga qo'yilgan. "Mushtum" jurnali, "Hordiq", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetalari va boshqa matbuotlarda askiya payrovlari chop etib borilmoqda.

Har yili Toshkent shahridagi asosiy maydonda, Farg'ona vodiysida o'tkaziladigan "Navro'z" va "Mustaqillik" umumxalq bayramlari dasturlariga askiyachilik san'ati namunalari ham kiritiladi.

YUNESKOning Osiyo va Tinch okeani mintaqasi nomoddiy madaniy merosi bo'yicha xalqaro axborot va hamkorlik markazining "Nomoddiy madaniy meros obyektlarini inventarizatsiya qilish" loyihasiga muvofiq Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi tomonidan 2012 yil aprel oyida Farg'ona vodiysi (Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari)ga ilmiy ekspeditsiya uyushtirildi. Ekspeditsiya davomida askiyachilik san'ati namunalari ham yozib olindi. Ekspeditsiyada yozib olingan (matn, foto, audio va video) materiallar YUNESKOning ICHCAP homiyligida Koreya davlatida nashrdan chiqarildi.

2012 yilning mart oyida O'zbekistondan "Askiya" nomzodini Reprezentativ ro'yxatga kiritish bo'yicha hujjatlar taqdim etildi va 2013 yil Parij shahrida bo'lib o'tgan Hukumatlararo qo'mitaning navbatdagi yig'ilishida u YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro'yxatiga kiritildi.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Askiya qachon va qayerda paydo bo'lgan, u O'zbekistonning qaysi hududlarida shakllangan?
2. Askiya payrovlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Mashhur askiya ijrochilaridan kimlarni bilasiz?

**Topshiriqlar:**

1. Askiyaning qaysi turlari haqida ma'lumot bering.
2. Askiyani nomoddiy madaniy meros sifatida muhofaza qilish choralari haqida so'zlab bering.

## MILLIY O'YINLAR

**Reja:**

***1. Milliy o'yinlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati.***
***2. Eng ommalashgan xalq o'yinlari va ularning sayillar va oilaviy marosimlarda foydalanilishi.***
***3. Milliy o'yinlardan yoshlarning jismoniy va ma'naviy rivojida foydalanish masalalari.***



Xalq o'yinlari va ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni. Xalq o'yinlarining tasnifi. Sayilbop xalq o'yinlari. Xalq o'yinlarida gender masalalari. Bolalar o'yinlari. Qizlarga xos o'yinlar. Jismoniy o'yinlar. Aqliy o'yinlar. Quruqlikda va suvda o'ynaladiga o'yinlar. Yoshlarning jismoniy va aqliy rivojida xalq o'yinlaridan foydalanish. Xalq o'yinlarini ta'lim tiziga tatbiq etish masalalari.

**O'zbek** xalq o'yinlari azaldan ajdodlarimiz madaniy hayotining muhim ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'zozlanib kelinmoqda. O'yinlarning tur va xillari shu qadar ko'pki, hozirgacha hech kim ularning sanog'iga yeta olmagan. Buning ustiga axborot texnologiyalari rivojlangan sayin kompyuterlar monitori qarshisida o'tirib o'ynaladigan yangi zamonaviy elektron o'yinlar tobora ko'payib bormoqda. Shu bois, o'yinlarning har qanday tasnifi ham sohaga oid barcha yo'nalishlarni to'liq qamrab ololmaydi. Tasnif jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda doimiy o'zgarib turadi.

**Ovchilik o'yinlari.** Ildizi uzoq tarixga borib taqaladigan ovchilikka aloqador o'yinlarning tasnif boshida turishi bejiz emas. Negaki, Vatanimiz – O'zbekiston hududida, bu borada boy manba borligi hozircha aniqlangan. Jumladan, M.Rahmonov o'z tadqiqotida Surxondaryo viloyatidagi Ayritom, Zarautsoy va eski Termiz xarobalaridan qo'lga kiritilgan qazilmalar eng qadimiy ekanligini yozadi va ovchilik sahnasi aks etgan qo'tos ovlash manzarasini misol tariqasida keltirib o'tadi.

Sherobod tumanidagi Zarautsoy darasidan topilgan suratda qadimiy ajdodlarimizning hayvonlar qiyofasiga kirib ov qilish jarayoni tasvirlangan. Binobarin, ilk paliolit davridayoq niqob, boshqa qiyofaga kirish hunarining dastlabki unsurlari kuzatilgan. Demak, teatr san'atining dastlabki unsurlari qadimiy davrlardanoq yurtimizda shakllana boshlagan. Ammo ovchilik bilan "ovchilik o'yinlari"ni farqlash kerak. Negaki, "ovchilik o'yinlari" ov qilishdan ancha keyin paydo bo'lgan hodisadir. Ov oldidan, ovdan keyin jamoa tabiat hodisalari va ayrim hayvonlarga sig'inib, turli yig'inlar o'tkazishgan. Bunday yig'inlarda ular turli-tuman taqlidiy raqslar, obrazlar yaratgan. Shu tariqa ajdodlarimizning (pantomima) o'yin san'ati shakllana boshlagan.

O'zbekistonning janubiy hududlarida ovdan oldin o'tkaziladigan o'yinlarda qabiladoshlar bo'lajak ovga tayyorgarlik ko'rishgan bo'lsa, ovdan keyingi o'yinlarda hamma ovning o'ngidan kelganligi uchun

xursandchilik qilishgan. Ov jarayonida odamlarning qo'llari shakllanib borgan, shu bilan birga idrok-fahm etish layoqati ham takomillasha boshlagan. Natijada, estetik sezgi va ijodiy qobiliyat vujudga kelgan. Buni ba'zi ovchilik o'yinlarida dastlabki cholg'u asboblari ishlatilganligidan bilsa bo'ladi. Shu tariqa raqs, qo'shiq va teatr kabi san'at turlarining eng sodda unsurlari paydo bo'lishi uchun poydevor hozirlagan.

Ov bilan bog'liq holda vujudga kelgan va jangovar kayfiyatda o'tadigan o'yinlar nihoyatda ko'p bo'lgan. Ularda ajdodlarimizning ov jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rishi o'z aksini topgan. Mana shunday o'yinlarning ayrimlari bizning davrimizgacha yetib kelgan. Qadimda mavjud bo'lib, davrlar o'tishi bilan turli o'zgarishlarga uchragan va o'spirinlarning "Rasta" deb ataluvchi o'yini shular jumlasidandir. Marosimda o'spirin jiddiy sinovdan o'tkazilgan. Sinov o'ziga xos musobaqadan iborat bo'lib, ularning mazmuni urug'chilik davri urf-odatlari va og'zaki ijodiga borib taqaladi. O'spirinlar ov qurollaridan foydalanish mahoratlarini, qabila o'yinlarini, qo'shiqlari va rivoyatlarini bilishlarini, e'tiqodlarini namoyish etib, balog'at yoshiga yetganligini isbot qilganlar. Marosimda turli jangovar raqslar ham ijro etilgan. Barcha shartlardan muvaffaqiyatli o'tgan o'spirinlar bolalik odatlarini tashlab, kattalar bilan birga ovga borganlar. Ular mustaqil shaxs sifatida tan olingan.

Marosim katta tomosha sifatida tantanavor ruhda o'tkazilgan. O'spirin o'zining jasurligi, kuch-qudrati, ijodkorlik qobiliyati va ijrochilik mahoratini namoyish etish orqali qabiladoshlarini hayajonga solgan. O'z navbatida bunday sinovlar yoshlarning hayotga tayyorgarlik ko'rish darajasini va san'atga bo'lgan munosabatini belgilab bergan.

Ovchilik asosida asta-sekin chorvachilik shakllangan. Chorva bilan bog'liq sigir tuqqanda "gelagay oshi" qilish, sigir sog'ish "Xo'sh-xo'sh", qishga go'sht mahsulotlarini tayyorlash kabi jarayonlarni aks ettiradigan o'yinlar ijod qilingan. Aniqrog'i, kattalar mehnat qilayotgan vaqtlarda bolalar ularning faoliyatini o'yin shaklida takrorlab turishgan.

**Chorvadorlar o'yinlari.** Ajdodlarimiz – sak va massaget qabilalari asosan chorvachilik bilan shug'ullangan. Asta-sekin chorvadorlar hayotiga oid o'yinlar ham yaratila boshlangan. Negaki, cho'ponlar doimo ko'ngilxushlikka, o'yinga ehtiyoj sezganlar. Biroq podani tashlab uzoqqa ketishning iloji bo'lmagan. Shu bois, poda atrofida o'ynash imkoniyatini izlaganlar. Ot, ho'kiz, eshak, tuya, echki, mehnatidan foydalanish jarayonida shu hayvonlar harakatiga taqlid qiladigan



o'yinlar vujudga kelgan. Masalan, bahorda ho'kiz shohlarini moylash, [illegible], qo'sh haydash marosimlari, "Qaysar ot" o'yini yuzaga kelgan. Shuningdek, qo'y junlarini qirqish, qoramol terilarini iylash va ulardan po'stin tikish, jun yigirish, kiyim to'qish an'analarini aks ettiruvchi qo'shiq raqslar, o'yinlar drammalashgan tarzda namoyish etilgan.

O'zbekistonning janubida XX asrgacha ozmi ko'pmi qo'llanilib kelingan, so'nggi yillarda qayta tiklangan "Podachi", "Poda to'p", "Cho'pon o'yin", "To'qqiz qumaloq", "Eshak mindi", "Chillak", "Cho'pon va oqsoq bo'ri", "Qadama tayoq" kabi o'yinlar ham shu jumladandir. Ayniqsa, tomosha shaklida ijro etiladigan o'yinlar boshqa xil kasbdagi kishilar o'rtasida ham ommalashgan.

**Hunarmandlik negizida shakllangan o'yinlar.** Kishilarning tug'ma imkoniyatlari, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish vositasidir. Ayni choqda bu o'yinlar xalqning ma'naviy boyishi, tafakkurining o'sishi, olam go'zalligini chuqur his etishga xizmat qilgan, kasb-hunarga mehr o'yg'otgan. Hunarmandlik bilan bog'liq o'yinlarda kishilarning aynan shunday xislat va fazilatlarini ro'yobga chiqarish masalasi yetakchilik qiladi.

O'zbekiston hududida eramizdan ilgarigi birinchi ming yillikning o'rtalaridan boshlab ishlab chiqarishning o'sishi, yirik shaharlarning barpo etilishi, savdo-sotiq va bozorlarning paydo bo'lishi natijasida hunarmandchilik rivojlangan. Hunarmandchilik bilan bog'liq o'yinlar ham shu qadar qadimiydir.

Vatanimizning barcha viloyatlarida bolaning turli hunarlarga bo'lgan qiziqishlarini o'stirishga qaratilgan ko'plab o'yinlar yaxshi saqlanib qolgan. "Hammompish", "Qo'g'irchoq yasash", "Uy-uy", "Oqtosh", "Kovushim", "Tish og'rig'i", "Sartarosh", "Temirchi", "Kulol", "Kashtachi", "Juvozkash", "Moshoba o'yin" va boshqalar shular jumlasidandir.

Hunarmandlik o'yinlari jarayonida qatnashuvchilarning har xil badiiy shakllar yasashda qo'llari qovushib boradi. Qaysi kasbga aloqador bo'lmasin, loyu-tuproq bilanmi, yog'ochu-cho'p bilanmi, ipu-arqon bilanmi, po'stagu-mato bilanmi baribir maqsad o'yin orqali bolalarni hayot uchun zarur bo'lgan biror buyum yaratishga, ijodga, hunarga bunyodkorlikka o'rgatishdan iborat.

Qashqadaryo viloyatining Yakkabog', Shahrisabz va Kitob tumanlari atroflarida "Dandarak" o'yini ommalashgan. Bu ham cho'ponlarning tayoq vositasidagi o'yinlari sirasiga kiradi. Uni asosan o'n-o'nbesh yoshlardagi bolalar o'ynashadi. O'yin muhim vosita —

qamchi va dandarakdan tashkil topadi. O'yinchilar soni chegaralanmaydi. Qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.

Qalinligi bilakdek keladigan tayoqdan to'rt besh enlik qismi kesib olinadi. Uning bir uchi yaxshilab yo'nilib, qoziqsifat shaklga keltiriladi. So'ng u bosh va o'rta barmoqlar yordamida tekis joyda aylantirib yuboriladi. Shu maromda qamchining uzun ipi bilan aylanish yo'nalishi bo'ylab urib turiladi. Bu bahsda kimning dandaragi birinchi bo'lib harakatdan to'xtasa yoki yiqilsa, u yutqazgan hisoblanadi. Bunda ramziy ma'no bor: qadimgi ilmi nujumda mavjud bo'lgan aqidaga ko'ra, dunyoyi falak xuddi urchuqqa o'xshab tinimsiz aylanib turadi. Kunlar, oylar, yillar bir-birini quvib o'taveradi, podshohlar, jahongirlar kelib ketaveradi. O'tkinchi dunyo hech kimga vafo qilmaydi. Vaqti soati kelib, hatto, ko'ksimizdagi yurak ham urishdan to'xtaydi...

Ba'zi joylarda zavq olish uchun dandarakni turli ranglar bilan bo'yab bezaydilar. Bunday dandaraklar aylantirilganda, kamalakdek tovlanib, ko'zni qamashtiradi. O'yin bolalarda qamchini ishlatish ko'nikmasini hosil qilishda o'ziga xos maktab vazifasini o'tagan. Chor atrofdagi ranglarning ko'pligini, olam go'zallikka boyligini anglay boshlagan. Qizlar esa dandarakni aylantirish bilan ip yigirishda urchuqni to'g'ri aylantirish malakasini o'zlashtirib borishgan.

Hunarmandlikka oid o'yinlar katta yoshdagilar o'rtasida ham keng tarqalgan. Bunday o'yinlar tomosha shaklida bo'lib, sayil va bayramlar munosabati bilan uyushtirilgan. Bunga ishora etuvchi manbalar talaygina. Rus sharqshunosi A.Belinitskiy ko'plab asarlarni diqqat bilan o'rganib chiqib, temuriylar zamonida yashagan mahalliy hunarmandlarning Samarqand shahrida o'tkazilgan ommaviy sayildagi ishtiroki to'g'risida ma'lumot beradi. Keyinchalik bu masala M.Rahmonov va M. Qodirovlar ishlarida ham o'z ifodasini topdi. M.Qodirov O'zbekistonning janubiy viloyatlarida rasm bo'lgan o'ndan oshiq hunarmandlik asosida shakllangan mahalliy komediyalarni yozib olgan. "Bo'zchilik", "Juvozron", "Nisholdapazlik", "Objuvoz", "Tandir", "Tegirmonchi", "Novvoylik", "Attorlik" kabi satirik komediyalar shular jumlasidandir.

Xullas, xalqimiz hunarmandlarni qadrlagan, hurmat ehtirom ko'rsatgan, o'z ishini eplolmaydigan, yalqov, maqtanchoq va beuquv hunarmandlar ustidan kulgan. Sartarosh timsolining goh mohir, goh yalqov, goh quvnoq, goh biroz maqtanchoq tarzda bo'rttirib gavdalantirilishi ham shundan.



**Mavsumiy o'yinlar**. Ma'lumki, ajdodlarimiz tabiatni doimo o'lib-tirilib turuvchi jonli narsa sifatida tasavvur qilganlar. Ularning tasavvuricha, tabiat kuz mavsumidan sekin-asta o'la boshlagan bo'lsa, qish faslida butunlay o'lgan. Tabiatdagi bu o'lim hamal oyigacha davom etgan. Erta bahorda u yana jonlangan, tirila boshlagan. Kishilar har bir faslning o'zigagina xos bo'lgan tabiiy sharoitlarga moslashadilar. Tabiatda ro'y beradigan o'zgarishlar va kishilarning shu sharoitlarga moslashishiga bo'lgan harakatlari natijasida mavsumiy o'yinlar paydo bo'lgan.

Xalq o'yinlari bahor bayrami Navro'z kunlarida ommaviy tus olganki, bu to'g'rida alohida to'xtalmoqchimiz.

Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Navro'zning kelib chiqishini shoh Jamshid nomi bilan bog'laydi. Umar Hayyom o'zining "Navro'znoma"sida Beruniy aytgan fikrlarni tasdiqlaydi va Navro'zning dastlab joriy etilishini Jamshidning podshohligi zamoniga borib taqalishini aytib o'tadi. Shuningdek, M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Mavlono Lutfiyning "Gul va Navro'z", Hazrat Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlarida ham Navro'z bayrami bilan bog'liq lavhalar ko'p.

Navro'z bayramida turli tomoshalar, o'yinlar va musobaqalar uyushtirilgan. Ayniqsa, xalq o'yinlari bayramning ko'rki hisoblangan. Beruniy bayramning kelib chiqishini xalq o'yinlari bilan bog'lar ekan, bir hikoyat keltiradi: Jamshid o'ziga arava yasab olgach, Hamal kirishi bilan o'sha kuni aravaga chiqib oldi, jinlar va shaytonlar uni havoga ko'tarib bir kunda dumbovanddan (damovand tog'i) Bobilga olib bordilar. Shunda quyosh shu'lasi tushib, uning tojidan nur taraladi. Odamlar bu voqeani ko'rgach, o'sha kunni hayit qildilar va Jamshidga (aravada uchishiga) taqlid qilib arg'imchoqlarda uchdilar.

Manbalarga qaraganda, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy tomoshaviy musobaqa o'yinlaridan biri — jangovar yakkama-yakka kurashning kelib chiqishi ham qadimiy Navro'z bayramiga aloqador ekan. Bu borada chin tarixnavislarining ma'lumotlari qimmatlidir. "Tan sulolasining tarixi" solnomasida qadimgi farg'onaliklar yilning serhosil yoki aksincha, barakasiz kelishini aniqlashning antiqa usulini bilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Folklorshunos M.Jo'rayevning ta'rifi bilan aytganda, Navro'z kuni hukmdor va el og'alari ikkiga bo'linib, har taraf o'z atrofiga odamlarni yig'adi. Tarafkashlar saroy oldidagi tomosha maydoniga boradilar. Har ikki tomon bittadan jasur va eng mohir qilichbozni tanlab o'rtaga tushiradi. Bahodirlar bir-birlariga hamla qilib

jang boshlaydi. Atrofdagi tomoshabinlar shovqin suron va katta hayajon bilan o'z botirlarini qo'llab-quvvatlab turadi. Yigitlardan biri g'olib chiqsa, olishuv to'xtatiladi. Yangi yilning qaysi qabila a'zolari uchun barakali yoki omadsiz kelishi shunga qarab bashorat qilinadi.

Navro'zda o'tkaziladigan bu jang ramziy bo'lib, tomonlardan biri hosildorlik, ikkinchisi esa qurg'oqchilik timsoli hisoblangan.

K.Kriter yurtimizda o'tkazilgan bayram haqida shunday yozadi: "Aholi yangi kiyimlar kiyib, yasanib, qalpoqlarini qog'oz gullar bilan bezagan edi. Ular shahar atrofidagi eng baland joyga bordilar. U yerda nog'ora, nay va boshqa musiqa asboblari chalinib, hamma o'yinga tushar, yoyda merganlik qilar, uloq o'tkazilar edi". Gap Navro'z bayrami haqida bormoqda.

Bu borada M.Rahmonov fikrlari ham qiziqarlidir. Olim turli o'yinlarni o'z ichiga olgan Navro'z bayrami teatrlashgan uslubda olib borilganligi va juda jo'shqin tusda o'tganligi, unda qo'shiqlar, raqslar, musiqalar ijro etilganligi, ayrim mifologik sahnalar o'ynalganligi, bazm chog'larida esa mayxo'rlik avj olganligi haqida yozadi.

Navro'z bir necha kun davom etib u an'anaga ko'ra bozor qoshidagi maxsus maydonlarda, shahar tashqarisidagi sayilgohlarda o'tkazilgan. Bayramning birinchi kunida ertalabki tantanalardan keyin dorbozlar va polvonlarning chiqishlari bo'lgan. Kechki payt ommaviy sayillar, xalq o'yinlari va bazmlar uyushtirilgan. Katta sayilgohlarda o'tkazilgan bu kabi ommaviy tomosha va o'yinlar barchaga ko'tarinkilik, zavqu-shavq, o'zgacha fayz va bayram kayfiyatini ulashgan. To'planganlar qalbini olam olam shodliklarga to'ldirgan .

Navro'z munosabati bilan uyushtiriladigan sayillar xalq o'yinlarini tashkil etish uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'tagan. O'yinchilar, ijrochilar va tomoshabinlar erta tongdan ko'tarinki kayfiyatda sayilgohga to'planganlar.

Turkiston general gubernatori fon Kaufman buyrug'i bilan barcha bayramlar, yig'inlar, o'yin va tomoshalarni uyushtirish man etiladi. Chunki chor hukumati xaloyiq yig'ilib qo'zg'olon ko'tarmasin, deb qo'rqar edi. Mahalliy mirshablar mazkur buyruqni to'la-to'kis bajarishgan.

Chor hukumati o'yin va tomoshalarni yo'qotib yuborishiga kuchi yetmagach, ulardan o'z mustamlakachilik g'oyalarini targ'ib qilishda foydalanish yo'liga o'tdi.

XX asr boshida rasm bo'lgan an'analarni o'rganishda sharqshunos N.Likoshinning olib borgan kuzatishlari alohida ahamiyat kasb etadi.



Olimning yutug'i shundaki, u o'zi ko'rgan, guvohi bo'lgan bayramlar, [illegible], sayillarda mahalliy o'yinlarning tomosha shakllarini aslida qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlagan. Xususan, 1903 yil Xo'jandda bo'lib o'tgan Navro'z saylida ishtirok etib, boshidan oxirigacha bo'lgan barcha jarayonlarni tilga olib o'tadi.

Sobiq sovet tuzumining dastlabki yillarida Navro'z va boshqa bayramlar to'g'risida turli qarashlar yuzaga keldi. Bu davrda Navro'z bayramiga inqilobiy ruh, sotsialistik mazmun kiritish harakati kuzatiladi. Ammo kolxozlashtirish davrida yangi jamiyat siyosatini madh etuvchi ommaviy tadbirlarga nisbat va katta e'tibor berilishi oqibatida Navro'z va u bilan bog'liq o'yinlar nazardan chetda qola boshladi. Lekin joylarda oddiy kishilar tomonidan Navro'z uzluksiz nishonlanib, unga aloqador marosimlar, o'yinlar, tomoshalarni norasmiy tarzda bo'lsa-da, uyushtirib kelindi.

XX asr o'rtalarida Navro'zga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga qarab burildi. Ayniqsa, saksoninchi yillarning boshlarida Navro'z va u bilan bog'liq mahalliy o'yinlar ham asliga qayta boshladi. Biroq 1984 yilda Navro'z yana ayrim rahbarlar tomonidan diniy ruhda, eskilik sarqiti sifatida talqin etilib, uni nishonlash ta'qiqlab qo'yildi.

Nihoyat 1990 yilda 21 mart O'zbekiston mehnatkashlari uchun dam olish kuni deb e'lon qilindi. Prezidentimiz farmoni chiqqanidan keyin Navro'z bayramining tarkibiga kiruvchi marosimlar, qo'shiqlar, raqslar qatorida o'yinlar ham tarixiy-etnografik asoslarga ko'ra dadil tiklana boshlandi. Ayniqsa, mustaqillik davrida bu borada qator ibratli ishlar amalga oshirildi.

**Bolalar o'yinlari.** O'zbek xalqi azaldan murg'ak qalb va tabiiy tuyg'ular tarbiyasiga alohida e'tibor bergan. Jigargo'shalariniyu beshikdalik davridan boshlaboq alla, xilma-xil o'yin ertak va ermaklarga oshno etishgan. Natijada, bolalarda aql-idrok, did-farosat, hozirjavoblik, chidamlilik, bahodirlik kabi fazilatlar shakllana boshlagan.

Darhaqiqat, bolalar o'yinlari — zarurat natijasidir. Negaki, ular harakatsiz, biror bir ovunchoqsiz turolmaydi. O'yin bolalarning tiniq va serjilva ehtiroslarini qo'zg'ab, zavqlarini oshiradi, kayfiyatlarini ko'taradi. Bir so'z bilan aytganda, bolalarning haqiqiy hayoti o'yindan boshlanadi. Ular o'yin orqali ilk bor dunyoni his qiladi, idrok eta boshlaydi, o'z navbatida hayotga tayyorgarlik ko'rib boradi. Asta sekin hayotiy tasavvurlari boyiydi.

Bolalar o'yinlari o'z qurilmasi, vazifasi, ijro uslubi va yosh xususiyatiga ega. O'yinni uyushtirish uchun kirndir tashabbus

ko'rsatgan. Bolalarni bir joyga to'plash uchun turli chorlov qo'shiqlarini ijod etgan. Mana ulardan biri:

- Kel o'rtoq, qo'g'irchoq-qo'g'irchoq o'ynaymiz,
- Yur bekinmachoq o'ynaymiz.

Bolalar yig'ilgach, ikki guruhga bo'linishi kerak. Buning uchun cheklashadilar. "Cheklashish" xalqimiz orasida qadimdan mavjud bo'lib, ma'nosiga ko'ra "chek tashlash", "beklashish", "qur'a tashlash" kabi so'zlarga yaqin turadi. So'ng onaboshi va o'yinboshilar saylanadi. Shartlar aytilgach, o'yin boshlanadi.

12-14 yoshlardagi bolalarning o'yinlari yanayam murakkablashib, ijtimoiy mazmun kasb eta boshlaydi. Ba'zan ular o'yinlarida orlanadigan ham bo'lishadi. "O'n ikki yoshga to'lganimda, — deb yozadi Amir Temur, bolalar o'yinlaridan orlanadigan bo'ldim va vaqtimni o'zimga tengdosh o'smirlar bilan o'tkazishga harakat qildim". Shu fikrning o'ziyoq bolalar o'yinlari asta-sekin mukammallik sari o'sib borganligini ko'rsatadi. Bolalarning yoshiga qarab o'yinlar shakli va mazmuni ham o'zgarib boradi. Dastlabki uch yil bola qo'g'irchoqlarga ehtiyojmand bo'ladi. Keyin taqlid qilish va syujetli o'yinlar (ov-ov, ish-ish, uy-uy, kelin-kuyov, qo'shni-qo'shni)ga o'tadi. 4-6 yoshlarda tezkorlik, g'oliblikka erishish (ot o'yin, poyga, kurash, qilichbozlik)ga qaratilgan o'yinlarga qiziqish kuchayadi. Bola ulg'aygan sari uning o'yini ham jiddiylasha boshlaydi. Agar olti, o'n yoshdagi bolalar o'rtasida "Tortishmachoq", "Chori-chanbar", "Pirr etdi", yong'oq va suyak bilan bajariladigan o'yinlar urf bo'lsa, undan keyin ular qo'proq kuch sinovi va jangovar o'yinlarga o'ch bo'la boradilar. Bu haqda sohibqiron Amir Temur shunday degan edi: "Ko'chada men bolalar bilan o'ynardim. Bolalar bilan urush-urush o'ynab, o'zimni amir etib tayinlardim-da, o'yinni boshqarardim va bolalarning bir guruhini ikkinchi bir guruhi bilan urishtirishni mashq qilardim". Bundan ko'rinadiki temuriylar davrida ham "Urush-urush" o'yini keng rasm bo'lgan ekan. Ba'zi o'yinlar o'g'il va qiz bolalar tomonidan birgalikda o'ynalaveradi. Ayrim o'yinlar mazmuni va kompozitsiyasi so'z, musiqa, harakat, aytishuv va imo-ishoraning o'zaro birikuvidan hosil bo'ladi. Folklorshunos O.Safarov bunday o'yinlarni "O'yin qo'shiqlar" deb ataydi. Ularning aksariyati so'z ijrochiligi — monolog va diologlarga asoslanadi. Dialog shaklidagi she'riy matnlar birgalikda ijro etilsa, monologlar ifodali o'qiladi. Misol uchun "Oq terakmi-ko'k terak" o'yinini olib ko'raylik. M.Nalivkinning yozishicha, bu o'yin



Turkiston hududida XIX asrning ikkinchi yarmida ham o'ynalgan ekan.

Qiz bolalarda o'yinga ishtiyoq nihoyatda erta uyg'onadi. 6-10 yoshli qizlar ko'pincha o'zlari yasagan qo'g'irchoqlar vositasida "Xola-xola", "Mehmon kutish" va hokazolarni o'ynashadi.

Dastlabki qo'g'irchoqlar tosh, yog'ochdan yasalib, ilohiy hisoblangan. Ularni oddiy kishi qo'lga olishi mumkin bo'lmagan. Chunki ma'budaga qiyos qilingan. Bunday qo'g'irchoqlarda jodu kuchi bor, deb hayiqishgan. Hatto ba'zi qabilalar yog'ochdan qilingan qo'g'irchoqlarga "yovuz kuchlar" deb qarashgan. Bu holat arablar hukmronligi davridan boshlab o'z xususiyatini yo'qotgan. Qo'g'irchoqlar bilan bog'liq marosim va timsollar dastlabki diniy mazmunidan uzoqlashib, bolalar dunyosiga o'rnashib qolgan. Shu tarzda asta-sekinlik bilan qo'g'irchoq o'yinlari vujudga kelgan. Bunday o'yinlar ko'proq qizlar tomonidan istifoda qilingan. Nega deganda, qo'g'irchoq kelib chiqishiga ko'ra ona ma'buda va chaqaloq timsollari bilan bog'liqdir.

Qizlar ulg'aygan sari ularning o'yinlari ham murakkablashib boradi. Xalq dostonlarida xotin-qizlarning shunday o'yinlari aks ettirilgan ko'plab lavhalarga duch kelamiz. Ularda xotin-qizlarning bilimdonligi, aqliy barkamolligi, zukkoligi, hozirjavobligi, qo'yingki san'atkorlik qobiliyati aks etadi.

Izlanishlarimiz o'zbek xalq o'yinlarining turlari va shakllari har xilligini ko'rsatadi. Badiiy so'z vositasida ijro etiladigan o'yinlar shu jumladandir. Bu turkumdagi o'yinlarda so'zdan adashmaslik she'r yoki baytlarni xatosiz ifodali talaffuz qilish, sanoqqa o'rgatish to'satdan berilgan har qanday savolga xotirjamlik bilan aniq va to'g'ri javob qaytarish kabi fazilatlarni shakllantirish vazifasi turadi. O'yinda musiqa, ashula va boshqa ijrochilik turlarining o'zaro uyg'unlikda olib borilishi voqealar talqini vaziyatga qarab istalgancha o'zgartirilishi mumkin. Tabiiyki, ehtiros, chechanlik, boy tasavvur, hozirjavoblik mazkur o'yinlarga xos xususiyatlardir. Ijrochining asosiy quroli so'z bo'lsa-da, voqealarni tasvirlashda u hazil, kinoya, mubolag'a, hikoya, askiya, maqol, topishmoq, ertak va tez aytish kabi janrlardan keng foydalanadi. Bunday o'yinlar ko'proq qizlar o'rtasida ommalashadi.

Ba'zi o'yinlar ham o'g'il, ham qiz bolalar tomonidan bir xilda o'ynalaveradi. Buni Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlaridan hamkasbimiz H.G'ofurov yozib olgan "Kim urdi" o'yinida kuzatdik. O'yinda 9-15 yoshlilar ishtirok etadi.

O'zbek xalq o'yinlari nafaqat yoshlar, oila qurgan katta yoshdagi kishilar o'rtasida ham keng ommalashgan. Aksar iqtidorli, tajribali o'yinchilar ishtirokida o'tadigan o'yinlar xaloyiq tomosha qiladigan qiziqarli badiiy tadbir sifatida tashkil etiladi. Ko'plarida davra hosil qilinadi, sahnaviy vositalardan foydalanilgan holda muayyan badiiy obraz yaratiladi.

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani "Pakandi" qishlog'idan yozib olingan "Quloq cho'zma" o'yini, ayniqsa, dramatik va sahnaviy unsurlardan tarkib topgan. O'yinni o'yinboshi (rejissyor) boshqarib boradi. U ro'molchaga bir necha tangani bog'lab, to'planganlar o'rtasiga otadi. Kimda-kim ro'molchani o'yinboshi ko'rsatgan joyga olib kelib bersa, o'sha g'olib bo'ladi. Ammo bu oson ish emas. Ro'molchani endi qo'lga kiritganda, atrofdagi raqiblar uning qulog'idan ushlab cho'zadilar. O'yinning nomi ham shundan kelib chiqqan. Ayrim paytlar ishtirokchilar boshlariga telpak kiyib, quloqchinini ham mahkam bog'lab oladilar. Shunday bo'lsa-da, o'yinda qulog'ining "olovi" chiqmagan bola qolmaydi. Atrofdagilar ularni katta hayajon bilan kuzatadilar. "Quloq cho'zma" yigitlarning mardlik va jasorat sinovi bo'lib kelgan. Ular davraga chiqar ekan, joni og'rishiga qaramasdan o'z maqsadi sari intiladi.

Bel olish kurashi o'zbek xalqining qadimiy kurash turlaridan biridir. Unda raqiblar ustiga yaktak, yaktak ustidan chopon kiyib, beliga belbog' bog'lab, shu belbog'dan ushlab, amallar bajarib, raqibning yelkasini yerga tekkiziladi. Uning bir qancha turlari mavjud. O'zbekiston hududida qadimdan bir qancha qoidalari mavjud. Masalan, eski Qo'qon xonligi, hozirgi Farg'ona, Andijon, Namangan, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida oyog'idan chalmay kurashiladi. Buxoro amirligi va undan oldingi davrlarda, Xorazmda ham qadimda oyog'idan chalib kurashilgan. Bel olish kurashi avloddan-avlodga o'tib kelishining sabablaridan biri, ustozning amallarini amalda bajarish orqali o'rgatishi. Bel olish kurashi amalini ustoz bir-biridan farqlash uchun har bir amalni nomlab kelgan. Turkiy millatlar ichida o'zbeklarda "Kurash hadisi" o'quv-qo'llanmasi bo'lib, bugungi kungacha yaxlit holatda yetib kelmagan bo'lsa-da, bir qancha amallarning nomlanishi yetib kelgan. Bel olish kurashi amallari turkiy millatlar orasida o'zbeklardagina ko'proq saqlangan.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Milliy o'yinlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqida qanday fikrdasiz?



2. Milliy o'yinlarning xalq sayillari va marosimlarda foydalanish istiqbollari haqida qanday fikrdasiz?
3. Milliy o'yinlarning yoshlar jismoniy va ma'naviy barkamolligiga ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?

**Topshiriqlar:**

1. Milliy o'yinlarning taraqqiyot bosqichlari haqida ma'lumot bering.
2. Xalq o'yinlarida ommaviy tadbirlarda foydalanish usullarini tavsiflang.

## RAQS SAN'ATI. O'ZBEK RAQS MAKTABLARI

**Reja:**

***1. Raqs san'atining tarixi. O'zbek raqs san'atining o'ziga xosligi.***

***2. O'zbekiston hududida shakllangan raqs maktablari va ularning o'zaro ta'siri.***

***3. Xalq raqslarining sahnaviy raqslar takomillashuvidagi o'rni.***

**Raqs** san'atining tarixi. Ibtidoiy raqslar. Termachilik va chorvachilik davrlari raqslari. Taqlidiy raqslar. O'zbek raqslarining rivojlanish bosqichlari. Hududlarga xos raqs maktablarining shakllanishi. Xorazm, Buxoro-Samarqand, Farg'ona-Toshkent raqs maktablari shakllanishida tarixiy davlatchilik markazlarining o'rni. Qoraqalpoq raqs maktabining o'ziga xos tomonlari. Surxon raqs maktabining targ'iboti va tan olinishi. Xalq raqslarini sahnaga olib chiqishda Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim va Mukarrama Turg'unboyevalarning roli. Erkaklar raqslari. Ayollar raqslari. Aralash raqslar. Bolalar raqslari.

O'zbekiston hududida raqs harakatlarining dastlabki namunalari paydo bo'lishi "Navro'z" marosimi tarixi bilan bog'liq.

O'zbek raqs san'ati aniq ritm (usul) ga asoslanadi va raqs harakatlari ritm o'zgarishi asosida tizimga solinadi. Kuy ijrosida doyra (urma cholg'u)ga kuyni ijro etuvchi cholg'ular jo'r bo'lgan paytda ham raqs ijrochilari faqat usul (ritm) larning soni va tarkibiga ko'ra o'z harakatlarini rejalashtiradi. Tarkibida 280 ta usulni jamlagan "Katta o'yin" milliy raqs san'atining mukammal, sinalgan mashqlari vazifasini bajargan. "Katta o'yin" tarkibiga kirgan doyra usullari nomlanishi raqs harakatlarining nomlanishiga mos keladi. "Katta o'yin" odatda rez bilan

boshlanadi va bu "dildir" deb ataladi. "Titratma" usulidagi raqs harakatlarida raqqosning barcha mushaklari o'ynab, ulardagi qonning yurishi ko'rsatilgandek harakat qilinadi. "Qo'sh qars" usulida ikkita kuchli zarb boshqa zarblardan ajralib turishi evaziga ushbu usullar davomida eng mardonavor, boshqalarni jalb etadigan keskin harakatlar amalga oshirilishi lozim. "Yo'rg'a" usuli huddi hayvonlarning yo'rg'alab yurishiga monand harakatlar bajarilishini ta'minlasa, "Sarbozi" – ya'ni jangchi usulida vajohat aks ettiriladi. Doyrada chalinadigan "yakka charx" va "du charx" raqqosning necha marta aylanishini bildiradi. "Haqqoniy", "Orom", "Jilvoni", "Soxta" usullari o'z nomlariga monand harakatlarni talab etadi. "Sadr" ko'mish marosimini aks ettiradigan bo'lsa, "Qora zang" – qora qo'ng'iroq, "Duchava" – ikkita tayoq bilan o'ynalishini anglatadi. "Rok", "Yallama", "Qaytarma", "Dupoya", "Oqsatma" singari qator usullar davomida ham o'ziga xos raqs harakatlari bajariladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan 5 raqs maktabining 4 tasi (qoraqalpoq raqs maktabidan tashqari) da ana shu usullarga asoslaniladi.

O'zbekiston hududida 5 ta lokal raqs maktablari shakllangan:

1. Farg'ona-Toshkent
2. Buxoro-Samarqand
3. Xorazm
4. Qoraqalpoq
5. Surxon

Dastlabki 3 ta maktabning paydo bo'lishi shu hududlarda davlatchilikning (Qo'qon xonligi, Xorazm xonligi va Buxoro amirligi) mavjudligi bilan izohlansa, qoraqalpoq millatining keyinchalik ushbu hududga ko'chib kelishi yana bir yangi maktabning O'zbekiston hududida shakllanishini ta'minlagan. Surxon raqs maktabining shakllanishiga ushbu hududda saqlangan o'ziga xos raqs harakatlarining davr talabidan o'tib, ma'lum bir tizimga keltirilishi va boshqa maktablardan farqli harakatlarni o'zida mujassam etgani sabab bo'lgan.

O'zbek raqs maktablari deyilganda tushuniladigan 4 ta maktabda ham raqs usullarining asosini "Katta o'yin" tashkil etgani holda, ushbu usullarni ijro etish vositasi bo'lgan doyra ijrochiligida ham hududlarga xos ijro uslublari shakllangan.

O'zbek guruhli raqs ijrochiligi ham uzoq tarixga ega emas. Chunki, bir xil harakatlar, turli geometrik shakllarni ifodalash asosiga quriladigan jamoaviy raqslar muqaddam urf bo'lmagan. Islom ta'limoti



va shariat qonunlari asosiga qurilgan jamiyatda erkaklar va ayollar alohida holda raqs san'atini rivojlantirib kelishgan. Hozirda ayollar tomonidan ham, erkaklar tomonidan ham ijro etiladigan guruhli raqslarni birinchi bo'lib erkaklar sahnalashtirgan. Ayollar harakatlarini o'zlashtirish va raqsni sahnalashtirish uchun avvalo ayollar raqsini ko'rib, tahlil etish va jamoaviy ijroga xos jihatlarini aniqlab, keyingina amaliyotga tatbiq etish talab etilar edi. Buning uchun esa ayollar raqsini tomosha qilish imkoniyati yaratilishi zarur bo'ladi. Ayollar davrasiga nomahram erkakning kirishi ta'qiqlangan sharoitda esa shu davraga kirishi mumkin bo'lgan, ya'ni balog'at yoshiga yetmagan o'g'il bolalardangina foydalanish mumkin bo'ladi. O'z davrida xuddi shunday imkoniyatga ega bo'lgan Yusufjon qiziq Shakarjonov va Usta Olim Komilovlar shunday ishga qo'l urishgan. Ular bilan bir qatorda ushbu san'atning ommalashuvi va taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan san'atkorlar orasida toshkentlik – Kenjaboy Tursunov, Mullo Shobarot Shosolihov; buxorolik – Usta Toji Sobirov, Mixal xonim Xaimova, Bibishirin Mamanova; qo'qonlik – Mahkam Hofiz, Kamolxon Muhammadjonova, Qumrixon Hamdamova; namanganlik – Usmonxo'ja Fozilboyev, Sharofat yallachi; andijonlik – Mamajonxo'ja Usmonxo'jayev; farg'onalik – Nazirxon; xorazmlik – Allabergenov, Safar Mug'anniy; marg'ilonlik – Otaxo'ja, Qimmatxon Sultonovalarning ham xizmatlari katta bo'lgan.

Sahnada ijro etiladigan raqslarni sahnalashtiruvchilar raqs harakatlarini turli oilaviy tadbirlar, yirik tomosha va sayillarda o'z san'atini namoyish etgan oddiy ijrochilardan o'zlashtirganliklarini tan olishadi. Demak, raqs san'atidagi hamma yangi harakatlar oddiy xalqdan olinadi va oddiy xalqning raqs san'ati professional ijro uchun bitmas-tuganmas manba vazifasini o'taydi.

Hozirda o'zbek raqs san'ati ikki yo'nalishda – professional va havaskorlik yo'nalishlarida rivojlanmoqda.

Professional raqs jamoalarining faoliyati 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida tashkil etilgan "O'zbekraqs" birlashmasi tomonidan muvofiqlashtirilib, ushbu jamoalar uchun kadrlar shu Farmon asosida tashkil etilgan Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi tomonidan tayyorlanadi.

Havaskor raqs jamoalari esa to'garak va jamoalar ko'rinishida maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib, madaniy-ma'rifiy muassasalarda va mahallalarda tashkil etilgan. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari hisoblangan – Bolalar musiqa va san'at maktablari

(hozirda 300 dan ortiq)da ham raqs bo'limlari, shuningdek Respublikadagi 20dan ortiq madaniyat va san'at kollejlarida ham raqs bo'limlari faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston jamiyatida raqs eng ommalashgan san'at turi hisoblanadi. Chunki, har qanday oilaviy marosim va tadbirda musiqa yangrashi bilan hamma xohlovchilar davraga chiqib, raqsga tushib ketaveradi. Bunday tadbirlarda tabrik yo'llovchilar albatta raqsga tushib berishi ham odat tusini olgan.

Farg'ona raqsi – o'zbek xalq raqs uslubi. Farg'ona vodiysida shakllanib, rivojlanib kelgan. Qaddi-qomatni erkin tutish, yengil va ifodali yurishlari, ko'p qirrali, puxta ishlangan va aniq ma'nolarga ega bo'lgan qo'l, bilak, barmoq harakatlari, nigohlar, nafas bosh harakatlari Farg'ona raqsining asosini tashkil etadi.

Erkaklar raqslarida mardonavor harakatlar, aylanishlar, ayollar raqslarida jilvalar yetakchilik qilgan. Shuningdek, Farg'ona raqsida uforlar – usul harakatlarining ahamiyati katta. Farg'ona raqsi, asosan, maydonlarga mo'ljallangan "Katta o'yin" va mehmonxonalar hamda hovlilarda ijro etiladigan "Mayda o'yin" turkum raqslaridan tashkil topgan. "Katta o'yin"da raqs vositalari bilan syujetli voqealar aks ettirilgan 280 usulni o'z ichiga olgan. Muayyan raqs shakli va harakatlarini hosil qiluvchi rez, titratma, shox, gul o'yin, yo'rg'a, sarbozi, charx, haqqoni, orom, jilvoni, saxta, duchoba, rog, katta samo, yallama, qaytarma, dupoya (oqsatma), olma-anor kabi bizgacha yetib kelgan usullar shular jumlasidandir. Usullar, asosan, doiralarda (ba'zan nog'oralar qo'shilgan) chertilgan va shunga mos raqslar guruh o'yinchilari tomonidan bajarilgan. "Mayda o'yin" esa, yalla va laparlar jo'rligida ijro etiladigan lirik raqslar, kulgili-taqlidiy raqslardan tashkil topgan bo'lib, doira, dutor jo'rligida havaskor va professional o'yinchilar tomonidan ijro etilgan. Farg'onada yallachi ayol ijrochilarining raqslari (jumladan, "Tanavor" raqs turkumi), shuningdek, uyg'ur raqsi ta'sirida vujudga kelgan "Andijon samosi" (19-asr oxirida "Andijon polkasi" nomini olgan) yigitlar raqsi alohida ajralib turadi.

Raqs ustalarining liboslari raqslar mazmunini kuchaytirgan. Erkaklar surp va beqasamdan tikilgan yaktak va kamzullar, shoyi va shalvorlar, belbog' va do'ppilar, o'tkir uchli maxsus rangdor etiklar (mokki)dan, ayollar xonatlas, olacha ko'ylaklar, nimchalar, lozimlar, kavush-mahsilar, ro'mollar, durralar, xilma-xil taqinchoqlardan foydalanganlar.



20-asr boshida Makkaylik (Usta Muhammadjon), Hamdamxon, Solih Hoji Baratov, Otaxo'ja Saidazimov, Yusufjon qiziq, Adolxon, Sharofat satang singari mohir raqqos va raqqosalar faoliyat ko'rsatgan. Farg'ona raqsini 20-asr davomida sahnaga olib chiqib, uni yanada rivojlantirish va boyitishda Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova, Gavhar Rahimova, Qunduz Mirkarimova, Dilafro'z Jabborova, Qizlarxon Do'stmuhamedova, Ma'mura Ergasheva va boshqalarning xizmatlari katta.

Xorazm raqsi – o'zbek xalq raqs uslublaridan biri hisoblanadi. Xorazm vohasida qadim zamonlardan shakllanib asrlar davomida rivojlanib kelgan. Ushbu yo'nalish harakatlarga boy, erkaklar va ayollar raqslarida barmoqlarni shaqillashish, gavdani tik tutish, qo'llarni silkitish va boshqa harakatlar, tizzaga sakrash, qayroq bilan marom berish va boshqa usullar mavjud. Bizgacha yetib kelgan "Chag'aloq", "Norim-norim", "Aliqambar", "Orazibon", "Mo'ri", "Xo'bbimboy", "Shirinnovot" o'yinlari ijrosida o'g'lon raqqoslar va masxarabozlar o'zini ko'rsatgan bo'lsa, "Ashshadaroz", "Maqom ufori" kabi raqslarda raqqosalar ustunlik qilgan. "Lazgi" raqs turkumi ijrosida erkak va ayol raqs ustalari birday mahorat bilan o'ynaydilar.

Xorazm raqsining rivojiga faol hissa qo'shgan san'at ustalari orasida Onajon xalfa Sobirova (1885-1952) alohida o'rin tutadi. U xalfa tomoshalari, garmon chalib qo'shiq aytish, raqslarga o'rgatish, ayniqsa ayollarni sahnaga jalb etishda katta xizmat qilgan. Bu ishda I.Olloberganova, R.Hakimova, R.Otajonova («Onajon xalfa ansambli» ishtirokchilari), Qambar-bola, Kanarak-bola Saidov, Qodirbergan Otajonov, Xo'doybergan to'q-to'q, Gavhar Matyoqubova va boshqalarning xizmatlari katta. Xorazm raqs uslubi Xorazm viloyat teatri, xalq ansambllari, "O'zbekraqs" birlashmasi tasarrufidagi "Lazgi" ansambli faoliyatida davom etib kelmoqda.

Go'zal o'ziga xos ajoyib xalq raqsi "Lazgi" ustida alohida to'xtalib o'tish o'rinli. Raqs sekin va oddiy harakatlar bilan boshlanadi – oldin barmoqlar, bilaklar, yelka va keyin butun tana jonlana boshlaydi. So'ngra birdaniga qo'l, oyoq, tana ishtirok etadigan murakkab harakatlar ulanib ketadi. Kuyning bir qismi takrorlangan holda raqs harakatlari almashib boradi. Kuy xarakteri o'zgarishi va sur'at tezlashishi bilan raqs tobora qizg'inlasha borib, keskin holda tamom bo'ladi. Erkaklar (jangovar, qahramonlik ruhida) va ayollar (lirik, hazilomuz) raqslari bilan farqlanadi. Hozirgi davrda Xorazmda lazgi raqsining 9 turi

mavjud: "Qayroq lazgisi", "Kimning sevar yorisan", "Loyiq", "Sen o'zing bir yona", "Gal-gal" va boshqalar. "Lazgi"ning kuy va usullaridan Sh.Ramazonovning "Xorazmcha syuita"sida, M.Yusupovning "Xorazm qo'shig'i" operasi va "Gulsanam" baletida, B.Giyenkoning "Xorazm mavzuidagi syuita"da, S.Yudakovning "Xorazmcha bayramona yurish"ida unumli foydalanishgan.

Buxoro raqsi – o'zbek xalq raqsi uslubi. Buxoro muzofotida shakllangan va rivojlanib kelgan. Harakatlarning mardonavor va shiddatliligi, qayrilish, yarim qayrilish, shox va charxlarga boyligi bilan ajralib turadi. Raqs turi va o'yin joyiga qarab harakatlar silsilasi o'zgaradi. Raqqoslar kundal, adras, kimxob kabi matolardan keng qilib tikilgan kamzul yoki zardo'zi yaktak, yakrang shoyidan salla o'rab, oyoqlariga poshnali baxmal etik kiyib chiqqanlar. Raqqosalar, asosan, o'rdalarda, ichkarida, xufyona bazmlarda xizmat qilishgan; karvonsaroy, sayilgoh, to'y kabi erkaklar yig'iladigan joylarda raqsga tushish ta'qiqlangan. Shu sababli xotin-qizlar raqsni ham erkaklar (yasama soch taqib, ayollar liboslarida) ijro etishgan. 20-asr boshida Rajab ali, Jo'raxon, Ergashcha, Nurillo, Isom Shodi, Hamdamxon, Mirzaxon, Abdurahim, Iskandar, Maston kabi mohir raqqoslardan "Buxoro bo'yi", bo'yi", "Talqin", "Ufori bayot", "Soqiynomai bayot", "Guluzorim bayoti", "Savti sarvinoz" va boshqa raqslar mashhur. Buxoro raqsini rivojlantirishda mashhur raqs ustalaridan Kirkigi (M.Xaimova), Chervonxonim, I.Oqilovlarning xizmatlari katta.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. O'zbek xalq raqslarining yoshlar tarbiyasida qanday o'rni bor?
2. O'zbek xalq raqslarining hududiy o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?
3. O'zbek xalq raqslarining sahnaviy xususiyatlarida qanday farqlar kuzatiladi?

**Topshiriqlar:**

1. O'zbek xalq raqs maktablarining taraqqiyot bosqichlari haqida ma'lumot bering.
2. O'zbek xalq raqslaridan ommaviy tadbirlarda foydalanish usullarini tavsiflang.



# III-BOB
# O'ZBEK XALQINING AN'ANAVIY URF ODAT VA MAROSIMLARI

## XALQ URF-ODAT VA BAYRAMLARI TASNIFI

**Reja:**

***1. Xalq madaniyati tasnfi.***
***2. An'ana va urf-odatlarning tavsifi.***
***3. Xalq marosimlari tasnifi.***
***4. Nomoddiy madaniy meros va xalq urf-odat, marosimlari uzvlyligi.***

Insoniyatning bir necha ming yillik tarixi davomida turli-tuman madaniyatlar mavjud bo'lgan. Har bir madaniyat, shubhasiz, ma'lum bir etnos yoki etnik jamoa ta'sirida shakllanadi. Xilma-xil etnomadaniyatlar ichida olimlar an'anaviy (arxaik) madaniyatni alohida ajratib ko'rsatishadi. An'anaviy madaniyat deyilganda biz turli etnos namoyandalari, ya'ni bir necha avlod vakillari tomonidan bir necha asrlar mobaynida yig'ilgan va bir avlodning o'rgatilishi natijasida unutilib ketmagan urf-odatlarni tushunamiz.

Har bir milliy-etnik madaniyat o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi va o'ziga xoslik turli-tuman narsalarda namoyon bo'lishi mumkin. Har bir etnik madaniyat o'ziga xos mantiqqa ega va aynan mazkur mantiq asosida mazkur madaniyatga xos asosiy o'zgarmas va ikkinchi darajali o'zgaruvchan xususiyatlarni izohlash mumkin.

An'anaviy milliy madaniyatni yaxlit va ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganish, uning tuzilishi, asosiy ko'rinishlari, shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois biz etnomadaniyat evolyusiyasi va umumqabul qilingan madaniyat tasnifidan kelib chiqib, xalq madaniyatining asosiy sohalariga to'xtalib o'tamiz. Holbuki, etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bo'lgan an'anaviy xalq madaniyat tizimining tarkibiy qismida: xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandachiligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush madaniyati kabi ko'plab sohalarni ajratsa bo'ladi.

An'anaviy xalq madaniyatining barcha sohalarida avlodlarning dunyoqarashlari, falsafiy tushunchalari o'z aksini topganligi uchun

etnomadaniyat tarkibida xalq donishmandligiga alohida e'tibor berish lozim. Buning sababi shundaki, xalqning g'oya, fikr, bilim, dunyoqarashini ifoda etgan etnomadaniyat ko'rinishini xalq falsafiy donishmandligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq madaniyatining falsafiy-g'oyaviy mazmuni qanchalik chuqur bo'lsa, uning shakli ham shuncha baquvvat, ijtimoiy ahamiyati kuchli, umri ham boqiy bo'lar ekan.

Xalq madaniyati deyilganda keng ma'noda etnosning hayotidagi barcha qadriyatlar tushunilsa ham, uning tub ma'nodagi negizini xalq an'analari hosil qiladi.

**"An'ana"** – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta'sir o'tkazadigan madaniy xodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy qoida tarzida kishilar ongiga singgan (umum yoki ma'lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi[9].

Urf-odat tushunchasi esa o'ta keng bo'lib, u o'z ichiga xalq hayotining barcha tomonini - oddiy kundalik udum, rasm-rusm, irim-sirimlar, o'zaro-muomala tarzi hamda barcha marosimlarni butunicha qamrab oladi. Marosim tushunchasi esa nisbatan tor tushuncha bo'lib, u shu xalq hayotining ma'lum sohalarida omma tomonidan qabul qilingan, ko'pincha ramziy xarakterga ega bo'lgan va ma'lum kishilar majmui tomonidan maxsus uyushtiriladigan namoyishlardan iborat[10]. Shuningdek **marosim** – inson hayotining moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi.[11] Boshqacha qilib aytganda, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbirdir.

***«Urf-odat»*** deyilganda kishilarning turmushiga singgib ketgan, ma'lum muddat takrorlanib turuvchi hatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko'nikmasidir. Demak ushbu marosim va urf-odatga berilgan qisqacha qaydlardan ham ko'rinib turibdiki, urf-odat tushunchasi xalq hayotining barcha sohasini o'z

---

[9] Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari.– T.,Sharq, – 2002. – B.8.
[10] Sarimsoqov B. Marosim folklori. - T.,Fan, 1986. – B.12.
[11] Sarimsoqov B. Marosim folklori // O'zbek folklori, ocherklar T.,1988.– 152.



ichiga qamrab olsa, marosim tushunchasi hayotning muayyan guruhlarigagina aloqador, xolos. Urf-odat bir vaqtning o'zida bir shaxs yoki bo'lmasa ko'pchilik tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qoida bo'lsa, marosim belgilangan shaxslar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan hatti-harakatdir[12]. Jumladan, kichikning kattaga birinchi salom berishi yoki ko'pchilikka kamchilikni salom berishi, yoinki mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida yaqinlari, keksa qariyalar, qo'ni qo'shnilar holidan xabar olish kabi ko'rinishlar o'zbeklarga xos milliy urf-odatlardir.

Milliy urf-odatlar bo'lsa motam marosimida hasratli motam, sochlarini to'zg'itib qayg'uli ahvolda motam aytimlarini aytib yig'lash motam marosimida ishtirok etayotgan ayrim kishilarnigina vazifasiga kiradi.

Urf-odatlar bilan marosim orasidagi o'zaro farqni ular ichidagi ramziy harakatlarni qo'llanilishi darajasi orqali ham anglab olish mumkin. Jumladan, urf-odat o'z ichiga ramziy va ramziy bo'lmagan harakatlarni to'la qamrab olsa, marosim faqat ramziy xarakterdagi hatti-harakatlarnigina qamrab oladi. Qolaversa urf-odat muayyan xalq uchun asosan bir xil – o'zgarmas qoida, norma bo'lsa, marosim bir xil xalq doirasida keskin lokal farqlanishlarga ham ega bo'ladi. Shuningdek har qanday marosim o'zi mansub bo'lgan xalq urf-odatlarining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu bois marosimdan urf-odat elementlarini qidirib topish mumkin, lekin urf-odatdan marosimni qidirib bo'lmaydi. Bu o'rinda biroz boshqacharoq tarzda folklorshunos B.Sarimsoqov ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, har qanday marosim urf-odat hisoblanadi, ammo har qanday urf-odat marosim bo'la olmaydi.

Insonning hayot yo'li bilan bog'liq holda bajariladigan marosimlarning aksariyatini oilaviy urf-odat va marosimlar tashkil qiladi. Oilaviy-maishiy marosimlarni esa oilaning u yoki bu a'zosi hayotidagi muhim voqealarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quyidagilarga ajratib ko'rsatish mumkin:

- oilada farzand tug'ilishi va uning tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va marosimlar;
- nikoh-to'y marosimlari;
- oila a'zosini so'nggi yo'lga kuzatish, ya'ni dafn etish va ta'ziya bilan bog'liq urf-odat va marosimlar.

---

[12] Sarimsoqov B. Marosim folklori. – 13.

Marosimlar tarkibidagi ikkinchi katta turkum marosimlarga yilning turli fasllari bilan bog'liq mavsumiy marosimlar, ya'ni - qishki, bahorgi, yozgi va kuzgi marosimlar kiradi. O'z navbatida mazkur turkum marosimlarni quyidagicha ichki turkumlarga bo'lib tasnif etish mumkin:

1. Qishgi marosimlar. Bu turkum marosimlarga yas-yasun, gap-gashtak, birinchi qor yoqqanda o'tkazildagan «qor yog'di» kabi marosimlar kiradi.

2. Bahorgi marosimlar. Bunga dastlabki «shox moylar»- dalaga qo'sh chiqarish marosimi, dastlabki urug'ni erga tikish marosimi, Navro'z, sumalak sayli, «sust xotin», loy tutish, hasharlar kabi marosimlar kiradi.

3. Yozgi marosimlarga «Choy momo», qovun sayli, uzum sayli kabi marosimlar kiradi.

4. Kuzgi marosimlar. Bu turkum marosimlarga «Oblo barakas», shamol chaqirish va hosil bayrami marosimlari kiradi.

- Diniy marosimlarga hayitlar, mavlud, bibimushkulkushot, bibiseshanba, bibichorshanba, zikr kabi marosimlar kiradi.

Ziyoratgohlarda o'tkaziladigan marosimlar.

Urf-odat va marosimlar maishiy turmush va oila hayoti bilan bog'langan ijtimoiy hodisadir. Urf-odat va marosimlar jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridanoq shakllanib, rivojlanib kelgan. Kishilar o'z hayotlari davomida ko'plab urf-odat va marosimlarda ishtirok etishga tortiladilar, bevosita uning qatnashchisiga aylanadilar.

Har qanday urf-odat va marosimlar muayyan etnosning boshqa etnoslardan farqlanib turishini ta'minlovchi muhim etnografik belgilardan biridir. Ayni vaqtda ushbu urf-odat va marosimlarda inoetnik jihatlar ham aks etib turadi. Negaki, har bir etnosga xos madaniyat mazkur etnosning boshqa etnoslar bilan uzoq davom etgan etnogenetik va tarixiy-madaniy aloqalari natijasining mahsulidir. Bunday jarayon ma'naviy madaniyatda ham, jumladan, urf-odat va marosimlarda ham namoyon bo'ladi.

XXI asr boshlarida madaniyatlar rang-barangligi va turli etnoslarga xos etnomilliy xususiyatlarni saqlab qolish dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. SHubhasiz aynan bu yo'nalishda jahon hamjamiyati, xususan, xalqaro tashkilotlar tomonidan qator amaliy ishlar bajarilmoqda. Xususan, YUNESKO ning 2003 yildagi 32 yalpi sessiyasida "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiya" qabul qilindi.



SHubhasiz, bu borada O'zbekistonda ham ham diqqatga sazavor ishlar amalga oshirildi. Chunonchi istiqlol yillari o'zbek xalqining azaliy milliy qadriyatlari va boy milliy merosini keng miqyosida targ'ib va tashviq qilish, unitilgan an'ana va marosimlar hamda milliy qadriyatlarni qayta tiklash hamda kelgusi avlodlarga etkazish borasida etnolog, san'atshunos, arxeolog, folklorshunos mutaxasislar ishtirokida qator xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar o'tkazildi. Qolaversa, aynan so'nggi yillarda o'zbek xalqining Navro'z. Mehrjon, Hosil bayrami, Iydi qurbon, Iydi ramazon kabi ko'p ming yillik tarixga ega bayramlari qaytadan tiklandi va ilmiy asosda tadqiq qilindi.

Istiqlol yillarida YUNESKO tomonidan Boysun xududini va keyinchalik o'zbek musiqa san'anatining noyob durdonalari bo'lgan «Shashmaqom», «Katta ashula» hamda «Navro'z» bayramini Umumjahon nomoddiy yodgorliklarining durdonasi deb e'tirof etilishini misol tarzda keltirish mumkin.

Umuman olganda, xalq an'anaviy nomoddiy merosini o'rganish borasida juda ko'plab amaliy ishlar bajarilganligiga qaramay hali hanuz qilinishi lozim bo'lgan qator vazifalar mavjud. Chunonchi kelgusida o'zbek xalqining nomodddiy yodgorliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- O'zbek xalqining an'anaviy taqvimiy marosimlaridan - *"qor yog'di" marosimi, bahorgi - gul sayllari, Guli armug'on, boychechak sayli, Navro'z, sumalak sayli, "sust xotin* marosimi , *qovun sayli, uzum sayli, hosil bayrami, Mehrjon* kabi sayllar;
- oilaviy marosimlardan – *beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi* va bu tantanalar bilan bog'liq *«sovchilik», «non sindirdi», «fotiha to'yi», «kelin salom»* kabi urf-odatlar hamda bu turkumga kiruvchi folklor qo'shiqlari;
- jamoaviy an'analar, jumladan, *o'zbek mahallasi, hashar, milliy to'ylar(sunnat, to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi v.h), gap-gashtaklar;*
- Milliy o'yin va tomoshalardan – *uloq, kurash, chillak, varrak uchirish;*
- an'anaviy kiyimlardan– erkaklar kiyimlaridan *do'ppi, to'n, belbog', yaktak, chopon, joma, kamzul, jelak, chakmon, choydami,* ayollar kiyimlaridan- *mursak, ko'ylak, chopon, peshmat, kamzul, nimcha ro'mol,, yo'l-yo'l, sidirg'a va gulli jiyaklar, tillaqosh, sinsila, sirg'alar va* ular bilan bog'liq an'analar;
- O'zbekistonning ayrim hududlarga xos millliy madaniyat ko'rinishlari, xususan, Marg'ilon atlasi va do'ppisi va askiyasi, Rishton

sopol buyumlari, Chust pichog‘i va do‘ppisi, Shahrisabz do‘ppi... kashtasi, Urgut kashtasi, Shaxrixon pichog‘i, Boysun do‘ppi... kashtasi, Xiva gilamlari, Namanganda o‘tkaziladigan an'anaviy ... bayramlari;

• an'anaviy turar joylardan - *o‘tov, o‘zbekona milliy turar joy...* va uning ayrim jihozlari, milliy taomlardan – *o‘zbekcha tandir non..., palov, sumalak, halim, tandir kabob, norin* va maxsus marosim taom... bilan bog‘liq urf-odatlarni misollar tarzda keltirib o‘tish mumkin.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. An'anaviy xalq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Xalq madaniyati tizimida urf-odat marosimlar qanday o‘rin tutadi?
3. Marosimning ta'riflab bering va va o‘zbek marosimlarini tasnif... haqida nimalarni bilasiz?
4. O‘zbek xalq bayramlari haqida so‘zlab bering?

**Topshiriqlar:**

1. O‘zbek marosimlarini xalq an'analaridan farqli jihatlari haqida ma'lumot bering.
2. Jahon nomoddiy madaniyatiga o‘zbek marosimlarini kiritish bo‘yicha amaliy takliflar bildirish mumkin.

## O‘ZBEK XALQ AN'ANAVIY MAROSIMLARNI TARIXIY ASOSLARINI O‘RGANISHDA “AVESTO”NING AHAMIYATI VA O‘RNI

**Reja:**

1. ***“Avesto” zardushtiylik dinining muqaddas kitobi***
2. ***“Avesto”da urf-odat va marosimlar tasnifi.***
3. ***“Avesto”dan meros marosimlar***
4. ***“Avesto va ”o‘zbek xalqi an'anaviy marosimlari.***

Tarixiy manbalar va adabiyotlardan ma'lumki, zardushtiylik dini asosiy qonun-qoidalari, axloqiy g‘oyasi, falsafasi, urf-odatlari va an'analari ushbu dinning muqaddas kitobi – “Avesto”da bayon etilgan.

“Avesto” nafaqat ko‘hna Sharq dini, tarixi va ma'naviyati ilk yozma merosi sifatida qadrli, balki u buyuk umuminsoniy qadriyat ham



...adi. Unda mazdoparastlik dinining asosiy qoidalari, farz va ...lari, Yazdoni pokning yakkayu yagona yaratuvchilik qudrati zikr ...ilgan. “Avesto”da o‘sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ...lar, ilk davlatchilik an'analari, turli ijtimoiy tabaqalarning ...da tutgan o‘rni, dunyo va odamning nokomilligi, oilaviy turmush ... va u bilan bog‘liq urf-odatlar, o‘sha davr mafkurasiga oid qimmatli ...otlar mavjud.

“Avesto”ning ko‘p o‘rinlarida oila, oila a'zolari va oila ...ning vazifasi va majburiyatlari, oila–nikoh munosabatlari turli ...da, har xil munosabatlar bilan maxsus bayon etilgan.

Avesto Yasht kitobining X bobida uy(oila) – nmana, urug‘–...qabila – zantuma, mamlakat – daxyuma, ruhoniy (bosh siymo) – ...shtrotesha deyilgan. Uy (oila) boshlig‘i – nmanopati, vispati – ... boshlig‘i, daxyupati – yurt boshi. Nof deb qarindosh-urug‘lar ...masiga aytilgan. Shuningdek, xotin-qizlar haq-huquqini e'zozlash, ... daxlsizligi va mustahkamligiga erishish, ota-onaning farzand ...i, farzandning ota-ona oldidagi burchi, farzandlarni oila qurishga tayyorlash va oilaviy-maishiy marosimlariga oid ko‘plab fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Zardushtiylar bir necha asrlar davomida ruhoniylar kuzatuvi ...da o‘zlarining urf-odat va marosimlarini shakllantirganlar. Zardushtiylarda yil fasllari bilan bog‘liq bayramlar, Navro‘z, oylar bayrami, ajdodlar e'tiqodi, turli duolar aytish, poklanish marosimlari, ...larni zardushtiylikka qabul qilish (sidrapo‘shlik oq libos kiyib, belbog‘ bog‘lash) va boshqa tantanalar muhim rol o‘ynagan. Bundan tashqari zardushtiylarda nikoh marosimi, bola tug‘ilishi va dafn bilan bog‘liq qator marosimlar ham mavjud bo‘lib, bularda asosan yaqin qarindoshlar, shahar va qishloqning hurmatli kishilari bilan birga ruhoniy ham ishtirok etgan. Zardushtiylik marosimlari tarkibiga kundalik ibodat ham kirgan.

Zardushtiylar jamoasi orasida nikoh bir umrga muhrlangan, bir erkakka ikki nikoh yoki vaqtincha nikoh mumkin bo‘lmagan. Eri-xotinning bir-biriga xiyonati qattiq qoralangan, begona erkak bilan juftlashgan ayol badnom etilgan, jazolangan va nikohdagi er uchun “harom” hisoblangan.

Asrlar davomida shakllangan zardushtiylik oila, turmush an'analari keyinchalik islom davrida ham oilaviy marosimlarimizda o‘z ko‘rinishlarini yo‘qotmagan va hattoki, hozirda ham islomiy an'analar tarkibida sinkretik tarzda saqlanib qolgan. O‘zbeklar oila, turmush

marosim va rasm-rusumlarining ko'plari mazmun-mohiyatiga ko'ra zardushtiylik dunyoqarashi bilan vobastadir.

"Avesto"da oila butunligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotin majburiyatlari, nikohni bekor qilish sabab va shartlari batafsil bayon etilgan. Avestoshunos olim H. Homidovning takidlashicha, "Avesto"ning alohida Yashtlarida Axura Mazda yoki Zardushtiyning kelin-kuyovlarga da'vati yoki murojaatlari keltirilgan. Zardushtiylar taomiliga ko'ra uylanmoqchi, oila qurmoqchi bo'lgan har bir kishiga yo'l ko'rsatmoq va moddiy yordam bermoq ham mazhablarning vazifasidir.

O'zbekona udumlarga ko'ra, nikoh marosimlari boshlanishidan to yakuniga qadar oila, qarindosh-urug'lar, mahalla, qishloq oqsoqollari maslahati va yo'l-yo'rig'i bilan bajarilishi an'anaga aylangan. Bu borada har bir muhim to'y-tantanalar oldidan o'tkaziladigan "maslahat oshi" tadbirlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Zardushtiylar tasavvuricha o'lim – bu yomonlik ifodasi, kasallik va o'limni keltiruvchi serjahl xudo Axrimandir. Qazo qilgan odamning tanasi harom hisoblangan. Shu bois zardushtiylar o'zlarining dunyodan o'tgan yaqinlarini erga ko'mishmagan, olovda ham kuydirishmagan, suvga ham tashlashmagan. Balki, zardushtiylik marosimlariga muvofiq o'limdan so'ng uch kechayu-kunduz o'likning ruhi narigi dunyoga etib borgunicha, maxsus xonaga qo'yilib, pok narsalardan ma'lum masofa uzoqlikda saqlangan. Bunda olovdan o'ttiz qadam, suvdan o'ttiz qadam uzoqlashtirilgan va hatto yaqin qarindoshlaridan ham chetlatilgan. Shu bois marhumlarga o'lik xizmatchilari – "nasasalar"gina (nasu – bu o'lim ifodasi, o'limni Shimoldan uchib kelgan pashsha olib keladi, deb faraz qilingan) shug'ullanganlar. Umuman olganda, zardushtiylarning o'limdan keyingi ikkinchi hayot to'g'risidagi konseptual qarashlari garchi Gohlar (gatlar)da uchramasada "Vendidot" qismida juda yaxshi bayon etilgan.

"Vendidot"da bayon qilinishicha, marhumlarga tegib, ketish natijasida makruh bo'lgan kiyimlarni quyosh nurida poklash lozim bo'lgan. Namangan viloyatining Kosonsoy, Chust, Pop, Yangiqo'rg'on tumanlarida dafn marosimi vaqtida marhumni qabristonga olib borishda ishlatilgan ko'rpa, yostiq, ko'rpacha, palak kabi narsalar qabristondan qaytib kelinganidan so'ng bir kecha-kunduz "yulduz ko'rsin" deb tashqariga osib qo'yilgan.

Zardushtiylar dafn marosimlarida mo'badlar va marhumning qarindoshlari uch kecha-kunduz davomida maxsus duolarni o'qib



turganlar. Marosimlar davomida suv ichish va ovqatlanish ma'n etilgan. To'rtinchi kun boshlanishi bilan, o'likning ruhi narigi dunyoga uchib ketganidan so'ng murda shahar, qishloq qo'rg'onlaridan chetdagi tepalik yoki tog'u toshlarga chiqarib, ochiq holda qoldirilgan. Murda suyaklari qushlar, yirtqich hayvonlar tomonidan etidan tozalangach, "nasasalar" zardushtiylarning ochiq qabristonlariga kelib, suyaklarni maxsus xumchalar yoki sopoldan yasalgan qutisimon idishlarga yig'ib, "naus" deb ataluvchi maxsus maqbarada saqlashadi. Yilda ikki marotaba bahorgi Navro'z va kuzgi Mehrjon bayramlarida ota-bobolari arvohlariga atab is chiqarib, sadaqa va qurbonliklar qilishgan. Marhum chiqqan uyda uch kecha-kunduz go'shtli taom pishirish taqiqlanadi.

"Avesto"da doimiy badantarbiya bilan shug'ullanish, kunda yuz qo'lni bir necha marta yuvish, qo'lni yuvmasdan turib tananing boshqa joyini ushlamaslik, sochni toza tutib tirnoqlarni tozalab turish maslahat berilgan. Chunonchi, "Vendidot"ning 17-bobida shaytonning najosati to'planadigan va kesib tashlanadigan tirnoq va sochni nima qilish kerakligi to'g'risida yo'l-yo'riq ko'rsatilgan.

Soch va tirnoqlarning afsungarlik xossalari haqidagi zardushtiylik qarashlari izlari xalqimiz hayotida bugungi kungacha saqlanib qolgan. Farg'onada tirnoqlarni olgandan so'ng ularni chekka yerga tashlash lozim bo'lgan. Agar chetroq joyga tashlanmasa, u qiyomat-qoyimda o'sha odamning oyog'i ostidan teshib chiqar emish. Shu boisdan ham odamlar tirnoqlarini olganda qog'ozga kafanga o'xshatib o'rab: *"Qora yer senga topshirdim. Shamol sen guvoh bo'l"*, deb chetroq yerga ko'mib qo'yganlar.

Zardushtiylarning ko'plab marosimlari izlari xalqimiz turmush tarzida bugungi kungacha saqlanib qolgan. Jumladan, dehqonlar hayoti, mehnati va hosilni yig'ish bilan bog'liq o'tkaziladigan bayramlarning ko'plari bevosita zardushtiylik an'analari bilan bog'liqdir.

Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasida ham azaldan yerga ilk bor urug' sepish jarayoni o'ziga xos ramziy ritual tusini olgan bo'lib, unda keksa ziroatkorlardan biri Bobo Dehqon qiyofasiga kirib qo'sh haydashni boshlab bergan. Xalqona tasavvurlarga ko'ra, Bobo Dehqon halol mehnat bilan kun ko'ruvchi, o'zgalar haqidan hazar qiluvchi, ularning mehnat unumiga unum qo'shuvchi pir bo'lib, u ayni sahar paytida dehqonlar ko'targan xirmonlarda paydo bo'ladi. Dehqonlar o'z faoliyatlariga daxldor marosimlarni boshlashdan avval "Bobo dehkonning o'zi tarbiyat qilsin", deb duoi fotiha qiladilar. Umuman olganda, Bobo dehqon kulti O'rta Osiyoning aksariyat mahalliy aholisi

orasida ma'lum va mashhur bo'lib, o'zbeklarda *Bobo dehqon, Dehqon buvo,* tojiklarda *Boboi dehqon, Xo'ja dehqon, Xo'ja Abdulla dehqon,* qoraqalpoqlarda *Diyxan-bobo,* turkmanlarda *Baba-dayxan* nomlari bilan ifodalangan.

"Avesto"da Mitra goh tabiatning umumlashgan ko'rinishida, ba'zan ahdlashuv ilohi, ayrim hollarda kurrai zamindagi podshohlar homiysi sifatida namoyon bo'ladi. Mitra – Sharq xalqlari ilohiy ma'bud, miloddan ikki ming yillar avval ham ajdodlarmizning asosiy e'tiqod ob'ektlaridan biri bo'lgan. U odatda sahar chog'ida butun olamning ilohiy hukmdori tarzida osmon va er o'rtasida bo'layotgan voqealarni ko'zdan kechirish maqsadida qo'lida oltin gurzisi bilan barcha hududlarni aylanib chiqqan. Mitraning o'ng va so'l taraflarida ilohiy hakamlar Sraosha va Rashnu, oldida bo'lsa chopqir to'ng'iz qiyofasida Veratragna hamda yon atrofida esa aylana holatda o'rab olgan o'simliklar va suv, taqvodor ruhlar – fravashilar kuzatib borganlar. Bu paytda Mitra samoviy taomlardan oziqlanuvchi to'rtta katta ayg'irlar qo'shilgan quyosh aravasida bo'lgan. Ayg'irlarning oldingi tuyoqlari oltin, orqasidagiga esa kumush taqalar qoqilgan bo'lib, aravaning barcha g'ildiraklari mo''jizaviy ravishda aylangan.

Bobo Dehqon kulti bilan Mitraning o'zaro bog'liqligi va aynan Bobo dehqon obrazida Mitraning transformatsiyalashgan ko'rinishini kuzatish mumkin. Bu o'xshashlikni avvalo Mitra va Bobodehqonning quyosh chiqqunga qadar paydo bo'lishi va ular har ikkisining ham bir xil vazifani – qut-baraka va homiylik funksiyalarini ado etishida ko'rish mumkin. Qolaversa, ularning har ikkisi ham oq kiyim kiygan keksa nuroniy qiyofasida tasvirlanadi. Bundan tashqari Mitra qo'lida oltin gurzi ushlagan bo'lsa, Bobo Dehqon ko'pincha hassa tayangan nuroniy qariya sifatida tasavvur qilingan. Choshning belini bog'lab uning ustiga baraka kesagini qo'yish odatida yig'ilgan hosilni magik himoya qilish emas, balki uni Bobo Dehqon tomonidan muhrlanishini ramziy ifodalash maqsadi yotgan. Qolaversa, yuqorida qayd etilganidek, Mitra ham ahd-paymon, ham o'zaro kelishuv-bitim ilohi bo'lgan. Bobo Dehqon va Mitra kultlaridagi o'zaro o'xshashliklar Mitra kultining islom ta'sirida o'zgarib Bobo Dehqon kultiga aylanganligidan dalolat beradi.

Zardushtiylikning biror-bir marosimi shu e'tiqodning ramzi – olovsiz o'tgan emas. Olov turli ko'rinishlarda: osmon olovi, daraxtga yashiringan olov, otashgohlarda yonib turgan olov, ilohiy olov, chaqmoq olovi va inson tanasiga issiqlik va hayot bag'ishlovchi olov kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. YOnib turgan gulxan abadiy



hisoblanib, ma'lum bir iloh yoki ota-bobolar ruhiga bag'ishlangan. Olov o'chirilmasdan saqlangan va begonalar hamda g'ayridinlar nazar-nafasidan asralgan. O'choq yoxud otashgohning kuli ham muqaddas hisoblanib, aziz joylarga ko'mib saqlangan. Bundan tashqari, har bir har joyda shu xonadon chirog'i, uning qo'ri va alangasini doimo yoqib saqlaydigan oilaviy otashgohlar ham bo'lgan. Ular ko'pincha maxsus qurilgan va pokiza tutilgan xonalarda tashkil etilib, olov maxsus yasalgan o'choq yoki kursi shaklidagi postament (asos, tagkursi) ustida yoqib saqlangan.

Olovga bo'lgan hurmat va e'tibor odatlarining boshqa ba'zi ko'rinishlari O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklar turmush tarzida hozirgi kungacha saqlanib qolgan. O'zbek qipchoqlarida xonadon o'chog'i hech qachon o'chirilmas ekan. Xonadon o'chog'ida olovni kecha-kunduz o'chirmaslik ota-bobolardan qolgan odat bo'lib, ularning tasavvuricha, olovsiz o'choq misoli egasiz, kimsasiz uydir. O'chog'ida doimo olov yongan xonadondagina doimo baraka bo'lgan. O'choqda yonayotgan olovni bulg'amaslik uchun unga iflos narsalarni, hatto iflos o'tinni yoqish ham taqiqlangan. Iflos o'tin yoqilishidan oldin odatda, quyoshda quritilgan yoki suv bilan yuvilgan.

Olov yongan o'choqqa qalampir, non, ovqat qoldiqlar tashlash, har xil axlat yoqish yoki o'choqdan chiqqan kulni axlatxonalarga tashlash, harom chiqindilarni o'choq olovida kuydirish gunoh hisoblangan. Vodiyda kul bilan axlatni bir-biriga qo'shish qat'iy taqiqlangan. Bunga sabab, agar axlat bilan kul bir joyga tashlansa ushbu xonadonning to'y va aza marosimlari bir-biriga qo'shilib ketadi degan tasavvur bo'lgan. Motam marosimlarida esa olovni bulg'amaslik uchun uch kungacha xonadon o'chog'ida olov yoqib ovqat tayyorlanmagan. Bundan tashqari, nikoh to'yi marosimlarida kelin-kuyovlarni insu jinlardan poklash maqsadida olov atrofida aylantirish va safarga ketayotganda xonadon olovidan boshqalarga bermaslik kabi odatlar ham zardushtiylik marosimlari bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Zardushtiylarning eng katta tantanalaridan biri "Sada" bayramidir. Firdavsiyning "Shohnoma" kitobida yozilishicha, "Sada" Eron quyosh taqvimining o'n birinchi oyi – baxmaning uchinchi kunida bayram qilingan. Bunda odamlar olov yoqib, qish zahrini dafn etish uchun tutatqichlar tutatadilar, hatto shu kecha olov yoqib alangalatish, shu olovga yovvoyi hayvonlarni tashlash, alanga ichiga parrandalarni uchirib va (olov) atrofida ichimliklar ichib, o'yin-kulgi qilganlar. Xullas, zardushtiylar bayram va marosimlaridan biri "Sada" paytida gulxan

yoqish va olov atrofida o'yin-kulgi qilish, yeb-ichish bilan birgalikda kelayotgan barcha ziyon, balo-qazolarni bartaraf qilish maqsadida sopol idishlarni yerga urib sindirish asosiy odatlardan biri bo'lgan.

Zardushtiylik ta'limotida olovdan tashqari suvga nisbatan ham alohida tartib-qoidalar ishlab chiqilgan. Zardushtiylarda suv muqaddas unsur sanalib, avvalo uning tozaligi borasida qayg'urilgan. Buning uchun suv manbalari – daryolar, ko'llar yoki quduqlar har qanday nopokliklardan qat'iy himoya qilingan. Agar marosimiy nopok bo'lgan qandaydir narsani yuvish lozim bo'lsa, suv maxsus joyga to'plangan, lekin shunda ham nopok narsa to'g'ridan-to'g'ri suv bilan yuvilmagan. Bunda nopok narsa avval sigir siydigi bilan yuvilib, quyoshda yoki qumda quritilgan va so'ngra yakuniy poklash maqsadida suv bilan yuvilgan. Shuningdek, yomg'ir yoqqan paytda tashqariga chiqish taqiqlangan, chunki bu bilan suvni va yerni "makruh" qilib qo'yish mumkin deb hisoblangan.

Suvni muqaddas sanab uni e'zozlashga oid qarashlar islom dinida ham mavjud. Jumladan, islomda suvni tejab ishlatish, uni ortiqcha isrof qilmaslikka da'vat etiladi. Suvni isrof qilish va bulg'ash og'ir gunoh hisoblanadi. "Avesto"da bu borada "Pokiza suv va yonib turgan olov oldida gustohlik qilgan zotning do'zaxda topguvchi jazosi bu dunyoning jamiki dardu ozorlaridan mudhishdir", – deyiladi.

O'zbeklarda ham suvni bemavrid isrof qilish, uni bulg'ash, suvga tupurish va nopok iflos narsalarni suvga tashlash qat'iy taqiqlangan bo'lib, bunday ishlarni qilish og'ir gunoh hisoblanadi. Suv keladigan ariqlar, kanallar va zovurlar har yili erta bahorda hashar yo'li bilan tozalanadi. Yangi kanallar, ariqlar qazish esa eng savobli ishlardan biri bo'lgan.

Odamlarni daryolar musaffoligi va tuproq unumdorligi haqida g'amxo'rlik qilishga da'vat etgan zardushtiylik dini aynan bizning zaminimizda vujudga kelganligi va o'zbek xalqi ma'naviy dunyoqarashi shakllanishida asosiy o'rin tutganligini ko'rish mumkin. Bu esa o'z navbatida o'zbek xalqini mintaqaga xos qadimiy sivilizatsiya va qomusiy-diniy, falsafiy asar "Avesto"ga vorisligini yana bir bor tasdiqlaydi. Aynan o'zbek xalqi an'anaviy turmush tarzi bilan bog'liq milliy etnik xususiyatlarni tahlil qilish o'zbeklar ma'naviy ruhiy dunyoqarashi tizimiga, mafkurasiga "Avesto"ning ta'siri beqiyos ekanligi va o'zbek fenomeni tushunchasi shakllanishida munosib o'rin egallashi dalolat bermoqda.



Zardushtiylik o'tmish ajdodlarimiz hayotidagi asosiy diniy e'tiqodlardan biri bo'lishi bilan birga islom dini kirib kelgandan keyin ham o'zbeklar turmush tarzida o'z izlarini saqlab qolganligi va hattoki xalqimizning bugungi kundagi oila turmush marosimlarida ham sinkretik tarzda davom etib kelayotganligi tadqiqot davomida o'z isbotini topdi.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Zardushtiylik dini haqida yozilgan qanday manba va adabiyotlarni bilasiz?
2. "Avesto"da zardushtiylarning oilaviy marosimlari haqida qanday tavsiflangan?
3. O'zbek xalqi marosimlarini o'rganishda "Avesto"ning o'rni haqida ma'lumot bering?
4. Nomoddiy madaniyatning tarixiy asoslarini o'rganishda "Avesto"ning ahamiyati haqida ma'lumot bering?

**Topshiriqlar:**

1. "Avesto"da zikr qilingan marosimlarni tasniflab bering.
2. "Avesto" va nomoddiy madaniyat mavzusida krossvord tuzing.

## FOLKLOR ETNOGRAFIK JAMOLARINING TARIXIY TARAQQIYOTIDA IJRO SAN'ATINING O'RNI

**Reja:**

***1. Folklor etnografik jamoalarining tarixiy jihatlari.***
***2. Mustaqillik davrida marosim va bayramlarining rivojlanishi.***
***3. Milliy qadriyat va an'analarning ijro san'ati bilan bog'liqligi.***
***4. Marosim va an'analarning folklor etnografik jamoalarida aks etishi.***
***5. Folklor san'atining istiqlol yillaridagi taraqqiyoti va o'ziga xos jihatlari.***

Folklor asarlarini jamoa bo'lib ijro etish an'anasi ham uzoq tarixga ega. Uzoq o'tmishda guruh-guruh bo'lib xalq sayillarida, ommaviy bayramlarda turli-tuman tomoshalar ko'rsatgan xalq qiziqchilari, qo'g'irchoqbozlar, dorbozlar, raqqos va xonaidalarning ijodiy uyushmalarini folklor-etnografik ansamblining o'ziga xos namunalari deyish mumkin. Chunki folklor asarlarini ommaviy ravishda ijro

etuvchilarning aksariyati professional bo'lmay, balki havaskor ijrochila bo'lnb ularning repertuari ham sof xalqonadir.

Binobarin, 20-yillarda tuzilgan ijodiy jamoa ishtirokchilarining aksariyati profeseional ijrochi bo'lmagan. Ansha vaqt o'tib, ularning ko'pchiligi o'zbek milliy san'atining etakchi namoyondalari bo'lib etishdi.

O'tgan asrning 20-yillarida Muhiddin Qoriyoqubov Tamarahonimlarning bevosita tashabbusi hamda boshchiligida o'zbek etnografik ansambli va mashhur "Ko'k ko'ylak" ansambli tuzildi. Ijodiy ansambl ananaviy folklorni sahnaga ko'chirgan ilk folklo| etnografik ansambllari hisoblanadi.

30-40 yillarga kelib respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar tufayli folklor-etnografik ansambllarning faoliyati ma'lum darajada susaydi. Bunga sabab, bir tomondan, ansambllarning ish faoliyati davomida iste'dodli ishtirokchilarning ko'plari o'z mahoratlarini oshira borib, professional san'atkor bo'lib etishdilar. Professional san'atning izchil rivojlanishi natijasi o'laroq, etnografik ansambllarga ma'naviy ehtiyoj kamayganday bo'ldi. Boshqa tomondan, bu yillardagi vaziyat shunday murakkab ediki, ajdodlarimizning badiiy tafakkuri va eststik qarashlari bilan bog'liq har qanday an'anaga eskilik tamg'asi bosilib chetga surib qo'yilib, hukmron mafkura tazyiqi ostida qatag'on qilinardi. O'zbek folklorining ajoyib durdoialari bo'lmish "Alpomish", "Go'ro'g'li" singari yirik xalq dostoilarini esa o'tmish an'analarini targ'ib qiluvchi asarlar sifatida baholashga urinishlar bo'ldi. Xalq qo'shiqlaridagi mungli ohanglar, dardchil satrlar, sevgi-muhabbat mavzusidagi xalq qo'shiqlari "farovon zamon" ruhiga mos emas deya taqiqlandi.

Xalq qalbidan otilib chiqqan quyidagi dardchil ijro:

Oh urarman, oh urarman,
Ohlarim tutgay seni.
Ko'z yoshim daryo bo'lib,
Baliqlari yutgay seni

Bu satrlaridan tushkunlik ruhi izlandi. Buning o'rniga "xalqlar otasi" deb ulug'langan "dohiylar" haqida soxta, sun'iy qo'shiq ijrolari kuylandi. "Turg'unlik davri" deb atalmish 60-70 yillarda deyarli barcha sohalarda "mustaqillik", "xalq bayram va marosimlarini asrash" haqida ayyuhannoo solindi-yu, aslida milliy ma'naviyatimiz va san'atimizga mafkuraviy zug'um o'tkazish avjida edi.



Folklor san'ati an'analari xalqning turmush tarzi, hayoti, dunyoqarashi, ruhiy-ma'naviy olami va ichki kechinmalarini yuksak badiiy ifoda ettirgan qadriyatdir. Lekin o'sha davrning sun'iy shiori va mafkuraviy tazyiqlari bunday milliy qadriyatlarning ko'pgina uzvlari poetik tabiatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Oqibatda, o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotining ko'pgina qadimiy janrlari: folklor san'ati e'tiqodiy qarashlari, tasavvurlari, marosim folklori namunalari, xalq an'analari, xalq sayil va bayramlari bilan aloqador marosim qo'shikdari, afsona, rivoyat, naqllar unutilish darajasida edi.

O'zbeknstonning istiqlolga erishishi esa benazir iste'dod sohibi bo'lgan ajdodlarimizning og'zaki badiiy ijodi an'analarini tiklash, folklor asarlarini keng ommalashtirish, ularning tarixiy kelib chiqishi, janr xususiyatlari, badiiyati va ma'naviy hayotimiz takomilida tutgan muhim o'rnini keng ko'lamda o'rganish uchun etarli imkoniyatlarni yaratdi.

Mustaqillik tufayli yuzaga kelgan ijodiy imkoniyat, ruhiy yangilanish jarayoni folklor asarlarini keng targ'ib qilish imkonini berdi. Ayniqsa, marosim folklori, dostonchilik, xalq marosimlari va udumlarini tiklash, shuningdek, xalqning havaskorlik ijodiyotini taraqqiy ettirishga keng yo'l ochildi. Folklor-etiografik jamoalari hozirgi kunda o'z yo'nalishi, tarixiy taraqqiyot jihatlari ijro etilib o'rganilildi. Natijada soha mutaxassislari unutilgan qadriyatlarni tiklashga, nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etishga kirishdilar.

Xalqimizning milliy ai'analarini tiklash, qadriyatlarimizni keng ko'lamida targ'ib etishda samarali ishlar qilindi, ya'ni mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Navro'zi olamni" umumxalq bayramiga aylantirish, uni keng nishonlash borasidagi farmoni xalqimizning asrlar davomidagi zaruriyatlarini amalga oshirdi, bayramga katta hayot baxsh etdi. Tildan-tilga, dildan-dilga o'tib kelgan bebaho xazinadan xalkimiz bahramand bo'ldi.

Hozirgi kunda tarixiy jihatdan shakllanib kelgan folklor-etnografik jamoalari dasturidan zamon ruhiga mos udum, marosimlarda "Navro'z"ni ona-yurtni madh etuvchi qo'shiqlar bamisli daryoday jo'shib kuylanib ijro etilmoqda.

Bu esa chechan ijrochilarning ona-yurtga uning qadriyatlariga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtiromining namunasidir.

Shuni aytish o'rinliki, folklor hamma vaqt va hamma tuzumlarda ham xalq qalbining oynasi bo'lib kelgan. Shunday ekan, xalqiing asrlar mobaynida qalb to'rida saqlab kelgan ijod namunalari, badiiy so'z durdonalari ma'naviyatimizni boyitish uchun suv va havodek zarur.

Binobarin, folklor asarining xalqona mohiyatini inkor etish ma'naviyatdan mahrum bo'lish bilan teng.

Bu jarayonni to'liq tahlil etish, ansambllar repertuarining badiiyati, urf-odat va marosimlarni folklor ijro san`atidagi o`ziga xos xususiyatlarining janr jihatdan rang-barang bo'lishi uchun ijodiy izlanishlar olib borish, borlarini qayta tiklash zarur.

Ularni amaliy va nazariy jihatdan tashkil qilish madaniyatimiz jonkuyarlari uchun maslahat, tavsiyalar beradigan qo'llanmalar bo'lishi zarurligini hayotiing o'zi talab etmoqda.

Dunyo xalqlari ma'naviy madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor xalqimizning badiiy so'z sehri bamisoli ko'ngil chashmasidan qaynab chiqqan inju. Xalq qalbining navolari bo'lmish dilrabo qo'shiqlar, an'ana va marosimlarga aylanib, asrlar davomida ajdodlarimiz qadriyatlari xazinasini yuzaga keltirgan. Badiiy tafakkurning betakror mo`jizalarini o'zida mujassamlashtirgan xalq an'analari, rasm-rusumlari, marosim va odatlar, og'zaki poetik ijodiyot namunalari shu muqaddas zaminda yashab kelgan ota-bobolarimiz, iqtidorli va har narsaga chechan momolarimiz ijodiy salohiyatining mahsuli o'laroq shakllangan azaliy milliy qadriyatdir.

An'analar xalqimizning o'zi kabi umrboqiy, qalbi misol mehridaryo va jonbaxshdir. Birinchi Prezidentimiz aytganlariday bu yurtning har bir go'shasida o'ziga xos marosimlar, oilaviy-maishiy va mehnat bilan bog'liq an'analari, momolarning mehr bulog'idan qaypab chiqqan orombaxsh alla-yu, olqishlar mavjud. Xalq an'ana va marosimlari jo bo'lgan asriy qadriyatlar, ma'naviy ko'zgusiga aylangan qanotli orzular, folklor ijrochilarining ko'p asrlar davomidagi ijodiy faoliyati natijasida poetik jihatdan sayqallanib, barkamollashib kelgan. Kamalak jilosidek dillarga ezgulik baxsh etuvchi qadimiy marosimlar hamda xalq an'analarini chuqur o'rganish, milliy qadriyatlarimiz mohiyatini yanada teranroq anglash va tushunish imkonini beradi.

O'zbekiston xalqlarining tarix sinovidan o'tgan bayram to'y marosimlari kishilarning o'zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarni, chiniakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Bunday an'ana va marosimlarda mamlakatimiz xalqlarining milliy ruhiyati, ma'naviyatining qadimiy ildizlari ham namoyon bo'ladi. Asrlar davomida shakllantirib va rivojlantirib kelingan an'ana va marosimlarda Vatanga sadoqat, kattalarga hurmat, ota-onaga va qariyalarga g`amxo'rlik, mehmondo'stlik, qon-qarindoshlik va o'zaro yordam, oila sharafini va ayollar sha'nini saqlash, hayotdan ko'z yumgan uzoq-yaqin



kishilar xotirasini yodga olish kabi ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan qadriyatlar mujassamlashgan.

Ajdodlarimiz yaratgan va xalqimiz turmush tarziga singib ketgan an'ana, urf-odatlar ham bevosita folklor san'atida o'z ifodasini topgan. Bu san'at ma'naviyat bo'stonining chamanlarida turfa xil jilvalanadi.

Bugungi kunda folklor san'atining serjilo chamanlari gurkirab rivojlanib, xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, ma'naviy dunyosi kundan-kunga boyib bormokda. Milliy ruh, milliy g'ururning tiklanishi bu – rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan tabiiy jarayondir. Milliy folklor san'ati an'analarini yanada rivojlantirib, ularni yosh avlod turmush tarziga singdirib borish shu jarayonning muhim qirrasidir.

Folklor san'ati merosi o'zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi, umrboqiyligi bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi. U millat qalbida ezgu niyat va ulug' maqsadlarga intilish, e'tiqod va orzu-armonlarni uyg'otadi. Shuning uchun folklor san'ati avlodning barcha orzu-armonlarini, iymonu-e'tiqodini, pokiza ruhi va xotirasini, jamiyatning ezgu niyatlari aks etgan qadimiy an'analarni o'zida jamuljam etib, kishilar hayotiga qat'iy singib ketganligi bilan ardoqlidir.

O'zbekistonimiz istiqlol quyoshidan bahramand bo'lib mustaqillik pashidasini surmoqda va milliy istiqlol mafkurasini yaratmokda. Milliy istiqlol mafkurasi esa xalqimizning yillar davomida yaratgan, asrab-avaylab kelayotgan tafakkur xazinasiga, boy qadimiy badiiy merosiga, umumbashariy qadriyatlari, qadimiy an'ana va marosimlarga, milliy madaniyatimiz yutukdariga suyanadi. Zero milliy axloq va milliy ruhni o'zida asrlar osha ortmoqlab kelayotgap folklor san'ati namunalari benihoya ardoqlidir. u bugungi kunda o'z ortidan millionlab yoshlarni ergashtirayotgan, har tomonlama ibrat maktabi bo'lib kelmoqda. Folklor-etnografik ansambllari omma mehrini qozonib, yoshlar turmush tarziga asta-sekin singib bormokda. Ularning dasturida mujassamlangan xalq ogzaki ijodi namunalari folklorimizning sahnaviy ko'rinishi sifatida namoyoi bo'lmokda.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlariga asoslangan urf-odatlarimizning mohiyatini yoshlarga o'rgatishda, ular qalbida mehr va muruvvat chechaklarini undirib-o'stirishda folklor-etnografik ansambllari dasturidan foydalanish ijobiy samara beradi.

Folklor san'ati xalqning milliy an'analarini, og'zaki ijodniig noyob namunalarini saqlashda, unga sayqal berib xalqning o'ziga qaytarishda

tarixiy folkloriy jarayonni ma'naviy tarbiya maxsuli sifatida o'[illegible] o'z hissasini qo'shmovda.

O'zbek folklor san'atini yoshlar shuuriga singdirishda faol [illegible] qilayotgan ansambllar dasturini o'rganish, uni takomillashtirish [illegible] vazifalardan biridir. Ajdodlar merosining nodir namunalarini folk[illegible] etnografik jamoalari, o'z ijodlarida turfa xil ko'rinishlarda namoyish [illegible] folklor san'ati taraqqiyot jarayonini rivojlantirilmoqda.

Folklor-etnografik jamoalar milliy qadriyat va an'analar[illegible] rivojlantirishda ajdodlar merosnni nodir namunalarini turfa [illegible] ko'rinishlarda ijro etib folklor san'ati taraqqiyotiga o'z hissalari[illegible] qo'shadilar. Bu esa avloddan-avlodga o'tib, xalq merosi bo'l[illegible] kelayotgan milliy qadriyatlarimizni kelgusi avlodga to'laligicha yetqizishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruhiy yaigilanish folklor asarlari[illegible] hayotga yanada keng targ'ib qilish jarayomshsh boshladi. Masalan, xalqimiz badiiy salohiyatining eng go'zal namunalarini o'zida mujassamlashtirgan umumxalq shodiyonasi - Navro'zi olam bilan bog'liq qo'shiqlar, udumlar va marosimlar qayta tiklandi. Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor asarlarini badiiy xususiyatlari, bayramni o'tkazilishi bilan bog'liq lokal belgilar ro'yobga chikdi. Bu sohada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar asosida Navro'z bayramida qadimdan mavjud bo'lgan ko'pgina asriy udumlar, xususan, "Yil boshi", "Qozon to'ldi", "Navro'z go'ja tayyorlash", "Sumalak pishirish", "Hashar uyushtirish", "Argimchoq uchish", "Lola sayli" kabi o'zligimizni tarannum etuvchi qadimiy udumlarimiz yana hayotga qaytdi. Zero, Navro'z marosimlari, udumlari va qo'shiqlarida mehr va muruvvat, oqibat va insoniylik, qut-barakaga bo'lgan buyuk ishonch. mo'l hosil olish g'oyasi, el-yurt xotirjamligining turfa tomonlari badiiy talqin etilmoqda.

Folklor-etnografik ansambllari qaerda tashkil qilingan bo'lsa, o'sha yerlik xalqning milliy an'analarini, og'zaki ijodnpng noyob namunalarini saqlashda, unga sayqal berib qaytarilishida jonbozlik ko'rsatmoqdalar.

Masalan, Toshkent shahridagi „Gavhar" folklor-tshografik ansambli dasturidan joy olgan "Bolangizga alla ayting onalar" mavzuidagi dasturida mehr-muruvvat tushunchasi ona allasi orqadi tarannum etilgan.

Ona avlod-ajdodlarimizning buyuk davom ettiruvchisidir. "Alla" ona mehri bilan yo'g'rilgan mayin yurak sadosidir. Bu sado shu qadar serjilo va sermazmunki, uning ta'rifiga so'z ojiz. Allada iltijo-yu sehr,



[illegible] mehr qolaversa, bu dunyoda eng nozik hislar-u, ezgu tilaklar [illegible]. Chunki, ona allasigina jajji chaqaloqning qalbiga mehr-[illegible]uvvat, muhabbat, oqibat, iymon va insof tuyg'ularini singdira oladi.

Tol ichida tanlab olgan,
Toli chovqirim, bolam.
Gul ichidan hidlab olgan,
Guli rayhonim, bolam, alla yo alla.

Ona allasidan bahramand bo'lgan yurtimiz yoshlari momolari, ota-[illegible] yaratgan qadriyatlariga mehr qo'yib, ular an'anasini davom [illegible]yapdilar.

Istiqlol yillarida folklor san'atiga kirib kelgan yangi janr-larda milliy istiqlolni madh etish, fidoyi yurtdoshlarimizning farovon istiqboli uchun [illegible] borilayotgan ezgu ishlarni kuylash asosiy o'rinni egallaydi.

Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida faoliyat olib borayotgan "Boysun" folklor-etnografik ansambli repertuaridagi "Vatan" qo'shig'ida har qatra tuprog'i muqaddas bo'lgan ona yurt mehri jo'shib kuylanadi. Xalqimizda "YOrdan ayrilgan yomon ammo, Vatandan ayrilgan hammasidan yomon", degan naql bor. Quyida Vatan sog'iichi, yurtdan ayriliq tuyg'usi o'rniga boshqa hech qanday tuyg'u malham bo'la olmasligi, uning o'rnini hech narsa bosa olmasligi she'riy misralarda o'z ifodasini topgan.

Biz uchun o'zga Vatan yo'q,
Sen bizga jonsan Vatan.
Bu keng olam uzra tanho,
O'zbekistonsan, Vatan.
Yordan ayrilgan yomondir,
Bordan ayrilgan yomondir.
O'g'lisan ozod yurtning Barchasidan eng yomon,
Yurtdan ayrilgan yomon.

Mazkur qo'shiq aslida professional qo'shiqchilarimiz, mashhur hofizlarimiz tomonidan ijro etilgan va elga manzur bo'lgan. Binobarin, bu qo'shiqlar folklor-etnografik ansamblya repertuariga o'tpshi, birinchidan, mazkur qo'shiqning xalq orasida g'oyat keng yoyilganligini, vatan mehri xalq diliga, har bir yurakka chuqur o'rnashib olganligini ko'rsatsa, ikkinchidan, folklor-etnografik ansambllarining repertuari an'anaviy xalq qo'shiqlari hisobigagina emas, balki muallifi ma'lum bo'lgan, keyinchalik xalq orasida mashhur bo'lib ketgan asarlar hisobiga ham boyib bormokda.

Masalan:

Amu - Sirning quchog'ida erkalangan bolasi,
Qadim Turon — Turkistonning lola bo'lgan dalasi.
Turkiy tilda suhbat qurgan barcha ellar onasi,
Dashti Qipchoq, Sug'diyona, turkiy Turonim mening,
Ko'sh qanotim, kamolotim, O'zbekistonim mening!

Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumanida tashkil etilgan "To'rg'ay" folklor-etnografik ansambli o'zining "Bo'z to'rg'ay" qo'shigida istiqlolni zo'r ko'tarinkilik bilan madh etadi:

Bo'z to'rg'ayjon, bo'z to'rg'ay,
Bo'zlamasang ne bo'lgay.
Shunday baxtli zamonda,
O'ynamasang ne bo'lgay.
Alpomish o'g'lonlaring,
Barchinoydek qizlaring,
Yurtim baxting kuylaydi,
Xushovoz bulbullaring.
Qozon to'la moy bo'lsin,
O'zbekiston boy bo'lsin,
Mustaqillik davrida,
Xalqimiz omon bo'lsin!

O'zbek folklor san'atining yoshlar hayotidan o'rin olishida mana bu ansambllar: "Bo'ston", "Yor-yor" (Namangan viloyati) "Omoiyor", "Chodir jamol" (Farg'ona viloyati), "Bedana", "Zilol" (Andijon viloyati), "Gulyor", "To'rg'ay", "Zarrin yaproqlar" (Toshkent viloyati), "Nozanin". "Mohi Sitora", "Afshona", "Mardona", "Qasri Orifon" (Buxoro viloyati), "Chavqi", "Beshqarsak", "Sarbozi" (Samarqand viloyati), "Gashtak", "Zomin Sayqali" (Jizzax viloyati), "Orazibon", "Xorazm", "Doston" (Xorazm viloyati), "Boysun", "Bulbuligo'yo", "Zevari" (Surxondaryo viloyati), "Momogul", "Hilola" (Qashqadaryo viloyati), "Sayxun yigitlari" (Sirdaryo viloyati), "Gavhar" (Toshkent shahri), "Jayhun to'lqini", "Besperde" (Qoraqalpog'iston Respublikasi) millatlararo umumqadriyatlar bo'lmish mehr-saxovat, mehr-shafqatni tarbiyalashda, komil insonni voyaga etkazishda ajdodlar merosini avlodlarga etkazishda barakali va xayrli ijod qilib kelmokdalar.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, hozirda radio va televideniya orqali berilayotgan musiqa, qo'shiq, eshittirishlar mazmunining nihoyatda sayozligi tufayli yoshlar yengil-yelpi hayotga moyil bo'lmoqdalar. Ba'zi yoshlar o'zbek milliy an'analariga amal



qilishni o'zlariga or deb biladilar. Hatto o'z ona tillarida so'zlashni yoqtirmaydiganlari ham uchrab turadi.

Istiqlol sharofati tufayli milliy qadriyat va an'analarimiz tiklanayotgan bugungi kunlarda xalq ijodiyotini keng ommalashtirish, ma'naviyat sarchashmalarini targ'ib etish, ya'ni ajdodlar badiiy mulkini xalqqa qaytarish xayrli ishlardan biridir. Kelajak avlod ushbu yangi tafakkur xazinasidan bahramand bo'lib, asrlar davomida tildan tushmagan folklor san'atini sayqallab, an'anaviy folklorni keyingi avlodga to'laligicha etkazishiga hissa qo'shmoqda.

Bu san'at ma'naviyat bo'stonining chamanlarida turfa xil jilvalanmoqda.

Folklor-etnografik jamoalari bugungi kunda folklor ijro san'atining serjilo chamanlari rivojlanishga, milliy mustaqilligimiz tufayli yoshlarning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, milliy ma'naviy dunyosini kundan-kunga boyib borishiga xizmat qiladi.

Milliy folklor san'ati an'analarini rivojlangirib, ularni yosh avlod turmush tarziga singdirish ana shu jarayoninig turfa xil qirralarini namoyon etadi.

Folklor san'ati merosi o'zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi, umrboqiyligi, farovon turmush tarzini ifodalashi bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi. U millat qalbida ezgu niyat va ulug' maqsadlarga intilish, e'tiqod va orzu armonlarini uyg'otadi. Folklor san'ati o'zbek millatining barcha orzu-armonlarini, iymonu e'tiqodini, toza ruhi va xotirasini, xalqning yaxshi niyatini, qadimiy an'analarini rivojlantirib tarixiy taraqqiyot jarayonini ta'minlaydi.

Masalan, «Boysun» folklor jamoasi «Oblo baraka» (ya'ni oxirgi tutam bug'doyni o'rib olish va xirmon ko'tarish marosimi), «Don sepdi», «Navro'zi olam», «Lola sayli», «Shox moylar» (dalaga birinchi qo'sh chiqarish marosimi), «Xo'p mayda» (g'allani yanchish bilan bog'liq udum), «Turna keldi», «Hosil bayrami», «Boysuncha yor-yor», «O'tin yorish», «Kiyov sinov» (nikoh to'yi bilan bog'liq udum), Navoiy viloyatidagi «Yor-yor», «Kokil to'yi», bolani birinchi sochini olish bilan bog'liq dasturi, Andijon viloyatidan «Bedana», Samarqanddagi «Beshqarsak» folklor-etnografik jamoasi tayyorlagan sunnat to'yi, Uzbekiston davlat san'at va madaniyat instituti qoshidagi «Chashma» folklor jamoasi tayyorlagan chaqaloqni poklik suviga olish, qulog'iga azon aytish, avlodlar shajarasi, guldur-guplar, sanamalar, barhayot an'analar, baxt sinovi dasturi, Jizzax viloyatidagi «Gashtak» jamoasi tayorlagan nikoh to'yi bilan bogliq «To'qqiz toboq» an'anaviy udumi,

Toshkent viloyatidagi «To‘rg'ay» jamoasi tayyorlagan nikoh to'yi bilan bog‘liq «To‘sh qaytarar», «Orazibon» folklor jamoasining nikoh to'yi bilan bog‘liq «Non yopdi», «Lachak to‘yi» ana shunday qadimiy ma'naviy qadriyatlar silsilasi bo‘lmish milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi an'ana va marosimlarimizni saqlab qolish, tarixiy taraqqiyot jarayonini o‘rganish «Folklor-etnografik jamoalari" ijro mahoratini nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

Bulung‘ur tumanida tashkil qilingan "Chavqi" folklor-etnografik ansambli ijrosida aytilgan "Yil boshi" qo‘shig‘i ham istiqlol tufayli hayotga qaytgan qadimiy taronalardan biridir:

Odamlar, hoy odamlar,
Bog‘da bitgan bodomlar,
Eshitmadim demanglar,
Bugun bayram yilboshi,
Saylga, ho saylga!
Dehqon dala aylandi,
Ho‘kiz shoxi moylandi,
Omoch, mola, cho‘kka tush,
Dehqonbobo shaylandi.

Qadimda ushbu misralarni bahor kelishi bilan, kuzda hosil mo'l bo‘lshini umid qilib, ezgu niyatda dalaga don sepgan bobodehqonlari el u yurtga omonlik, tinchlik, farovonlik tilab kuylaganlar qo‘shiklari Navro‘z-yilboshi tantanalarida ijro etilgan. Bu tarix misralarida el dasturxoniga baraka yog‘ilishi, halol mehnatni ulug‘lash, ezgu umidlarning amalga oshishi, to‘kin-sochinlik, oilalar xotirjamlig yurt boyligi kabi g‘oyalar yetakchilik qiladi.

Bulung‘urliklar folklorida Navro‘zi olam bilan bog‘liq tarixiy qo‘shiqlarniig terma-aytim ko‘rinishidagi shakllari hamon saqlangan bo‘lib, u "Chavqi' ansambli ijrosida tarannum etilmoqda.

Navro‘z keldi bu kecha,
Pishiring navro‘z go‘ja.
Go‘jasi shirin momoga,
Beraylik bir juft jo‘ja.

Xalq ijodiyotining yorqin namunasi bo‘lgan folklor-etnografik ansamblar ishtirokchilari va soha mutaxassislarining ijodiy izlanishlari natijasida tarixiy jihatdan shakllangan juda ko‘p marosim qo‘shiqlari tiklandi.

Ota-bobolarimizdan"meros bo‘lib qolgan udum va marosimlarni sahnaga olib chiqib, yana ularni xalqqa qaytarishda folklor san'ati va



[illegible] tuganmas merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. [illegible]

1.Folklor-etnografik ansambllari xalqimizning urf-odatlari, e'tiqodi va umuminsoniy qadriyatlarini namoyon etmoqda. Ular dasturida mujassamlashgan xalq ijodi namunalari folklorning sahnaviy ko‘rinishi tarzida faoliyat ko‘rsatmoqda.

2.Folklor-etnografik ansambllari xalq og‘zaki ijodiyoti an'analarini tiklash va takomillashtirishda yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar, milliy marosimlarga hurmat bilan qarash, ularni saqlab qolish, [illegible]zlashga o‘z hissalarini qo‘shmokdalar.

3.Har bir folklor-etnografik ansambllari mustaqil respublikamiz [illegible] viloyatlarida faoliyat ko‘rsatib, shu xalqning takrorlanmas ma'naviy-madaniy merosi bo‘lmish udumlarini, marosim va rasm-rusumlarining o‘ziga xos xususiyatlarini turfa xil ko‘rinishlarda namoyon etmoqdalar.

4.Folklor-etnografik ansambllari istiqlol tufayli an'ana va marosimlarimizni bugungi avlodga qadimda ular qanday bo‘lsa, shundayligicha etkazish, ijrochilik mahoratini ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ldilar.

5.Folklor-etnografik ansambllari o‘z dasturidagi marosimlar, qo‘shiqlar, rasm-rusumlar, xalq ijodiyotining turli xil namunalarini o‘z muxlislariga tanishtirish orqali ona diyorimizning muqaddas an'analariga sodiq qolish, uni e'zozlashni ibrat qilib ko‘rsatishlari ahamiyatlidir.

6.Folklor-etnografik ansambllari dasturining yana bir ibratli tomoni Vatanimizning boy ma'naviyatini ko‘z qorachig‘iday saqlash – eng yuksak axloqiy fazilatlar, umuminsoniy sifatlar ekanligini uqtirmoqdalar.

Hozir mavjud folklor-etnografik ansambllari xalq qalbining oynasi sanalmish xalq ijodiyoti namunalari, turfa xil marosim, an'analari orqali milliy qadriyatimiz, qadimiy an'ana va marosimlarimizni tiklab, rasm-rusum va udumlarimizni o‘z dasturlarida namoyish etish, kelajak avlodga qoldirish uchui harakat qilmoqdalar. Shu bois folklor-etnografik ansambllari ota-bobolarimiz asrlar bo‘yi asrab-avaylab kelgai qadriyatlar orqali istiqlol mafkurasipi yaratishga, uni yoshlar turmush tarziga singdirishga yordam berib, kelajagi buyuk o‘zbek yurtining haqiqiy egalari bo‘lgan har tomonlama etuk komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda folklor san'atini bevosita udum va marosimlar bilan uyg’unlashgan holda rivojlantirishning o‘z o‘rni va ahamiyati katga.

Zero yetilib kelayotgan barkamol avlod O'zbekistonni jahonga tanitish, yurtimizniig milliy qiyofasini namoyish etuvchi asriy tafakkur durdonalarini dunyo xalqlari orasida keng namoyon qilish zarur.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Yoshlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashdagi marosim va udumlarni roli.
2. Marosim va udumlarning yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rni.
3. Marosim va udumlarni ijro san'ati bilan bog'liqligi haqida ma'lumot bering.

**Topshiriqlar:**

1. Marosim va udumlarning hududiy o'ziga xosligini tavsiflang.
2. Ijro san'atining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida so'zlang.

## O'ZBEK XALQI AN'ANAVIY OILAVIY MAROSIMLARI NOMODDIY MADANIYAT OB'EKTI TARZIDA

**Reja:**

1. ***O'zbek xalqi oilaviy marosimlari tasnifi.***
2. ***Farzand tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq marosimlar.***
3. ***Nikoh to'yi bilan bog'liq urf-odatlar.***
4. ***Motam marosimlarining etnolokal xususiyatlari.***

O'zbeklarda ham boshqa xalqlar singari inson hayoti ibtidosidan intihosigacha turli-tuman marosimlar bilan burkangan. Insoniyat hayotining muhim burilish nuqtalari bilan bog'liq tarzda o'tkaziladigan tadbirlar **oilaviy marosimlar** deb yuritiladi. Oila va oilaviy marosimlar etnosga xos madaniy va maishiy an'analar uzatuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. Oilada farzand tug'ilgan kun, unga ism qo'yish, bolani ilk marotoba beshikka belash va dastlabki qorin sochini olish, ilk qadamni bosishi, o'g'il va qizlarni birinchi bor maktabga borishi, muchal yoshiga to'lishi, maktabni bitirishi, nikoh to'yi, kumush, oltin va olmos to'ylari, nafaqaga kuzatish kabilarni tantanali tarzda nishonlash inson hayotidagi unitilmas voqealardir.

***Beshik to'yi*** O'zbekistonda keng tarqalgan qadimiy odatlardan. Bola tug'ilganda yetti, to'qqiz, o'n birinchi kunlari yoki kelin-kuyovning ota-onalarining o'zaro kelishuvlari bilan belgilangan kunda asosan qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar ishtiroikida o'tkaziladigan tantanali marosimdir.



Beshik chaqaloqning ona qarindoshlari-bobosi, buvisi, tog'a va xolalari tomonidan qilingan. Beshik materiali asosan qattiq yog'ochlardan, uning egma qismlari(poyalari) esa qora toldan yasalib, bola uchun maxsus qo'l va oyoq bog'ichlari(tortqilar) bilan bog'lab qo'yiladi. Beshikning ko'plab foydali jihatlar mavjud bo'lib, bu xususiyatlar hattoki meditsina tomonidan ham isbotlangan. SHu bois o'zbeklarda chaqaloqni ilk marotoba beshikka belash maxsus marosim-beshik to'yi sifatida nishonlanib kelingan. Odatda, beshik to'yi oiladagi birinchi (to'ng'ich) farzand uchun o'tkaziladi va u tantanali kechadi. Beshik udumi bilan bog'liq chaqaloqqa kerakli barcha buyumlar tayyorlangan. Dasturxonga non, patir va anvoyi shirinliklar tugilgan, shuningdek yana unga o'yinchoqlar (qiz bola bo'lsa qo'g'irchoq) qo'shilgan. Ko'p yerlarda (xususan Toshkentda) chaqaloqqa atab (agar o'g'il bola bo'lsa) toy ham yasatilgan. Chaqaloqning ota-onasi, buva va buvisiga sarpo ham qo'yilgan. Bezatilgan beshik, sovg'alar va dasturxonlarni arava (hozirda mashinalarda yoki avtobus) ga yuklab, ko'cha-ko'yda ko'z-ko'z qilib, karnay-surnay va childirmalar jo'rligida olib borilgan. Mehmonlarni kutib olingand, niyatlari oq bo'lishi, bolaga baxt tilash ramzi sifatida ularning yuzlariga un sepib kutib olingan. Kelgan mehmonlarga dasturxon tuzab bezatilgan xonaga taklif etilgan. SHu vaqt boshqa xonada boshqa rasm-rusmlar ijro etilib chaqaloqni beshikka belash marosimi o'tkazilgan. Xalqimizda bolani beshikka belashda qarindosh-urug'lar va mahallada hurmatli, e'tiborli, uvali-juvali ayollar tanlangan. Bulardan biri doya momo (enaga) yoki o'zining katta buvisi bo'lishi lozim bo'lgan. Bolani beshikka belashda "qo'rqmas botir bo'lgin, sog'lom o'sgin, uzoq yashagin!" deb turilgan. Shu tarzda bolani beshikka belashib, qo'l oyog'i bog'langandan keyin beshik atrofida to'planganlar beshik ustidan turli sochqilar sochganlar. Beshikka belashda chaqaloq o'g'il bola bo'lsa, ulg'ayib abjir chavandoz bo'lsin, degan niyatda beshikning ustiga qamchi, qiz bola bo'lsa, chevar bo'lsin, deb qurama kashtali yostiq, nina, ip qo'yib qo'yiladi. So'ngra isiriq solinadi va beshikka belayotgan kampirlardan biri: "Egasi keldi beshikka, shayton chiqsin eshikka", - deb aytib turgan. Odatda belayotgan ayol og'ziga non tishlab olib, to belab bo'lgunicha [illegible]pirmagan. Bola belab bo'lingandan so'ng kayvoni og'zidagi non yosh bola tomonidan "umri uzoq, rizqi baland bo'lsin" degan niyatda uzoqroq joyga olib qochilgan. Farg'ona vodiysida an'anaga ko'ra, bolani beshikka belashda yostig'i ostiga kulcha, tuz, pichoq, oyna, Surxondaryoda oyna, taroq, Toshkentda esa oyna, pichoq, qalampir kabi

narsalar qo'yilgan. Bu narsalarning o'z ramziy ma'nosi bo'lgan. N... risq-nasiba bo'lish bilan birga insonning doimiy yo'ldoshi ham bo'l... Pichoq va oyna qo'yishda go'dak hayoti oynadek tiniq, pichoqday o'... bo'lsin degan niyat mujassamlashgan. Taomlar tortib bo'lin... mehmonlar birin-ketin kuzatiladi. Shu bilan marosim yakunlanadi.

O'zbek xalqida qadimdan saqlanib kelayotgan yana bir maros... ***xatna qilish (o'g'il to'yi)dir***. Xalq o'rtasida xatna «sunnat to'y... «chukron», «qo'lini halollash (poklash)» kabi nomlar bilan yuritiladi.

Bu marosim ham uzoq tarixiy davrlar bilan bog'liq bo'l... insoniyat tarixining ilk davrlaridagi o'g'il bolalarni bir yosh bosqich... ikkinchisiga o'tishini maxsus marosim, initsiatsiya tarzda nishonla... bilan bog'liqdir. Bunday odatlar keyinroq yahudiylarda, islom di... tarqalgan mamlakatlarda udumga aylangan. Musulmonlarda sunn... to'yini o'tkazishdan maqsad «islomning sunnatini bajarish»-dir. B... marosim o'g'il bolalarda 3-5-10 yoshda, ayrim hollarda 11-1... yoshgacha o'tkazilgan. qo'ni-qo'shnilar hamda qarindosh-urug'la... ishtirokida to'y tayyorgarligi bilan bog'liq bir necha udumlar (ko'rp... tikish, to'y sarpolarini bichish va tikish, qishloq va mahall)nng keksa v... o'rta yoshdagi serfarzand ayollariga topshirilgan. To'ygacha bo'lgan davrda tandir qurdi (yoki nonvoy soldi), so'qim so'ydi, maslahat oshi kabi marosimlar ham o'tkazilgan. Bu marosimlardan keyin to'y oldidan xatmi qur'on marosimi o'tkazilgan. Bunga qishloq (mahalla) keksalari, masjid imomi yoki qori va qarindoshlar taklif etilgan. Dasturxon yozilib oxirida fotiha qilingan. Shundan keyin katta to'y tan'tanalari boshlangan. To'y arafasida to'y bolaga qavm-qarindoshlar va hamqishloqlar oqsoqollar davrasida sarpo kiydirish marosimi o'tkazilgan. So'ngra to'ybolani muborokbod etib ustiga tanga, shirinliklar sochadilar.

Sunnat to'yidagi eng katta marosimi-elga osh berish. Ilgarilari oshga tashrif buyurga mehmonlar yerga, supa va chorpoyalarga to'shalgan gilam, sholcha ustiga davra qurib o'tirganlar. Dasturxonga non quyib choy berilgach, xar ikki kishiga bir lagandan osh tortilgan. Hozirgi davrda mehmonlar stol-stullar qo'yilgan to'kin dasturxon atrofida o'tqaziladi. Hozirda O'zbekistonning ko'plab hududlarida to'yda nahorga osh berish odat tusiga kirgan. Osh berish marosimi oxirida ilgarilari qechqurin hovliga katta gulxan yoqilib, uning atrofida katta kurash, tortimachoq (arqon tortish) va boshqa o'yinlar qilingan. Mehmonxonalarda (ayollar ichkarida) bazm, g'azalxonlik o'tkazilgan, baxshilar dostonlardan parchalar ijro qilgan. To'yning ertasi kuni ba'zan



...pkari va boshqa musoboqalar uyushtirilib, g'oliblarga sovrinlar ...ilgan. Sunnat to'yi yakunida to'y bola usta-sartarosh tomonidan ...na qilingan. Usta bolaning a'zosi uchiga g'arov (yog'ochdan yasalgan ...ich) qistirib, a'zoning chilpinadigan qismini ustara tig'i bilan kesib ...lgan. Kesish vaqtida bolaga umri uzoq, rizqi butun bo'lsin degan ...iyatda non tishlatilgan. Bu udumning o'tkazilishi og'riq paytida bolani ...alg'itish uchun ham xizmat qilgan. Bolaning sunnatisi onasi ...monidan ramziy sotib olingan va juda ehtiyotkorlik bilan yashirin ...vishda mevali daraxtning, masalan, tut tagiga ko'mib qo'yilgan. Usta ...monidan xatna qilish amali bajarib bo'linganidan keyin, bola uchun ...tna chillasi boshlanadi. Xatna chillasi davrida bola yangi tug'ilgan ...aqaloqlar va yosh kelin-kuyovlarni ko'rish kabi bir qator ...eklashlarga amal qilgan. Xatnadan keyingi kechalari chillali bola ...nadondan tashqariga chiqarilmagan, uning oldida doimo yaqinlaridan ...imdir bo'lishi lozim bo'lgan. Xatna jarayoni ko'pincha qarindosh ...urug'lar, qo'ni-qo'shnilar ishtirokida tor davrada o'tkazilgan. Barcha ...narsalarni ona, xotin-qizlar bajargani holda aynan xatna jarayonini ...erkaklar bajarganlar. Sunnat qilingan bola 2-3 kundan keyin o'rnidan ...turgach, qavm qarindoshlar va qo'shni ayollar ishtirokida joy yig'ish ...marosimi o'tkazilgan.

An'anaga ko'ra, muchal yoshi o'n ikki yillik bir muddat tugab, keyingi boshlanish davrida (ya'ni, 12-13, 24-25, 36-37... yoshda Navro'z bayrami kunlarida nishonlangan. Ayniqsa, birinchi muchal almashishi — o'n ikki yoshdan o'n uch yoshgacha o'tish (boshqa muchal yoshlariga qaraganda) katta tantana bilan nishonlangan.

Muchal yoshiga bag'ishlangan marosim oilada ota va ona tomonidan bo'lgan qarindoshlar ishtirokida hamda qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lar ishtirokida tashkillashtirilgan. Bu marosim katta tantanaga aylangan va marosim qatnashchilariga maxsus ziyofat berilgan. Ziyofatlar turli joylarda turlicha o'tkazilgan. Respublikamizning ba'zi joylarida barcha uchun umumiy dasturxon yozilsa, ayrim joylarda oldin bolalar, so'ng kattalar va oxirida qarindosh va qo'shnilar uchun dasturxon tuzab, ziyofat berilgan.

O'n ikkiga to'lgan barcha o'g'il-qizlar oq libos kiyishib, bir joyga to'planishgan. Muchal yoshiga to'lgan o'g'il-qizlar bir-birini qutlashgan. So'ngra ular ko'chalarda birga sayr qilishgan. Qadimda muchal yoshiga bag'ishlangan sayil Navro'z bayrami tadbirlariga qo'shib o'tkazilgan.

Mustaqillik yillarida «Muchal yoshi» oila a'zolari, do'stlar davrasidagina emas, maktablarda ham uyushtiriladigan bo'ldi. Keyingi

yillarda muchal yoshi respublikamizning ko'pgina maktablarida [illegible] onalar ishtirokida Navro'z arafasida tantanali tarzda o'tkazilmoqda.

Ajdodlarimizning rasm-rusumlari, dunyoqarashi, ishonch-e'tiqodlari, turmush-tarzi va hayot haqidagi falsafiy qarashlari, asrlar [illegible] jamlangan hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalarini [illegible] mujassamlashtirgan eng jozibali marosimlarimizdan biri ikki [illegible] birlashtiruvchi - ***nikoh to'yidir***. Bundan maqsad nikohni jamoatchilikka ma'lum qilish va ota-ona, qarindosh-urug'larlarning jamoa bilan [illegible] ko'rishidir. Nikoh to'yi Respublikamizning turli joylarida «nikoh to'yi», «ijob to'yi», «uy tushirar to'yi», «katta yaloq qizartirar to'yi» [illegible] nomlangan Nikoh to'yi tizimida bir qancha marosimlar mavjud [illegible] ko'rar (qiz ko'rar), sovchilik, sep taxlar, to'qqiz berish (to'qqiz tavoq), qiz oshi (qizlar majlisi), kelin tushirish, baqon tutish, yuz ochdi, kelin salom, chorlar kabi marosimlar va ular bilan bog'liq rasm-rusumlar. Ular hozirgacha saqlanib, amal qilinib kelinadi.

Kelin tushirish dastlab uy ko'rdi(qiz ko'rdi) marosimidan boshlanadi. Ma'lumki o'tmishda, nikoh to'yi faqat ota-ona tavsiyasi va ra'iga ko'ra o'tkazilgan. Bu odat ayrim yerlarda hozirgacha saqlangan. O'g'il balog'atga yetgach munosib qiz axtaradi. Yigitning onasi, ammasi, yoki xolalaridan biri mo'ljallangan qizlarni xonadoniga tashrif buyurib, «mehmonga keldik» bahonasi bilan qiz ko'radilar, hovlisining tozaligi, uylarining tartibliligiga razm soladilar; qaysi qiz ma'qul kelsa, unikiga sovchi yuborganlar. O'zbeklarda sovchilar kichik, katta sovchilarga bo'linadi. «Kichik sovchi»lar (ko'pincha ayollar) ishni bitirib qaytganlaridan so'ng «katta sovchi»lar to'y xarajatlarini va ayrim joylarda qalin miqdorini belgilaganlar. Ko'plab erlarda sovchilikka kuyovning tog'asi va elning so'zamol hurmatli «oqsoqoli» borgan. Qiz tomon sovchilarga turli ramziy ishoralarda(kovushi ichiga suv solib qo'yish, koviushini o'nglab quyish) norozilik belgisini ifodalagan bo'lsa, rozilik alomatini sovchilar oldiga qo'yilgan yog'li, tansiq taomlarda ham bildirgan.

Nikoh to'yi tizimidagi ko'rimli marosimlardan fotiha to'yi (kichik to'y, ba'zi yerlarda muborokbod to'yi) bo'lgan. Sovchilarning so'nggi borishida fotiha kuni belgilangan. Bo'lajak kelinning uyida o'tkaziladigan fotiha to'yi davrasiga jamoaning e'tiborli qariyalari, oqsoqoli ham taklif etilgan va bu kun «non sindirish» marosimi o'tkaziladi. Davradagilar orasidan keksa yoshli, ko'p farzandli, bir nikohli kishi yigit va qizning taqdirini mustahkam bog'lanishi haqida duoi-fotiha o'qib qo'liga qiz tomonidan olib kelingan va yigit tomonidan



[illegible] qo'yilgan nonlardan bittadan olib juft qiladi va nonni yuza [illegible] qaratib teng qilib sindiradi. Unashtirilayotgan yoshlarning [illegible] bo'lib, o'z qadr-qimmatlarini yo'qotmasin degan niyat [illegible] udumida mujasamlashgan. Nonni juft sindirishda esa kelin-[illegible], qo'sha-qarishi haqidagi magik orzu-istak mujasamlashgan. [illegible] to'yi yakunida o'zaro ikki tomonning o'zaro keluviga ko'ra to'y [illegible] nikoh kuni belgilangan. Fotiha to'yidan katta to'yigacha bo'lgan [illegible] qudalar tovoq qaytarish, «ko'rpa soldi», to'qqiz, «qiz oshi (qiz [illegible]) kabi marosimlar o'tkazilgan. Yigit tomon bayramlarda [illegible] xayitlik sovg'alar yuborib turgan.

Nikoh to'yi kuni yoki bir kun oldin qiz tomonga to'yning oshini [illegible] yoki xomligicha yuboriladi. Qiz xonadonida jamoaga osh [illegible]. O'sha kuni ko'pincha kuyovnikida ham osh beriladi.

To'y kuni yoki to'ydan bir kun oldin qizning otasinikida nikoh [illegible] o'tkaziladi. Kuyov yaqin jo'rasi, tog'asi bilan bo'lajak kelin [illegible] borgan. Imom bo'lajak kuyovga er-xotinliknigh burch va [illegible] tushintirgach, qizning yangasi orqali ruxsatini olib keyin [illegible] nikoh» o'qigan.

Kelinni kuyovnikiga olib ketguncha o'tkazilgan «kelin yashirar», [illegible] talashar», «it irillar», «chiroq aylantirar», «kampir o'ldi», [illegible] tush ko'rdi»,«soch siypatar», «oyna ko'rsatar», «qo'l qisar», [illegible] to'ldirar», kabi qator udumlar o'tkazilgan va ularning ayrimlari [illegible] ham saqlanib qolgan. Kuyovnikida kelinni uch marta gulxandan [illegible] ichkariga olib kirishda «bo'sag'adan tavob olish», «to'y [illegible] salom berish» odatlari bajarilgan.

O'zbekistonda nikoh to'yi marosimidan keyingi kuyovning [illegible] yaqin qarindoshlar va qo'ni qo'shnilar ishtirokida [illegible] marosim "yuz ochdi" deyiladi. Marosim O'zbekistonning [illegible] mintaqalarida "Yuz ochdi", "Yuz ko'rsatar", "Yuz ko'rsatar", "Bet [illegible]" yoki ro'kushon" (tojikcha ro'- yuz, kushon – ochar) kabi nomlar bilan yuritiladi.

"Yuz ochdi" marosimida kelinni yangalari yordamida yuziga oq ro'mol tashlagan holda yig'ilganlar huzuriga olib chiqilgan. Shundan so'ng xonadonning yosh bolasi tomonidan uning yuzidagi ro'mol yoki oq harir parda o'qlov yoki mevali daraxtning shoxi bilan ochilgan va uzoqroq joyga olib qochilgan. Avvallari kelin yuzi ochgandan so'ng u o'zi to'qigan ro'molchalarni kuyov tomondagi bolallarga tarqatgan. Kelinning yuzini ochishda mevali daraxtning shoxidan foydalaniladi. Bunda mevali daraxtning serpushtlik xususiyati kelinga ham o'tsin,

serfarzand bo'lsin, degan niyat mujassamlashgan. Qolaversa, yosh kuyov tomonidan kelinning yuzini ochilishi ham ushbu udumning bo'lg'ani oila serfarzand bo'lsin degan niyatda amalga oshiriladi.

"Yuz ochdi" marosimida "Supra soldi" odati bajarilgan. Bu odat Respublikaning barcha hududlari bo'ylab keng tarqalgan. Farg'ona vodiysida marosimda qatnashganlar davrasiga supra yozib bir tovoq un solinadi. Qaynona supradagi undan bir hovuch olib, kelinning qo'liga to'kadi. Kelin esa unni supraga to'kadi. Bu hol uch marta takrorlanadi. Buning sababi o'zbeklarda un oqli, yorug'lik hisoblanadi. Shu sababli *"supra soldi"* udumida yaxshi niyat bilan kelin-kuyovning hayoti yorug' bo'lsin, mo'l ko'lchilikda ro'zg'or tutsin degan tilakda o'tkaziladi.

"Yuz ochdi" marosimiga kelinning vakil otasi va tog'asi marosimiy palov tayyorlab qozoni bilan kuyovning uyiga olib keladi. Aynan mazkur taom bilan marosimga tashrif buyurganlar ziyofat qilinadi.

O'zbeklarda ham boshqa xalqlar singari ***motam*** - inson vafoti munosabati bilan o'tkaziladigan mungli marosimdir. Shu boisdan ushbu marosimda ijro etiluvchi folklor janrlari, marosim ishtirokchilari va ularning kiyim-boshlari – xama-xammasi munglidir.Motam marosimlari juda ko'p rasm-rusum, odat va kichik marosimlar majmuidan tashkil topgan. Jumladan, marhumni «mehmon qilish», («qora osh» tortish), yig'i marosimi, marhumning gunohlarini ramziy sotib olish marosimi, dafn va marhumni xotirlash bilan bog'liq o'tkaziladigan rasm-rusumlar va urf-odatlar.

Marhumlarni xotirlash marosimlari ramazon va qurbon hayitlari kunlarida ham o'tkazilgan. Hayit namozlari o'qilgandan so'ng, hayitliklar orasida vafot qilgan marhumlar xonadonlarida hayitlik qilib, duoi fotiha qilgani borganlar. Marhumlarni va ota-bobolar arvohlarini xotirlash tabiatdagi fasllar o'zgarishi bilan bog'liq kunlarda, jumladan, birinchi qor yoqqanda-«qor yog'di», Navro'zda, laylak kelganda, qovun pishig'ida, gul ochilganda, daraxtlar(anor, jiyda) gullaganda ham o'tkazilgan. Motam marosimlari bilan bog'liq marosimlar zamon va makonga oid falsafiy tushunchalar bilan koinot va insoniyat o'rtasidagi, tabiat va odam hayoti o'rtasidagi muayyan darajadagi bog'liqlikni bildiradi.

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgach, xalqning qadimiy va azaliy qadriyatlari asta sekin tiklandi va ularning ko'plari xalqimiz turmush-tarzidan o'zining munosib o'rnini topdi. O'z navbatida sovetlar davrida kommunistik mafkura ostida olib kirilgan ayrim marosimlar



xalq turmushidan chiqib ketdi va qolaversa yangi qator zamonaviy marosimlar ham kirib keldi.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. O'zbek xalqi oilaviy marosimlarni tasniflab bering?
2. Farzand tug'ilishi va uning tarbiyasi bilan bog'liq marosimdagi ramziy odatlar haqida ma'lumot bering?
3. O'zbek xalqi nikoh to'yi marosimlarini mintaqaviy xususiyatlari haqida so'zlab bering?
4. Nomoddiy madaniyati tizimida o'zbek xalqi oilaviy marosimlari haqida ma'lumot bering?

**Topshiriqlar.**

1. O'zbek xalqi oilaviy marosimlari tasnifini ishlab chiqing.
2. O'zbek xalqi nikoh to'yi marosimlari tarixiy taraqqiyotiga oid ma'lumot bering.

## FOLKLOR IJRO SAN'ATIDA O'ZBEK XALQINING KIYINISH MADANIYATI BILAN BOG'LIQ UDUM VA MAROSIMLARI

**Reja:**

***1. Milliy liboslarda xalq turmush tarzining ifodalanishi.***
***2. O'zbek xalqi kiyinish madaniyatining tarixiyligi.***
***3. Kiyinish odob va axloq mezoni.***
***4. Libos madaniyat belgisi.***

Kiyinish har bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan mintaqasi, shart-sharoiti, turmush tarzi, udum, urf-odatlari, tabiati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ma'naviy barkamolligi, milliy madaniyatini belgilaydi.

Yaxshi kiyinish o'ziga xos san'at. Kishi bu san'atni egallashi uchun kiyinish talablariga rioya qilibgina qolmay, balki o'z estetik didini ham uzluksiz tarbiyalashi kerak. Didni tarbiyalash uchun qonunlar me'yori va o'zaro mos tushunchalarga asoslangan san'atning barchasi bilan tanishib borish lozim.

Kiyimlarda inson ta'lim tarbiyasi aks etgan. Insonning did farosati kiyim-boshda, hayotiy harakatlarda, o'zini tuta bilishida ko'zga tashlanadi. Didli farosatli kishi hamisha shu qiyofani saqlab qoladi.

Tashqi qiyofaga e'tibor berish, ichki ma'naviy go'zallikning ifodasi hisoblanadi.

O'zbek xalqlar odobli insonni faqat yangi kiyinishidan emas, balki uning kiyinish madaniyatidan yaxshigina ajratib oladilar.

Marosim va udumlarni sahnalashtirib, ommaviy tadbirlarga tadbiq etishda ijroning yanada mukammal bo'lishida o'zbek xalqining qadimiy kiyim, bezak va taqinchoqlarining o'rni beqiyosdir.

Darhaqiqat, insonning did farosati kiyim, hayotiy harakatlarida o'zini tuta bilishdan ko'zga tashlanadi. Samimiy oq ko'ngil, o'ziga talabchan, umuman tarbiyali - ma'naviyatli kishi tashqi ko'rinishida sun'iylikka yo'l qo'ymaydigan tarzda kiyinishga, o'zini shunga munosib tutishga harakat qiladi. Didli, farosatli kishi hamisha ana shu qiyofasini saqlab qoladi. Tashqi qiyofaga e'tibor berish ichki ma'naviy go'zallikning ifodasi hisoblanadi.

Yaxshi did avvalo farosatlilikda namoyon bo'ladi. Orastalik birinchi navbatda kiyim bilan poyafzal, bosh kiyimi, sumka, qo'lqoplar rangi va shakllarining uyg'unligi demakdir. Kostyum orastaligi uning bezaklari, detallari, qismlaridagi uyg'unlashgan ranglar me'yori bilan ham bog'liqdir. Zamonaviy modadagi kiyimda ranglar majmui bir yoki ikki xil rangdan iborat bo'la olmaydi. Kiyimlarda ko'pgina ranglarning och, to'q va murakkab birikmasi mavjud bo'ladi. Bir rangning och, to'q xillaridan yoki bir-biriga yaqin ranglar (zangori bilan ko'k, to'q sariq bilan jigarrang) dan, shuningdek (oqish, sarg'ish, pushti rang, moviy va shu qabilardan foydalanib orastalikni ta'minlash mumkin. Oq bilan qora, ko'k bilan oq ranglarning ham muvofiqlashtirib orastalikka erishish mumkin. Bu ranglarning o'zaro muvofiqligi - me'yoriy bir modelda saqlay bilish kerak. Orastalik bilan kiyilgan kiyim uning aniq sharoitida munosibligi, kishining mashg'uloti, voqea, muhit va shu qabilar bilan muvofiqligi hamdir.

Kiyinishda orastalikning teskarisi - didsizlik belgisi sifatida namoyon bo'lg'uvchi bachkanalikdir. Ish joyida katta zirak serhasham taqinchoqlar taqish, bashang kiyinish, tor yoki o'ta keng yubka, shim kiyish bachkanalik bu modani buzish demakdir. Agar buni zamonaviy moda deb da'vo qilsalar aksincha didsizlikdir.

Zamonaviy modalarni inkor etuvchi ayrim kishilar «bizlar modaga asoslanib kiyinmaymiz» - deb uylashadi. So'nggi modada kiyinish mumkin, yoki eskirgan, vaqti sal o'tgan modalarda ham kiyinish mumkin. Kiyim atrofdagilar ko'z o'ngida kishi gavdasini kulgili ahvolga solib qo'ymasligi lozim. Birinchi navbatda yaxshi kiyinish



inson didiga bog'liqdir. O'ta modadagi kiyim ham juda eskirgan modadagi kabi g'ayritabiiy beo'xshov, xunuk ko'rinadi.

Kiyim kishining gavdasini chiroyli yoki xunuk qilibgina qolmay, kishining o'z muhitiga munosabatini ham ifodalaydi. Ish paytida ayol kishi juda serhasham kiyinsa o'zini ko'z-ko'z qilayotgandek bo'ladi. Aksincha tantanali daqiqalarda kundalik oddiy ish kiyimida yursa atrofdagilarning kayfiyatiga e'tiborsizlik bilan qarayotganini ko'rsatadi.

Did bilan kiyinish kishining o'ziga tanqid bilan qaray olishini ham ifodalaydi. Kishi o'z tabiiy nuqsonlarini sezib, uni boshqalarga sezilmaydigan qilib kiyinmog'i kerak Kiyim tanlayotganda yoshni ham unutmaslik kerak Yoshlar sport kiyimlari bichigida kiyinadilar. Ochiq rangli, guldor kiyimlar ularga ko'proq yarashadi. O'ttiz yoshdagi o'zbek ayollar (shartli ravishda) didi modaga asos deb qabul qilingan. Bu yoshda ayol uz qiyofasini yaxshi bilmog'i, husniga-husn qo'shiladigan kiyimlarni tanlay olmog'i lozim.

Qirq yoshdan keyin esa o'tgan yillar oqibatida vujudga keladigan ayrim nuqsonlarni (kiyim va pardoz bilan) yashirish kerakligini unutmaslik lozim. Semiz yosh ayollar ham odmi kiyimlar bilan kifoyalanmasliklari, semizlikni sezdirmasliklari kerak. Chunki odmi kiyim semizlik bilan birga yoshlikni ham, latofatlilikni ham yashirishi mumkin. Muhimi kiyinishning shakli va rangi me'yorida bo'lmog'i kerak. Semiz keksa ayollar ham rangdor kiyimlardan voz kechmasliklari, faqat juda guldor matolardan tikilgan kiyimlarnigina kiymasliklari kerak.

O'zbek madaniyati orasida kiyinish madaniyati ham muhim o'rin egallaydi. Ota-bobolarimiz yoshlarga hamisha toza, ozoda, yarashiqli, chiroyli kiyinishni o'rgatishgan.

Kiyinish odobi xaqida Husayn Voiz Koshifiy o'z fikrlarini bayon etib quyidagilarni aytadilar: "Liboslar rangi turlicha bo'ladi. Har bir rang o'ziga xos ma'noni ifodalaydi. Agar oq libos kiyimi kunning rangini ifodalasa, bunday libos yuragida gina adovati bo'lmagan kishilarga yarashadi. Chunki oq kiyim kiygan kishi xuddi tong kabi kishilarga nur ulashib turadi. Ko'k rang suv rangini bildirib, bu rangda kiyingan kishilar zakiy va hayotni sezuvchi bo'lishlari bilan farqlanadilar. Kim agar bu rangni ma'qul ko'rsa, u xuddi suvdek toza va musaffo, har bir qalbga yaqin bo'ladi. Qora rang tun va ko'z qorachig'ining rangidir. Shuning uchun ham bunday libos kiyganlarning qalblari siru asrorlarga to'la bo'ladi. Yashil rang osmon

va yetuk kishilar rangidir. Bunday kiyim kiygan kishi osmon kabi sof va bag'ri keng bo'lishi, yordamga muhtoj kishilarga iloji boricha yordamlashadigan fazilatga ega bo'ladi.

O'zbek xalqida biror to'y, tantana yo'q-ki unda turli mavsum va marosimga mos kundalik taqinchoqlar taqilmaydigan bo'lsin. Kelin kuyovlarga, sunnat qilingan to'y bolaga hatto beshikdagi chaqaloq uchun ham muayyan taqinchoqlar taqilgan.

O'zbek qiz-juvonlar, momo-yu, buvilari albatta o'z yoshlariga munosib taqinchoqlar taqqanlar. Taqinchoqlar taqish ham har bir millat madaniyati tarkibiga kiradigan umri boqiy udumlardan biridir. Kiyinish odati singari taqinchoq taqish odati ham insoniyat paydo bo'lib, takomil topib bizning kunlarimizgacha yetib kelgunga qadar unga bir umrlik hamroh sifatida rivoj topib rang-baranglashib kelmoqda.

Taqinchoqning turi, vazifasi, xizmati ko'p. Shuning uchun ularni uch turga bo'lish mumkin:

1.Bezak taqinchoqlar.

2.Irim e'tiqod bilan bog'liq taqinchoqlar.

3.Shifobaxsh taqinchoqlar.

Bulardan tashqari, maishiy xizmat uchun tiqiladigan, muayyan vazifani bajarishga qaratilgan taqinchoqlar ham bor-ki, ular turli tugma, to'g'nag'ich, qadagich, tutqich, bog'lag'ich, zanjir va boshqalar bo'lib, kiyim yordamchi buyumlari sifatida ishlatiladi.

Taqinchoqlar tumor, to'g'dona, ko'zmunchoq, marvarid, tasbeh, po'paq, shokila, tillaqosh, quloqqa xalqa, buloqi (burundik) zulfmunchoq, qalampirmunchoq, uzuk va h.k. iboratdir. Taqinchoqlarga yondosh xino, o'sma, surma va boshqalar ham bor-ki ularni ham uchinchi tur taqinchoqlar yoniga qo'yish mumkin.

Bezak taqinchoqlarga bo'yinga taqiladigan turli marvarid, oltin – kumush, zabarjad, marjonlar qo'llardagi uzuklar, bo'yinlardagi marjon, quloqlardagi xalqa, burun buloqilari, oyoq shillik va tirnoq taqinchoqlari kiradi.

Irim-e'tiqod taqinchoqlarga tugdona, ko'zmunchoq, tasbeh turli tumorlar kiradi. Irim bilan bog'liq odatlar uy hayvonlariga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan: sigir, ot, ho'kiz singari uy hayvonlari shox va yollariga ins-jins, yomon ko'zdan asrash uchun ko'zmunchoq tumor tikish odati mavjud. Qo'y, ot, mol, kalla chanog'i, isiriq chaqir tikanaq, taqa, munchoq osish ko'rinishlari ham xuddi shu odatlarga yaqin turadi. Tumor taqish, taqinchoq taqish odati juda keng tarqalgan. Tumorlar mulla-eshon, azaimxonlar tomonidan maxsus tayyorlanib, sochga,



chopon yo do'ppiga, beshik va belanchakka, yotoq-uy, xonadonlarga osib qo'yilgan.

Tumorlar o'zbek buvi va momolari tomonidan shunchaki kiyim ichiga, tashiga qalampirmunchoq yoki ko'zmunchoq solib ham shaklida taqilgan. Bunday uchburchak tumorlarni maishiy turmushdagi turli joylarda uchratish mumkin.

Uchinchisi shifobaxsh taqinchoqlar o'z amaliga ko'ra ikki hissa ko'proq vazifani bajaradi. Ular ham taqinchoq, ham bezak, ham davolovchi xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bularga qalampirmunchoq, to'g'dona, o'sma, xino, shifobaxsh sadaf, feruza, marvaridlar kiradi.

Tasbeh donalari ham har xil jinslardan ham terilgan qimmatbaho toshlar, gavharu-sadaflar, feruza toshlardan iboratdir. Turli urug donalari teshilib, ibodat uchun namozxon – niyozxonlar tasbeh yasaganlar. Xurmo, jiyda donalari, to'g'donadan yasalgan tasbeh sifat taqinchoqlarini ham bolalar beshiklari, uylarning kirish eshiklari yaqinida osilgan holda uchratish mumkin. Taqinchoqlar bilan bog'liq turli urf-odat, rasm-rusumlarni va udumlarni hozirgi kunda ham uchratish mumkin. Yosh bolalarning qo'lini halollashda salla o'rab, nishon taqib, egniga tamg'a qadash, kuyovlarga bosh oyoq sarposiga taqinchoq ilish qabilardir.

Kelinlarda tillakosh, zebigardon, turli marjon marvaridlar osish, ko'ylak yenglari, tugma urnidagi taqinchoqlar, bo'yinbog' va boshqalar hozirgi zamonning ham asosiy taqinchoqlaridan bo'lib qoldi..

Turli safarlar, mukofotlar, xizmatdagi yutuqlar uchun berilgan ko'krakka taqiladigan turli-tuman nishonlar ham xuddi shu odatlarning hukumat tomopidan rasmiylashtirilgan ko'rinishidir.

Umuman o'zbek xalqining taqinchoq taqish odati kiyinish, bezanish, turli marosim va to'y – tomoshalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'zbek xalqi maishiy turmushida ham madaniyat dunyosiga dahldorlikning moddiy ko'rinishi sifatida yashab kelmoqda, istiqbolda ham shunday bo'lib qolishi kerak

Umuman o'zbek xalqining eng go'zal ko'rinishi - bu odob-axloq, hayo va iffatdir. Iffat orqali el-xalqqa yoqadigan komil inson bo'lib, kelajak avlodga, vatanga sadoqatli yoshlar bo'lib etishadilar.

Hozirgi kunda yoshlarimizning go'zalligi, odobi, axloqi, yurish-turishidan tashqari tashqi qiyofasi kiyinish bilan xalq orasida e'tiborli bo'lishi kerak.

Xalqimizda «elga kirsang egningga qara» degan hikmat bor. Bizning ajdodlarimiz bo'lmish bobolarimiz va momolarimiz zukko, donishmand insonlar bo'lgan. Ular har bir so'ziga, ramzlari-yu, ishoralariga ham teran mazmunlar singdirishgan. Bu hikmatning tub mazmuni el ichiga kirdingizmi, uning bir parchasi bo'lib ko'ring, uning an'analari tarixi fe'l-atvori, sha'niga munosib bo'lib kiyinishga, yashashga harakat qiling» - degan ma'noni anglatadi.

Har bir hududning o'ziga xos havas qilsa arzigulik kiyimlari bor. Masalan, zar choponni qadimda ko'proq Buxoro, Samarqand kuyovlari kiyishgan. Farg'ona vodiysida esa kuyovlar ko'k beqasam, Surxondaryo, Qashqadaryoda yo'l-yo'l beqasam, Toshkent va uning atroflarida baxmal chopon, Xorazmda esa yana bir boshqa kuyov choponi bo'lgan. Kelinchaklarimiz esa ijaraga olingan ovrupacha ok ko'ylak emas, balki oq surpdan tikilgan nikoh libosida bo'lishgan.

Biz yangi liboslarning milliy mohiyatini saqlagan holda zamonga moslashtirishimiz lozim. Chunki biz ma'naviyat borasida bir narsa axtarib uzoqqa bormaymiz. Hamma poydevor o'zimizda. Bizdagi kiyimlarning har nuqtasi nima xaqidadir ma'no kasb etadi. Masalan, ayollar durrasining uchi o'ng tarafga tashlansa – bosh egalikman, chapga tashlansa - boshim ochiq, ro'zg'orim buzilgan; o'rtaga qo'ysa – bevaman, degan ma'noni anglatgan. Liboslar xaqida gap ketganda, xalq dostonlarini eslayman. Millatimizning eng go'zal iffatlarini o'zida jam etgan timsollarimiz chavandoz, mergan qizlar chaqmoqday kiyinishib, kiyiklarday uchishgan. Shu tasavvurlardan olish kerak andozalarni. Xar bir marosimning o'z kiyimi bor. Xalqimizda aza kiyimlariga e'tibor bilan qaralgan. Piru badavlat bo'lib dunyodan o'tganlar uchun aza tutayotgan ayollar ok mayda gulli matolardan libos kiyganlar. Bevaqt zavol bo'lganlarga azadorlar ko'k kiyishgan. Bugun bu an'analarga befarq qaraymiz. Aslida an'analarimizning har birida olam-olam mazmun va ma'no bor.

Liboslar qulay yashash uchun xizmat qilmog'i darkor. Liboslar insonning ma'naviy kamolati, go'zallik tuygusi, oliyjanob maqsadlariga ko'zgu hamdir. Axir odamlar qimmatbaho dabdabali kiyimlarga erishmoq uchungina yashamaydilar, balki madaniy hayot tarzi, xayot ehtiyoji bo'lganligi uchun kiyim-kechak qiyadilar.

Ma'lumki, o'zbek xalqi tomonidan iqlim, sharoiti, kiim, ruxiyat bilan bog'liq ravishda kiyimlarning shaklu-shamoili, rangi, matolarning turlari asrlar davomida shakllangan tabiiy bizning kunimizgacha kelgan. Masalan, do'ppilar, choponlar, kovush-maxsi, belbog'lar,



bobolarimiz, momolarimizdan bizga shunchaki meros emas. Bu liboslarning har birida tabiiy hamda ma'naviy ehtiyojlarimiz bilan bog'liq bo'lgan haqiqatlar mujassamdir. Masalan, tabiblarning aytishlaricha, jazirama quyoshida yalangbosh yurish turli xil bosh og'riqlarini keltirib chiqarish bilan, sochning to'qilib ketishiga sabab bo'lar ekan. Erkaklarning do'ppisi, ayollarning oq durra bog'lab yurishi ana shunday dardlarning oldini olar ekan. Shuningdek, u bevosita jinsiy jihatlar bilan bog'liq hodisa. Bu borada o'zbek ruhshunoslarining ilmiy-amaliy tadqiqotlariga diqqat qilinsa, oilaviy ajrishlarning yil sayin ortib borishiga ayollarning uta zamonaviy, ya'ni badanning ko'p joyi ochiq koladigan kiyimlar kiyishlarini ham sabab deb ko'rsatmokdalar. Chunki ayollar qanchalik ochiq-sochiq yursalar, ularning jozibaliligi, sirligi o'ziga jalb qiluvchi kuchi qisqasi ohangrabosi shunchalar kamayib borar ekan. Zamonlar hayot kitobini yangiliklar bilan tahrir qilaveradi. Liboslarga ham o'z hukmini o'tkazaveradi.

Lekin ana shu zamonaviy kiyim – kechaklarini milliy matolar, chizgilar, bichimlar bilan uyg'unlashtirish ozlarimizning muqaddas burchlaridir.

O'zbek xalqining ko'z-ko'z qilsak arziydigan milliy kiyimlarimiz bor. O'ylab qaralsa, bu kiyimlarimiz bosh va oyoqlarni turli xastaliklardan xalos etadi. Tanamizni o'zga nazardan pinhon tutadi.

O'zbek xonadoniga mehmon kelishi udumi bir bayram sanaladi. Uy bekalari mehmon uchun alohida dasturxon yozib eng tansik taomlarni pishiradilar. Hammayoqni chinni-chiroqdek yaltillatib qo'yadilar. Ayollarimizning mehmon kelishidan avval orolanib, chiroyli liboslar kiyib olib, mehmon kutishlari qadimiy momolarimizdan qolgan an'anadir. Qadimda har bir uy bekasining faqat mehmon kelganda kiyadigan bir-ikki sidra chiroyli liboslari bor bo'lgan. To'y-to'ychiqqa kiyadigan libos alohida, mehmonga boradigani alohida, azaga borganda kayadigani alohida bo'lgan. Hozir ham shu taomillarga amal qilgan holda mehmon kelganda, mehmonga borganda, ko'chada va idorada kiyish uchun alohida liboslar bo'lgani ma'qul. Tungi liboslar har bir ayolda bo'lishi shart.

Bunday liboslar engil, yupqaroq gazlamalardan keng va qulay qilib tikdirilsa yanada yaxshi bo'ladi. O'g'il – qizlarimizga ham shunday kiyimlar tikib berishimiz, ularni shunga odatlantirishimiz zarur.

Balog'at yoshidagi qizlarga hashamdor libos, qimmatbaho taqinchog'u pardoz andozning xojati yo'q. Axir yoshlikni o'zi bir

olam go'zallik ba'zi qizlarimizning ko'chada o'zini to'tishi, kiyinishini ko'rib kattalar xijolat tortadi. U qiz bolami yoki kelinchakmi, farqlash qiyin. Naqsh olmaday tiniq yuzlariga chaplab, ola bayroq liboslarni egnilariga ilishadi. Bu o'rinda aybni o'sha qizlarning o'zlariga qo'ysak xato bo'lar. Onalar qayoqqa qarashadi, axir. Ular qizlarini bunday holatga solgandan ko'ra, hunar o'rgatib, ro'zg'or yumushlariga tayyorlaganlari foydaliroqdir.

Ust kiyimlar rangi tikilishi jihatdan bir-biriga mutanosib bo'lmog'i lozim. Qaysi kiyimni qachon kiyish kerakligini, qaerda qanday kiyinish lozimligini ham bilish kerak Masalan, xalat bilan ko'chaga chiqish yaxshi emas. Sochini mayda o'rgan qizlarning boshyalang yurishi ham noo'rin. Hatto taqinchoqlar ham kiyim rangiga uyg'unlashgan bo'lsa yaxshi. Ba'zi qiz juvonlarimiz uy ichida kir-chir, nobop kiyimlarda yurishadi-yu, ko'chaga chiqqanlarida aksincha yaltur-yultur, hashamdor liboslari bilan ko'pchilik e'tiborini tortishadi. Biz o'zgalar e'tiborini emas, balki o'z e'tiborimizni hisobga olishimiz zarur. Ust kiyimimizning hamisha toza va ko'rkam bo'lishi kayfiyatimizga, ishimizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qadimda momolarimiz har bir kiyimni juda qadrlashgan, eski bo'lgan chog'dayam uni tashlab yubormaganlar, aksincha boshqa maqsadlarda foydalanishgan. Bosh kiyim hamda oyoq kiyimni begonalarga bershmagan, irim qilishgan. "Axir kiyimda o'z egasining ruhi bo'ladi" - degan gan bejizga aytilmagan.

Shuning uchun ayniqsa nikoh kuylagini xarid qilishda ehtiyot bo'lmoqliklari lozim. Chunki nikoh kuylagi ohorlik oq surpdan tikilgan bo'lib, faqat kechqurun kiyilgan. Boshqa paytlarda esa atlas lozim, atlas ko'ylak kiyilgan. Shundan uning kelinchakligi bilingan. Umuman liboslarni qimmat yoki arzon matodan tikilgan bo'lishiga qaramasdan u kishiga yarashimli bo'lishi lozim. Shundagina uni kiygan ayol yoki qiz oilada go'zal ko'rinadi. Unga esa hayo, ibo, samimiyat aralashsa, oila yanada mustahkam. charogon bo'ladi. O'zbek oilasining charog'onligi liboslarga ham bog'liqdir. Ijtiomiy hayot o'zgarishi bilan liboslar ham o'zgarib boradi. Dunyo sahnasiga chiqib borayotgan Respublikamiz odamlari ham eng zamonaviy, ko'rkam, qulay, kiyimlarni kiyish bilan birga asrdan-asrga o'tib, ko'z qorachig'iday tariximiz, ko'rkimiz, ham milliy g'urur va iftixorimiz bo'lib avlodlarga qolishi kerak.



**Nazorat va muhokam uchun savollar:**

1. Milliy liboslarda xalq turmush tarzining ifodalanishini tushuntirib bering.
2. O'zbek xalq kiyinish madaniyatining o'ziga xos jihatlarini tasniflang.
3. Kiyinish madaniyatining tarixiy jihatlari haqida ma'lumot bering.

**Topshiriqlar:**

1. Libos o'zbek xalqining milliy ma'naviy madaniyatini aks ettiruvchi omil ekanligini tasvirlang.
2. Qadimiy milliy libos va taqinchoqlarning tarixiyligini tasniflang.

## YIL FASLLARI BILAN BOG'LIQ MAROSIMLAR

**Reja:**

***1. Bahorgi marosimlar.***
***3. Yoz fasli bilan bog'liq urf-odatlar.***
***3. Kuzgi marosimlar.***
***4. Qish fasli bilan bog'liq urf-odatlar.***

Yil taqvimi bilan bog'liq urf-odat va marosimlar tahliliga oid tadqiqotlardan ma'lumki, quyoshning yillik harakati davomidagi burilish nuqtalari: bahorgi va kuzgi tengkunlik hamda yozgi va qishki quyosh turishi kunlari davriy chegara vazifasini o'tagan.

Sharq xalqlari, jumladan, O'rta Osiyo xalqlari ham amal qiluvchi quyosh taqvimi esa bahorgi teng kunlik(21 mart)dan boshlangan va yangi yil bayrami-Yilboshi (so'g'diylarda-Navsard, xorazmliklarda-Novsorji) -Yangi, ro'z-kun) nomlari bilan bayram qilgan.

Hozirda ham katta tantanalar bilan nishonlanuvchi ulug' bayram-Navro'z makon va zamon haqidagi dastlabki tasavvurlar paydo bo'lgan zamonlardan boshlab shakllangan. O'sha davr qarashlariga ko'ra yil qish va yozdan iborat bo'lib, uzoq davom etgan sovuq va ochlikdan so'ng issiq kunlarning boshlanishi o'zgacha kayfiyatda, katta tantanalar bilan kutib olingan hamda bayram qilingan.

Mazkur bayram dastlab o'troq dehqonlarda, so'ngra yarim o'troq va ko'chmanchi turkiy xalqlarda urf bo'lgan. O'rta asr muarrixi Narshaxiy Navro'zning bayram qilina boshlaganiga «...uch ming yildan ortiqroq vaqt o'tdi», deb yozgan bo'lsa, zamonamiz tarixchilari turli

arxeologik materiallar va tarixiy manbalarga asoslanib «uning ildizi neolit...ga borib taqaladi» degan xulosani bildiradilar.

Navro'zdan bir kun oldin katta doshqozonlarda bayram taomi «Sumalak»ning pishirilishi ham «qozon to'ldi» udumi bilan bog'liq qarashlar natijasi hisoblanadi. Ushbu taomning tayyorlanishi jarayonida bir qator ta'qiqlar mavjudligi esa uni hosildorlik kulti bilan bog'liq ekanligini isbotlaydi. Ulkan qozonlar qadimdan muqaddas sanalib, ularda tangrilar sharafiga maxsus taomlar pishirilgan. Serhosillik timsoli hisoblangan bunday qozonlarda pishirilgan sumalakdan tanovul qilgan kishiga yil bo'yi omad, qut-baraka yor bo'ladi degan qarashlar qadimdan mavjud bo'lgan.

Farg'ona vodiysi dehqonlari Navro'z arafasida etti taxtacha ustiga bug'doy, arpa, sholi, jo'hori, tariq, javdar, mosh kabi donli ekinlarning urug'larini yoyib qo'yib, har kuni suv sepib turganlar. «Qozon to'ldi» kuni ana shu donlarning unishiga qarab, kelayotgan mavsumda qaysi ekindan mo'l hosil olish mumkinligini chamalaganlar. Ushbu odat qadimda podshohlar saroyida ham o'tkazilganligi manbalarda ko'rsatilgan.

Oldinlari o'zbeklarda Navro'z bayrami qishloq joylarda dalaga qo'sh chiqarib, urug'lik don sepish bilan yakunlangan. Ushbu marosimlar ham bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, «shoxmoylar», «urug' sepish», «qo'sh oshi» kabi nomlar bilan atalgan va unda Bobo Dehqonga atab qurbonlik qilingan.

Xorazmdagi o'zbek mang'itlar orasida bahorda dastlabki erga ekin ekishda «hazrati odamning haqiga» deb ho'kizlarning shoxi moylangan.

***«Lola sayli»*** o'zbek xalqining qadimiy milliy sayillaridan biri bo'lgan. Xorazm, Buxoro va Boysunda "Qizil gul (guli surx) sayli", Qo'qon, Isfara va Toshkent atroflarida "Lola sayli", ba'zi tog'li tumanlarda, jumladan, Chustda "Sunbula sayli", yana boshqa joylarda "Boychechak sayli" kabi bayramlar uyushtirilgan. Lola sayili Navro'z bayramidan keyin (aprelning oxiri-mayning boshlarida) lola va lolaqizdoqlar ochilgan vaqtlarda o'tkazilgan.

O'zbek xalqi turmushida boychechakning ochilishi dehqonlarga bahorgi yumushlarning boshlanganligini, tabiatning uyg'onganligini bildirgan. Lola bayramlari va boychechak sayli ayniqsa Farg'ona vodiysida keng nishonlangan. Bolalar "Boychechak" qo'shig'ini aytib, uyma-uy kirib, bahor darakchisining paydo bo'lganligi haqida suyunchi olishgan. Ular boychechakni avvaliga keksa yoshli qariyalarga berishga intilishgan. Chunki, bu gul ular uchun qadrli bo'lib, qishdan omon-eson



chiqqanligidan, yana bahor kelganidan, yangi hayot boshlanganidan darak bergan. Shuning uchun ham qariyalar boychechakni ko'ziga surtib, "Omonlik-omonlik, hech ko'rmaylik yomonlik, yanagi yil shu kunlarga eson-omon etaylik", deb yaxshi niyatlar qilishgan.

Bayramni xalq tomonidan saylangan "Lolachilar" boshqarganlar. "Lolachilar" o'z do'stlari bilan lola saylining qachon va qaerda o'tkazilishini aniqlab, xalqqa xabar bergan. Bayram maxsus joylada (sayilgohlarda) tashkil etilgan. Sayl o'tkazilishidan oldin "lolachi" maxsus daraxt yoki daraxtning chiroyli shoxidan kesib olib, lolalar bilan bezagan. Keyin uni qishloq ko'chalaridan olib o'tgan. Buni ko'rgan odamlar ko'chaga chiqib, ko'ngliga tugib qo'ygan niyatlarini aytib, daraxtlar shoxiga turli mato parchalari, ro'molchalar bog'lashgan. So'ng "Lolachilar" ga ergashib, o'yin-kulgi qilib, lolazor tomon yo'l olishgan. Belgilangan joyga kelishganidan so'ng "Gul daraxti" markazga o'rnatilgan va oqsoqollar duosi bilan bayram boshlangan. Bayramning ikkinchi kuni muqaddas mozor va qabristonlar ziyorat qilingan. Bunda erkaklar va ayollar alohida-alohida ziyoratgohlarga borganlar. Lola sayllari va qolaversa gul bayramlarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, ziyoratgohlarga va qabristonlarga borish bu bayramlarning bir tarkibiy qismi bo'lgan bo'lib, buning sababi birinchidan, odatda gul sayllari gullar ko'p ochiladigan joylarda o'tkazilgan. Qabristonlar atrofida shunday joylarning biri bo'lgan; ikkinchidan, vafot etganlarni xotirlash Sharq xalqlari bayramlariga mos bo'lgan; uchinchidan va eng qiziqarlisi, bahor gullaridagi qizil rang ko'pincha inson qoni bilan taqqoslangan. Xalqda shunday tushuncha borki, go'yo qizil gullar o'z ranglarini vafot etgan kishilarning qonlaridan oladi. Qariyalar so'zlab bergan afsonalarga ko'ra, vafot etganlar qonini er shimadi, gullar esa ana shu qizil rangni o'ziga olib, ularga ikkinchi hayot baxsh etadi va erni go'zal libos--bahor gullari bilan bezaydi. Qolaversa Isfarada ayollar boradigan mozor ham Abduloi Surx (qizil) deb nomlangan bo'lsa Boysunda bahorda qizil gul sayli o'tkaziladigan mozor guli surx (qizil gul) deb atalgan. Sovetlar hukmronligi yillarida boshqa an'anaviy sayillar kabi lola sayilini ham ilgaridek to'kin-sochin bayram qilish deyarli barham topgan edi. Mustaqillikdan keyin an'anaviy lola va boychechak sayillari qayta tiklandi va ayrim qishloqlarda bahor kelishi bilan aprel oyining oxirgi haftasida odamlar yig'ilishib boychechak sayli o'tkazgani qir-adirlarga chiqish ommaviy rasm bo'ldi. Ular dashtdan boychechaklarni dasta-dasta qilib terib kelishib, yaqin kishilarini bahor kelganligi, qishdan eson-omon chiqib olganliklari bilan tabriklashadi. Boychechak sayllari

oldingi ramziy ma'nosini ma'lum darajada yo'qotib o'yin-kulgi, sayl ko'rinishida saqlanib qolgan.

Xorazmdagi ***Qizil gul sayli*** Xiva shahri yaqinidan qishloqlari jumladan Bavoris bobo qabristoni atrofida uyushtirilgan. Sayli yoshlar o'zlari yasagan guldastalari qarindosh-urug'lariga, yor birodarlariga sovg'a qilganlar. Yigit-qizlar bayram boshidan oxirigacha o'z do'ppilariga qizil gul qadab qo'yganlar. Bayramning birinchi kuni yigitlar alohida, qizlar alohida saf-saf tengqurlari bilan bir-birining uylariga borib, ota-onalarini, yoshu qariyalarni bayram bilan muborakbod qilganlar, qo'shiq aytib, raqsga tushganlar. Bayramning ikkinchi kuni machit qabriston yaqinidagi bo'lib xushmanzara joylarda xalq yillari tashkil etilgan. Sayil davomida «Yor tanlash» marosimi ham o'tkazilgan. Gul sayllarining asosida asosan bahordagi dehqonchilik yumushlarini boshlanishi yotgan bo'lib gullarning ochilishi dehqonlarga navbatdagi ziroatchilik mavsumini boshlanganligini anglatuvchi o'ziga xos feneologik holat hisoblangan. Shu bois Xorazmda «Qizil gul bayrami boshlangan kuni jo'xori, sholi va boshqa ekinlar urug'i ekilgan. Shuning uchun ham bayram tantanalari qancha yaxshi o'tkazilsa, bahorda dehqonchilik ishlari ham muvaffaqiyatli boshlanib hosil mo'l ko'l bo'lishiga ishonch bildirilgan.

Umuman olganda yil taqvimi bilan bog'liq bahoriy marosimlarning barchasi «birinchi kun» magiyasi bilan bog'liq hisoblanadi. Odamlarning yangi yil hamda birinchi ish kunini poklangan holda va ko'tarinki kayfiyat bilan o'tkazishga harakat qilishlari keyingi ishlarda muvaffaqiyat, qut-barka olib keladi degan tasavvurlar natijasida shakllangan. Tabiat kultlari bilan bog'liq bo'lgan gul sayllari esa o'lish va jonlanish, fasllar almashinuvi, hayot davomiyligi kabi qarashlar natijasidir.

O'zbek xalqi taqvimiy marosimlari tarkibidagi yoz fasli bilan bog'liq marosimlar ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yilning ushbu davridagi taqvimiy marosimlarga turli sayillar hamda hosilni asrash va yig'ishtirib olish bilan bog'liq marosimlar kiradi.

Yoz mavsumining birinchi oyi Saraton yozgi quyosh turishi kuni 22 iyundan boshlanadi. Saraton oyi xalq orasida «yozgi chilla» deb ham yuritiladi va bu davrda hammaning suvga ehtiyoji kuchayadi. Natijada taqvimiy marosimlar takibidagi suv bilan bog'liq odatlar, sayllar boshlanadi. Suvga bag'ishlangan qadimiy odatlardan biri O'rta Osiyoda bayram darajasiga ko'tarilgan. U yozning maxsus kunlari odamlarning daryo va suv havzalariga borib cho'milishi vaqtida vujudga kelgan.



Ma'lumotlarga ko'ra yozning eng issiq chilla vaqtlari(iyul oylari)da Surxondaryo viloyatining Denov va Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanlarida qadimdan suv sayli o'tkazib kelingan. Kitob tumanidagi «Oq daryo»da o'tkaziluvchi suv sayli uch chorshanba kuni o'tkazilgan. Bu tadbir yozda «Oq suv» (tojikcha «Obi safet»), «Loyqa suv» («Obi loyqa»), «Teskari suv» («Obi chappa») kabi nomlar bilan ham atalgan.

Yoz faslida Saratonning boshlarida o'tkaziladigan sayllardan yana biri «Tut sayli» hisoblanadi.«Tut sayli»ni o'tkazish davomida odamlar qish uchun kerakli ozuqa hozirlaganlar, shuningdek, o'yin-kulgi qilishib, dam olishgan, tomoshalar va musobaqalar uyushtirganlar. Xullas, tut sayli kishilarga moddiy va ma'naviy foyda keltirgan.

Yozda o'zbeklar orasida o'tkaziladigan navbatdagi taqvimiy marosimlardan biri «qum sayl»i bo'lib, u shifobaxsh qumlar mavjud bo'lgan hududlar-Farg'ona vodiysida va Xorazmning ba'zi joylarida o'tkazilgan.

O'zbeklar ham qadimdan g'alla o'rimiga alohida mas'uliyat bilan qarab kelganlar. O'rimni boshlashdan oldin biror jonliq so'yib qurbonlik qilish odati mavjud bo'lgan va u «xayri xudoyi» deb ham nomlangan. Bu odat Allohga qilingan xayr-ehson bo'lib, «xudo yo'li», «xatmi qur'on», «duo-yu fotiha», «qon chiqarish», «qurbonlik» deb ham atalgan. Taniqli elshunos olim E.B.Taylor xayri-xudoyi marosimlarini xuddi iltijo va duolar kabi insoniyatning ilk, eng quyi bosqich diniy taraqqiyotiga xos deb qaraydi. Umuman, qurbonlik qilish diniy e'tiqodning qadimiy, ilk shakllaridan to zamonaviy, jahon dinlariga ham xos bo'lgan marosimdir. Ushbu marosimda qishloq oqsoqollari, din peshvolari va o'roqchilar ishtirok etgan. Dastlab 5-6 ta cho'zma pishirilib, «is» chiqarilgan. So'ngra birorta «jonliq» so'yilib, qon chiqarilgan va «xudoyi oshi» pishirilgan. Marosim ishtirokchilari taomni iste'mol qilganlaridan so'ng qishloq mullasi «Qur'oni Karim» oyatlaridan o'qib Allohdan, Bobo Dehqon va aziz-avliyolardan hosilning mo'l bo'lishini, xirmonning barakasini berishini, yog'ingarchilikka qolmasdan hosilni yig'ishtirib olishda madadkor bo'lishlarini so'raganlar. Qishloq oqsosqollari hosil yig'imini boshlab berib, qishloq aholisini tezroq ishlashga, harakatni jadallashtirishga da'vat qilganlar. Xayri-xudoyi o'tkaziladigan omadli, hosiyatli kun oldindan oqsoqollar yoki xalq hisobdonlari tomonidan belgilab berilgan.

Yozning oxiri, kuzning boshi ya'ni «baxmal mavsumi» bayram va marosimlarga boy bo'lib, bu mavsum xalq orasida «pishiqchilik,

to'qchilik davri» deyiladi. Mazkur davrda «don yanchish» va «xirmon ko'tarish», «shamol chaqirish», «bog' sayli», «qovun sayli», «olma sayli», «uzum sayli», «anor sayli», «mehrjon bayrami», «hosil bayrami» kabi ko'plab bayram va marosimlar o'tkazilgan.

O'zbeklar orasida kuzgi tengkunlikda o'tkaziluvchi qadimiy taqvimiy bayram «Mehrjon» dehqon va chorvadorlarning eng tantanali tarzda o'tadigan bayramlaridan biri sanalgan. Zero qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy «Quyosh va oy falakning ikki ko'zi bo'lganidek, Navro'z va Mehrjon zamonning ikki ko'zidir», Navro'z kuni tabiatda jonlanish boshlansa, Mehrjon kuni o'suvchi narsalar «...o'sish chegarasiga etib, o'sish moddalarining undan uzilishi va hayvonlarning nasllanishi to'xtaydi..» deb bejiz aytmagan.

Qadimdan «Navro'z» yangi yil va yangi ish mavsumining boshlanishi sifatida tanatana qilingan bo'lsa, «Mehrjon» o'simliklar dunyosining o'sishdan to'xtab, «uyquga ketishi» va mehnat mavsumining yakunlanishi sifatida bayram qilingan.

Ushbu qadimiy bayram keyingi ikki ming yil ichida alohida bayram sifatida nishonlanmay qo'yilgan bo'lsa-da, u butunlay yo'qolib ketmadi. «Mehrjon» kuz va hosil bayramiga bo'linib ketdi.

O'zbeklarda hosilni yig'ishtirib olish bilan bog'liq marosimlar turli tuman bo'lib, ulardan biri bu «qovun sayli»dir. Qovun sayli o'rta asrlarda katta tanatanalar bilan o'tkazilgan. Qashqadaryo vohasida yashovchi zukko o'zbek dehqonlar poliz mahsulotlari pishgan vaqtida qishloq oqsoqollari, qo'ni-qo'shni va yoru birodarlarini qovun sayliga taklif etadi va ularga polizning eng sara qovun-tarvuzlari tortiq qiladi. Oqsoqollar dehqonning hosiliga baraka tilab duo qiladilar va hosil yig'imiga ruxsat berishadi. Ana shundan so'ng dehqonlar saylning yoshroq ishtirokchilarini qovun uzish uchun hasharga taklif etadilar. Hashar oxirida yordamchilarga uylarga olib ketish uchun eng yaxshi qovunlardan hadya qiladilar.

Taqvimiy marosimlar yilning oxirgi choragi qish faslida o'z nihoyasiga etadi. O'rta Osiyo xalqlarida qish fasli bilan bog'liq marosimlar shimoliy, qorli o'lkalardagi xalqlardagiga nisbatan ozroq bo'lsa-da, lekin o'ziga xos bo'lgan «Birinchi qor», «Gap-gashtak», «Sandal o'yinlari», «Yaldo kechasi», «qishki chilla» (Chilla kirdi, Kichik chilla, Chilla chiqdi) kabi marosimlar va odatlar qadimdan o'tkazib kelingan.



Birinchisi, «qor xat» deb nomlanib, xursandchilik bilan; ikkinchisi, esa «qor yog'di» deb nomlanib, birmuncha qayg'uli tarzda nishonlangan.

«Qor xat» odati qadimda keng tarqalgan an'ana bo'lib, xozirga qadar davom etib kelmoqda. Odamlar belgilangan shartlarga ko'ra «qor xat»ni o'ziga yaqin, diliga siqqan kishilardan, ya'ni do'stlari yoki qarindoshlaridan biriga yozadilar va sezdirmasdan ularning qo'liga berishi yoki cho'ntagiga solib qo'yishi kerak. Xatni muallifning o'zi yoki boshqa biror odamni yollab etkazishi mumkin, faqat xatni berganidan so'ng borgan hovlisining chegarasidan chiqib olguniga qadar qo'lga tushmay qochib ketishi kerak. Aks holda u kulgili ko'rinishdagi ko'ngilsizliklarga uchrashi mumkin.

Maktubni «bilmay» qabul qilgan kishi xatni olib kelgan odamni hovlisining chegarasidan chiqmay turib ushlab olib, xatni uning qo'liga qaytara olmasa, xatda yozilgan shartlarni bajarishi kerak bo'ladi.

Agar xat darrov egasiga topshirilsa, unda xat muallifining o'zi maktubdagi shartlarni bajaradi. Ba'zi hollarda qo'lga tushgan «qor xat» muallifining yuziga qorakuya surtib, eshakka teskari o'tirgizib, ko'chalarda aylantirib odamlar orasida masxara qildirilgan.

Qishloqlarda «qor xat» olib kelgan odamning maqsadini xonadon egasi sezib qolsa, oldindan uning yo'liga poyloqchi qo'ygan va xat olib kelgan kishini ushlab olib, qor bilan yuzlariga ishqalab, qiynaganlar va uning o'zini ziyofat berishga majbur qilganlar.

Qorxat yozishdan asosiy maqsad «raqib»ni ziyofatga tushirish bo'lganligi uchun xatda ziyofat qachon, qaerda, necha kishiga berilishi lozimligi albatta ko'rsatiladi.

SHuningdek, odatga ko'ra ziyofatga qanday taomlar va nozu ne'matlar tayyorlash sharti aytilib, unga xat muallifi bilan birga boruvchi mehmonlarning nomlari ham ma'lum qilingan. Eng muhimi, «Birinchi qor» yoqqan kun qilingan ziyofat tufayli ginalar, xafagarchiliklar unitilishi, unda suhbat, yallo, qah-qaha avjiga chiqishi lozim ekanligi ta'kidlangan.

Birinchi qor yog'ishi bilan bog'liq ikkinchi odat «qor yog'di» deb nomlanib, joriy yilda birinchi marta qor yoqquniga qadar o'lik chiqqan xonadonlarda o'tkazilgan. Toshkent, Farg'onada o'lik chiqqan oilalarning a'zolari birinchi qor yoqqan kuni olamdan o'tgan oila a'zolarini xotirlab «is» chiqaradilar va xudoyi qiladilar hamda qabristonga borib, marhumning qabrini ziyorat qiladilar.

O'zbek xalqi tarkibidagi o'troq va ko'chmanchi etnoslarda ham mavjud bo'lgan bu kabi qadimiy marosimlar XIX asr oxiri-XX asr boshlaridan shakli o'zgarib, mahalliy aholi orasida: Xorazmda «gurung», «o'tirishma», «qidirishma», «ziyofat», Farg'ona vodiysi va Toshkentda–«gap», Buxoroda-«jo'ra», Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryoda–«gashtak», «suhbat» kabi nomlar bilan atalgan. Shuningdek, janubiy viloyatlarda ziyofatga 40 yigit to'plangani uchun u «qirq yigit» deb ham atalgan.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra gap-gashtak qadimiy erkaklar yig'ini «Yasa-yusun» marosimi asosida paydo bo'lgan. Ko'chmanchi chorvador aholiga taalluqli bo'lgan «Yasa-yusun» marosimi, XVII asrga qadar qimizxo'rlik marosim sifatida mavjud bo'lib, keyinchalik tariq va kurmakdan tayyorlanuvchi maxsus ichimlik – bo'za ichish bilan almashgan.

O'zbeklarda bu marosim sherda, bo'zaxo'rlik va ko'na o'tirishlari kabi nomlar bilan yuritilgan. O'troq xalqlarda uzum suvidan tayyorlangan-musallas, ko'chmanchilarda esa ko'proq bo'za ichilgan.

Qishki mavsumdagi gaplar ba'zi joylarda juma va bozor kunlaridan tashqari haftada uch marta o'tkazilsa, boshqa bir joylarda esa haftaning bozor va payshanba kunlaridan tashqari har kuni o'tkazilgan. Haftaning bozor va payshanba kunlari deyarli barcha xonadonlarda milliy taom-palov pishirilib, barcha erkaklar o'z oilasi davrasida bo'lishga harakat qilgan.

Gap a'zolari «jo'ralar», «ziyofatdoshlar», «gashtakxo'r», «gapxo'r» deyilgan. Farg'ona vodiysining asosiy hududlarida «gapxo'rlar»ning soni 15-25 (Andijonning Darlomon, Saroy, Arab-qishloq; Namanganning Elatan, Varzik, Qoraqo'rg'on va Farg'onaning Uch-yor qishloqlarida), kamdan-kam hollarda 25-30 (Namanganning g'ova qishlog'ida) kishidan iborat bo'lgan.

Hozirgi davrga kelib barcha joylarda gap ishtirokchilari asosan maktabda birga o'qigan do'stu-birodarlar orasida oyda bir yoki ikki martadan, qish mavsumida esa har haftaning oxirgi kunida o'tkaziladi. Ba'zi bir katta qishloqlardagi (aholisi qadimdan o'troq bo'lgan hududlarda) mahalla guzarlarida mahalladoshlar oldindan pul yig'ishib, bozordan oziq-ovqat mahsulotlari va boqilgan qo'chqor olib keladilar. Qo'chqorni so'yishib to go'shti tugagunga qadar har kuni (yakshanbadan tashqari) samovar(choyxona)da oshxo'rlik qiladilar. Oziq-ovqat zahirasi tugab qolsa, yana o'zaro pul yig'ishib bozorlik



qilganlar. Gapning ushbu ko'rinishida ishtirokchilarning yoshi chegaralanmagan.

XX asr boshlariga qadar qishki yuz kunlik muddat tugaganidan so'ng «Sadi pok» bo'ldi – qish tugadi deb, mart oyining o'ninchilarida yoki eski yilning oxirgi chorshanbasida «Safar qochdi» marosimi o'tkazilgan.

Mazkur marosimlar zardo'shtiylikning «Sada» bayramining transformatsiyaga uchragan ko'rinishi hisoblanib, tarixiy manbalarga ko'ra zardo'shtiylarning eng katta bayramlaridan bo'lgan va quyosh taqvimidagi o'n birinchi oy – baxmanning uchinchi kunida nishonlangan. Beruniy ma'lumotlariga ko'ra bu bayramda «odamlar olov yoqib, qish zahrini dafn etish uchun tutatqilar tutatadilar, hatto shu kecha olov yoqib alangalatish, shu olovlarga yovvoyi hayvonlarni tashlash, alangalarning ichiga parandalarni uchirish va (olov) atrofida ichimliklar ichib, o'yin-kulgi qilganlar». Qadimda olov qanchalik baland bo'lsa kelgusi yildagi hosil ham shunchalik baland bo'ladi degan qarashlar ham mavjud bo'lgan.

Umuman olganda qish fasli yil bo'yi qilingan mehnatning natijasi sarhisob qilinadigan, oldindan rejalashtirilgan to'ylar o'tkaziladigan, yangi mehnat mavsumi boshlangunga qadar yaxshi dam olib xordiq chiqariladigan davr hisoblanadi. Bularning barchasi qish faslida o'tkaziladigan taqvimiy marosimlarda o'z aksini topgan. Qishning ikkinchi yarmidan boshlab esa yangi mehnat mavsumiga tayyorgarlik ko'rila boshlanadi, o'z navbatida qish fasli bilan bog'liq marosim va urf-odatlar tabiat qonuniyatlariga ko'ra bahoriy marosimlarga ulanib ketadi.

Umuman olganda o'zbeklarning yil taqvimi bilan bog'liq marosimlari qadimgi davrilardagidek o'z vaqtida va asl ko'rinishida bugungi kunga kelib nishonlanmasa ham yoki kundalik hayotning ayrim jabhalarida, xo'jalik mashg'ulotlari bilan bog'liq qarashlarda, xalq og'zaki ijodida saqlanib qolgan. Mazkur marosimlar tarixning turli qatlamlarida mavjud bo'lgan qadimgi ajdodlar dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlari, hamda zarralarini o'zida mujassam etgan bo'lib, qadimiy an'analarni tashuvchi hisoblanadi. O'zida milliylik ruhini saqlagan taqvimiy marosimlar xalq milliy ruhiyati, an'analari davomiyligini saqlovchi bug'un funksiyasini bugungi kunda ham saqlab kelmoqda.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. O'zbek xalqining bahorgi marosimlarni tasniflab bering?

2.Yozgi marosimlar bilan bog'liq urf-odatlar haqida so'zlab bering?
3.Kuzgi marosimlarning mintaqaviy xususiyatlari haqida ma'lumot bering?
4. Qishgi marosimlar haqida ma'lumot bering?

### Topshiriqlar:

1. O'zbek xalqining yil fasli bilan bog'liq marosimlardagi ramziy xususiyatlar haqida esse tuzing.
2. Yil fasllari bilan bog'liq marosimlardagi transformatsion jarayonlarni tar'riflab bering.

## O'ZBEKLARNING JAMOAVIY MAROSIMLARI

### Reja:

***1. Nomoddiy madaniy meros muhofaza qilishda mahlla tajribasi.***
***2. O'zbeklarda jamoa instituti.***
***3.O'zbek xalqining hashar bilan bilan bog'liq urf-odatlari.***
***4. O'zbeklarning non bilan bog'liq urf-odatlari.***

Ma'lumki, mahalla fuqarolarining tashabbusi bilan tashkil etilgan tarixiy jamoadir. O'tmishda va hozirda ham mahalla tarbiya o'chog'i, milliy qadriyatlar maskani hisoblanib, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qiluvchi o'ziga xos institut hisoblangan. Shubhasiz o'zbek xalqi ham o'zbeklarga xos milliy o'zlikni, urf-odatlari va marosimlarini avaylab saqlashda asosan mahallaga tayanadi.

Tarixiy etnografik adabiyotlarda yozilishicha, mahalla deganda katta oila yoki bir necha oilalarni o'ziga birlashtirgan hududi birlikdagi jamoa tushunilgan. Mahalla fuqarolarning tashabbusi bilan tashkil etilgan tarixiy jamoadir[13].

Mahalla juda qadim tarixga ega bo'lib, uning ildizlari bronza davriga borib taqaladi. Qadimshunoslik manbalarining guvohlik berishicha, bronza davriga borib taqaladi. Miloddan avvalgi III asrdan milodiy V asrning boshlarigacha qadimgi Farg'ona (Parkana) davlatida barcha masalalarni oqsoqollar kengashi hal etgan.

[13] Bo'riyev O., Saidov B. Mahalla – milliy tarixiy institut.Toshkent, Yangi nashr, 2012. 12 bet.



O'zbek mahallasi ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i, milliy udumlar, urf-odatlar va an'analar shakllangan maskan bo'lib, odamlarni o'zaro mehr-oqibatli, sahovatli qilib tarbiyalashda, o'ziga xos jamoa va jamoviy an'analarning shakllantirilishida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Jumladan, O'zbekistonda mahalla to'y-ma'raka, hashar uyushtirish, muhtoj va ehtiyojmand odamlarga yordam berish, turli bayram va tantanalarni birgalikda nishonlash va hokazo vazifalarni bajargan.

Mahalla oqsoqollari yetakchiligida to'y marosimlari(beshik to'y, sunnat to'y, nikoh to'yi) va motam marosimi , xalq sayillari(Navro'z, Lola sayli, Hosil bayrami, Mehrjon)da bolalar ishtirokida milliy kurash va ko'pkari kabi xalq o'yinlari uyushtiriladi.

Aynan mahalla doirasida o'tkaziladigan turli jamoaviy an'analar orqali o'zbeklarga xos nomoddiy madaniyat an'analari va ma'naviy tamoyillarga asoslangan odob-axloq tizimi o'rgatiladi. Qolaversa, yosh avlodga bu tadbirlarda asosan ezgulikka yo'g'rilgan urf-odat va an'analar singdiriladi. Shu boisdan ham o'zbeklarda «Otang-mahalla, onang mahalla», «Bir bolaga etti qo'ni qo'shni ota-ona» deb bejizga aytilmagan.

O'zbekistonda Ramazon va Qurbon hayitlari arafasida, Navro'z, Xotira va qadrlash kuni, Mustaqillik bayrami oldidan har bir mahallada mahalla oqsoqollari va faollari ishtirokida hashar uyushtirish an'ana tusiga kirgan. Bu jarayonda mahalla oqsoqoli yoshlarni jamoada turli vazifalarni bajarishiga, piru badavlat qariyalarning to'plangan tajribalarga suyangan holda ish tutishga alohida e'tibor bergan.

Mahallada ajdodlardan avlodlarga meros tarzda ma'naviy-ahloqiy mazmunga yo'naltirilgan go'daklarni ovutish o'yinlari ularda jamoaga uyusha olish tuyg'usini shakllantirgan. Qizlar o'rtasida jamoada «chittigul», «yashinmachoq», «beshtosh», «mehmon-mehmon», «oq munchoqdan ko'k munchoq», o'g'il bolalar orasida «jupmi-toq», «ko'z bog'lar», «varrak», «g'iz-g'izak», «g'ir-g'irak», «mush ketdi», «ov», «oshiq», «ishti», «xurjun-xurjun» kabi o'yinlarda jamoaga uyushish shakllangan. Jamoa ta'sirida bolalar ongida kimdir ota-ona, kimdir jamoa sardori bo'lishga intilish, kattalarga taqlid shakllangan. Bolalar ota-onalari tarbiyasidan uzoqlashgandan boshlab tengqurlari davrasida asta-sekin kattalar jamoasiga qo'shila boshlangan.

Xullas, mahalla tarixiy qadriyatlarining tiklanishi, rivojlantirilishi, nomoddiy merosni ajdodlardan avlodlarga yetkazishda, ularning kundalik hayotga joriy etilishida o'ziga xos maktab hisoblanadi.

O'tmishda O'zbekistonda barcha hayotiy muammolar bilan shaharda mahalla, qishloqda qishloq va ovul jamoalari shug'ullangan. Mahalla va qishloq jamoasini jamoa yig'inida saylangan oqsoqol (Xorazmda-yoshulli) boshqargan. Ijtimoiy hayot masjid, choyxona va bozorlarda mujassamlashgan, ularda asosan erkaklar ishtirok etgan. jamoaga ma'lum bir mahallada, qishloqda yashovchilar birlashganlar. Kishining e'tiqodi, millati va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, u yoki bu jamoa xududida yashashi uning o'sha jamoaga mansubligining yagona belgisi hisoblangan. Jamoadagi kishilar, kasb hunari va mavqeidan qat'iy nazar jamoa ishlari (hashar) va marosimlarga qatnashishlari zarur bo'lgan, aks holda bunday shaxs xalq nazaridan qolgan. O'zbek xalqi oila qurish an'analariga rioya qilishda, qiz uzatish yoki kuyov tanlashda ham quda bo'lmish tomon xususida ma'lumotga ega bo'lib, ularning ijtimoiy kelib chiqishini jamoada tutgan o'rnini va obro'-e'tiborini hisobga oladi. Agar kuyov yoki kelin bo'lmish tomonning aqli, odobi, husni-malohati bir hissa bo'lsa, ularning qarindosh-urug'lari, avlodning jamoadagi mavqei va bu xususdagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda hal qiluvchi omil vazifasini o'taydi. Farzandlarni yaxshiga qo'shish, bu borada xato qilib qo'ymaslikda jamoa, jamiyat ra'yi, ko'pchilikning kengashli fikri muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham, jamoatchilik fikrining shaxs turmush tarzi, taqdirini belgilashdagi ustuvorlik mavqei beqiyosdir. Shu bois xalq orasida «G'arb qonunlar, Sharq urf-odatlar bilan boshqariladi» degan naql keng tarqalgan. Darhaqiqat Sharqda, shu jumladan o'zbeklarning turmush tarzida ham ko'plab urf-odatlari qonunlar darajasida yuqori turadi. Jumladan, oila davrasida yoinki keng jamoatchilik o'rtasida o'tkaziladigan barcha marosimlarimizda mahallaning bosh-qosh bo'lishi, qo'ni-qo'shnichilik an'analarimiz, oila-turmush marosimlarimizdagi ko'plab urf-odatlar qonun darajasida amal qilinadi va jamoaga asosiy e'tibor beriladi. O'zbeklar orasida keng tarqalgan jamoatchilik an'analari chuqur tarixiy ildizlarga ega. Bu tartibotning ibtidosi mintaqa xalqlarining eng qadimiy yozma manba hisoblangan «Avesto» kitobida bayon etilgan. Yozma va arxeologik manbalarda mintaqaning qadimiy shaxarlari aholisi orasida jamoalar faoliyat ko'rsatganligi, faqat turmushdagina emas, balki ishlab chiqarishda ham jamoa asoslari mavjudligi qayd etilgan. O'rta asrlarda jamoa faqat jamoaviy asoslardagina sug'orish tizimini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash, binobarin, dehqonchilik bilan shug'ullanish mumkin bo'lgan qishloq aholisi uchun ham, shuningdek, shahar aholisi uchun ham o'zining ilgarigi ahamiyatini saqlab qolgan va barcha udumlar,



marosimlar qishloq va shaharda mahalla jamoalarining tashabbusi bilan o'tkazilgan.

Sharq xalqlarining eng ommaviy tarqalgan qadimgi mehnat udumlaridan biri hashardir. Hashar so'zi arabcha "hashr", hashar (to'da) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, «yig'moq», «to'plamoq», degan ma'nolarga ega. Ba'zi manbalarda hashar so'ziga «yig'in», «to'da» izohlari berilgan. Hozirgi paytda "hashar", "ko'mak" atamalari aynan bir xil ma'noni anglatib, uyg'un tarzda ishlatiladi. Hashar-biror ishni birgalashib bajarishda jamoatchilik tomonidan berilgan ixtiyoriy yordamdir.

O'zbekistonning turli viloyat va tumanlarida hasharning o'ziga xos an'analari va bir necha turi mavjud: jamoa ishlarini bajarishda, qo'ni-qo'shnichilik va qavm-qarindoshlik doirasida o'tkaziladigan hashar va boshqalar. Hasharning bu turlari ixtiyoriy o'zaro yordam bo'lgan. Hasharning yana bir turi davlat miqiyosida o'tkazilgan. Unda oldinlari xon va mulkdor erlariga suv chiqarish uchun ariq qazilgan, qo'riq ochilgan, hosilni yig'ishtirish va qurilishlar amalga oshirilgan bo'lsa keyingi yillarda baxarda «Navro'z» arafasida o'tkaziladigan xasharda jamoat joylarini tozalash, yangi ko'chatlar ekish va daraxtlarni qirqib shakl berib oqlash kabi yumushlar ommaviy ravishda bajarish an'anaga aylangan. Kichik ko'lamdagi hasharni hasharboshi (ariq qazilsa-mirob yoki qishloq oqsoqoli) boshqargan. Katta va uzoq muddatda bajariladigan hasharlar maxsus ishboshilar (kanal qazilganda-ariq oqsoqli) nazoratida o'tkazilgan. Jamoa ishlari bajariladigan hashar O'zbekistonning barcha qishloq va shaharlarida keng qo'llanilgan. Sug'orish ishlari bilan bog'liq hasharlar Buxoro vohasida ish ob'ektiga (hajmiga qarab hasharni rud (rud-magistral kanal yoki «hashari juy» (jo'y -kanaldan chiqarilgan katta ariq deyilib bu bosh kanalni yerlarning loyqadan tozalash uchun har yili o'tkaziladigan hashar bo'lgan «Hashari band» yoki «hashari varq»-bosh to'g'onlarni tiklash yoki kuzatish hashari, «hashari damna» yoki «ashari daryo xur» va «sangkorlik» kanal boshini daryo yuvib ketgan yoki daryoning asosiy oqimi o'z yo'nalishini o'zgartirib kanal dahanasi bosh qismi chetda qolgan vaqtlarda o'tkazilgan. Hashar yoki ommaviy hashar «mardi viloyat» yoki mardi vilo» nomlari bilan yuritilgan.

Jamoa hashari bilan ko'prik qurish va ta'mirlash, ariq-zovurlar, qazish, ularni tozalab turish; masjid qurish va ta'mirlash, mozorlarni tozalash va b. ishlar bajarilgan. Katta hasharlar tantanalari boshlanib, tugallanishi ham ko'tarinki ruhda yakunlangan.

O'tmishda O'zbekistonda barcha hayotiy muammolar bilan shaharda mahalla, qishloqda qishloq va ovul jamoalari shug'ullangan. Mahalla va qishloq jamoasini jamoa yig'inida saylangan oqsoqol (Xorazmda-yoshulli) boshqargan. Ijtimoiy hayot masjid, choyxona va bozorlarda mujassamlashgan, ularda asosan erkaklar ishtirok etgan. jamoaga ma'lum bir mahallada, qishloqda yashovchilar birlashganlar. Kishining e'tiqodi, millati va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, u yoki bu jamoa xududida yashashi uning o'sha jamoaga mansubligining yagona belgisi hisoblangan. Jamoadagi kishilar, kasb hunari va mavqeidan qat'iy nazar jamoa ishlari (hashar) va marosimlarga qatnashishlari zarur bo'lgan, aks holda bunday shaxs xalq nazaridan qolgan. O'zbek xalqi oila qurish an'analariga rioya qilishda, qiz uzatish yoki kuyov tanlashda ham quda bo'lmish tomon xususida ma'lumotga ega bo'lib, ularning ijtimoiy kelib chiqishini jamoada tutgan o'rnini va obro'-e'tiborini hisobga oladi. Agar kuyov yoki kelin bo'lmish tomonning aqli, odobi, husni-malohati bir hissa bo'lsa, ularning qarindosh-urug'lari, avlodining jamoadagi mavqei va bu xususdagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda hal qiluvchi omil vazifasini o'taydi. Farzandlarni yaxshiga qo'shish, bu borada xato qilib qo'ymaslikda jamoa, jamiyat ra'yi, ko'pchilikning kengashli fikri muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham jamoatchilik fikrining shaxs turmush tarzi, taqdirini belgilashdagi ustuvorlik mavqei beqiyosdir. Shu bois xalq orasida «G'arb qonunlar, Sharq urf-odatlar bilan boshqariladi» degan naql keng tarqalgan. Darhaqiqat Sharqda, shu jumladan o'zbeklarning turmush tarzida ham ko'plab urf-odatlari qonunlar darajasida yuqori turadi. Jumladan, oila davrasida yoinki keng jamoatchilik o'rtasida o'tkaziladigan barcha marosimlarimizda mahallaning bosh-qosh bo'lishi, qo'ni-qo'shnichilik an'analarimiz, oila-turmush marosimlarimizdagi ko'plab urf-odatlar qonun darajasida amal qilinadi va jamoaga asosiy e'tibor beriladi. O'zbeklar orasida keng tarqalgan jamoatchilik an'analari chuqur tarixiy ildizlarga ega. Bu tartibotning ibtidosi mintaqa xalqlarining eng qadimiy yozma manba hisoblangan «Avesto» kitobida bayon etilgan. Yozma va arxeologik manbalarda mintaqaning qadimiy shaxarlari aholisi orasida jamoalar faoliyat ko'rsatganligi, faqat turmushdagina emas, balki ishlab chiqarishda ham jamoa asoslari mavjudligi qayd etilgan. O'rta asrlarda jamoa faqat jamoaviy asoslardagina sug'orish tizimini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash, binobarin, dehqonchilik bilan shug'ullanish mumkin bo'lgan qishloq aholisi uchun ham, shuningdek, shahar aholisi uchun ham o'zining ilgarigi ahamiyatini saqlab qolgan va barcha udumlar,



marosimlar qishloq va shaharda mahalla jamoalarining tashabbusi bilan o'tkazilgan.

Sharq xalqlarining eng ommaviy tarqalgan qadimgi mehnat udumlaridan biri hashardir. Hashar so'zi arabcha "hashr", hashar (to'da) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, «yig'moq», «to'plamoq», degan ma'nolarga ega. Ba'zi manbalarda hashar so'ziga «yig'in», «to'da» izohlari berilgan. Hozirgi paytda "hashar", "ko'mak" atamalari aynan bir xil ma'noni anglatib, uyg'un tarzda ishlatiladi. Hashar-biror ishni birgalashib bajarishda jamoatchilik tomonidan berilgan ixtiyoriy yordamdir.

O'zbekistonning turli viloyat va tumanlarida hasharning o'ziga xos an'analari va bir necha turi mavjud: jamoa ishlarini bajarishda, qo'ni-qo'shnichilik va qavm-qarindoshlik doirasida o'tkaziladigan hashar va boshqalar. Hasharning bu turlari ixtiyoriy o'zaro yordam bo'lgan. Hasharning yana bir turi davlat miqiyosida o'tkazilgan. Unda oldinlari xon va mulkdor erlariga suv chiqarish uchun ariq qazilgan, qo'riq ochilgan, hosilni yig'ishtirish va qurilishlar amalga oshirilgan bo'lsa keyingi yillarda baxarda «Navro'z» arafasida o'tkaziladigan xasharda jamoat joylarini tozalash, yangi ko'chatlar ekish va daraxtlarni qirqib shakl berib oqlash kabi yumushlar ommaviy ravishda bajarish an'anaga aylangan. Kichik ko'lamdagi hasharni hasharboshi (ariq qazilsa-mirob yoki qishloq oqsoqoli) boshqargan. Katta va uzoq muddatda bajariladigan hasharlar maxsus ishboshilar (kanal qazilganda-ariq oqsoqli) nazoratida o'tkazilgan. Jamoa ishlari bajariladigan hashar O'zbekistonning barcha qishloq va shaharlarida keng qo'llanilgan. Sug'orish ishlari bilan bog'liq hasharlar Buxoro vohasida ish ob'ektiga (hajmiga qarab hasharni rud (rud-magistral kanal yoki «hashari juy» (jo'y -kanaldan chiqarilgan katta ariq deyilib bu bosh kanalni yerlarning loyqadan tozalash uchun har yili o'tkaziladigan hashar bo'lgan «Hashari band» yoki «hashari varq»-bosh to'g'onlarni tiklash yoki kuzatish hashari, «hashari damna» yoki «ashari daryo xur» va «sangkorlik» kanal boshini daryo yuvib ketgan yoki daryoning asosiy oqimi o'z yo'nalishini o'zgartirib kanal dahanasi bosh qismi chetda qolgan vaqtlarda o'tkazilgan. Hashar yoki ommaviy hashar «mardi viloyat» yoki mardi vilo» nomlari bilan yuritilgan.

Jamoa hashari bilan ko'prik qurish va ta'mirlash, ariq-zovurlar, qazish, ularni tozalab turish; masjid qurish va ta'mirlash, mozorlarni tozalash va b. ishlar bajarilgan. Katta hasharlar tantanalari boshlanib, tugallanishi ham ko'tarinki ruhda yakunlangan.

Qo'shnilarning o'zaro hashari qadimiy udumlardandir. Bunday hashar ko'pincha dala ishlari, ekinchilik, uy qurish, hovli devorini ko'tarishda, to'y-hashamlarda keng qo'llanilgan. Hasharga aytilgan kishilarning kelishi shart bo'lgan. Uzrli sabab bilan kela olmay qolgan kishixashar bo'layotgan qo'shnisinikiga xasharchilar uchun non pishirib chiqargan. Agar hashar ko'lami katta va u jamoa manfaati uchun bo'lsa (masalan, masjid qurish, va h.q.), u holda jamoa oqsoqoli bilan maslahatlashgan va uning ijozati bilan olingan. Oilaviy hashar ko'pincha imoratni tiklash ishlarida qavm-qarindoshlar ishtirokida bajarilgan. Hashar mahalla va qishloq jamoa fuqorolarini birlashtiradi, ularni elkadoshlikka, uyushqoqlikka da'vat etadi.

Hozirgi paytda hashar jamoalarida hamjihatlik asosida o'tmoqda. Ramazon va Qurbon hayitlari, Navro'z, Xotira va qadrlash kuni, Mustaqillik bayrami oldidan har bir jamoada hashar uyushtirish an'ana tusiga kirgan.

Milliy taomlar va ne'matlar ichida o'zbekona milliy nonlarimiz qadim qadimdan o'ziga xosligi bilan qadrlanib kelgan. Non insoniyatning eng qadimiy va zaruriy hamda kerakli ozuqalaridan biri bo'lgan.

O'zbekistonda nonlar o'zining xilma xil va rang-barangligi bilan ham ajrab turadi. O'zbeklarda nonning «*uy noni*», «*obi non*», «*shirmoy non*», «*shirmoy kulcha*»*yog'li non*, «*jizzali non*», «*piyozli non*», «*qovoqli non*» «*patir non*» kabi ko'plab turlari bo'lishi bilan birga xar bir mintaqa ahosi orasida non tayyorlashning o'ziga xos texnologiyasi va maktabi bo'lgan. Samarqand haqida yozgan Zahiriddin Muhammad Bobur «Xub nonvoliklari va oshpaziliklari bordur»,-deb qayd etgan edi.

O'zbek oilalarida farzandlar bolalik davridanoq nonni e'zozlash, uni isrof qilmaslik ruhida tarbiyalangan. Non hech qachon oyoq ostiga tashlanmagan. Nonni bosish og'ir gunoh hisoblangan. O'zbeklarda yotadigan erda non eb bo'lmaydi. Agar yotoqda non eyilsa kishi yomon tush ko'rib tushida alahsirashi mumkin, deb hisoblangan.

O'zbekistonda xar bir xonadonga tashrif buyurgan mehmon oldiga yoziladigan dasturxonga eng avvalo eng ulug' ne'mat tarzda non olib kelingan va qo'yilgan non oila boshlig'i tomonidan sindiriigan. Nonni pichoq yoki boshqa kesuvchi buyumlar bilan ushatish ushbu muqaddas ne'matga hurmatsizlik sifatida baholangan.

Xalqimiz orasida o'tkaziladigan ko'plab taqvimiy bayramlar, sayillar va oilaviy marosimlarda aksariyat hollarda non bilan bog'liq qator urf-odat va rasm-rusumlar amalga oshirilgan. Jumladan, Namagan



viloyatida kelinni kuyovnikiga kuzatishda uning boshiga non qo'yib loki bog'lash odati bo'lgan. Xorazmda non bo'laklari tumor qilib taqilgan va non uchun xamir tayyorlab qo'yilgan erga (masalan, tandir oldiga) jin, parilar yaqinlashmaydi, deb qaralgan. Respublikaning ko'plab viloyatlarida yangi tug'ilgan chaqaloq yoki xatna qilingan o'g'il bolaning yostig'i ostiga non qo'yilgan.

Motam marosimidan tashqari deyarli barcha marosimlarga kelgan mehmonlar o'zlari bilan non olib borganlar va o'z navbatida, ushbu tantanalardan non olib qaytganlar. Nikoh to'yini boshlanishida sovchilar tomonidan qizning ota-onasidan rozilik alomatlari olingach, keksa yoshli, ko'p farzandli, bir nikohli kishi yigit va qiz taqdirining mustahkam bog'lanishi haqiga duoi fotiha o'qib, qo'liga qiz tomonidan dasturxonga qo'yilgan va yigit tomonidan olib kelingan nonlardan bittadan olib juft qiladi va nonni yuza tarafiga qaratib teng qilib sindiradi. Ushbu udum o'zbeklarda *non sindirish*, deb nomlangan. Unashtirilayotgan yoshlarning nonday aziz bo'lib, o'z qadr-qimmatlarini yo'qotmasin degan niyat ushbu udumda mujassamlashgan. Nonni juft sindirishda esa kelin kuyovning qo'sha qarishi haqidagi orzu-istak namoyon bo'lishini anglatsa ushbu marosim har ikki tomon o'rtasida qarindoshchilik rishtalari bog'langanligi ramzi hisoblangan.

O'zbek xalqi azal-azaldan nafaqat o'tmish tarixi, boy milliy merosi, buyuk allomalari bilan balki turli xil noz ne'matlari xilma xil hamda kaloriyali nonlari bilan ham mashhur bo'lgan. O'zbekona tarzda tayyorlanadigan nonlarimzda xalqimzning ko'p asrlik tarixiy qadriyatlari bilan birga mehnat faoliyati qiyofasi va iqlim sharoitlari shubhasiz o'z aksini topgan. Shuning uchun ham o'zbek nonlari va u bilan bog'liq urf odatlar nomoddiy madaniyatimizning ajralmas qismi tarzida xar doim ham qadrlidir.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. O'zbek xalqi turmush tarzida jamoaning o'rni haqida ma'lumot bering?
2. Mahallaning tarixiy asoslari va rviojlanish bosqichlari haqida so'zlab bering?
3. O'zbek xalqi jamoaviy marosimlarida hashar an'anasi va uning mintaqaviy xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Nomoddiy madaniyati tizimida non bilan bog'liq urf-odatlar haqida ma'lumot bering?

**Topshiriqlar.**

1. O'zbek xalqining jamoaviy marosimlari haqida esse tayyorlang.
2. O'zbeklar turmush tarzida hashar va hashar turlari haqida prezentatsiya tayyorlang.

## FOLKLOR JAMOALARNINING HUDUDIY IJRO XUSUSIYATLARI

**Reja:**

*1. Folklor jamoalarining hududiy jihatlari.*
*2. Farg'ona vodiysi folklor jamoa ijrochilik an'analari.*
*3. Zarafshon vohasi ijrochiligining marosim va udumlar bilan bog'liqligi.*
*4. Surxondaryo va Qashqadaryo ijro san'atining o'ziga xosligi.*

Tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday havaskorlik jamoasi o'z faoliyatining dastlabki bosqichida ham tashkiliy jihatdan, ham ijodiy tomondan ma'lum muammolarga, hal etilishi qiyin bo'lgan vazifalarga duch keladi. Avval ushbu yo'lni bosib o'tganlarning tajribasi shunday hollarda asqotadi. Ijodiy jarayonda, ayniqsa, bu jarayon bungacha ma'lum kishilar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, yaxshi natija qayd etilgan bo'lsa, boshqalar bosib o'tgan yo'lni mustaqil ravishda qidirib topib, har bir muammo ustida bosh qotirib, uni hal etishning eng qisqa yo'lini qidirishning aslo hojati yo'q. Shu maqsadda hozirgi kunda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan eng ilg'or havaskorlik jamoalarining tashkil etilishi, ularning shakllanishi, rivojlanishi hamda ravnaqi bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirishni lozim topdik. Zero, respublikamizning turli burchaklarida, turli xil sharoitlarda ish olib borayotgan mazkur jamoalarning tajribasi o'rganishga va lozim paytda foydalanishga arziydi. Oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan har bir talaba o'zi tug'ilib o'sgan hududdagi biror jamoa to'g'risidagi ma'lumotlar mazkur o'quv qo'llanmasiga kiritilganligini ko'rishining o'zi, avval unchalik e'tibor bilan qaramagan havaskor jamoaning faoliyatidagi yorqin sahifalardan voqif bo'lishi talabaning munosabati va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishida ijobiy natijalarga olib keladi, degan umiddamiz. Biz quyida Madaniyat va sport ishlari vazirligi tashkil etilgandan so'ng vazirlik tarkibida yangidan tashkil etilgan "Xalq ijodiyoti va havaskorlik san'atini rivojlantirish boshqarmasi" tomonidan to'plangan materialardan foydalangan holda respublikamizdagi eng ilg'or havaskorlik jamoalari to'g'risidagi ma'lumotlarni hududlarga bo'lingan holda keltirdik.



Masalan Urgut tumanida yashaydigan aholi qadimdan hunarmandchilik san'atini qadrlab keladi. Bu erda kulolchilik, zardo'zlik, kashtachilik, duradgorlik hamda temirchilik azal-azaldan keng taraqqiy etib kelgan. Mahalliy aholining san'atga, ayniqsa, havaskorlik san'atiga katta qiziqishi seziladi. Urgutliklar san'atni nihoyatda qadrlashadi. To'y-tomoshalarni, bayramlar, tantanalarni kuy-qo'shiqsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Oddiy kishilar ham qarsak jo'rligida xalq termalarini mohirlik bilan ijro etadilar. Baland tog' tizmalari yon bag'rida joylashgan Urgut tumanining G'o's qishlog'i qadim-qadimdan xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri - qarsak jo'rligida xalq qo'shiqlari, aytishuvlar, laparlar, hazil qo'shiqlar va o'yinlarni davralarda, to'y-tomoshalarda ijro etib yuruvchi havaskor san'atkorlarga ega.

Respublikada folklor-etnografik xalq jamoalarini tashkil etish va ular ishlarini keng targ'ib etishga katta e'tibor bo'lmagan davrda ham shu soha jonkuyarlari tomonidan 1955 yilda G'o's qishlog'ida «Beshqarsak» folklor jamoasi tashkil etildi. Jamoaga xalq termalarini mohirlik bilan ijro etuvchi iste'dodli qo'shiqchilar jalb etildi. Ahror Turobov, Ro'zi Latipov, Ne'matillo Ismatovlar ishtirokida milliy urf-odatlarimizni tarannum etuvchi, Ona-Vatan va mehnatni ulug'lovchi xalq termalaridan tuzilgan 12 kishilik jamoa tashkil etilib, ular «Beshqarsak» syuitasini yaratdilar. Bu jamoa 1957 yilda tuman, viloyatda folklor jamoalarining ko'rik tanlovida ishtirok etib birinchi o'rinni egalladi. SHu yili Moskvada o'tkazilgan yoshlarning xalqaro festivalida qatnashib faxrli birinchi o'ringa sazovor bo'ldi. shundan so'ng «Beshqarsak» folklor-etnografik ansambli nomini oldi hamda tuman madaniyat uyi ixtiyoriga o'tkazilib, uning dasturlari kengaytirildi.

1972 yilda «Beshqarsak» folklor-etnografik ansambli Toshkentda o'tkazilgan «Marhabo talantlar» televizion festivalida namunali ishtirok etib, faxrli birinchi o'rinni egalladi. Badiiy jamoa qatnashchilari Ahror Turobov, Ne'matillo Ismatov, Ro'zi Latipov mohir xalq o'yin ustalari Xolbobo Ma'rupov, Mamajon Safoev, Mahkam Gadoev hamda ashulachilar Matlab Nazarov, Samandar Qandahorov, Istad Sharipova kabi san'atkorlar Muqaddas Hakimov boshchiligida «Beshqarsak» folklor jamoasining dasturiga kiritilgan xalqimizning to'ylari, tantana va xursandchiliklarini tarannum etuvchi «Yor-yor», «O'ynasin», «Oq paxtazorim yashna», «Navro'z bazmi», «Sumalak» kabi xalq termalaridan iborat «Beshqarsak syuitasi»ni mohirlik bilan ijro etdilar.

«Beshqarsak» respublikada birinchi folklor-etnografik badiiy jamoa bo'lib tanildi hamda O'zbekiston televideniesi va radiosining oltin fondiga jamoa ijrosidagi asarlar yozib olindi.

1979 yilda Moskvaning «Ostankino» televideniesi tomonidan o'tkazilgan Xalqaro telefestivalda qatnashib birinchi darajali diplom bilan taqdirlandi. 1983–84-yillarda ansamblning dasturi xalqaro «VVS» telekanali tomonidan tasvirga tushirildi.

«Beshqarsak» folklor-etnografik xalq ansambli xalqaro miqyosdagi festivallarda namunali ishtirok etdi. Jumladan, Shrilanka, Belgiya, Italiya va Fransiya shaharlarida o'zbek folklor san'atini namoyish etdi. 1991 yilda jamoa a'zolarining bir guruhi Evropaning 6 ta davlati Ispaniya, Belgiya, Gollandiya, Fransiya, Germaniya, Shveysariyada o'tkazilgan «Ipak yo'li» festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Ansambl respublikamizda o'tkazilgan Navro'z va Mustaqillik tantanalarida teatrlashtirilgan bayram dasturlari bilan qatnashib kelmoqda. O'zbekiston televideniesi «Beshqarsak» folklor-etnografik xalq ansamblining ijodiy faoliyatiga bag'ishlab «Urgutda Navro'z» telefilmini yaratgan. Tasvirga tushirilgan bir qator dasturlar televidenie orqali muntazam namoyish etib kelinmoqda.

2002 yilda Koreyada o'tkazilgan folklor jamoalarining xalqaro festivalida «Beshqarsak» O'zbekiston folklor san'atini namoyish etib katta olqish oldi. 2004 yilda o'tkazilgan «Boysun bahori» festivalida ham ishtirok etib, festival laureati diplomi va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. «Beshqarsak» folklor-etnografik xalq ansambli ishtirokchilari ayni kunlarda 50 nafardan ortiq turli soha kishilarini birlashtirgan. Ansambl 2005 yilning Navro'z bayramida «Navro'z sayli» mavzuida yangi dastur bilan ishtirok etdi. Bu jamao tomonidan tayyorangan dasturlar Zarafshon vohasida qadimdan mavjud bo'lgan marosim va udumlar folklor ijrochilik san'atining o'ziga xos qirralarini sayqallagan holda sahnalashtirib, shuhrat qozonib kelmoqda.

Boysun tog' etaklari bahor ayyomida afsonalardagidek go'zal bo'ladi. Qor suvlari shaloladay oqib, tabiatni uyg'otadi, atrof gullab-yashnaydi. Shu suvlarning jildirashini, jilg'alarining mayin ohanglariga quloq tutsangiz, xuddi shu shaloladay jilg'alaridan mayin ohanglaru, o'ynoqi kuylar taralib turganligiga guvoh bo'lasiz. Shu hududda tashkil etilgan "Boysun" ansambli tog' bag'ridan enib kelayotgan billur suvlarday ko'p yillardan buyon odamlarga huzur halovat, zavq-shavq bag'ishlab kelmoqda.



Qator yillar "Boysun" uchun tajriba to'plash, san'at sirlarini o'rganish, xalq ijodiyotining bag'riga teran kirib borish davri bo'ldi. Ansambl havaskorlikdan professional darajaga odimladi. «Boysun» «Shalola» ansambli huzurida tug'ilib, atak-chechak qilayotgan davrida – 1975 yil Polshaning Zakapane shahrida bo'lib o'tgan "Tog'li o'lkalar" XIII xalqaro festivalida ishtirok etib, ikkinchi darajali «Kumush bolg'a» mukofoti sovrindori bo'ldi.

1977 yilda xalq ijodiyoti II Butunittifoq festivaliga qizg'in tayyorgarlik boshlandi. Mazkur festivalning ilk bosqichida ham, uning yakuniy tadbirlarida ham «Boysun» yaqqol ko'zga tashlandi. CHunki festivalga tayyorlanish davomida bir qator folklor-etnografik ansambllari va havaskorlik jamoalariga asos solindi. SHu bilan birga, yuzlab iste'dodlar aniqlandi, folklor amaliyotida ancha tajriba to'plandi. Madaniyat muassasalari, ayniqsa, Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika ilmiy-metodik markazining ishi birmuncha jonlandi. Bu esa xalq ijodiyoti festivali doirasida o'tkazilgan folklor-etnografik ansambllari, katta ashula ijrochilari va oilaviy ansambllar ko'rik-tanlovi natijalarida yaqqol ko'rinadi. Jamoalar orasida «Boysun» birinchi o'rinni egalladi. SHundan so'ng, «Boysun» o'zbek xalqining qadimiy, milliy urf-odatlarini o'zlari ijro etgan ashula va raqslar orqali ifoda etib, Afg'onistonning Balx viloyatida, Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston kunlari anjumanida qiziqarli dasturini namoyish etdi.

«Boysun» folklor-etnografik jamoasi o'zining betakror, sermazmun, serjilo, o'ynoqi repertuarlari orqali tez tanildi. Ansambl ishtirokchilari ijro etgan laparlari, mavsumiy marosim qo'shiqlari san'at shinavandalarining tiliga tushdi. Xronika va hujjatli filmlar studiyalari mazkur jamoa faoliyati va ijrosi haqida bir necha telefilmlarni suratga oldi.

1988 yilning 25-26 sentyabrida Qo'qon shahrida «Xalq ijodiyotini saqlash va rivojlantirish muammolari» mavzusida yirik anjuman bo'lib, unda respublikadan va chet mamlakatlardan taniqli folklorshunos olimlar va madaniyat xodimlari ishtirok etdilar. Qiziqarli ma'ruza va bahslar jarayonida «Boysun» jamoasining o'ziga xos repertuari, ijro usuli, kiyim-kechagi-yu bezaklari xususida bahs yuritilib, jamoa yaxshi baho oldi. 1988 yil dekabr oyida «Boysun»ga «Xalq folklor-etnografik ansambli» unvoni berildi. Qisqa vaqt ichida bunday yuksak unvonga sazovor bo'lishning boisi bor edi, albatta.

Ansambl respublikaning boshqa jamoalari orasida tanilishining sababi shunda ediki, jamoa Boysun tumanida saqlanib kelayotgan

qadimiy an'analarni qanday bo'lsa shundayligicha sahnaga olib chiqib, tomoshabinlar diqqatiga havola qila oldi. Uning dasturi boyligi, rang-barangligi bilan ko'pchilikni mamnun etdi. Jamoa a'zolari mahorati tufayli O'zbekistonning janubiy tumani bo'lmish Boysunning qadimiy bahor mavsumiga oid marosim folklori o'zining to'liq ifodasini topdi. Bu bilan ana shu jamoa mamlakatimizda va chet ellarda tomoshabinlarning iliq olqishlari va tahsinlariga sazovor bo'la oldi.

Ma'lumki, mamlakatimiz folklor hayoti betakror, mukammal uyg'unlikda ijro etiladi. Bugungi kunda muayyan hududga xos bo'lgan u yoki bu folklor namunasi butun mamlakatimiz bo'ylab tarqalmoqda. Bu xalq ijodiyoti taraqqiyotidagi tabiiy xususiyat bo'lib, uni respublikamizda folklor-etnografik jamoalar tobora ko'payib borayotganidan ham ko'rish mumkin. Bular orasida «Gulyor», «Qo'qon yor-yori», «To'rg'ay», «Momogul», «Mohi sitora», «Chavqi», «Doston», «Orazibon» va boshqa bir qator ansambllar mamlakat miqyosida tanildilar. «Boysun» ular orasida eng peshqadami sifatida xalqaro miqyosda ham mashhur bo'ldi. Chunki bu ansambl folklor namunalarini, etnografik xususiyatlarini o'z dasturida mukammal saqlay oldi. Keyingi yillarda ansambl ijodiy jamoasi xalqimizning qadimiy qo'shiqlarini, marosim va bayramlarini chuqur o'rganib, ularni qayta ishlashga katta e'tibor bermoqda. Ansambl a'zolari tog' etaklaridagi qishloqlarga tez-tez borib turishadi. Borgan joylaridagi aholining qo'shiqlari, raqslari bilan qiziqishadi, tomosha qilib o'rganishga harakat qilishadi. Magnit tasmasiga tushirilgan qo'shiqlarning folklor xususiyatlarini, etnografik unsurlarini sahnaga moslashtirib qayta tiklashadi.

Ansamblda erkag-u ayol baravar qatnashadi, bu jamoa uchun folklor va etnografiyaning o'ziga xos xususiyatlarini saqlash omili bo'lib xizmat qilmoqda. Dasturdagi ko'p sahnalarni ham erlar, ham ayollar ijro etishlari talab qilinadi. Dasturning o'ziga xosligi uning mavzu yo'nalishi bilan ham bog'liqdir. Kundalik turmushning u yoki bu ko'rinishlari san'at tili bilan ifodalanadi. Dehqonning er haydashi, bu jarayonda jonivor bilan muloqoti, xatti-harakatlari, yomg'ir chaqirish odatlari tabiiy tarzda mazmunan boy, nafis ohanglar, jo'shqin qo'shiqlar va dilrabo raqslar ila tomoshabinga havola etiladi. Tomoshabin go'yo moziyga safar qilib, bu voqealarda aynan o'zi ishtirok etayotganday bo'ladi.

Yildan-yilga izchil izlanishlar evaziga jamoa o'z repertuarini yangidan-yangi dasturlar bilan boyitib kelmoqda. «Hayinchak



qo'shig'i», «Ko'pkari-uloq», «Sovchilar qo'shig'i», «O'tin yor», «Turna keldi», «Ulijon» va boshqa qadimiy terma qo'shiqlar va raqslar jiddiy izlanishlar tufayli tomoshabinlar tomonidan samimiy kutib olinmoqda.

Boysun deganda, ko'z oldimizga osmono'par yuksak Boysun tog'lari-yu mag'rur va o'ktam yigitlari, lobar qiz-juvonlari namoyon bo'ladi. «Boysun» jamoasi deganda, bir necha yillardan buyon muxlislarni xushnud etib kelayotgan serjilo, maftunkor san'at guruhi gavdalanadi. Boysun tog' etaklarida yashab ijod etayotgan jamoa Surxon vohasining udum, urf-odatini, marosimlarini nisbatan buzilmagan holda o'z ijrosi orqali saqlab kelmoqda. Ayniqsa, o'zbek va tojik san'atining tutash nuqtalarini, o'ziga xos tomonlarini o'z dasturida takrorlanmas ijro orqali tarannum etmoqda. Masalan, «Sarak-sarak» qo'shig'ida yosh qizginaning dadasi bilan muloqoti tasvirlanadi. Qizcha dadasiga erkalanib, istaklarini bayon etib, ularni bajo keltirishni so'raydi. Bunday erkalash qo'shiqlari o'zbeklarda ham, tojiklarda ham udum bo'lgan qo'shiqlarning bir ko'rinishidir. YOki «Bo'zakam», ya'ni yo'qolgan echki haqidagi qo'shiqni olaylik. Ma'lumki, tog' sharoitida chorva izidan podachi yurmaydi, ular erkin o'tlab yuraverishadi. «Bo'zakam»da shu haqda hikoya qilinadi. Echkisi uyga qaytmagan boboning hasrati, keyin uni topib olgandagi quvonchi tasvirlandi. Ijro davomida tog'li xalqlarning turmush tarzidan kelib chiqqan holda urf-odat, udumlar qo'shiq, raqs, musiqa orqali ifodalanadi.

«Boysun» xalq milliy musiqa asboblari – do'mbira, chak-chak, zilcha, qo'biz, tanbur, ushpuloq, sibiziq, nay, g'ijjaklardan o'z o'rnida foydalanadiki, bu ham ijro salohiyatini oshirishga yordam beradi. Ansambl kiyimlari o'z etnografik xususiyatlarni saqlagan. Erkaklar olacha chopon, oyoqlarida mukki yoki choriq, boshlarida esa quyosh ramzi ifodalangan boysun do'ppisi bilan sahnada paydo bo'lishadi. Qadimiy jelak yoki qizil rangli matodan guldor keng ko'ylak ayollar husniga husn qo'shib turadi. Ular boshidagi qasaba yoki qadimiy boysuniy do'ppi tog'liq xalqlar libosining betakror namunasidir. Badiiy bezak namunasi bo'lmish tillaqosh, buloqi, haykal gardon, turli shakldagi ziraklar albatta qadimiyatdan darak beradi. Bu holat ansamblning etnografik koloritini yanada boyitmoqda. Darhaqiqat, folklor jamoalarining nufuzini oshirishda mazkur hududga xos kiyimlar, zebu-ziynatlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. «Boysun» jamoasi kiyimlari esa udumga mos va xosligi, qadimiyligi bilan ajralib turadi. Bu ham tog'lik hududimizning etnografik tarixidan dalolatdir.

Darhaqiqat, birgina Boysunning o'zida 20 xildan ortiqroq do'ppi shakllari mavjud (ba'zan «kalapo'sh» ham deyiladi). Masalan, lolagul, to'ldirma va boshqalar. Ularning har birida quyoshning ramziy ma'nosi o'z aksini topgan. Ayollar esa jelak, karkasli ro'mol o'rashadi. Karkasli ro'molni asosan o'zbeklarning qo'ng'irot urug'iga mansub bo'lgan ayollar o'rashadi. 16 xil ro'molning barchasini o'rab chiqqanda esa kamalak jilosi hosil bo'ladi. Bundan tashqari, ayollar jiyakli ko'ylak, yo'l-yo'l chopon kiyadilar. qizlarning ko'ylagi, iloji boricha qizil, pushti, sariq, to'q qizil matolardan tikiladi. Chunki qizlar kiygan ko'ylak lolani namoyon etishi kerak. Kelinchaklar oq g'ijim yoki qizil shoyi ro'mol o'rashadi. Bu liboslar albatta o'tkazilayotgan marosimga, aytilayotgan qo'shiqqa, ijro etilayotgan raqsga monand ravishda kiyiladi. Shu liboslarga moslashtirilgan holda turli xil taqinchoqlar taqiladi. Masalan, tillaqosh, buloqi, haykal, chordon, turli shakldagi qimmatbaho toshlar va zanjirlar taqish ko'proq boysunliklarga xos urf-odatdir. Zarurat bo'lsa, qiz va juvonlarni yanada ko'rkamroq ko'rsatish uchun sochlariga turli shakldagi sochpopuk jamalaklar taqilgan. Boysunliklarning o'zlari jamalakning turli xillarini qora ipdan yasashadi. Bu xususiyatlar jamoaning o'zigagina xos bo'lmay, balki mazkur kiyim-kechak, zebigardon, sochpopuklar butun elning iftixori hisoblanadi.

«Boysun» ijrochilarining tashqi ko'rinishlaridan tortib ijro tomoshalarigacha barcha-barchasi muxlislarning ma'naviy dunyosini boyitishda, qadimiy urf-odat, marosim va an'analarga nisbatan hurmat, e'tiborni kuchaytirishda tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jamoaning o'ziga xosligi dasturning mavzu yo'nalishini ham belgilaydi. Har bir qo'shiq, raqs, sahna ko'rinishlari kundalik turmushning u yoki bu tomonlari san'at tili bilan ifodalanadi. Masalan, qadimdan xalq sayllari jarchilarning chorlov chaqirig'i bilan boshlanadi. Bu ko'rinishni jamoa «Chorlov» tarzida badiiy mahorat bilan ijro etmoqda.

Erta bahor paytida boychechaklar bodrab chiqadi. «Shamsiya» yilining birinchi kuni odamlar boychechakni omonlik ramzi deb ko'zlariga surtib, yangi yil bilan bir-birlarini tabriklab, omad tilaydilar. «Navro'z qo'shig'i» xuddi ana shu munosabat bilan aytiladi. Qo'shiqni jamoa qatnashchisi Davron Abduraimov o'ziga xos badiiy mahorat bilan ijro etadi. Juma Safiev tomonidan «Xo'p mayda» ashulasi va raqsi ijro etilganda o'zbek dehqonining mehnat faoliyati tasviri namoyon bo'ladi. Yoki «Ulijon» nomli sahna ko'rinishida keksa cholning hohish-istaklari o'g'li bilan aytishuvida tasvirlangan. Ma'lumki, tog' sharoitida yog'ingarchilik rizq-ro'z uchun zarur. Yomg'ir qancha ko'p yog'sa, o't-



o'lanlar serob bo'lib, chorvachilikning rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Qadimda tog'li xalqlar kutilgan paytda yomg'ir bo'lmasa, qurg'oqchilik uzoq vaqt davom etsa, Yaratgandan yomg'ir so'raganlar. Bu voqeaga bag'ishlangan qo'shiqning nomi «Sust xotin» bo'lib, uni jamoa birgalikda ehtiros bilan kuylaydi.

Umid Turopov ijrosidagi «Lolajon», «Lolachaga ishim bor» qo'shiqlari zamirida so'z o'yini yotadi. Ya'ni lolagul, Lola – qiz bolaning ismi bo'lib, yigit qizga bo'lgan muhabbat izhorini lola ramzida izhor etadi. Sayyora Qosimova ijro etadigan «Oshpaz qo'shig'i»da oshpaz ayol va dehqonlarning hazil-mutoyibasi, o'zaro tanqidlari orqali erni haydash, don sepish jarayonlari tasvirlanadi. «YOrg'inchoq» qo'shig'i esa Sayyora Qozieva ijrosida maromiga etib ijro etilgan. Hozirgi kunda Sayyora Qozieva havaskorlikdan professional san'atkor darajasiga ko'tarilib, «Boysun» ansamblidagi yuksak ijrochilik mahorati uchun "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist" unvoniga sazovor bo'ldi.

Jamoa dasturidan joy olgan «Ko'k salla» qo'shig'i va kuyi mazmunida tabiatdan ochiq havo so'raladi, qo'shiq kuy usullari raqs harakatlariga mos tushganligi uchun kishini rom etadi:

«Havor» - daladagi hosil yig'ib bo'lingandan so'ng, eshak va ho'kizlarga yuklanib yashash joylariga tashilganda, aytilgan qo'shiqdir.

«Yangajon» - novvoy qo'shig'i hisoblanib, unda yanga bilan qaynog'a o'rtasidagi hazil-mutoyiba, xushchaqchaqlik aks etadi, nonning bir necha turlari sanab o'tiladi.

« Yaqqu-yaq», «Ufu-jaqala» yakuniy qo'shiqlarga xos tarzda ko'tarinki ruhda, bayramona kayfiyat bilan kuylanadi. Qo'shiq matni termalardan tashkil topgan bo'lib, bayram va marosimlarning yakunlarida aytiladigan sho'x, ommaviy qo'shiqlar sirasiga kiradi. Qo'shiq musiqa cholg'ulari, chapak sadolari jo'rligida jamoaviy ijro va ommaviy raqs orqali ijro etiladi. Umuman, jamoaning har bir qo'shig'i, har bir raqsi ohanglar jo'rligida mukammal bir badiiy asar sifatida namoyon bo'ladi. Jamoa ijrochilari Surxon vohasining udum, urf-odat, marosim, an'analari, mumtoz merosining targ'ibotchilari va bilimdonlariga aylandilar.

Bu davrda jamoaning bir qator fidoyi ishtirokchilari etishib chiqdi. Bu borada, ayniqsa, Abduxoliq Xursandovning xizmatini alohida ta'kidlash joiz. O'z yurti udumlarining bilimdoni, xalq ijodiyoti, san'atining haqiqiy jonkuyarlaridan biri bo'lgan fidoyi insondir. Xalq ijodiyoti, folklor san'atini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi degan yuksak unvonga sazovor bo'ldi. Abduxoliq Xursandovning bevosita rahbarligida 200 dan ziyod xalq qo'shiqlari qayta tiklandi va tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

Shuningdek, jamoaning faol qatnashchilari: Chorshanba Boboqulov, Sayyora Qosimova, To'lqin Abdurahmonov, Salom Rahmonov, To'ra Dolhonov, Hamro Haydarov, Ismoil Jumaev, Davron va Bahriddin Qurbonov, Naim Oripov, Rizqi Ravshanov kabi xalq ijodiyoti fidoyilari mahorati tufayli «Boysun» boshqa ansambllar qatorida o'ziga munosib o'rin oldi. Hozirgi kunda ansambl yoshlar hisobiga kengayib, ijro mohiyatini yanada oshirmoqda.

Boysun tumanida har uch oilaning biri san'atkor hisoblanadi. Xalq san'atini sevish, uni asrab-avaylab, to'laligicha saqlagan holda o'z vorislariga etkazish ularning kundalik turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan. «Boysun» qo'shiqlari shaloladay tiniqligi, tog'larday mag'rur va purviqorligi, chashma suviday jo'shqinligi, odamlarday sodda va samimiyligi bilan xalq qalbidan yanada teran joy olishining boisi ham shu.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. "Boysun" jamoasining ijro san'ati haqida ma'lumot bering.
2. "Beshqarsak" jamoasining tarixiy asoslari va rviojlanish bosqichlari haqida so'zlab bering.
3. "Chavqi" ansambilining urf-odat va marosimlar bilan bog'liqligini tafsiflang.

**Topshiriqlar.**

1. O'zbek folklor ijro san'atining jamoaviy marosimlardagi o'rnini izohlang.
2. O'zbek folklor ijro san'atining turlari haqida prezentatsiya tayyorlang.

## "MOHI SITORA" FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI TARIXI VA IJROSINING AN'ANAVIYLIGI

***Reja***

1. ***"Mohi sitora" folklor-etnografik ansamblining yaratilish tarixi.***
2. ***Ansamblning shakllanishida Oliyaxon Hasanovaning o'rni.***
3. ***"Mohi sitora" ansamblining ijrochilik mahoratini an'anaviyligi.***
4. ***Ansambl dasturidagi folklor ijro san'atini yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.***



Jahondagi eng qadimgi shaharlardan biri Buxoro o'zining hayratga soluvchi bebaho moddiy yodgorliklari bilangina emas, balki ma'naviy olami - nafis, betakror san'ati bilan ham qadimdan mashhur va manzur. Darvoqe, odamga olam-olam quvonch, shodlik baxsh etuvchi, uning ruhiga o'zgacha ta'sir qiluvchi, qalbini larzaga soluvchi "Shashmaqom"i, adabiyot va san'at hamda og'zaki ijod namunalari, dilrabo raqslari azaldan kishilarni maftun etib kelganligi ayon. Buxoro san'ati - moddiy yodgorliklari-yu, ma'naviy boyliklari o'zlarining ilk poydevoridan boshlab, do'st-birodarlik asosiga qurilgan, zamonaviy ibora bilan aytganda qon-qardoshlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan. Darhaqiqat, nodir yodgorliklarga birinchi bor tosh qo'yishda ham adabiyot, san'at va ilm-fan rivoji-yu, moddiy va ma'naviy madaniyatning boshqa jabhalari ravnaqida nafaqat buxoroliklar qatnashgan, balki boshqa millat, boshqa mazhab kishilari ham faol ishtirok etganlar. Bu erda qalblar-qalblarga, dillar-dillarga tutashib, taqdirlar-taqdirlarga qo'shilib ketgan. Shu boisdan ham Buxoro kishilar do'st-birodarlik timsoli, ota-bobolarimizdan qolgan birodarlik yodgorligi, qon-qardoshlik maskani deb atalishi mumkin. Bu joyni muqaddas dargoh deb hisoblab, unga talpinishning, sog'inishning boisi ham ana shundadir.

Moddiy va ma'naviy yodgorliklarda bo'lganidek, qadimiy kuy-qo'shiklar, raqslarni ko'z qorachig'idek saqlab qolishda, ularni asrab-avaylab avlodlardan-avlodlarga etkazib meros sifatida qoldirishda kshp yillardan beri faoliyat yuritayotgan «Mohi sitora» ansamblining alohida o'rni bor. Hozirgi kunda har tomonlama shakllangan, repertuari puxta va boy, musiqa, raqs, libos, qiyofa, ijroda folklor-etnografik ansambl oldiga qo'yilgan talablarga javob bera oluvchi bu ansambl chiqishlarini ko'rganda ko'ngilga orom, dilga zavq baxsh etuvchi kuy-qo'shiqlaridan hayratga tushmagan, u ko'rsatgan folklor-etnografik lavhalar, ko'rinishlardan rohatlanmagan kishi kam topiladi. "Mohi sitora" xalq ijodining o'ziga xos jozibasi-yu, ma'naviy kamolotini, zamonga hamnafasligi-yu nafosatini tarannum etib kelmoqda. Buxoro folklor san'atini o'tmish madaniy merosi bilan uyg'unlashtirgan holda rang-barang dastur yaratgan. «Mohi sitora» ilk qadamlaridayoq muxlislar orttirganligi tufayli obro', shon-shuhrat ham tez keldi. Buni anglamok uchun ansambl repertuarini ko'zdan kechirmok, ijrosini kuzatmok, shuningdek har bir a'zosining qalbiga chuqurroq nazar tashlamok lozim. Zero, har qanday ansambl qiyofasini, dastavval uning repertuari, uning

yo'nalishi, ijro usuli, mahorati, ramziy vositalardan qay darajada foydalana bilishi, xalq ichiga kirib uning qalbidan qanchalik joy olgani, zamon bilan qanchalik hamkorligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda «Mohi sitora» folklor-etnografik ansamblining faoliyati ibratlidir.

Jamoaning shuhrat qozonishi, badiiy salohiyatini oshirishga Tamara Toshboyeva, folklorshunos olima Saodat Yuldoshyevalar jamoaning harakat qildilar. Ulardan nazariy hamda amaliy maslahatlar olgan ansambl katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. «Mohi sitora» ansamblining asoschilari T.Toshboyeva va S.Yo'ldoshyevalar o'z navbatida o'zlarining qimmatli maslahatlari va vaqtlarini ayamadilar. Natijada «Mohi sitora» shuhrati nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoga yoyildi. Ansambl doimo izlanishda, ijro jaroyoni badiiy jihatdan shakllanishda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, bastakor Orif Otayevning xizmatlari katta bo'ldi. Asta-sekin «Mohi sitora» respublikaga, Markaziy Osiyo va jahonga tanila boshladilar.

«Mohi sitora» ansamblining ishtirokchilari turli yosh va kasb egalaridan iborat. Bular madaniyat xodimlari, uy bekalari, maktab o'qituvchilari, keksa avlod vakillaridir. Jamoa dasturidan joy olgan xalq qo'shiqlari va raqslarida Buxoro xalqining o'tmishi, buguni va ertasining istiqboli namoyon etiladi.

Hozirgi kunda ansambl repertuarida 200 dan ziyod xalq qo'shiqlari, kuylari hamda raqslari o'rin olgan bo'lib, ularda qadimiy Buxoro san'atining uslubiy jozibasi mukammal saqlangan. Jamoa tarkibida samarali ijod qilib kelayotgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Nishon Otamurodov, iste'dodli san'atkorlar Husen Kozimov, Fozil Sharipov, Bog'dagul To'rayeva, Olim Bozorov, Manzura Kenjayeva, Sharofat Jumayeva, Alloma Ro'ziyeva, Muazzam Sa'dullayeva, Gulnora To'laganovalar ijro etadigan "Mohi Buxoro", "Nog'ora", "Qayroq", "Zang", "Yor omad", "Uf dilam", "Chorzarb", "Orzu", "Murg'ak", "Jon Hasanjon", "Ko'zlarim senga mudom", "Begimjon", "Sebak", "Jamlagi tillodan qizgina", "Sumalak kabi" hayotiy qo'shiqlar, jozibali raqslarda Buxoro xalqi ijro san'ati sahifalari, bugungi va ertasining istiqboli namoyon bo'ladi.

«Mohi sitora» jamoasi viloyatda tashkil kilinadigan barcha madaniy-ommaviy va xayriya tadbirlarining doimiy ishtirokchilaridan hisoblanadi. Jamoaning sahnaga chiqishi xalq amaliy san'atining ko'rgazmasi desa bo'ladi. Qatnashchilarning buxorocha zardo'zi ko'ylaklari, qadimiy bichuvdagi liboslari, do'ppilar xalqimizning boy



nomoddiy madaniy merosi va ma'naviy dunyosini ko'z o'ngimizda gavdalantiradi.

«Mohi sitora» ansambli o'tgan yillarda qator qardosh respublikalar shaharlarida qatnashib, nufuzli o'rin sohibi bo'ldi. «Orazibon», «Boysun», «Chavqi» kabi o'zbek folklor-etnografik ansambllari qatoridan joy olib, zo'r muvoffaqiyat qozonib, ishtirokchilarida juda katta taassurotlar qoldirdi. xalqaro folklor festivallarida muvaffaqiyatli qatnashganligi uchun «Mohi sitora» folklor-etnografik ansambli yuksak diplom, sovrin hamda esdalik nishonlari bilan taqdirlandi.

Yosh avlodni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashdagi faol xizmatlari, dasturining yuksak badiiy-g'oyaviy saviyasi hamda ijrochilik mahorati uchun Buxoro shahar madaniyat uyi qoshidagi «Mohi sitora» folklor-etnografik ansambliga Madaniyat vazirligi yig'ilishining 1988 yil 26 fevraldagi 2/6 sonli qaroriga binoan «Xalq havaskorlik badiiy jamoasi» unvoni berildi.

Ansambl rahbari Oliyaxon Hasanovaning sa'y-harakatlari tufayli «Mohi sitora» jamoasi Buxoroda «Mavrigixonlik», demak «Shavod», «Sarxona», «Miyonxona», «Gardon», «Chorzarbni» kabi Buxoro xalq termalarini o'zlashtirdi. Ma'lumki, «Mavrigi» asosan buxoroliklar o'rtasida vujudga kelib, uzoq asrlar davomida ijro etib kelingan qo'shiqlar turkumi sanaladi. U qo'shiq va raqslardan tashkil topgan go'zal ohanglar majmuasi bo'lib, buxoroliklarning ijrochilik mahoratini va ijro xususiyatlarini namoyon etadi.

«Mavrigi» iborasi Buxoroga Xurosonning har joylaridan ko'chib kelgan, ayniqsa Mavriylik (hozirgi Turkmanistonning Mari shahri) eroniylariga taalluqli bo'lgan «mavriy» so'zidan kelib chiqqan. Eroniylarning musiqiy ijodiyoti buxoroliklar orasida keng tarqalib, mahalliy madaniyatlarning ta'sirida o'zgarishlar kasb etgan. Natijada Buxoro folklor ijro san'atining shakllarini yangi oqim barpo etildi.

«Mavrigi» - Buxoroda XIX va XX asr boshlarida rivoj topgan qadimiy xalq qo'shiqlari silsilasi bo'lib, asosan doira jo'rligida ijro etiladi. U Shahd (boshlanish), Taraqqiyot (rivojlanish) va Pirovard (tugun) kabi davr(qism)lardan iboratdir. Davrdan davrga o'tish qismlari esa o'zaro uzviy zanjir sifatidagi bog'lanishga ega.

«Shahd» davrida ijro etiladigan qo'shiqlar asosan mungli nola bilan boshlanib, so'ngra erkin usulda ijro etiladi. Bu qo'shiqlar o'zining ichki maqomiga ega bo'lib, go'yo bir jajji dostondek. Bunda lirik va dramatik janrlar uyg'unligi namoyon etiladi. «Shahd» ila ruhiy

kamolga erishishga imkoniyat yaratiladi. Qo'shiqlarning avval ohista, so'ngra biroz ko'tarinki ruh bilan ijro etilishi ruhiy parvozga boshlaydi.

Tarraqiyot: bu davr – badiiy kompozitsiyali ko'rinish bo'lib, unda rang-barang ruhiy holatlar almashinib, ijroda shiddat kasb etadi. Bu qo'shiqlar tizimi qisqa (maydaxoni) bo'lib, ichki va tashqi maqomi jihatdan xilma-xildir. U inson qalbini zavqlantirib, ruhiy poklanishga chorlaydi.

Pirovard: bu yakuniy davr ijroning eng yuqori avjidir. Bunda insonning ruhiy olami tarannum etiladi. Olami sag'ir (inson) ruhiy holati olami kabir (koinot) uzra sayohat qilib, o'zaro uyg'unlikka erishadi. Qalb qo'zi ochilib, ilohiy ishq jozibasi paydo bo'ladi.

O'zining mazmunli va serqirra dasturi bilan «Mohi sitora» mavrigi ijrochilik san'atini tashabbuskori sifatida yangicha talqinda turli xil konsert va festivallarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egalladi. Shuningdek, sobiq Ittifoq davrida Moskvada o'tkaziladaigan Butunittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasida, O'zbekiston kunlari tantanalarida o'z mahoratini namoyish etib, katta olqishlar va qimmatbaho mukofot va sovrinlarga sazovor bo'ldi.

1988 yil Oliyaxon opa va uning «Mohi sitora» folklor-etnografik jamoasi uchun behad qutlug' yil keldi. Jamoa Rossiyaning Moskva shahrida o'tkazilgan Xalqaro folklor festivalida qardosh va jahonning 21 mamlakatida kelgan san'atkorlar bilan bir qatorda ishtirok etib o'z san'atlarini namoyish etdilar. Natijada jamoa diplom va esdalik medali bilan mukofotlandilar.

1991 yilda jamoa sardori Oliyaxon Hasanovaga «Madaniyat a'lochisi» unvoni berildi. Bu yutuqlar jamoa ijrosidagi Buxoroning zamonaviy va qadimiy folklor san'atining o'ziga xos uslubda ijro etib kelinganligidir. Ayniqsa, Oliyaxon opa tomonidan ijro etilgan har bir qo'shiq, raqs, kiyim munosibligida namoyish etilganligi, tinglovchi qalbiga tez etib borishidadir.

«Mohi sitora» jamoasi o'ziga xos uslubi va repertuariga ega. Ansamblning xalq orasida ommalashib, obru-e'tiborga ega bo'lishida jamoa rahbari Oliyaxon Hasanovaning xizmatlari cheksiz.

Buxoroga kelgan turli chet el delegatsiyalari, aziz mehmonlari «Mohi sitora» dasturini chetlab o'tmaydi. Jamoa konsert dasturini tomosha qilgan Hindistonning mashhur kinoyulduzi Raj Kapur ham «Mohi sitora» dasturini tomosha qilib, ijro mahoratiga tasanno aytgan. Buxoro san'atining noyob bir go'zalligidan hayratlangan Raj Kapur jamoani mo''jizalar makoni – Hindiston diyoriga taklif etgan.



Oliyaxon Hasanova jamoasi dasturida Buxoroning o'ziga xos udum va marosimlarini kiritgan. Ayniqsa, «Kelinsalom», «Kuyovsalom», «Xinabandon», «Beshik to'yi», "Mmuchal to'yi" marosimlari jamoa tomonidan mahorat bilan ijro etilgan. Ular ijro uslubining qadimiyligi, badiiy talqin ijrosi har qanday tomoshabinni sehrlab, hayratga soladi. Buxoroning milliy urf-odatni, an'analarini, marosim va udumlarini hayotga tatbiq etib, yaxlitligini saqlab qolishda «Mohi sitora» folklor-etnografik jamoasi xayrli ishlarni amalga oshirmokda.

Dunyoda inson zoti borki, uning yuragida musiqa, qo'shiq va raqsga moyilligi bo'ladi. Sehrli ohanglar og'ushida zavqlanadi. Ma'naviy barkamollikka erishadi. Ayniqsa, millati, e'tiqodi turish-turmushi turlicha bo'lgan qaysi bir xalqka qaramang, uning yuragida san'atga, o'yin-kulguga oshuftalik tuyg'usini his etish mumkin.

Ana shunday san'atga oshuftalik tuyg'usi bilan oshno bo'lganlardan biri Amerikalik yosh san'atkorlar Teravis Teresu Meralxonimdir. U Oliyaxon Hasanova huzuriga kelib Buxoro raqs san'ati sirlarini puxta o'rganishga jazm etdi. Ustoz va shogird hamkorligida mashqlar ikki yarim oy davom etdi. Mehmon Oliya opadan Buxoro raqslari bilan birga, o'zbek xalqining mumtoz raqslarini, ya'ni «Munojot», «Savti munojot», Buxorocha usuldagi qayroq nog'ora, zang, mavrigixonlikni o'rgandi. Mehmon ustoziga «Raqs san'atining guli» deb baho berdi. O'rganganlarini Amerika xalqiga namoyish etib olqish va tahsinlarga sazovor bo'ldi.

Ansamblning repertuari rang-barang, g'oyaviy yuksak va badiiy mukammal asarlarga boy. Uning repertuarida Buxoroning qadimgi va zamonaviy folklorining eng yaxshi namunalari saralab olingan. Buxoroning san'ati nechog'li boy, betakror va dunyo qadar qadimiy ekanligini qishloqma-qishloq, mahallama-mahalla yurib, izlanishlar olib borganimizda yana ham chuqurroq his etdim, - deydi Oliyaxon Hasanova. – Xalqimiz san'at shaydosi va fidoyisi. U ota-bobolarimiz, buvijonlarimiz Buxoroning eng qadimiy-mavrchada ijro etilishi, laparlarini hamon unutmay, sevib, ardoqlab kuylab kelmoqda.

Darhaqiqat, «Mohi sitora» Buxoro xalq og'zaki ijodini mukammal o'zlashtirib olish, uning o'ziga xos nafosat, go'zal qirralarini dildan his etish ustida ko'p izlanishlar olib bordi. «Mohi sitora»ning boshqa hududlardan shu tipdagi folklor- etnografik ansamblldardan farqi, o'ziga xos tomoni shundaki, uning repertuaridagi xalq ijodidan namunalar, ya'ni qo'shiqlar, raqslar, laparlar, muxammaslar ham ko'plab uchraydi.

Shu nuqtai nazardan «Mohi sitora» qo'shiq, kuy, raqs va kiyim-kechakda ramziy, zullisonayn, ya'ni ikki tilli, boshqacha aytganda shiru-shakar ansambldir. «Mohi sitora» jamoasi ijrosida xoh o'zbekcha, xoh tojikcha qo'shiqlar, kuylar tinglar ekansiz, raqslar tomosha qilar ekansiz, har ikki xalqning o'tmish hayoti manzaralarini ko'rib turganday, dard-alamlari, tashvish-nadomatlarini eshitganday his qilasiz. Ayni chog'da, bu kuy-qo'shiqlarda raqslarda bugungi kunning tarovati, istiqlolimizning istiqboli, mazmundoligi-yu, o'z jozibasi tarannum etilayotganining shohidi bo'lasiz.

Buning uchun ansambl repertuaridagi «Mohi Buxoro», «Nog'ora, qayroq, zang», «Ushtur bacha mond», «Yor omadu», «Uf dilam», «Chorb zarb», «Orzu», «Shart», «Miyon xona», «Chashmohi siyoh», «Murgak», «Gula burudam da giram», «Erakam dar xob bedorast», «Jon modarakam», «Yallo, yallo, yallo», «Oromijon biyo», «Buxorocha mavrigi», «Gardon», «1-sarxona, 3-sarxona, «Ayladi», «Yallali bobo, yalalum», «Ey, nozanin», «Hasanjon», "Begimjon», «Rafti-naguftі», «Mehnat bilan», «Olg'a bos» kabi qo'shiqlarni tinglash etarli. Ayniqsa, sahnalashtirilgan buxorocha to'ylar, kelin uzatish, beshik to'yi marosimlarini o'yin, ashula, vositasida ko'rsatishlari, ular tarkibidagi kuy-qo'shiq, raqslarning tematikasi, ijro uslubi hamda qadimiy Buxoro xalq ijodi, etnografiyasi va san'atini o'zida mujassamlashtirgani bilan har qancha tahsinga sazovordir.

«Salomnoma» yor-yori bilan boshlanuvchi dastur «SHoad-sarxoniy», «Chorzarb», «Mavrigiy», «Miyonxoniy», «Qayrok» va «Zang» uyinlari, doira-yu nog'ora sadolari jo'rligida juda jozibali, chiroyli va mazmunli talqin etiladi.

«Mohi sitora»ning qiyofasini belgilovchi, uni tom ma'nodagi folklor-etnografik ansambl ekanligini ta'minlovchi omillar mavjud. Ma'lumki, Buxoroning qadimgi qiyofasini ham, hozirgi hayotini ham kashtalarsiz, ularning qilni qirq yoruvchi nozik, nafis, ammo juda katta mahorat, mehnat, zukkolik va uquvni talab qiluvchi zardo'zliksiz tasavvur kilib bo'lmaydi. «Mohi sitora» jamoasi masalaning ana shu nozik qirralarigacha e'tibor bergan. Balki ana shunday kiyim tanlashiga ansambl rahbari Oliyaxon Hasanovaning uzoq yillar davomida Buxoro zardo'zlik fabrikasida ishlagani, bu qadimiy san'atga bo'lgan cheksiz muhabbati ham sabab bo'lgandir. Opa o'z qo'li bilan yaratilgan va uyda saqlanayotgan zardo'zlik buyumlarining bir qismini Buxoro shahar muzeyiga takdim etgan.



Ansambl liboslari o'zining milliy ko'rinishi, favqulodda bezakdorligi, jimjimadorligi bilan ajralib turadi, Buxorocha uslubdagi zarbof ko'ylaklar, peshbandlar rang-barang matolardan tayyorlangan bo'lib, ular bu voha an'anasiga mos zardo'zlik amaliy san'at namunalari hisoblanadi.

E'tiborga molik tomonlardan yana biri shundaki, «Mohi sitora»ning san'atsevar, fidoyi, mehnatsevar jamoasining har bir a'zosi o'z repertuarini boyitish, ijrochilik mahoratini mukammallashtirib borish ustida bosh qotiradi, tinim bilmay izlanishda bo'ladi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi Buxoro folklor qo'shiq va raqslarining mohir ijrochisi, iste'dodli san'atkor Oliya opa Hasanova tashabbusi bilan qadimiy Buxoro yo'lida ijro etiladigan "Mavrigi" turkumidagi unutilib borilayotgan xalq qo'shiqlarini maromiga etkazib ijro etadigan jamoa – "Mohi Sitora" xalq ansambli tashkil etilganiga chorak asrdan ko'proq vaqt o'tdi. Ansambl o'z ijodiy faoliyati davrida xalqimizning ma'naviy-estetik qarashlarini o'ziga xos tarzda badiiy talqin etdi, milliy qadriyatlarimizning eng yashovchan, qadimiy, ardoqli qatlami sanalmish xalq og'zaki ijodiyoti asarlarini mahorat bilan etkazib ijro etdi va minglab muxlislar olqishiga sazovar bo'ldi.

Jonkuyar Oliya opa Hasanova hayotlik vaqtida badiiy jamoaning faqat buguni emas, ertasi haqida ham qayg'urdi. U kishi sevimli ustozlari Buxoro musiqiy folklorining yirik namoyondosi Tuhfaxon Pinxasova, Buxoro doirachilar maktabi asoschisi, ustoz Haydar Shodiyev, xalq qo'shiqlari bilimdoni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Orif Otayev, taniqli mavrigixon san'atkor Ma'di Ibodovalar nomlarini alohida hurmat-ehtirom bilan tilga olib, ulardan olgan saboqlarini, o'rgangan nodir san'at namunalarini yanada sayqallashtirib o'z shogirdlariga bajonidil o'rgatib keldi.

Bugunga qadar, jamoa O'zbekiston, Rossiya, Turkmaniston respublikalari televidenielari orqali 30 ga yaqin chiqishlar qilgan. Ansambl jamoasi "Sehrli olma" ("Qozoqfilm" 1986), "Buxoro ertaklari" ("O'zbekfilm" 1988), "Yo'l bo'lsin" ("O'zbekfilm" 2000), "Buxoro yodgorliklari" kabi filmlarda ishtirok etgan. "Mohi sitora" folklor-etnografik xalq ansamblining ijodiy faoliyati "Guliston", "Saodat", "O'zbekiston san'ati" jurnallari, "Buxoro sharq durdonasi" (Toshkent 1997), "Folklor-etnografik jamoalari uslubiyoti" (S.Yo'ldoshyeva 1999), "Xalq urf-odatlari va an'analari" (S.Yo'ldoshyeva 2003), "Olami bekamar raqsi tojik" (N.Nurjonov, 2004), "Folklor kiyimlari va

bezaklar" (S.Yo'ldoshyeva, S.Davlatova, G.Sattorova, 2007), "Folklor etnografik ansambllari" (S.Yo'ldoshyeva, G.Sattorova, 2007), "Folklor musiqa ijrochiligi" (N.Qosimov, 2008) va boshqa bir qator nashriyotlarda keng yoritilgan.

Bugungi kunda ham «Mohi sitora» ansambli o'zining rang-barang dasturlari bilan respublika televideniyasining «Ostonasi tillodan», «Oltin beshik» ko'rsatuvlarida faol ishtirok etmoqda. Quvonarlisi shuki, bugungi kunga kelib ustozning shogirdlari bilan qatorda qizi Sharifaxon Majidova va nevarasi Shuhrat Majidovlar Oliyaxon opaning ishini davom ettirib, "Mohi sitora" xalq jamoasining yanada yuksak ijodiy cho'qqilarni zabt etishiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Mohir raqqosa, milliy udum va marosimlar, urf-odatlar bilimini puxta egallagan Sharifa opa ansamblga rahbarlik qilib, uning repertuarini boyitishda tinmay izlanmoqda. Shuhratjon esa buvisidan o'rgangan xalq termalari, qo'shiqlarni mahorat bilan ijro etib, o'z muxlislariga ega bo'lgan yosh xonanda. Ustozning ana shunday izdoshlari bor ekan, san'ati va ijodi xalq mulkiga aylangan "Mohi sitora"ning kelajagi yorug', umri hamisha boqiy bo'lishiga ishonamiz.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1."Mohi sitora" ansamblining taraqqiyot bosqichlari haqida ma'lumot bering.
2.Ansambl ijro usullarining rang-barangligi va o'ziga xosligi haqida so'zlab bering.
3.Ansamblni tashkil etishda ishtirok etgan tashabbuskor ustazodalar haqida ma'lumot bering.

**Topshiriqlar.**

1."Mohi sitora" ansamblining ijrosining an'ana va marosim bilan bog'liqligini aniqlang.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**


1. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. Toshkent, "O'zbekiston", 2015.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustakillikka erishish ostonasida. Toshkent, «O'zbekiston». 2011.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent, «O'zbekiston». 2008.
4. Karimov I.A.. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. «O'zbekiston». 2000.
5. Abdullayev U.S. Farg'ona vodiysidagi etnoslararo jarayonlar. Toshkent, 2005.
6. T. Mirzayev. Ephos I skazitel. Toshkent,. "Fan"2008
7. T. Mirzayev «Алпомиш» достонинг ўзбек варинтлари", 1968
8. T. Mirzayev Берди бахши репертуарига таалуқли «Алпомиш» достони, 1969
9. Т.Мирзаев «Халқ бахшиларнинг эпик репертуари», 1979
10. Abdullayev R.S. Obryad i muzika v kontekste kulturi Uzbekistana i Sentralnoy Azii. Tashkent, 2006.
11. S. Yo'ldoshyeva. Xalq an'ana va marosimlari. «Ma'naviyat», 2003.
12. S.Yo'ldosheva. Barhayot an'analar. 1990.
13. S.Yo'ldosheva. Xalq urf-odatlari va an'analari. «Ijod dunyosi». 2003.
14. S.Yo'ldosheva. Folklor-etnografik jamoalar uslubiyoti.O'quv qo'llanma. "Navro'z" 2014
15. Ashirov A. Milliy marosimlar – ma'naviy boyligimiz // Nomoddiy madaniy merosni ta'lim tizimiga tadbiq etish. Toshkent, "Navro'z",2015. B. 16-22.
16. Ashirov.A. Etnologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent,. "Yangi nashr" 2014.
17. Ashirov A.A., Sarimsoqov A.A. Farg'ona vodiysi o'zbeklarining dehqonchilik bilan bog'liq marosimlari va urf-odatlari. //O'zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar. Toshkent, 2006. B. 98-105.
18. Ashirov A.A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Toshkent, 2007.
19. Basilov V.N. Shamanstvo u narodov Sredney Azii i Kazaxstana. M., 1992.
20. O. Safarov. O'zbek bolalar folklori. «O'qituvchi». 1986.
21. M.Jurayev. O'zbek xalq samovaniy afsonalari. «Fan». 1995.
22. M.Jurayev. O'zbek xalq mifologik afsonalar. «Fan». 1994.
23. Alpomish-o'zbek xalq qahramonlik eposi. «Fan». 1999.
24. M.Alaviya. O'zbek xalq qo'shiqlari. «Fan». 1974.
25. S.Yo'ldoshyeva., S.Davlatova., G.Sattorova Folklor kiyimlari va bezaklari. "Talqin". 2007.
26. S.Yo'ldoshyeva., G.Sattorova. Folklor-etnografik ansambllari. "O'qituvchi". 2007.

27. Borozna N.G. Materialnaya kultura uzbekov Babataga i Kafirnigana. // Materialnaya kultura narodov Sredney Azii i Kazaxstana. M., 1966. S. 91 – 110.
28. Bo'riyev O. Navro'z tarixidan lavhalar. Toshkent, 1990.
29. Bo'riyev O. O'zbek xalqining boqiy qadriyatlari. Qarshi, 2005.
30. Burxan ad-din al-Marginani. Xidaya al-furu' (na arabskom yaz.). Kazan, 1906. Tom. 1.
31. Gorshunova O.V. Jenskoe palomnichestvo k svyatim mestam (po materialam Ferganskoy dolini) // Itogi polevix issledovaniy IEA RAN. M., 2000. S.23 - 39.
32. Djabbarov I.M. Uzbeki: (Etnokulturnie traditsii, bit i obraz jizni). Tashkent, 2007.
33. Ismoilov H. An'anaviy o'zbek kiyimlari (XIX asr oxiri - XX asr boshi). Toshkent, 1979.
34. Jabbor Eshonqul. Epik tafakkur tadriji.-Toshkent: Fan, 2006-124 b.
35. Jabbor Eshonqul. "Alpomish" dostonining izohli lug'ati.-Toshkent: Elmus –Media Press, 2007. 220 b.
36. Jabbor Eshonqul. Oychinor. O'zbek xalq dostoni.-Anqara, TDK? 2007. 410 b.
37. Jabbor Eshonqul. Malika Ayyor. O'zbek xalq dostoni.-Anqara, TDK, 2008. 380 b.
38. Jabbor Eshonqul. Ozbek halk Edebiyati bibliograaiyasi.- Izmir, 2009.- 196 s.
39. Jabbor Eshonqul. Navro'z qo'shiqlari. Tadqiqot - majmua. -Toshkent: O'zbekiston , 2011. - 120 b.
40. .Jabbor Eshonqul. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqinlari. - Toshkent: Fan, 2012. - 310 b.
41. Korogli X.G. Oguzskiy geroicheskiy epos. M., 1976.
42. Koshg'ariyM. Devonu lug'atit turk. T., 1963.3 jild.
43. Lobachyeva N.P. Formirovanie novoy obryadnosti uzbekov. M., 1975.
44. Murodova M. Folklor va etnografiya.-Toshkent.-Aloqachi, 2008.
45. Murodova M. Особенности узбекских фольклорных свадебных ритуалов. Санк-Петербург, 2012.
46. Murodova M. Zerefsan Vadisi O'zbeklerinde Dugun Gelenkleri ve Dugunlerde Icra Edilen Turkuler. Turk Dunyasi Incelemeleri Dergisi. Ege Universitesi /Journal of Turkish World Studies, XIV/2 (Kis 2014), Turkiya, 2014.
47. Murodova M. Xalq ijodiyoti. – Toshkent. – "O'zbekiston", 2015.
48. Murodova M. Своеобразие узбекских свадебных обрядовых песен бракосочетаний Зарафшанской долины. Шымкент. 2015
49. Pesherova E.M Prazdnik tyulpana (lola) v selenii Isfara Kokandskogo uezda // V.V.Bartoldu – turkestanskie druzya, ucheniki i pochitateli. Tashkent, 1927. S. 374 – 384
50. Pesherova E.M. Nekotorie dopolneniya k opisaniyu prazdnika tyulpana v Ferganskoy doline // Iranskiy sbornik. K 75-letiyu professora I.I.Zarubina. Moskva, 1963. S. 214 – 218



51. Rtveladze E.V. Navruz – prazdnik schastya i blagodenstviya // Exo istorii. 2003. № 1. S. 14 – 17.
52. Sarimsoqov B., Turdimov Sh. Elimizning qadimiy bayrami // Yoshlik.1990. № 3. B. 34–35.
53. Seleznyev A.G., Selezneva I.A. Religiozniy sinkretizm, narodniy islam, regionalnie kulti (teoreticheskie zametki) // Narodnaya kultura: lichnost, tvorchestvo, dosug. Omsk, 2003. S.80 – 82.
54. Snesaryev G.P. K voprosu o proisxojdenii prazdnestva sunnat toy v ego sredneaziatskom variante // Zanyatiya i bit narodov Sredney Azii. L., 1971. T. III. S. 256 - 273.
55. Snesaryev G.P. Xorezmskie legendi kak istochnik po istorii religioznix kultov Sredney Azii. M., 1983.
56. Sovremennie etnokulturnie protsessi v maxallyax Tashkenta. Tashkent, 2005.
57. Sovremennie etnosotsialnie protsessi na sele. M., 1986.
58. Sodiqova N. O'zbek milliy kiyimlari XIX - XX asrlar. Toshkent, 2006.
59. Toshkent mahallalari: an'analar va zamonaviylik. Toshkent, 2002.
60. O'rayeva D. O'zbek motam marosimlari folklori. Toshkent, 2004.
61. Xamrayev A.X. Prazdnik «krasnoy rozi» u uzbekov // ONU. Tashkent, 1958. № 6. S. 72 – 73.
62. Xudoyar-xan N. Nekotorie obichai i sueveriya u sartov, svyazannie s rojdeniem rebenka // EO. 1909. № 1. S. 37–39.
63. Shaniyazov K.Sh. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda. Tashkent, 1974.
64. Shaniyazov K.Sh., Ismailov X. Etnograficheskie ocherki materialnoy kulturi uzbekov konsa XIX – nachala XX vv. Tashkent, 1981.
65. Shoniyozov K.Sh. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. Toshkent, 2001.
66. O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. Toshkent, 1997.
67. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. - Toshkent, 2006-2008.
68. O'zbekiston islom obidalari. Fotoalbom. Toshkent, 2002.
69. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. Toshkent, 2002

**B.Sayfullayev, S.Yo'ldoshyeva,**

**J.Eshonqulov, A.Ashirov, O'.Toshmatov**

# NOMODDIY MADANIY MEROS VA FOLKLOR IJRO SAN'ATI AN'ANALARI

**O'quv qo'llanma**

Sahifalovchi va texnik muharrir: **Shohruxmirzo Ro'ziyev**

Muharrir: **Olimjon Abdullayev**

Bichimi 60x84$^{1}/_{16}$. Rizograf bosma usuli. Times garniturasi.
Shartli bosma tabog'i:11,25. Adadi 200. Buyurtma № 38.
Bahosi kelishilgan narxda.

«O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi» bosmaxonasida chop etilgan.
Bosmaxona manzili: 100170, Toshkent sh., Ziyolilar ko'chasi, 13-uy.